



ISSN 2181-6833

# PEDAGOGIK MAHORAT

3-4  
2022



ISSN 2181-6883

# PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**3-4-son (2022-yil, avgust)**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2022**

## PEDAGOGIK MAHORAT

### Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2022, № 3-4

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruruiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

**Muassis:** Buxoro davlat universiteti

**Tahririyat manzili:** 200117, O‘zbekiston Respublikasi,Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy  
Elektron manzil: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

#### TAHRIR HAY’ATI:

**Bosh muharrir:** Adizov Baxtiyor Rahmonovich— pedagogika fanlari doktori, professor

**Mas’ul kotib:** Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

*Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)*

*Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta’limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)*

*Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta’lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)*

*Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)*

*Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent*

*Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)*

*Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*

*Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor*

*O’rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor*

*Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Chariyev Irgash To’rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qurbanova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori(DSc)*

*Jumaev Rustam G’aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, dotcent.*

**ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО**  
**Научно-теоретический и методический журнал**  
**№ 3-4, 2022**

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан от 29 декабря 2016 года журнал включён в перечень изданий, рекомендованных для публикации научных результатов статей по направлениям «Педагогика» и «Психология».

Журнал основан в 2001 году

Журнал выходит 6 раз в год

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

**Учредитель: Бухарский государственный университет**

**Адрес редакции:** 200117, Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.

E-mail: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

**РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:**

**Главный редактор:** Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор

**Ответственный редактор:** Сайфуллаева Нигора Закириалиевна – доктор философии педагогических наук (PhD)

*Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук*

*Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор*

*Навруз-заде Бахтиёр Нигматович, доктор экономических наук, профессор*

*Махмудов Мэлс Хасанович, доктор педагогических наук, профессор*

*Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор*

*Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)*

*Андрисенко Елена Васильевна (Институт физико-математического, информационного и технологического образования НГПУ, Новосибирск, Россия )*

*Ромм Татьяна Александровна (Институт истории, гуманитарного, социального образования ФГБОУ ВО НГПУ, Новосибирск, Россия )*

*Чудакова Вера Петровна, кандидат психологических наук (Национальная академия педагогических наук Украины, Украина)*

*Хамроев Алижон Рузиколович, доктор педагогических наук (DSc), доцент*

*Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор*

*Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор*

*Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)*

*Таджиходжаев Закирходжа Абдулсаттарович, доктор технических наук, профессор*

*Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор*

*Ураева Дармоной Сайджановна, доктор филологических наук, профессор*

*Дурдиев Дурдимурод Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор*

*Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор*

*Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор*

*Чарив Иргаш Тураевич, доктор педагогических наук, профессор*

*Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор*

*Шомирзаев Махмутмурод Хурамович, доктор педагогических наук, профессор*

*Рузиева Дилноза Исомжоновна, доктор педагогических наук, профессор*

*Курбонова Гулноз Негматовна, доктор педагогических наук (DSc)*

*Жумаев Рустам Ганиевич, доктор философии политических наук (PhD), доцент*

*Зарипов Гулмурот Тохирович, кандидат технических наук, доцент*

## PEDAGOGICAL SKILLS

### The scientific-theoretical and methodical journal № 3-4, 2022

By the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 29, 2016, the journal was included in the list of publications recommended for publishing scientific results of articles in the areas of «**Pedagogy**» and «**Psychology**».

The journal was founded in 2001.

The journal is published 6 times a year

The journal is registered by the Bukhara Department of the Agency for Press and Mass Communication of Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

#### **Founder: Bukhara State University**

**Publish house:** 200117, Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.

E-mail: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

#### **EDITORIAL BOARD:**

**Chief Editor:** Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.

**Editor:** Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Nigora Z. Sayfullaeva

*Doctor of Economics Sciences Prof. Obidjon X. Xamidov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzokboy Sh. Begimkulov*

*Doctor of Economics Sciences, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Mels Kh. Mahmudov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holboy I.Ibragimov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Andrienko Yelena Vasilyevna (Russia)*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Romm Tatyana Aleksandrovna (Russia)*

*Candidate of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)*

*Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Doc. Alijon R. Hamroev*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof.M.Mahmudova*

*Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)*

*Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev*

*Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov*

*Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva*

*Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdumurod K. Durdiev*

*Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Irgash T. Chariev*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Dilnoza I. Ruzieva*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbanova*

*PhD in Political Sciences, Doc. Rustam G.Jumaev*

*Candidate of technical sciences, Doc. Gulmurot T. Zaripov*

**MUNDARIJA**

<b>№</b>	<b>Familiya I.Sh.</b>	<b>Mavzu</b>	<b>Bet</b>
<b>DOLZARB MAVZU</b>			
1.	<b>SOBIROVA Ch.A., ABDUSHARIPOVA F.A.</b>	Korrupsiyaning kelib chiqish tarixi, shakllari va omillari	7
<b>PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA</b>			
2.	<b>ABDULLAEVA Dilbar Zoirjon qizi</b>	Pedagogika yo‘nalishida tahsil oluvchi talaba yoshlarda dindorlikning individual strukturasi namoyon bo‘lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	11
3.	<b>KURBANOVA Gulnoz Negmatovna</b>	Pedagogik muloqot talabalar kasbiy tafakkurini rivojlantirishnining asosiy omili sifatida	17
4.	<b>DJUMANIYAZOVA Muxayya</b>	Talabalar diniy dunyoqarashining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining empirik tahlili	21
5.	<b>NABIYEVA Odina</b>	Pandemiya davrining reproduktiv yoshdagи ayollar ruhiyatiga ta’siri	26
6.	<b>KAYUMOV Oybek</b>	Interaktiv intellektual elektron ta’lim resursini yaratish jarayonini modellashtirishning metodik asoslari	31
7.	<b>SANAYEVA Surayyo</b>	Fleshmoblar – talabalarning ommaviy tadbirdorda ishtirokini ta’minalash usuli sifatida	36
8.	<b>УРАКОВ Шерзод Рахмонович</b>	Oliй таълим muассасаларида таълим сифатини ошириш педагогик муаммо сифатида	41
9.	<b>ERKINOVA Lobaroy Otamurot qizi, SABIROVA Ch.A.</b>	Bo‘lajak o‘qituvchilarda axloqiy-ma’naviy kompetensiyani rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari	48
10.	<b>РАЗЗАКОВА Райхан Сайлаубековна</b>	Oилавий ҳаётга адаптация потенциали ижтимоий-психологик тадқиқот сифатида	53
11.	<b>ARIPOVA Shaxnoza Shaaxrarovna</b>	Mustaqil ta’lim va uning motivatsion xususiyatlari	57
12.	<b>OLLABERGANNOVA Surayyo</b>	Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlarida oliy ta’lim tizimi	64
13.	<b>ANNAYEVA Nazokat</b>	Ta’lim muassasalarida gender kompetensiyasini samarali shakllantirish shartlari	67
14.	<b>АБДУСАМАТОВ Хасанбой</b>	Ўзбек олимлари томонидан миграция ва мигрант оилаларни ўрганилганлиги	70
15.	<b>ДИЛОВА Наргиза Гайбуллаевна</b>	Психологические основы подготовки будущих учителей к межличностным отношениям	75
16.	<b>АСРАНБАЕВА Муножатхон Халимжановна</b>	Шахс руҳиятида ҳавотирланиш ҳолати ва унинг намоён бўлиши	78
17.	<b>RAHIMOVA Aziza Davronbekovna</b>	Yoshlarning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini yuksaltirishda Maxtumqulining falsafiy va pedagogik asarlarining o’rni	82
18.	<b>SHERMATOV Fayzullo Toshtillaryevich</b>	Oliy harbiy ta’lim tizimidagi bo‘lajak ofitserlarning o‘quv motivasiyasining empirik taxilili: xulosa va tavsiyalar	85
19.	<b>ZARIPOV Nozimbek</b>	Informatika va axborot texnologiyalarini fanini o‘qitishda dasturlash tillarining roli	90

**МАКТАБГАЧА VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM**

20.	<i>OCHILOV Fariddun</i>	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy-ilmiy bilimlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘rgatish ijtimoiy-metodik muammo sifatida	95
21.	<i>RAHIMOVA Fazilat</i>	Nostandard masalalar mantiqiy tafakkur jarayonlarini shakllantirish va o‘stirish omili sifatida	100
22.	<i>XUDOYNAZAROV E.M.</i>	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari	102
23.	<i>SHODIYEV Narziqul Shodiyevich, NABIYEVA Dilfuza Temirovna</i>	Ulug’ ajdodlarimiz ilmiy merosi vositasida bo’lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini ma’naviy faoliyatga metodik tayyorlash	106

**FILOLOGIYA VA TILLARNI O‘QITISH**

24.	<i>ЮЛДАШЕВА Дилором, РУЗИЕВА Мадина</i>	Основные темы субстанциальной лингвистики и их преподавание	111
25.	<i>ДАВРОНОВА Фотима Пирназарова</i>	Замонавий методлар асосида хорижий тилларни ўргатишнинг методик хусусиятлари	117

**ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISH**

26.	<i>ЗОИРОВА Лола</i>	Особенности проведения урока-семинара (самостоятельной работы) методом проектов на тему: “Обеспечение радиационной безопасности в медицинских учреждениях”	121
27.	<i>ARTIKOVA G.E.</i>	9-10-sinfda “Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi” fanini pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib o‘qitishning ilmiy-metodik asoslari	127
28.	<i>БОЗОРОВ Эркин Хожиевич, АШУРОВ Жасур Джусураевич</i>	Преподавание ядерной медицины в вузах на современном этапе	134
29.	<i>ЮЛДАШОВА Шахло Тойировна</i>	Исследовательская деятельность как сфера становления клинического мышления будущего врача	137

**IQTISODIY TA’LIM VA TARBIYA**

30.	<i>САЙДКУЛОВА Фируза Фармоновна</i>	Ключевые факторы развития экономической компетенции у студентов	141
31.	<i>QUCHQOROVA Nargiza</i>	Bo‘lajak tarbiyachilarining iqtisodiy madaniyati tarkibiy qismlari	146

**JISMONIY MADANIYAT VA SPORT**

32.	<i>УТАЕВ Зафар Мухтарович</i>	Спорт воспитасида ўқувчи-ёшларга умуминсоний ғояларни сингдиришнинг педагогик имкониятлари	149
-----	-------------------------------	--	-----

## DOLZARB MAVZU

**SOBIROVA Ch.A.**

Urganch davlat universiteti

Pedagogika va psixologiya kafedrasi  
dotsenti, Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori (PhD)

**ABDUSHARIPOVA Fazilat**

Urganch davlat universiteti

Pedagogika nazariyasi va tarixi  
(faoliyat turi bo‘yicha) 1-bosqich  
magistranti

### **KORRUPSIYANING KELIB CHIQISH TARIXI, SHAKLLARI VA OMILLARI**

*Ushbu maqolada korrupsiya tushunchasi, sabablari, turlari va shakllari haqida ma’lumot berilgan. Korrupsion holatlar yuz berganda jazo muqarrarligi va qanday jazo chorralari berilishi haqida tushuncha berilgan. Korrupsiyaning oldini olish borasida President qaror va farmonlari ko‘rsatib o‘tilgan. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining tashkil topishi haqida so‘z borgan.*

**Kalit so‘zlar:** korrupsiya, agentlik, farmon, qaror, qonun, Prezident, davlat, jamiyat, ta’lim, kurashish, xalq, qonun, qaror, yuksalish, ta’lim, poraxo‘rlik, ta’magirlik, shaxs, huquq.

### **ИСТОРИЯ ВОЗНИКОВЕНИЯ, ФОРМЫ И ФАКТОРЫ КОРРУПЦИИ**

*В данной статье представлена информация о понятии, причинах, видах и формах коррупции. Представлено понимание неизбежности наказания по делам о коррупции, и указано, какие карательные меры следует применять. Упомянуты указы Президента о предупреждении коррупции. Освещено создание антикоррупционного агентства.*

**Ключевые слова:** коррупция, ведомство, указ, решение, закон, Президент, государство, общество, образование, борьба, народ, закон, решение, подъём, образование, взяточничество, жадность, личность, право.

### **HISTORY OF ORIGIN, FORMS AND FACTORS OF CORRUPTION**

*This article provides information on the concept, causes, types and forms of corruption. There is an understanding of the inevitability of punishment in cases of corruption and what punitive measures should be taken. Presidential decrees on the prevention of corruption are mentioned. There was talk of setting up an anti-corruption agency.*

**Key words:** corruption, agency, decree, decision, law, President, state, society, education, struggle, people, law, decision, rise, education, bribery, greed, personality, law.

*Korrupsiyaga toqatsizlik hayotimiz bir qismiga aylanishi kerak.*  
Sh.M. Mirziyoyev.

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasida ta’kidlaganidek, “Jamiyatimizda korrupsiya illati o‘zining turli ko‘rinishlari bilan taraqqiyotimizga g‘ov bo‘lmoqda. Bu yovuz baloning oldini olmasak, haqiqiy ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaratib bo‘lmaydi, umuman, jamiyatning birorta tarmog‘i rivojlanmaydi”.

**Asosiy qism.** Korrupsiya (lotinchadan corrumpere - buzuq, corruption - pora berish, zarar) odatda mansabdor shaxsning o‘ziga ishonib topshirilgan vakolat va huquqlaridan foydalanishni, shuningdek, ushbu rasmiy maqom bilan bog‘liq vakolat, imkoniyatlар, aloqalarni, bildiruvchi atama. Shaxsiy manfaat qonun va axloqiy tamoyillarga zid.

**Korrupsiya** - shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi, shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish [1].

Korrupsiyaning tarixiy o‘zaklari juda qadimga borib taqalib, bu hol qabilada ma’lum mavqega ega bo‘lish uchun qabila sardorlariga sovg‘alar berish odatidan kelib chiqqan deb taxmin qilinadi. O‘sha davrlarda bu normal holat sifatida qabul qilingan. Biroq davlat apparatining murakkablashuvi va markaziylashuvi korrupsiyaning davlat rivojlanishiga katta to‘siq ekanligini ko‘rsatdi [2].

**Korrupsiyaning quyidagi turlari mavjud:**

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

1. Iqtisodiy korrupsiya bu - moliyaviy foyda olishga qaratilgan. Bu turga poraxo‘rlik noqonuniy yo‘l bilan daromad olish kiradi.

2. Siyosiy korrupsiya bu - firibgarlik asosida saylovchilarga pora berish, siyosiy partiyalarni noqonuniy moliyalashtirish va saylovlarga noqonuniy aralashuv yo‘li bilan mansab vakolatini olishga qaratilgan. Bu holatda asosiy maqsad shaxsiy yoki siyosiy manfaatni qo‘lga kiritishdir.

3. Kriminalistik korrupsiya bu – ushbu turi jinoiy xatti-harakatlarga asoslangan, u ko‘pincha mansabdor shaxsning jinoiy sxemada ishtirot etishi bilan bog‘liq.

4. Tizimli korrupsiya bu – agar jinoiy harakatlar doimiy ravishda takrorlansa, korrupsiya hodisasi bir sistema kabi ya’ni tizimli ko‘rinishga keladi. Bu o‘z navbatida mamlakatdagi siyosiy jarayonlar, davlat idoralari ustidan nazorat zaiflashganidan dalolat beradi.

5. Mayda korrupsiya bu – odatda byurokratiya hamda pora bilan bog‘liq, shuning uchun ham mayda yoki byurokratik korrupsiya deb ataladi.

6. Katta korrupsiya – bu juda katta pul va yirik “o‘yinchilar” bilan bog‘liq bo‘lgan korrupsiyaning eng halokatli turi. U barcha operatsiyalarni o‘z ichiga oladi, buning natijasida davlat aktivlari noqonuniy ravishda xususiy bo‘lib qoladi. Ko‘pincha, mamlakat uchun jiddiy qarorlar bilan bog‘liq bo‘lgan siyosatchilar korrupsiya mojarosining ishtirokchisiga aylanadi.

### Korrupsiya quydagi shakllarga ajratiladi:

- tovar va xizmatlarni qonuniy va noqonuniy taqdim etish uchun pora olish;
- qarindoshlik, do‘stlik yoki shaxsiy sadoqat asosida mansabdor shaxslarni lavozimga ko‘tarishda namoyon bo‘ladigan proteksionizm;
  - boshqaruva organlari xodimlarini jinoiy tarkiblar bilan birlashtirish va jismoniy shaxslarning jinoyatlarini yashirish va ularning jazosiz qolishini ta’minalash;
  - siyosiy qo‘llab-quvvatlash yoki kuch tuzilmalaridagi lavozimlarga ko‘tarilishlari uchun yashirin iqtisodiyot mafaatlarini qo‘llab-quvvatlash;
  - xususiy korxona va tashkilotlarning davlat yoki mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan investitsiya qilish;
  - davlat mulkini xususiy qo‘llarga g‘ayriqonuniy ravishda o‘tkaish bilan xususiylashtirish;
  - mansabdor shaxslarga imtiyozlar, maxfiy rasmiy ma’lumotlarni taqdim etish;
  - foydali shartnomalar tuzish huquqini yoki imkoniyatini ta’minalash;
  - chet el firmalari va boshqalar bilan davlat uchun noqulay shartnomalar tuzishda yordam berish.

### Korrupsiyani qanday yengish mumkin:

- qonuniylikni mustahkamlash;
- fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish;
- ochiqlik va shaffoflikni oshirish;
- korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar o‘tkazish;
- javobgarlikning muqarrarligini ta’minalash.

Bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoxud besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi [3].

Korrupsiyaga oid huquqbarliklar sodir etganlik qonunchilikka muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi. Korrupsiyaga oid huquqbarlik sodir etgan shaxslar sudning qaroriga ko‘ra muayyan huquqlardan, shu jumladan, muayyan lavozimlarni egallash huquqidan qonunga muvofiq mahrum etilishi mumkin. Yuridik shaxslar korrupsiyaga oid huquqbarliklarni sodir etganlik uchun qonunda belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi. O‘zbekiston pora olish, pora berish pora, olish-berishda vositachilik qilganlik uchun maksimal jazo miqdori 10 yildan 15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish belgilangan. O‘zbekistonda o‘zlashtirish restrata yo‘li bilan talon-taroj qilganlik uchun maksimal jazo 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish etib belgilangan [4]. Har qanday ixtiyoriy vakolat bo‘lmasa, korrupsiya mumkin emas edi. Biroq oliv hokimiyatga ega bo‘lgan shaxs yoki guruh o‘zi belgilagan siyosatning amalga oshirilishini mustaqil ravishda ta’minalay olmaydi. Buning uchun, u ma’murlarni tayinlaydi, ularga kerakli vakolatlarni beradi, ularning ixtiyoriga zarur resurslarni beradi, ular uchun o‘zini tutish qoidalarni belgilaydi va ular ustidan nazorat qiladi. Amalda ko‘rsatmalar tashqi sharoitlarga qaraganda ancha sekin o‘zgaradi. Shuning uchun ular o‘z xohishlariga ko‘ra harakatlar uchun joy qoldiradilar, chunki aks holda boshqaruva tizimi butunlay moslashuvchan bo‘lib qoladi va qat‘iy normalarning haqiqatga mos kelmasligi ishni butunlay to‘xtatishi mumkin. Biroq bu shuni anglatadiki, qonunda ko‘zda tutilmagan vaziyatda ma’mur eng qulay ijara haqini boshqarishni boshlashi mumkin. Hamma narsani qamrab oluvchi nazoratning mumkin emasligi.

Davlat byudjeti, u shaffof emas va vaziyatga qarab, ba’zilari yil boshida mablag‘ olishlari mumkin, boshqalar esa – byudjet qabul qilingandan keyin ikki yil o‘tgach. Agar kim sohadan qandaydir yordam olish

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

huquqiga ega bo‘lsa, unda albatta, moliya vazirligining ushbu summalarini taqsimlovchi har qanday xodimi juda muhim raqamdir. Bu masalaning bir tomoni. Ikkinci tomoni kredit tizimi deb ataladigan narsa bilan bog‘liq. Davlat byudjetiga to‘lovlardan kredit olish, masalan, Mudofaa vazirligi yoki boshqa vazirliklardan, korrupsiya xizmatlarining ikkinchi mumkin bo‘lgan tizimidir. U yoki bu korxona, idora va hokazolarni qurish uchun buyurtma olish ham juda muhim nuqtadir. Aholidan kichik tovlamachilik, shu jumladan, kichik tadbirdorlar avtomashina haydovchilari va boshqalar. Bu mayda tovlamachiliklar ommaviy bo‘lganligi sababli, ular ehtimol ko‘p million so‘mni tashkil etib fuqarolarni davlatdan begonalashtirishga faol yordam beradi va bu hayotda hech narsaga to‘g‘ri yo‘l bilan erishib bo‘lmaydi, degan ishonchni faol shakllantiradi.

Tijorat yoki boshqa tashkilotlarda tijorat poraxo‘rligi. Korrupsiyaning bu turi kam o‘rganilgan va u doimo yomon o‘rganiladi, chunki zarur materallarni to‘lash uchun tijorat tashkilotlariga kirish aniq sabablarga ko‘ra juda cheklangan. Ushbu turdagi jinoyatning haqiqiy holatini biz bir qator bilvosita belgilari bilan taxmin qilishimiz mumkin.

### **Korrupsiya quyidagi shakllarga ajratiladi:**

- tovar va xizmatlarni qonuniy va noqonuniy taqdim etish uchun pora olish;
- qarindoshlik, do‘stlik yoki shaxsiy sadoqat asosida mansabdor shaxslarni lavozimga ko‘tarishda namoyon bo‘ladigan proteksionizm;
- boshqaruv organlari xodimlarini jinoiy tarkiblar bilan birlashtirish va jismoniy shaxslarning jinoyatlarini yashirish va ularning jazosiz qolishini ta‘minlash;
- siyosiy qo‘llab-quvvatlash yoki kuch tuzilmalaridagi lavozimlarga ko‘tarilishlari uchun yashirin iqtisodiyot mafaatlarini qo‘llab-quvvatlash;
- xususiy korxona va tashkilotlarning davlat yoki mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan investitsiya qilish;
- davlat mulkini xususiy qo‘llarga g‘ayriqonuniy ravishda o‘tkazish bilan xususiy lashtirish;
- mansabdor shaxslarga imtiyozlar, maxfiy rasmiy ma’lumotlarni taqdim etish;
- foydali shartnomalar tuzish huquqini yoki imkoniyatini ta‘minlash;
- chet el firmalari va boshqalar bilan davlat uchun noqulay shartnomalar tuzishda yordam berish.

**Muhokamalar va natijalar.** Aksilkorruptsiya agentligining so‘rovlarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha davlat siyosati, agentlik faoliyati kabi sohaga doir mavzulardan aholining xabardorlik darajasi o‘rganilgan. Qatnashchilarining asosiy qismi, ya’ni 82,4 foizi O‘zbekistonda korrupsiya, ta‘magirlik va poraxo‘rlik o‘zlari uchun o‘tkir muammo hisoblanishini aytgan. Shuningdek, 36,2 foiz respondentlar jamiyatdagi korrupsiya, tamagirlik va poraxo‘rlik hamma joyda, 37,2 foizi esa ayrim sohalarda tarqalganini ta‘kidlagan.

Deyarli 70 foiz ishtirokchilar OAV tomonidan O‘zbekistondagi korrupsiya, tamagirlik va poraxo‘rlikka qarshi kurashish yetarli darajada yoritilayotganini ta‘kidlagan bo‘lsa, 27 foizdan ortiq qatnashchilar buni rad qilgan.

Jamiyat va davlat hayotining barcha sohalarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashishga qaratilgan davlat siyosatining samaradorligini oshirish maqsadida Prezidentimizning 2020-yil 29-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni bilan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi.

Korruptsiya iqtisodiy rivojlanish uchun ham, qashshoqlikka qarshi kurash uchun ham jiddiy oqibatlarga olib keladigan hodisadir. Bundan tashqari, bu demokratik boshqaruvning asoslari va funksionalligini xavf ostiga qo‘yuvchi hodisadir. Korruptsiya so‘nggi 30 yil ichida juda ko‘p nazariy va empirik tadqiqotlar mavzusi bo‘ldi va bu juda ko‘p muqobil tushuntirishlar, tipologiyalar va davolash usullarini keltirib chiqardi. Biroq siyosatda ham, ijtimoiy fanlarda ham keng qo‘llaniladigan tushuncha sifatida korrupsiya ko‘plab kontekstlarda qo‘llaniladi.

Korruptsiyaga qarshi kurashishning ustuvor huquqiy asoslari qator xalqaro huquqiy normalarda o‘z ifodasini topgan bo‘lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- ❖ 1999-yil 4-noyabrdagi “Korruptsiyaga uchun fuqarolik huquqiy javobgarlik to‘g‘risida”gi Konvensiyalari va boshqalar;
- ❖ 1999-yil 27-yanvardagi Yevropa Kengashining “Korruptsiya uchun jinoiy javobgarlik to‘g‘risida”gi Konvensiyasi;
- ❖ 2000-yil 15-noyabrda qabul qilingan BMTning Transmilliy uyushgan jinoyatchilikka qarshi Konvensiyasi;
- ❖ 2003-yil 31-oktabrda qabul qilingan BMTning Korruptsiyaga qarshi Konvensiyasi;
- ❖ 2017-yil 3-yanvarda Yangi tahrirdagi “Korruptsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

O‘zbekiston yuqorida ta’kidlangan xalqaro normalardan 2008-yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi Konvensiyasi, shuningdek, 2010-yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida qabul qilingan Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha Istanbul Harakat rejasini ratifikatsiya qilgan.

Ta’kidlash joizki, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashish hamda ushbu turdag'i jinoyatlarni sodir etilishini oldini olishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarida korrupsiya omillarini keltirib chiqarayotgan tizimli muammolarni bartaraf etishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, amaliy hayotga tatbiq etilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-iyundagi PF-6013-soni “O‘zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilinib, mazkur Farmon asosida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatini, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarning tizimli sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish hamda korrupsiyaga qarshi kurashish choralarining samaradorligini oshirishga qaratilgan davlat va boshqa dasturlarni shakllantirish va amalga oshirish maqsadida “Korrupsiyaga qarshi kurash Agentligi” tashkil etildi.

**Xulosa** qilib shuni aytish mumkinki, korrupsiya bor bo‘lgan mamlakatda rivojlanish va taraqqiyot bo‘lmaydi. Korrupsiya jamiyat kushandasini bo‘lib, barcha sohalarda korrupsiyaga qarshi kurashish chora-tadbirlarini amalga oshirish zarurdir. Bu borada Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning Korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi qabul qilingan qaror va farmonlari bu boradagi ishlarda dasturulamal bo‘lib kelmoqda. Shu jumladan, korrupsiya qarshi kurashish agentligining tashkil topishi bu boradagi tub o‘zgarishlardan biri bo‘ldi, agentlikning maqsad va vazifalari belgilab olindi hamda o‘z faoliyatini boshladi. Korrupsiyaga qarshi kurashishda nafaqat agentlik, balki huquq tartibot organlar, ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda olib borilmoqda, fuqarolarga korrupsiyaning salbiy oqibatlar va bunga yo‘l qo‘yilganda jazo muqarrarligi to‘g‘risida yoki shunday holat kuzatilganda tegishli organlarga murojaat qilishlari to‘g‘risida OAVda yoritilib tushuntirishlar olib borilmoqda va xalq orasida bir qancha so‘rovnomalari o‘tkazilmoqda, fuqarolarning huquqiy ongi rivojlantirilmoqda. Biz bilamizki, korrupsiya jamiyatimizning barcha sohalarida ildiz yoyib borayotgan edi. Hozirgi kunda pora oluvchiga nisbatan qanday jazo chorasi qo‘llansa, shunga tenglashtirilgan jazo pora beruvchiga ham qo‘llanilishi to‘g‘risida fuqarolarga ma’lumotlar berib borilmoqda. Shuningdek, o‘z mafaatlari yolda korrupsiyaga qo‘l urayotgan bir qancha mansabdor shaxslarga mansabni suiste’mol qilganligi uchun qamoq jazo chorasi qo‘llanilayotganligi ham insonlarni chuqr mushohada qilishga undamoqda.

### Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonuni (3-modda birinchi qismining uchinchi xatboshisi O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O‘RQ-683-soni Qonuni tahririda — Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-soni)

2. <https://webcache.googleusercontent.com/search?q=cache:peyzKxNXsAkJ:https://anticorruption.uz/u/z/item/what-is-corruption+&cd=3&hl=ru&ct=clnk&gl=uz>

3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi (211-modda birinchi qismining sanksiyasi O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 3-dekabrdagi O‘RQ-586-soni Qonuni tahririda - Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.12.2019-y., 03/19/586/4106-soni).

4. <https://daryo.uz/amp/2021/07/09/ozbekistonda-korrupsiyaga-qarshi-kurashishda-jinoiy-javobgarlik-qanday-kuchaytiriladi-bahriiddin-valiyev-javob-berdi/>

## PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

ABDULLAEVA Dilbar Zoirjon qizi

O‘zbekiston xalqaro islom akademiya “Din psixologiyasi va pedagogigika” kafedrasi tayanch doktoranti (PhD)

### PEDAGOGIKA YO‘NALISHIDA TAHSIL OLUVCHI TALABA YOSHLARDA DINDORLIKNING INDIVIDUAL STRUKTURASI NAMOYON BO‘LISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Maqolada dindorlik tushunchasi va shaxs dindorligining psixologik tabiatini yoritib berilgan. Bunda klassik psixologiya namoyondalari asarlari va shu bilan birgalikda zamonaviy psixologik tadqiqotlar natijalaridan foydalanilgan. Shuningdek maqolada muallif tomonidan Toshkent davlat pedagogika universitetida tahsil oluvchi talabalar o‘rtasida o‘tkazilgan shaxs dindorligi strukturasining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash yuzasidan olib borilgan tadqiqot natijalari keltirilgan.*

**Kalit so‘zlar:** din, gender psixologiyasi, diniy amallar, diniy tasavvur, diniy manbalar, ijtimoiylashuv, din psixologiyasi.

### СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОЯВЛЕНИЯ ИНДИВИДУАЛЬНОЙ СТРУКТУРЫ РЕЛИГИОЗНОСТИ У СТУДЕНТОВ, ОБУЧАЮЩИХСЯ НА ПЕДАГОГИЧЕСКОМ НАПРАВЛЕНИИ

В статье освещаются понятие религиозности и психологическая природа религиозности человека. В ней используются работы представителей классической психологии, а также результаты современных психологических исследований. В статье также представлены результаты исследования, проведённого автором с целью определения специфики структуры религиозности личности у студентов Ташкентского государственного педагогического университета.

**Ключевые слова:** религия, гендерная психология, религиозные практики, религиозное воображение, религиозные ресурсы, социализация, психология религии.

### SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF THE INDIVIDUAL STRUCTURE OF RELIGIOUS STUDENTS IN PEDAGOGICAL STUDIES

The article highlights the concept of religiosity and the psychological nature of a person's religiosity. It uses the work of representatives of classical psychology, as well as the results of modern psychological research. The article also presents the results of a study conducted by the author in order to determine the specifics of the structure of personality religiosity among students of the Tashkent State Pedagogical University.

**Key words:** religion, gender psychology, religious practices, religious imagination, religious resources, socialization, psychology of religion.

**Kirish.** Yurtimizda bugungi kunda diniy sohada katta islohotlar olib borilmoqda, fikrimizning dalili sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 apreldagi “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PF-5416-sonli Farmonini yaqqol misol sifatida keltirish mumkin. Farmonda din sohasiga oid bo‘lgan masalalar keng qamrovli tarzda ko‘zda tutilgan bo‘lib diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish ustuvor yo‘nalish etib belgilangan.

Bugungi kunda shaxs dindorligi masalasi ko‘pgina fanlar kesimida tadqiq etib kelinmoqda, albatta psixologiya fani bu jarayonda o‘ziga xos o‘ringa ega. Ma‘lumki din psixologiyasini aniq bir fan sifatida shakllanishiga asos solgan U.Djeyms o‘zining asarlarida dindorlikning psixologik tabiatini tushunish yuzasidan salmoqli hissa qo‘shtigan “Diniy tajribaning xilma-xilligi” asarida shunday xulosalarini keltirib o‘tgan: “Dinning subyektiv jihatdan samaradorligi” o‘ta yuqori-ki (diniy e’tiqodining holati shaxsni kuchli hayotiy impuls bilan ta’minlaydi, ichki ruhiy barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi va dilxiraliklardan qutqaradi) hech qanday hattoki ilmiy tanqid ham uning insoniyat madaniyatida tutgan o‘rniga putur yetkaza olmaydi” [1]. Din psixologiyasi doirasida salmoqli faoliyat olib borgan E.Frommning fikriga ko‘ra esa,

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

shaxs orientatsiya va sadoqat uchun muayyan tizimga muhtojdir. Bu ehtiyojlar insonlardagi eng kuchli energiya manbalari qatoriga kiradi va turli yo‘llar bilan shaxs ularni qondirishga harakat qiladi. E.Frommning fikriga ko‘ra, har bir shaxs o‘z hayoti davomida uni to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi, unga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi kuchga muhtojdir, bu ehtiyojini qondirishda u bo‘ysunish uchun muqobil kuch izlaydi, bu kuch ruhoniy, shoh yoki Xudoning qudrati bo‘lishi mumkin. Shunga asoslanib, E.Fromm dinni shaxsga yo‘nalish tizimini ta‘minlaydigan “guruh tomonidan birqalikda ko‘riladigan har qanday qarashlar va harakatlar tizimi” [2] deb ta‘riflaydi. Z.Freyd shaxs dindorligini talqin qilar ekan, uni insonlar o‘zlarining turli xususiyat va belgilarga ega bo‘lgan qo‘rquvlariga qarshi himoya mexanizmi sifatida qo‘llovchi illyuziya deb atadi. Uning fikriga ko‘ra, din insonga o‘zini psixologik jihatdan himoya qilishga imkon beruvchi mexanizmdir. Insoniyatning illyuziyasi deya nomladi. U diniy e’tiqodni mohiyatan butun bir jamiyatga ko‘chirilgan va ular tomonidan qo‘llaniladigan shaxsning ichki nevrozi deb nomladi [3].

Amerikalik olimlarning dindorlik yuzasidan olib borgan tadqiqotlari natijalari shuni ma’lum qiladiki, bolalikdan diniy tarbiya asosida voyaga yetgan shaxslarning o‘z hayotlaridan qoniqish darajalari boshqa tengdoshlariga nisbatan yuqori namoyon bo‘ladi. 16 000 ga yaqin amerikalik bolalarning diniy odatlarini (cherkovga borish, meditatsiya va ibodat qilish), shuningdek, ularning voyaga yetgandagi psixologik va jismoniy sog‘ligini tahlil qilgandan so‘ng, olimlar diniy tarbiya olgan odamlar boshqa tengdoshlariga qaraganda ancha baxtliroq degan xulosaga kelishdi [4].

Shuningdek antropologik nuqtayi nazardan diniy urf-odatlar inson hayotining ijtimoiy va psixologik tomonlariga ta’sir qiladi. Masalan, jamoalar va butun mamlakatlar din asosida shakllanadi va dindor odamlar o‘lim qo‘rquvining pastligi bilan ajralib turadi [5].

**Asosiy qism.** Biz tomonimizdan o‘tkazilgan tadqiqotda talaba-yoshlarda diniy e’tiqod darajasining gender tafovutlaridagi ijtimoiy-psixologik xususiyatlar o‘rganish maqsad qilib olindi. Tadqiqot metodi sifatida Yu.V.Sherbatixning “Dindorlikning individual strukturasi” metodikasining modifikatsiya qilingan shakli tanlab olindi. Tadqiqot obyekti sifatida pedagogika bilim yurtida tahsil oluvchi talabalardan 60 nafari tanlab olingan bo‘lib, ular mos ravishda jins tafovutiga ko‘ra 2 ta (yigitlar va qizlar), yosh tafovuti bo‘yicha esa 2 ta katta guruhga, ya’ni 18-21 yoshlilar, 22-25 yoshli talabalar guruhiga bo‘linib olindi (1.jadval).


**1-jadval**

### Tadqiqot sinaluvchilarining jins bo‘yicha tafovuti

Sinaluvchilar	Son ko‘rsatkichi	Foiz ko‘rsatkichi
Yigitlar	18	30,0
Qizlar	42	70,0
Jami:	60	100,0

Yuqorida berilgan jadvaldan tadqiqot sinaluvchilarimizning 18 nafarini yigitlar, 42 nafarini esa qizlar tashkil etgani ko‘rinib turibdi. Buni foiz hisobidagi ifodasida esa quyidagi rasm orqali ifoda etiladi.

**1.rasm**



**1.rasm. Tadqiqot sinaluvchilarining jins bo‘yicha tafovutlari (% hisobida).**

Yuqorida berilgan rasmdan tadqiqotimizda ishtirok etgan sinaluvchilarimizning 30,0 % yigitlar, 70,0 % esa qizlarni tashkil etganini ko‘rish mumkin.

**2-jadval****Tadqiqot sinaluvchilarining yosh bo‘yicha tafovuti**

Sinaluvchilar guruhi	Son ko‘rsatkichi	Foiz ko‘rsatkichi
18-21 yoshlilar	54	90,0
22-25 yoshlilar	6	10,0
Jami:	60	100,0

Yuqorida berilgan jadvaldan tadqiqot sinaluvchilarimizning 54 nafarini 18-21 yoshda, 6 nafarini 22-25 yoshdagilar tashkil etishi ko‘rinib turibdi. Navbatdagi tahlilni olingan metodika natijalarini qaysi mezonga solib izohlashimiz uchun asos bo‘lvchi Kolmogorov-Smirnovning Normal taqsimlanish qonuniga muvofiq kelish yoki muvofiq kelmasligini tekshirib olish bilan davom ettirishimiz maqsadga muvofiqlidir.

**3-jadval****“Dindorlikning individual strukturasi” metodikasining normal taqsimlanish qonuniga muvofiqligini tekshirish (n=60)**

Shkala nomi	Z qiymat	Ishonchilik darajasi
Din-falsafiy konsepsiya sifatida	2,285	<b>0,000***</b>
Afsungarlikka munosabat	2,133	<b>0,000***</b>
Din taskin olish va qo‘llab-quvatlash manbayi	3,111	<b>0,000***</b>
Dindorlikning tashqi belgilari	2,098	<b>0,000***</b>
Bilimga nisbatan idrokning ustunligi	1,341	0,055
Olamlar Yaratuvchisiga ishonch	2,723	<b>0,000***</b>
Diniy ongning shakllanganligi	1,689	<b>0,007**</b>
Din – xulq-atvor me’yorlari namunasi	2,615	<b>0,000***</b>

Izoh: \*\*- p<0,01 (99 %), \*\*\*- p<0,001 (99,9 %).

“Dindorlikning individual strukturasi” metodikasining normal taqsimlanish qonuniga mosligini tekshirish davomida olingan natijalar tahlili quyidagicha tus oldi: din-falsafiy konsepsiya sifatida shkalasi bo‘yicha ( $Z=2,285$ ;  $p\leq 0,001$ ), afsungarlikka munosabat shkalasi bo‘yicha ( $Z=2,133$ ;  $p\leq 0,001$ ), din taskin olish va qo‘llab-quvatlash manbayi sifatida shkalasi bo‘yicha ( $Z=3,111$ ,  $p\leq 0,001$ ), dindorlikning tashqi belgilari namoyon bo‘lishi shkalasi bo‘yicha ( $Z=2,098$ ,  $p\leq 0,001$ ), bilimga nisbatan idrokning ustunligi shkalasi bo‘yicha ( $Z=1,341$ ,  $p\geq 0,055$ ), olamlar Yaratuvchisiga ishonch shkalasi bo‘yicha ( $Z=2,723$ ,  $p\leq 0,001$ ), diniy ongning shakllanganligi shkalasi bo‘yicha ( $Z=1,689$ ,  $p\leq 0,01$ ), din – xulq-atvor me’yorlari namunasi sifatida shkalasi bo‘yicha ( $Z=2,615$ ,  $p\leq 0,001$ ) aniqlandi. Tahlillarga muvofiq metodika shkalalari nonparametrik mezonlarga mos kelishi isbotlandi.

**4-jadval****“Dindorlikning individual strukturasi” metodikasining jins tafovuti bo‘yicha tahlili  
(Mann-Uittni mezoniga ko‘ra)**

Shkala nomi	Jins	N=60	O‘rtacha rang	Ranglar summasi	U
Din-falsafiy konsepsiya sifatida	Qizlar	42	31,31	1315,00	344,000
	Yigitlar	18	28,61	515,00	
Afsungarlikka munosabat	Qizlar	42	28,42	1193,50	290,500
	Yigitlar	18	35,36	636,50	
Din taskin olish va qo‘llab-quvatlash manbayi	Qizlar	42	29,55	1241,00	338,000
	Yigitlar	18	32,72	589,00	
Dindorlikning tashqi belgilari	Qizlar	42	34,69	1457,00	<b>202,000**</b>
	Yigitlar	18	20,72	373,00	
Bilimga nisbatan idrokning ustunligi	Qizlar	42	29,35	1232,50	329,500
	Yigitlar	18	33,19	597,50	
Olamlar Yaratuvchisiga ishonch	Qizlar	42	28,81	1210,00	307,000
	Yigitlar	18	34,44	620,00	
Diniy ongning shakllanganligi	Qizlar	42	31,58	1326,50	332,500
	Yigitlar	18	27,97	503,50	
Din – xulq-atvor me’yorlari namunasi	Qizlar	42	30,74	1291,00	368,000
	Yigitlar	18	29,94	539,00	

Izoh: \*\*- p<0,01 (99 %)

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

“Dindorlikning individual strukturasi” metodikasining ikki mustaqil tanlanma to‘plamlar natijalari o‘rtasidagi ahamiyatli farqlarni aniqlash uchun qo‘llaniluvchi Mann-Uittni mezoni bo‘yicha tahlili amalgalashirildi E’tiborimizni sinaluvchilarimizning jins tafovutiga ko‘ra dindorliklarining individual strukturasi bo‘yicha ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi tafovutiga qaratganimizda quyidagi shkalalar bo‘yicha ahamiyatli farqlar kuzatilganini ko‘rshimiz mumkin.

Din falasafiy konsepsiya sifatida shkalasi bo‘yicha qizlarda o‘rtacha rang summasi 31,31 ni, ranglar summasi 1315,00 ni tashkil etsa, yigitlarda o‘rtacha rang summasi 28,61 ni, ranglar summasi 515,00 ni tashkil etib ahamiyatli farqlar kuzatilmadi ( $U=344,000$ ,  $p\geq 0,05$ ). Mazkur natijani pedagogika sohasi bo‘yicha tahsil oluvchi talaba yigit-qizlarimizda dinga nisbatan falsafiy qarashning deyarli bir xilligi, dinni falsafiy konsepsiya sifatida emas, balki, shaxsning xulq-atvori, xatti-harakatini nazorat qiluvchi mexanizm, inson faoliyatini legitimlashtirib turuvchi ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilishlarining bir xilligi bilan ham izohlash mumkin. Shuningdek, ularning soha bo‘yicha bir xil ma’lumot olishlari ham dindorlikning individual strukturasiga ta’sir etmasdan qolmasligi natijalarni tahlil qilish jarayonida ham o‘z amaliy isbotini topganini ko‘rshimiz mumkin.

Afsungarlikka munosabat shkalasi bo‘yicha qizlarda o‘rtacha rang summasi 28,42 ni, ranglar summasi 1193,50 ni tashkil etsa, yigitlarda o‘rtacha rang summasi 35,36 ni, ranglar summasi 636,50 ni tashkil etib ahamiyatli farqlar kuzatilmadi ( $U=290,500$ ,  $p\geq 0,05$ ). Sinaluvchilarimizning mazkur shkala ko‘rsatkichlarini aks ettiruvchi savollarga bergen javoblaridan ham ularda dinda ma’n qilingan ishlarga nisbatan salbiy qarashda ekanliklari aniqlangani holda, shaxslarda afsungarlik, sehr-jodu kabi ishlarga nisbatan qarash jins tafovuti bo‘yicha ahamiyatli darajada farq qilmasligini kuzatish mumkin. Bu natijani ularning diniy e’tiqod darajasining yaxshi rivojlanganligi, dinning asl, tub mohiyatini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning yuqoriligi, shuningdek, “sehrgarlik”, “afsun”, “jodu” kabi tushunchalarga nisbatan salbiy kayfiyatning rivojlanish darjasasi bir xilligi bilan izohlash o‘rinlidir.

Din taskin olish va qo‘llab-quvvatlash manbayi sifatida shkalasi bo‘yicha qizlarda o‘rtacha rang summasi 29,55 ni, ranglar summasi 1241,00 ni tashkil etsa, yigitlarda o‘rtacha rang summasi 32,72 ni, ranglar summasi 589,00 ni tashkil etib ahamiyatli farqlar kuzatilmadi ( $U=338,00$ ,  $p\geq 0,05$ ). Dinning shaxs hayotidagi ahamiyati cheksizligini hisobga olgan holda, mushkul vaziyatlarda, quvonchli holatlarda, shuningdek, shaxsning intim kechinmalarini bildirish, taskin olish damlarida din har bir shaxs uchun qo‘llab-quvvatlovchi va taskin beruvchi hayot manbayi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur holatda dindorlikning rivojlanish darjasasi bo‘yicha farqlar kuzatilishi mumkin, lekin olingan tadqiqot natijalariga muvofiq, gender xususiyatlariga ko‘ra, qizlar ham yigitlar ham dinni taskin, orom manbayi sifatida idrok qilishlari bo‘yicha qarashlarida ahamiyatli farqlar mavjud emasligini aytish mumkin. Buni dinning taskin olish, suyanch kabi funksiyalari shaxs turmush tarzida bir xil ahamiyat kasb etishi bilan izohlash darkor.

Dindorlikning tashqi belgilari namoyon bo‘lishi shkalasi bo‘yicha qizlarda o‘rtacha rang summasi 34,69 ni, ranglar summasi 1457,00 ni tashkil etsa, yigitlarda o‘rtacha rang summasi 20,72 ni, ranglar summasi 373,00 ni tashkil etib ahamiyatli farqlar kuzatildi ( $U=202,000$ ,  $p\leq 0,01$ ). Mazkur ko‘rsatkichga asosan qizlarda yigitlarga qaraganda dindorlikning tashqi belgilari yaqqolroq namoyon bo‘ladi, degan xulosaga kelinadi. Buni ularning liboslarida, qarashlarida, hodisa yuzasidan bildirayotgan fikrmulohazalarida, shuningdek, dindorlik elementlari – tasbex, ro‘mol, diniy mazmundagi kitoblarni doimiy ravishda o‘zlarini bilan birga olib yurishlarida ko‘rsh mumkin.

Bilimga nisbatan idrokning ustunligi shkalasi bo‘yicha qizlarda o‘rtacha rang summasi 29,35 ni, ranglar summasi 1232,00 ni tashkil etsa, yigitlarda o‘rtacha rang summasi 33,19 ni, ranglar summasi 597,50 ni tashkil etib ahamiyatli farqlar kuzatilmadi ( $U=329,500$ ,  $p\geq 0,05$ ). Yigit va qizlardagi kognitiv xususiyatlarning rivolanishi, tafakkur shakllarining ahamiyatli farq qilmasligi kuzatilganligi holda, mazkur natijani ulardagagi ta’lim jarayoni bilan bog‘lab izohlash mumkin. Shaxsning dunyoqarashi, fikrlash doirasini kengaytirishda xizmat qiladigan vositalardan biri hisoblangan ta’lim jarayonida yigit va qizlarga tahsil olayotgan yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda yuklamalarning bir xil berilishi, ulardagagi bilimlar fondini ko‘paytirishga xizmat qilgani holda, olingan bilimlarning idrok qilish ko‘lamini ham orttirishga zamin yaratadi. Xuddi shuningdek, dinning asl, tub mohiyatini tushunish orqali yigit va qizlarda diniy bilimlar paydo bo‘ladi va ularning idrok qilish bilan ular o‘z amaliy hayot faoliyatiga tadbiq etishadi.

Olamlar Yaratuvchisiga ishonch shkalasi bo‘yicha qizlarda o‘rtacha rang summasi 38,81 ni, ranglar summasi 1210,00 ni tashkil etsa, yigitlarda o‘rtacha rang summasi 34,44 ni, ranglar summasi 620,00 ni tashkil etib ahamiyatli farqlar kuzatilmadi ( $U=307,000$ ,  $p\geq 0,05$ ). Rabbiga ishonch individual jihatdan farqqa ega bo‘lgan bo‘lsa ham, gender farq ahamiyatli darajada emasligi ma’lum bo‘ldi. Bundan hammada diniy e’tiqod darjasasi har xilligi, ishonch tuyg‘usining rivojlanish darjasasi ham turlicha bo‘lishi yana bir bor o‘z tasdig‘ini topgani holda, faoliyat turining bir xil bo‘lishi, shuningdek, boshqa ijtimoiy-psixologik omillar

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

(muhit, ta’lim-tarbiya, shaxsning individual xususiyatlari) natijasida Yaratuvchiga ishonch tuyg‘usi turlicha ko‘rinish oladi.

Diniy ongning shakllanganligi shkalasi bo‘yicha qizlarda o‘rtacha rang summasi 31,58 ni, ranglar summasi 1326,00 ni tashkil etsa, yigitlarda o‘rtacha rang summasi 27,97 ni, ranglar summasi 503,50 ni tashkil etib ahamiyatli farqlar kuzatilmadi ( $U=332,500$ ,  $p\geq 0,05$ ). Mazkur jihatni yigitlar va qizlarning yosh davrlari bo‘yicha tafovutlarning yo‘qligi, hayot tajribasining deyarli bir xil darajada ekanligi bilan ham izohlash o‘rinli. Bunda qizlarda yigitlarga qaraganda ozgina ustunlik kuzatilayotganligi, ulardag‘i oilaviy muhitining shakli ta’siri, shuningdek, tadqiqotda ishtirok etish ko‘lamni jihatidan qizlarning yigitlarga qaraganda ko‘pchilikni tashkil etganligi sababli ham deb baholash mumkin. Turmush, o‘qish, faoliyat, dunyoqarash tarzining umumiyligi oqibatida shaxslarda diniy ongning shakllanish darajasi bo‘yicha gender tafovutlar pedagogika ta’lim sohasida tahsil oluvchi talabalar o‘rtasida ahamiyatga molik bo‘lgan farqlar kuzatilmasligi aniqlanganini kuzatishimiz mumkin.

### 5-jadval

**“Dindorlikning individual strukturasi” metodikasining korrelyatsion tahlili  
(Ch.Spirmen mezoni bo‘yicha)**

Shkalalar nomi	Din-falsafiy konsepsiya sifatida	Afsungarlikka munosabat	Din taskin olish va qo‘llab-quvatlash manbayi	Dindorlikning tashqi belgilari	Bilimga nisbatan idrokning ustunligi	Olamlar Yaratuvchisiga ishonch	Diniy ongning shakllanganligi	Din – xulq-atvor me’yorlari namunasi
Din-falsafiy konsepsiya sifatida	1,000	0,109	0,130	0,088	0,250	-0,108	-0,123	0,149
Afsungarlikka munosabat		1,000	-0,092	<b>-0,259*</b>	0,200	-0,041	0,089	-0,079
Din taskin olish va qo‘llab-quvatlash manbayi			1,000	0,169	-0,011	-0,091	-0,079	-0,104
Dindorlikning tashqi belgilari				1,000	-0,143	-0,141	0,012	<b>0,257*</b>
Bilimga nisbatan idrokning ustunligi					1,000	0,073	0,082	0,159
Olamlar Yaratuvchisiga ishonch						1,000	0,212	0,114
Diniy ongning shakllanganligi							1,000	-0,046
Din – xulq-atvor me’yorlari namunasi								1,000

Izoh: \* -  $p<0,05$  (95 %)

Din – xulq-atvor me’yorlari namunasi sifatida shkalasi bo‘yicha qizlarda o‘rtacha rang summasi 30,74 ni, ranglar summasi 1291,00 ni tashkil etsa, yigitlarda o‘rtacha rang summasi 29,94 ni, ranglar summasi 539,00 ni tashkil etib ahamiyatli farqlar kuzatilmadi ( $U=368,000$ ,  $p\geq 0,05$ ). Yigit va qizlarning turmush tarzida boshqa dindor shaxslarda bo‘lgani kabi, din hayotining asl mazmuni ekanligi, ularning xattiharakatlarini me’yorashtirib turuvchi mexanizm rolini o‘ynashi tadqiqot natijalari tahlili orqali ma’lum bo‘ldi. Xulq-atvor me’yorlarining namunasi darajasida qizlar va yigitlarda ko‘zga tashlanadigan farqlar mavjud emasligi, ulardag‘i xulqlarning o‘xshashligi, faoliyat shaklidagi pozitsiyalarning, yosh davrlarining bir xilligi bilan ham izohlanadi.

“Dindorlikning individual strukturasi” metodikasining Ch.Spirmen mezoni bo‘yicha korrelyatsion tahlili amalga oshirilganda afsugarlikka munosabat va dindorlikning tashqi belgilari shkalalari o‘rtasida teskari korrelyatsion aloqadorlik munosabatlari ( $r=-0,259$ ,  $p\leq 0,05$ ), dindorlikning tashqi belgilari va din –

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

xulq-atvor me’yorlari namunasi shkalalari o’rtasida musbat korrelyatsion aloqadorlik munosabatlari mavjudligi kuzatildi ( $r=0,257$ ,  $p\leq 0,05$ ).

Pedagogika ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tahsil oluvchi talaba-yoshlarda afsungarlikka ijobjiy munosabatning paydo bo‘lishi, ulardagи dindorlik tashqi belgilarining kamayishiga sabab bo‘ladi. Bunda shaxs tabiatda yuz beradigan hodisalarga e’tiborini kuchaytiradi, o‘zida mavjud bo‘lgan dindorlikning belgilarini namoyish etishi esa pasayadi. Bilamizki, 18-21 yoshdagi shaxslar tashqi hodisalarga e’tiborli, tez qo‘zg‘aluvchan va ta’sirchan bo‘lishadi. Shu xususiyatlarni hisobga oлgan holda ulardagи diniy e’tiqod darajasi ham o‘zgaruvchan va turli hodisalarga nisbatan moyillik xarakteriga egadir. “Sehr-jodu” kabi salbiy tushunchalarga bo‘lgan qiziqishning ortishi oqibatida shaxsdagi dindorlik belgilari namoyon bo‘lishi kamayadi, unda ikkilanish, yaxshilik va yomonlikni qazoyi qadardan deb bilish hissi kamayadi va voqeа-hodisalarni o‘z manfaatlari yo‘lida “ijobjiy tarafga” o‘zgartirish hissi ustunlik qilaveradi (5 jadval).

Navbatdagi korrelyatsion aloqadorlik “dindorlikning tashqi belgilari” va “din – xulq-atvor me’yorlari namunasi” shkalalari o’rtasida aniqlandi. Shaxsda dindorlik elementlarining (diniy amallarga o‘z vaqtida ado etish, savob va gunoh ishlarni ajratish, taqvodorlik, diniy e’tiqod darjasining ortishi, diniy liboslarda harakatlanish va boshqalar) tashqi tarafga yo‘nalgaligi ortsa, uning xulq-atvoridagi xatti-harakatlarga o‘z ta’sirini bildirmasdan qolmaydi. Ya’ni, shaxs har bir amalga oshirayotgan xatti-harakatinining din normalariga muvofiq yoki muvofiq emasligini anglagan holda bajarishga intiladi. Natijada, uning xulq-atvoridagi salbiy xislatalar o‘rnini ijobjylari egallashga muvaffaq bo‘ladi. Dindorlikning tashqi belgilari ko‘pincha, muloqot jarayonida diniy iboralarni ko‘p qo‘llash, ibodat qilishga ko‘maklashuvchi elementlarni o‘zi bilan birga olib yurish, diniy mazmundagi kitob, materiallarni o‘qish kabilarda yaqqol namoyon bo‘ladi, deb aytish mumkin.

**Xulosa.** Olingan tadqiqot natijalari tahlili asosida quyidagi xulosalarga kelish maqsadga muvofiqdир:

- Talabalarda gender tafovutlar jihatidan dindorlikning tashqi belgilari rivojlanishi o’rtasida ahamiyatli farqlar mavjud. Qizlarda dindorlikning tashqi belgilari ularning kundalik turmushdagi liboslarida yigitlarga qaraganda yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Bunga qizlar unib-o‘sayotgan muhit, oilaviy sharoit, ijtimoiy munosabatlар ko‘lami ta’sir etadi.

- Diniy ongning shakllanishi 18-21 yoshli shaxslarda turlicha ko‘rinishga ega bo‘lmay, bir xillik kasb etgani holda, ularning hayot tajribasi, diniy voqeа-hodisalarni chucherroq anglab, idrok etish barobarida diniy ko‘nikmalarga ega bo‘lishlari bilan farqlar ortib borishi mumkin. Mazkur omilda asosiy jihatni, shaxsning diniy tushunchalar mazmunini idrok etishga doir fundamental bilimlarining rivojlanganlik darajasi o‘ynaydi.

- Yoshlarga barcha dinlarning asl ildizi yaxshilik, Yaratganga ishonch kabi tushunchalar tashkil etishini singdirish natijasida, ularda turli yot diniy g‘oyalar ta’siriga tushib qolmaslik yuzasidan kuchli “himoya mexanizmi”ni hosil qilish mumkin.

- Shaxslarda dindorlikni anglatuvchi tashqi belgilari namoyon bo‘lishining ortishi, ularning xulq-atvorini o‘zlarini tomonidan ongli ravishda nazorat qilish shakllarining paydo bo‘lishiga ham sabab bo‘ladi. Bunda ular har bir bajarayotgan xatti-harakati uning dindorlik darajasiga ta’sir etishini hisobga oladi. Natijada ularda ijobjiy xulq-atvor shakllanadi.

Yuqoridagi empirik tadqiqot natijalari bo‘yicha keltirilgan xulosalarni inobatga oлgan ravishda, shaxslarda diniy ongning shakllanishi progressiv jarayon ekanligi, unga ta’sir etuvchi omillar - oilaviy muhit, do‘stlar davrsasi, ta’lim maskani bo‘lishi yana bir karra o‘z amaliy tasdig‘ini topganini ko‘rishimiz mumkin. Shaxslarda o‘z navbatida, diniy tushunchalarning tub mohiyatini tushunishga intilish, ularning xulq-atvori ijobjiyashishiga, dindorlik darajasining ortishiga ham sabab bo‘ladi.

### Adabiyotlar

1. Вильям Джемс. Многообразие религиозного опыта. Перевод В.Г.Малахиевой-Мирович и М.В.Шик – Москва, 1910. С.398-400.
2. Соколовская И.Э. Феномен религиозности в контексте психологических теорий // Вестник МГОУ. Серия «Психологические науки». 2014 / № 2. С. 39.
3. Freud. the Man Moses: the psychology of religion. Publisher: “Academic project”, 2007. P.135.
4. American Journal of Epidemiology, Volume 187, Issue 11, November 2018, Pages 2355–2364, <https://doi.org/10.1093/aje/kwy142>.
5. Jonathan Jong, Robert Ross, Tristan Philip, Si-Hua Chang, Naomi Simons & Jamin Halberstadt (2018) The religious correlates of death anxiety: a systematic review and meta-analysis, Religion, Brain & Behavior, 8:1, 4-20, DOI: 10.1080/2153599X.2016.1238844.

**KURBANOVA Gulnoz Negmatovna**

Buxoro tibbiyot instituti pedagogika, psixologiya va tillar kafedrasи mudiri, pedagogika fanlari doktori (DSc)

**PEDAGOGIK MULOQOT TALABALAR KASBIY TAFAKKURINI  
RIVOJLANTIRISHNINING ASOSIY OMILI SIFATIDA**

*Maqola ta’lim jarayonida bo’lajak mutaxassislar kasbiy tafakkurini rivojlantirishda pedagogik muloqotning ahamiyatini o’rganishga bag’ishlangan bo’lib, muloqotning kasbiy yetuklikka erishish jarayonidagi tarbiyalovchi imkoniyatlari yoritilgan.*

**Kalit so’zlar:** tafakkur, kasb, muloqot, bo’lajak o’qituvchi, rivojlanish, tarbiya, xususiyat, mezon, natija.

**ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ОБЩЕНИЕ КАК ГЛАВНЫЙ ФАКТОР РАЗВИТИЯ  
ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ**

*Статья посвящена изучению значения педагогического общения в развитии профессионального мышления будущих специалистов в образовательном процессе. В статье также предоставлены воспитательные возможности педагогического общения в процессе достижения профессиональной зрелости специалиста.*

**Ключевые слова:** мышление, профессия, общение, будущий учитель, развитие, воспитание, характер, критерии, результат.

**PEDAGOGICAL COMMUNICATION AS THE MAIN FACTOR IN  
THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' PROFESSIONAL THINKING**

*The article is devoted to the study of the importance of pedagogical communication in the development of professional thinking of future specialists in the educational process. The article also provides educational opportunities for pedagogical communication in the process of achieving the professional maturity of a specialist.*

**Key words:** thinking, profession, communication, future teacher, development, education, character, criteria, result.

**Kirish.** Bo’lajak o’qituvchi shaxsini shakllantirish muammosi har qaysi kishilik jamiyatining ehtiyojlari va talabalaridan kelib chiqqan holda hal qilinadi. Shu boisdan hozirgi davrda qabul qilinishi mo’ljallangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va ushbu qonun asosida qabul qilinadigan me’yoriy hujjatlarda kasb tanlash motivlari, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy layoqat va kasbiy mahorat bilan cheklanib qolmaslikni, balki bo‘lg‘usi pedagogik kadrlarda kasbiy tafakkurni tarkib toptirish mutlaqo zaruriy shart ekanligi ta’kidlanadi.

Respublikamizda o’qituvchilik kasbining o‘ziga xos etnopsixologik fazilatlari, xislatlari, qobiliyatlar, ish uslublari, mahoratga erishishning yo‘llari, shaxslararo muloqot maromlari yuzasidan har xil davrlarda bir muncha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Muloqot – muloqot subyektlarining o‘zaro ta’sir jarayoni bo’lib, bu ta’sir davomida axborot almashinadi, munosabat o’rnataladi, rivojlantiriladi. Muloqot vositasida hamkorlikdagi faoliyat tashkil etiladi va amalga oshiriladi. Ayni vaqtida faoliyat davomida insonlar o’rtasida yangi-yangi munosabatlar va aloqalar shakllanadi. Demak, muloqot va faoliyat o‘zaro chambarchas bog‘liqidir.

Muloqotning tarbiyalovchi imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish ko‘p jihatdan o’qituvchining shaxsiy sifatlari bilan belgilanishini aytib o‘tish kerak. Pedagogik muloqotning to‘g‘ri tanlangan, pedagogning betakror individualligiga muvofiq keluvchi uslubi quyidagi vazifalar majmuuni hal qilishga yordam beradi:

birinchidan, pedagogik ta’sir ko‘rsatish pedagog shaxsi bilan ayni bir narsa bo’lib qoladi, auditoriya bilan muloqotda bo‘lish jarayonining o‘zi soddalashadi, u pedagogning o‘zi uchun yoqimli, uzviy bo’lib qoladi;

ikkinchidan, talabalar bilan o‘zaro munosabatlarni yo‘lga qo‘yish jarayoni ancha yengillashadi;

uchinchidan, pedagogik muloqotning barcha eng muhim vazifalarining, samaradorligi ortadi, shu bilan birga, bularning hammasi muloqotning barcha bosqichlarida pedagogning hissiy xotirjamligining ijobjiy negizida ro‘y beradi.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

**Asosiy qism.** Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tafakkurini rivojlantirish, kasbiy-shaxsiy sifatlarni shakllantirish, ularni istiqboldagi pedagogik faoliyatga tayyorlash, o‘qituvchilarda innovatsion tayyorgarlikni shakllantirish, ulardagи kasbiy ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish muammolari ko‘pgina ilmiy izlanishlarda o‘z ifodasini topgan.

Jumladan, N.N.Azizzodjayeva, H.Abdukarimov, R.Djurayev, B.Djurayeva, X.Ibragimov, R.G.Isyanova, N.A.Muslimov, U.Nishonaliyev, B.Raximov, N.Sayidahmedov, O.Tolipov, Sh.Sharipov, S.Turg‘unov, N.Shodihev, N.Erkaboyeva, D.Yunusova, J.G.Yo‘ldoshev, O.Haydarova tadqiqotlarida bo‘lajak o‘qituvchilarni pedagogik kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy va amaliy asoslari, shartsharoitlari, pedagogik mahoratning shakllanish bosqichlari, B.R.Adizov, R.Sh.Ahlidinov, Sh.Barotov, M.G.Davletshin, Sh.Q.Mardonov, U.Q.Musayev, R.G.Safarova, N.Safoyev, E.Seytxalilov, G.Shoumarov, J.G.Yo‘ldoshev, Sh.Qurbanov, E.G.oziyev ishlarida ta’lim-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirish, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonining pedagogik-psixologik muammolari, A.Abduqodirov, U.Begimqulov, N.Taylakov, F.Zokirovalarning tadqiqot ishlarida pedagogik jarayonga innovatsion texnologik yondashuv hamda bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashda pedagogik hamda axborot texnologiyalardan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari ochib berilgan.

MDH olimlaridan A.V. Brushlinskiy, V.A.Polikarpov [3], G.A.Bordovskiy, V.I.Gorovaya, A.V.Gutorova, I.F.Isayev, M.M.Kashapov [4], A.A.Kirsanov, M.V.Klarin, A.V.Korjuyev, D.G.Levites, V.M.Monaxov, N.D.Nikandrov, A.M.Novikov, L.S.Podimova, A.M.Stolyarenko bo‘lajak pedagog-mutaxassislarini tayyorlash jarayonini modrenizatsiyalashning mazmuniy-protsessual hamda texnologik jihatlarini o‘rganganlar. Ta’lim jarayonini loyihalash va bo‘lajak mutaxassislarini loyihalash faoliyatiga tayyorlash masalalari Y.S.Zair-Bek, I.A.Kolesnikova V.M.Monaxovlarning ishlarida o‘z aksini topgan.

Ko‘pgina olimlar (V.S.Ilina, N.V.Kuzmina, Y.N.Kulyutkin, G.S.Suxobskaya, L.A.Regush, V.A.Slastyonin, O.Roziqov, B.R.Adizov va boshq.) fikricha, zamonaviy oliy ta’limning salbiy tomonlaridan biri unda ijodiy hamda kasbiy tafakkur o‘rniga verbal-mantiqiy tafakkurni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida e’tirof etiladi.

O‘qituvchining kasbiy tafakkurini rivojlantirish muammosi amaliy tafakkurni tadqiq etish doirasida amalga oshiriladi.

Muammo bo‘yicha dastlabki tadqiqotlar Y.N.Torndayk, V.Keller, K.Byuler, K.Kofka, N.A.Ruger, M.Y.Basov, S.L.Rubinshteyn tomonidan amalga oshirilgan ilmiy ishlarda o‘z aksini topgan. Nomlari keltirilgan olimlar kasbiy tafakkurni namoyon bo‘lishini amaliy faoliyat nuqtayi nazardan o‘rgangan bo‘lsalar, S.L.Rubinshteyn birinchilardan bo‘lib kasbiy tafakkurning: sinchkovlik asosida kuzatuvchanlik, ma‘lum muammoli vaziyatlarda o‘ziga xos va yagona qaror qabul qila olish, qisqa vaqtida tafakkur qilishdan amaliy faoliyatga o‘tish kabi o‘ziga xos xususiyatlarini ajratib ko‘rsatadi.

O‘z navbatida amaliy tafakkur muammosi tadqiqotchilar tomonidan yaqin vaqtlardan boshlabgina o‘rgana boshlandi. G‘arb psixologiyasida amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan tafakkur: elementar, noijodiy hisoblanib, nazariy tafakkurga nisbatan ikkilamchi shakl sifatida qarab kelingan. Shu nuqtayi nazardan turli kasblarda tafakkurning murakkab shakllari hamda ko‘rgazmali-faoliyatli komponentlari namoyon bo‘lishi mumkin emas deb hisoblangan.

Amaliy tafakkur muammosi rus olimlari F.N.Gonobolin, N.V.Kuzmina hamda B.M.Teplov tadqiqotlarida bir muncha o‘z yechimini topdi. Chunonchi B.M.Teplov amaliy tafakkur, yaxlit tafakkur mexanizmlari (analiz, sintez, taqoslash, tizimlashtirish, abstraksiya va aniqlashtirish)ning birligi asosida namoyon bo‘ladi hamda u tafakkur faoliyatining alohida shakli hisoblanib, uning o‘ziga xosligi amaliy faoliyatda inson tomonidan u yoki bu vazifalarni yechimini topishga qaratiladi deb hisoblaydi. “Inson intellekti va tafakkur mexanizmalari yagona, ammo tafakkur shakllari har xil, chunki u yoki bu holatda inson aqli tomonidan yechimini topishi kerak bo‘lgan vazifalar har xildir” [5].

Xorijlik olimlar B. Myunsterberg, D. Xolland [6], D. Syuper [7]lar shaxsning kabiy jihatdan yuqori darajada yetuklikka erishish muammolarini o‘rgangan bo‘lsalar, shaxsning kasbiy martabaga ega bo‘lish jarayoni va uning pedagogik-psixologik jihatlarini A.Maslou [8], L.Zondi [9], A.Bandura [10], Dj.Rotter [11] (AQSh) tadqiq etganlar.

Talabalarda muloqotlarning individual uslubini shakllantirish metodikasi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Talabalar muloqoti individual uslubining haqiqiy shaxsiy xususiyatlarini o‘rganish va ularni talabalar anglab yetishi. Talabalarning mustaqil tahlil qilishi, o‘zaro har tomonlama tavsifnomalari, o‘qituvchilarning kuzatishlari asosida amalga oshadi. Talabalar shu maqsadda “Men boshqa kishilar bilan muloqotda qandayman?” mavzusida esse yozadilar, bir-birlariga shunga o‘xshash mazmunda tavsifnomalari tayyorlaydilar va hokazo.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

---

2. Shaxsiy muloqotdagi kamchiliklarni aniqlash va ularni barham toptirish yuzasidan qilinadigan ishlar: uyatchanlikni, tortinchoqlikni, muloqot uslubidagi salbiy holatlarni yengish.
3. Pedagog uchun muloqotning hissiy jihatdan qulay bo‘lgan uslubini ishlab chiqishga doir topshiriqlar va ularni o‘z-o‘zini kuzatish ma’lumotlari bilan taqqoslash.
4. Muloqotda o‘z individual uslubi asosida pedagogik muloqot tarkibiy qismlarini egallash (maxsus mashg‘ulotlarda) sohasidagi ishlar.

5. O‘z muloqot uslubiga muvofiq ravishda pedagogik muloqotdan iborat yaxlit hodisani bilib olish borasidagi ishlar va muloqot uslubiga aniqliklar kiritish (maxsus mashg‘ulotlarda).

6. Haqiqiy pedagogik faoliyat individual uslub asosida talabalar bilan muloqot qilish, bu uslubni mustahkamlash (pedagogik amaliyot va stajirovka jarayonida).

Tibbiyot kollejlarida ishni endi boshlayotgan o‘qituvchilar individual muloqot uslubini shakllantirish ustida muntazam ish olib borishlari zarur.

**Muhokamalar va natijalar.** Tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda pedagogik muloqotning jihatlari muhim rol o‘ynaydi, ular pedagog bilan talabalarning bevosita o‘zaro harakati bilan bog‘liqdir. Bu o‘rinda bir necha bosqichlar ajratib ko‘rsatiladi.

**Birinchi bosqich** - bu tarbiyachining tarbiyaviy jarayon vaziyatidan xabardorligidir, bu jarayon o‘ziga pedagogning xotirasida guruh bilan muloqotning oldingi xususiyatlarini tiklashni, muloqot vaziyatini qayd etishni, uni o‘zaro harakatning oldingi vaziyati bilan, bu harakatning ilgari rejalashtirilgan andazasi bilan tezda qiyoslab chiqishni, o‘z muloqot uslubiga aniqlik kiritishni qamrab oladi. Shuni nazarda tutish kerakki, bu bosqich juda tez kechadi va xuddi shu bosqichda zarur so‘z, ohang, xulq-atvor vujudga kelishi lozim.

**Ikkinchi bosqich:** pedagogik muloqotning samarali jarayoni uchun uning shart-sharoitlarini bilib olishning o‘zi kifoya qilmaydi. Talabalar bilan o‘zaro harakatning boshlanishi o‘zaro fikr almashishga doir yana bir muhim vazifani hal qilish bilan muloqot obyektining diqqatini o‘ziga jalb qilish bilan bog‘liqdir. Muloqot obyektining, ya’ni talabaning diqqatini o‘ziga jalb qilish deganda nimani anglash kerak? Buning ma’nosi bo‘lajak o‘zaro harakatga, ta’limning rejalashtirilgan usullariga, tashkiliy shakllariga ijtimoiy-psixologik negizni asos qilib olish, darsni o‘tkazish uchun zarur bo‘ladigan talabalar diqqatini jalb qilishdir. Ko‘pincha yosh pedagoglar, talabalar har doim o‘qituvchiga o‘z diqqatlarini qaratishlari lozim deb hisoblaydilar va o‘zaro fikr almashishga doir bu muhim vazifalarni sobit qadamlik bilan hal qilmaydilar.

Ko‘rsatib o‘tilgan bevosita muloqot bosqichlari pedagogik ta’sir ko‘rsatishning nisbatan mustaqil, har bir ko‘rinishida vaqtiga vaqtiga bilan takrorlanib turadi, tarbiyaviy jarayonni tashkil etganda ularni nazarda tutish kerak bo‘ladi.

Tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishni tashkil etishda muloqotning ahamiyati bilan bog‘liq ravishda pedagogik muloqot madaniyatiga, tarbiyachining dilkashligiga alohida talablar qo‘yiladi, dilkashlik unda kasbiy tafakkur sifatida namoyon bo‘ladi. Tarbiyachi jamoa, guruh va individual ish olib borish jarayonida odamlar bilan muloqot qila bilishi, uni talabalar bilan aniq maqsadni ko‘zlagan holda tashkil eta olishi va ularni boshqara bilishi lozim. Kasb-korga oid pedagogik dilkashlikning yosh o‘qituvchi amal qiladigan quyidagi mezonlarini alohida ajratib ko‘rsatish mumkin: talabalar bilan turli sohalarda muntazam muloqot qilishda barqaror ehtiyojning mavjudligi, muloqotning barcha bosqichlarida hissiy osoyishtalikning namoyon bo‘lishi, o‘zaro fikr almashishga doir sifatlar, ko‘nikmalar va malakalarning mavjudligi.

Bo‘lajak tibbiyot muassasalarini o‘qituvchilari quyidagi xususiyatlari bilan keskin darajada ajralib turishi lozim va bu xususiyatlar ular kasbiy tafakkurining asosiy mezonlarini belgilaydi:

- Yangi O‘zbekistonimizning talablari va ehtiyojlariga mos tushuvchi yuksak ma’naviyat darajasidagi qarashlar, kuchli va barqaror e’tiqod, buyuk davlatimiz ideallari, milliy g‘oya va istiqlol mafkurasiga sodiqlik, vatanparvarlik, fidoiylik tuyg‘ulari shakllanganligi, jamoaviylik hissini mukammal aks ettiruvchi, ijtimoiy-siyosiy faol shaxs ekanligi;

- bolalarga, o‘quvchilarga, hattoki jamiyatimizning barcha a’zolariga ham otash, ham samimiym mehr-muhabbat, ularning har qanday ehtiyojlari, qiziqishlari, xatti-harakatlari motivlari, xulq-atvorlarini tushunish ko‘nikmasi, malakasi va uquvining mavjudligi;

- jamiyat hodisalari, holatlari, tabiat va vogeliklari, borliqqa, shaxslararo, guruhlararo, millatlararo munosabatlari nisbatan pedagogik kuzatuvchanlik, ya’ni perseptiv (idrokka nisbatan sezgirlik) qobiliyatga egaligi;

- hayot va faoliyatning u yoki bu jabhalarida odamlarning xatti-harakatlari, munosabatlari xususiyatlarini oqilonqa tushunish ularni identifikatsiyaga, refleksiyaga yo‘llashga qobiliyatlari;

- favquloddagi vaziyatlarda, o‘zgaruvchan shart-sharoitlarda omilkorlik bilan mo‘jal olish, maqsad qo‘yish, reja tuzish, bevosita nazorat qilish, boshqarish va o‘z-o‘zini namoyon etishga qobiliyatiligi;

- pedagogik faoliyatda, jamoatchilik tizimida muvaqqat guruhiy munosabatlarda ommaviy harakatlarda tashkilotchilik va boshqaruvchanlik qobiliyatini egallanganligi;

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

---

- umumiy qiziqishi ko‘laming kengligi, bilishga oid qiziqishlarning serqirraligi, ilmiy izlanishlarga layoqatliligi, muayyan salohiyat, mahorat darajalariga erishganligi;
- muloqot maromi, nutq madaniyati, mantiqan ixcham, ma’nosи kuchli, ta’sirchan fikr uzatish, ta’sir o’tkazish uquvi bilan qurollanganligi;

Fikrimizcha, zamонави о‘qituvchi muloqot davomida to‘g’ri, omilkor axborot uzatishi va unga suhbatdoshini ishontira bilishi kasbiy zaruriyat hisoblanadi.

**Xulosa va tavsiyalar.** Kasbiy tafakkurni shakllantirish jarayonida o‘zaro fikr almashish aloqasiga doir quyidagi dasturni tavsiya etishimiz mumkin.

1. Kasb-kor jihatidan o‘z-o‘zini anglashni (muloqotda o‘zining o‘zaro fikr almashishga doir sifatlarini, ijobjiy va zaif tomonlarini aniqlashni) amalga oshirish va shu asosda o‘zaro fikr almashish yo‘li bilan o‘z-o‘zini tarbiyalashning dasturini ishlab chiqish. Bu o‘rinda o‘z shaxsiga quyidagi yo‘nalishlarda baho berish, tajribani tahlil qilish, talabalar bilan maqsadga muvofiqdir, kishilar bilan bo‘lgan muloqotda olingan sezgilar tajribasini tahlil qilish, kishilar bilan bo‘lgan muloqotda oldingi muloqotning hozirgi darajasini tahlil qilish, muloqot haqida o‘zining ideal tasavvurlarini tahlil qilish, sizning muloqotdagagi imkoniyatlaringizni boshqalar (talabalar, o‘qituvchilar) qanday baholashi haqidagi tasavvurlarni tahlil qilish.

2. O‘zida dilkashlikning asosiy xususiyatlari rivojlantirish yuzasidan ixtisoslashtirilgan mashqlar asosida ishlash.

3. Talabalar va kishilar bilan xilma-xil jamoat ishlarini olib borish, bunda o‘zaro fikr almashish faoliyatining tajribasi (ma’ruzalar, suhbatlar) hosil bo‘ladi.

4. Muloqotda salbiy kayfiyatlarni yengish tajribasini shakllantiradigan va dilkashlikni rivojlantiradigan vaziyatlar tizimini yaratish.

Taklif etilgan bu tizimga tayanib ish ko‘rish pedagogning kasb-korga oid shaxsiy fazilati bo‘lgan dilkashlikni shakllantirishni tezlashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, kasbiy tafakkur o‘z navbatida muloqot madaniyatiga tayangan holda bo‘lajak o‘qituvchining dunyoqarashini, uning kasbini sevishi orqali yetuklik darajasiga intilishini, o‘z borlig‘ini his etishi, Vatan, jamiyat manfaatlari, rivoji uchun keraklilik hissini anglashini ifodalaydi.

### **Adabiyotlar**

1. Исаев И.Ф. Профессионально-педагогическая культура преподавателя: Учебное пособие для вузов. – М.: “Академия”, 2002.
2. Ochilov M., Ochilova N. O‘qituvchi odobi. – Т.: “O‘qituvchi”, 1997. 6-bet.
- 3.Мышление и общение (2-е доработанное издание). - Самара: Самар. Дом печати, 1999. - 128 с.
- 4.Кашапов М.М. Психология профессионального педагогического мышления. Дисс.на соис.док.псих.наук. –Ярославль, 2000.
- 5.Теплов, Б.М. Практическое мышление// Психология мышления: хрестоматия /– Издание 2-е, переработанное и дополненное. – Москва: “Астрель”, 2008. – С.224.
- 6.John H. Holland Redwood City. -California: “Addison-Wesley”, 1998.
- 7.Work leisure and career development needs and programs of the future // D. T. Hall (ed.), Career Development in Organization. Jossey-Bass, 1985.
- 8.Самоактуализация // Психология личности: Тексты. – М., 1982. – С.108-118.
- 9.Пароксизмальный круг профессий // ПЕРСОНАЛ-PROFY: журнал. -Екатеринбург, 2000. - №2. -Часть 1. -С. 18.
10. Bandura, A. (Ed.). Self-efficacy in changing societies. New York: Cambridge University Press, 1995.
11. Теория межличностных отношений и когнитивные теории личности. Издательство: Прайм-ЕвроЗнак, 2007г.
12. Kurbanova G.N. Pedagogik muloqot vositasida talabalar kasbiy tafakkurini rivojlantirish// Monografiya. –Б.: “Durdona”, 2021.
13. Kurbanova G.N. Pedagogical and psychological bases on developing students’ professional thinking in medical pedagogical education. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 06, 2020. 3059-3067.
14. Kurbanova G.N. The role of ancestral heritage in the development of professional thinking of future professionals. International Scientific Journal.
15. Theoretical & Applied Science p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online) Year: 2020 Issue: 01 Volume: 81 Published: 30.01.2020 <http://T-Science.org> . SOI: 1.1/TAS DOI: 10.15863.
16. Курбанова Г.Н. Развитие профессионального и оперативного мышления будущих специалистов в образовательном процессе. Neurodynamics журнал клинической психологии и психиатрии// Т.2 №1.2020, 50-56.ISSN 2658-.7955. <https://smu.psychiatr.ru/neurodynamics>.

**DJUMANIYAZOVA Muxayya**

Urganch davlat universiteti pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsenti.v.b., psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**TALABALAR DINIY DUNYOQARASHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINING EMPIRIK TAHLILI**

*Mazkur maqolada shaxs diniy dunyoqarashning shakllanish va namoyon bo‘lish xususiyatlari nazariy jihatdan, talabalar diniy dunyoqarashining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari empirik jihatdan tahlil qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** dunyoqarash, diniy dunyoqarash, diniy tarbiya, din, diniy e’tiqod, diniy faollik, ichki/tashqi motivlar.

**ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ХАРАКТЕРИСТИК РЕЛИГИОЗНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ СТУДЕНТОВ**

*В данной статье теоретически анализируются особенности формирования и проявления религиозного мировоззрения личности, так же эмпирически анализируются социально-психологические особенности религиозного мировоззрения студентов.*

**Ключевые слова:** мировоззрение, религиозное мировоззрение, религиозное образование, религия, религиозное убеждение, религиозная деятельность, внутренние/внешние мотивы.

**EMPIRICAL ANALYSIS OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF STUDENTS' RELIGIOUS WORLD VIEW**

*This article theoretically analyzes the features of the formation and manifestation of the religious worldview of the individual, also empirically analyzes the socio-psychological features of the religious worldview of students.*

**Key words:** worldview, religious worldview, religious education, religion, religious belief, religious activity, internal / external motives.

**Kirish.** Bugungi kunda butun dunyoda axborot oqimining tezlashuvi, muloqot vositalarining cheksizligi o‘z-o‘zidan inson psixikasiga, uning bevosita dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsatmasdan qolmaydi. Dunyoqarashda jamiyatda shakllangan falsafiy, ilmiy, diniy, siyosiy, axloqiy, huquqiy, estetik bilimlar, qarashlar o‘z aksini topib, shaxsning dunyoqarashi ijtimoiy munosabatlar, shuningdek, muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, sinf, millat va jamiyat miqyosidagi ijtimoiy ong bilan bog‘langan. Ayniqsa, hozirda jamiyatdagi diniy dunyoqarashni to‘g‘ri tushunish, baholash uchun uning ilmiy jihatdan asoslantirilgan tavsiflarini, diniy dunyoqarashni paydo bo‘lishi va rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Asosiy qism.** Talabalik davri ontogenet davrlarida o‘zining psixik faoliyatning faolligi, kelajakka qaratilgan maqsadli harakatlari bilan ajralib turadi. Shunga ko‘ra, talaba yoshlarning dunyoqarashini kelajakdagagi jamiyat ongi dunyoqarashining mumkin bo‘lgan modeli asosi sifatida qarash mumkin. Aynan shuning uchun ham talaba yoshlarning diniy dunyoqarashini ijtimoiy-psixologik o‘rganishni tashkil qilish va empirik ma‘lumotlarni yig‘ishning mumkin bo‘lgan barcha uslublaridan foydalangan holda o‘tkazish juda muhim. Diniy tarbiya muammolari bugungi kunda har qachongidan ham dolzarb bo‘lib, mazkur yo‘nalishda olib borilayotgan tadqiqotlar barcha ijtimoiy fan sohalarida katta ahamiyatga ega. Yoshlarni sog‘lom diniy qarashlarin shakllantirish masalalari ilmiy tadqiqotlarga asoslanishi maqsadga muvofiqdir.

Hayotni diniy ta’lim-tarbiya jarayoniga qo‘yayotgan katta talablari, ehtiyojlarga muvofiq bo‘lgan psixologik-pedagogik yondashuvlarni izlashga yo‘naltirmoqda.

Mazkur muammo bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, diniy dunyoqarash va ushbu yo‘nalishdagi boshqa bazaviy tushunchalarni ta’riflash (aniqlash)ga ko‘plab yondashuvlar mavjud. Shu bilan birga, bugungi kunda ularni bir xil, umumiyl qabul qilingan tarzda tushunish va tegishlicha ta’riflash kuzatilmaydi. Shunga bog‘liq holda, olimlarning ushbu o‘rganilayotgan hodisaga nisbatan bo‘lgan fikrlarini yanada batafsilroq ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

Masalan, O.F.Lobazova, R.A.Finklarning fikricha, din odamlarning ma'lum bir ilohga sig'inib boshlagan davrlarida paydo bo'lgan, din paydo bo'lganidan keyin esa diniy e'tiqod, diniy dunyoqarash va boshqa tushunchalar ham paydo bo'lgan. Din deganda, odatda, inson va Yaratuvchi o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi haqiqat, buyruq, talablarning majmuasi tushuniladi. Diniy e'tiqod tushunchasi esa ko'proq tegishli kishining, ularni bajarishga o'ziga o'zi majburiyat oluvchi diniy me'yorlar tizimiga individual, shaxsiy munosabatini ifodalaydi. Diniy e'tiqod o'z ichiga diniy tasavvurlar, ma'naviy his-tuyg'ular va turlicha marosimlarga va boshqalarga munosabatida namoyon bo'luvchi diniy dunyoqarashni qamrab oladi [1, 2].

R.M.Axmedovning fikriga ko'ra, diniy e'tiqod tushunchasining ta'rifi umuman dinni o'rganishning muhim va bazaviy tushunchalaridan biri sifatida talqin qilinib, diniy g'oyalar, qadriyatlar, me'yorlarning subyektiv o'zlashtirilishining sifat va miqdor aniqligini va ularning Yaratuvchiga ishonuvchilarning (e'tiqodlilarning), diniy jamoaning xulqiga, hayot tarziga ta'sirini xarakterlaydi. Diniy dunyoqarash tushunchasi tarkibining mohiyati diniy g'oyalar, qadriyatlar, me'yorlarning subyektiv o'zlashtirilishida namoyon bo'ladi, individual va shu bilan bir vaqtida din insonga o'zi uchun o'zi tanlaydigan nimani berishini subyektiv baholashda ifodalanadi. Bundan tashqari, mazkur dunyoqarash o'z ichiga nafaqat diniy dogmalarni, qoidalarni, bilimlarni, balki har biri alohida insonning individual tajribasining ulushini ham qamrab oladi. U odatda, har kim uchun takrorlanmas bo'lgan tegishli tajribadan o'tish yo'li orqali shakllanadi [3].

V.Erotichning fikricha, tashqi hayotni uning insonga munosabatida, jamiyat odamining hayot faoliyati uchun ahamiyatini aks ettiruvchi jamoatchilik ongingin dunyoqarashi shakli sifatida qarash mumkin. Shaxsning, jamiyatning, insoniyatning rivojlanish jarayonida yuzaga kelib va shaxsdan ustun, tarixiy-ijtimoiy nimadir bo'la turib, shu bilan bir vaqtida din faqat ularning izdoshlari, tashuvchilari va uzatuvchilari kabi maydonga chiquvchi alohida shaxslarning e'tiqodlari va harakatlari shaklida rivojlanadi va ishlataladi. Shu sababli ham din har doim individ bilan bevosita bog'langan va shaxsiy sohada o'zini namoyon qiladi. Jamoatchilik va individual me'yorlardan tashqari din hamjamiyatlar darajasida mavjud. O'z navbatida diniy dunyoqarash bir nechta tomonni o'z ichiga oladi:

- dunyo to'g'risida eng umumiylasavvurlarni ta'minlovchi ontologik;
- insonni qabul qilish turmush faoliyati subyekti sifatida qamrab oluvchi ekzistensial;
- ontologik va ekzistensiallar o'zaro bog'liqligi jarayonini va uslublarini qamrab oluvchi gnoseologik.

Diniy dunyoqarash insonga mavjud va bo'lishi lozim bo'lgan asosiy, eng yuqori qadriyatlarga mo'ljal olish imkonini beruvchi inson mohiyatining tarkibiy qismlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Jismoniydan yuqori borliqning o'zi, jismoniy va jismoniydan yuqori borliqning to'qnashuvi hamda o'zaro hamkorligi qirrasiga yuzaga keladigan muammolar majmuasi diniy dunyoqarash faolligi yo'naltirilgan predmetlari sifatida maydonga chiqadi [4].

S.T.Raxmonov diniy e'tiqodni psixologik o'rganishning uslubiy muammolarini tahlili davomida o'rganiyatgan tushunchaning tuzilishini ta'riflashda to'xtaladi va diniy e'tiqod darajasi, holati, xarakteri va sathi kabi empirik ko'rsatkichlarni ajratadi. Bunda:

diniy e'tiqod darajasi dinlarning hududiy va ijtimoiy-demografik tarqalishining xususiyatlarini aks ettiruvchi miqdoriy ko'rsatkich, diniy belgililar ko'laming indikatori sifatida belgilanadi;

diniy e'tiqod holati diniy hodisalar jarayonining o'zgarishlari va rivojlanishlarining ham individual ong darajasidagi, shuningdek, ham jamoaviy ong darajasidagi integral xarakteristikasi sifatida ta'riflanadi;

diniy e'tiqod xarakteri diniy faoliyat jarayonida shakllanadigan va rivojlanadigan turg'un sifat xususiyatlarining jamlanmasi sifatida ta'riflanadi;

diniy e'tiqod sathi diniy alomatlar jadalligi, ya'ni diniy bilimlar kuchi, diniy his-tuyg'ularning chuqurligi, ibodat harakatlarining faolligi nuqtayi nazaridan xarakterlanuvchi ko'rsatkich sifatida belgilanadi [5].

S.A.Belousov diniy e'tiqod atamasining mohiyatini ta'riflab, ushbu tushunchani qimmatli hayotiy yo'nalish, inson ongingin subyektiv sifati, diniy qoidalarni amalga oshirishga bo'lgan ichki qobiliyati sifatida qarash mumkinligini bildiradi. Diniy e'tiqod amaliy-talqinini tushunchani aks ettiradi, uning mohiyati diniy e'tiqodning sathini, darajasini, xarakterini ta'riflash orqali namoyon bo'ladi. Diniy e'tiqod sathi shaxs, shaxslar guruhi tomonidan diniy g'oyalar, me'yorlar, qadriyatlarning o'zlashtirilganlik darajasini, ya'ni diniy belgilarning jadallik darjasini xarakterlaydi. Diniy e'tiqod darajasi – bu tushuncha aholi, demografik guruhlar o'rtasida dinning (diniy belgilarning) keng tarqalganligining muayyan kattaligini aks ettiradi. Diniy dunyoqarash xarakteri – turli e'tiqodlar, xuddi shuningdek, alohida hudud e'tiqodli tarafdarlarining sifat ko'rsatkichlarining xususiyatlarini, muayyan farqlarini va o'ziga xosligini aniqlash imkonini beruvchi ko'rsatkich [6].

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

**Muhokamalar va natijalar.** Talabalar diniy dunyoqarashining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish uchun D.O.Smirnovning (MIRA) diniy faollikni o‘lchash metodikasi orqali o‘rganishni maqsadga muvofiq hisobladik. Mazkur metodika uch subshkaladan iborat:

1. Subtest Dindorlikning ichki/tashqi (botiniy/zohiriy) jihatini.
2. Subtest Diniy dunyoqarash negizi tabiiy-ilmiy/diniy ekanini.
3. Subtest diniy faollik darajasini o‘rganish imkonini yaratadi.

Empirik tadqiqotimizning mazkur bosqichining maqsadi Diniy faollikning tarkibiy qismlarining o‘zaro va diniy dunyoqarash asosini tashkil qilgan, jinslararo tafovutlarni belgilagan diniy urf-odatlar o‘zlashtirilishini ta’minlaydigan xulq paydo bo‘lishiga olib keladigan ijtimoiy omillarning eng ustuvorlari bilan kross-tabulyatsion aloqalarini o‘rganishdan iborat.

Taxminimizcha, diniy faollikning tarkibiy qismlari: ichki/tashqi (zohiriy/botiniy) faollik, diniy/ilmiy-tabiiy dunyoqarash, diniy farzlarni ado etishdagi shaxsiy tajribasining jinsiy ifodalari oiladagi o‘g‘il va qizlarning diniy dunyoqarashiga ota va onalarning diniy amaliyat bilan bog‘liq tarbiyaviy faollikkleri tomonidan belgilanishi mumkin.

D.O.Smirnovning (MIRA) diniy faollikni o‘lchash metodikasi orqali olingan “xomaki” qiymatlar, metodikada keltirilgan yo‘riqnomaga binoan standartlashtirilgan sten ballarga o‘tkazilgan. 1-4 stenlar mazkur omilning quyi darajasini, 5-7 stenlar o‘rta va 8-10 stenlar yuqori darajasini aks ettiradi. Ya’ni alohida shkalalar bo‘yicha taqsimlaydigan bo‘lsak:

- 1-shkalada: 1-4 stenlar shaxsning diniy faolligi tashqi motivlar tomonidan;  
 8-10 stenlar shaxsning diniy faolligida ichki (botiniy) motivlar ustunligini qayd etamiz.  
 2-shkalada: 1-4 stenlar shaxsning diniy dunyoqarashi negizida tabiiy-ilmiy negiz ustuvorligi;  
 8-10 stenlar shaxsning dunyoqarashi negizida diniy-mifologik negiz ustuvorligini qayd etamiz.  
 3-shkalada: shaxsning diniy yo‘riqlar (farzlarda)ga amal qilish darajasi:

1-4 stenlar shaxsning diniy yo‘riqlar (farzlarda)ga amal qilishning individual tajribasi mavjudligi e’tirof etiladi; 8-10 stenlar shaxsning diniy yo‘riqlar (farzlarda)ga amal qilish bilan bog‘liq tajribasizligi ko‘zga tashlanadi. Dastlabki diniy faollikning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi nisbiy qiyosiy holati quyidagi 1-jadvalda o‘z ifodasini topgan.

### 1-jadval. Diniy faollikning tarkibiy qismlarini parametrik mezonlari

Komponentlar	N	Minimum	Maximum	O‘rtacha arifmetik	S – standart og‘ish
Ichki/tashqi faollik	285	4	10	5,85	1,339
diniy/ilmiy dunyoqarash	285	1	9	3,76	2,396
Farzlarga amal qilish	285	1	10	5,41	1,820
Valid N (listwise)	285				

Jadvalda keltirilgan diniy faollikka undovchi ichki/tashqi faollik motivlari o‘rtacha arifmetik qiymati 5.85 ni tashkil qilishini ko‘rishimiz mumkin. Ya’ni stenlar shkalasining markazida joylashgan. Xuddi shunday manzara farzlarga amal qilish shkalasida ham namoyon bo‘lgan (5.41). Birgina diniy dunyoqarash negizini ilmiy asos tashkil qilishi alohida e’tiborga molikligini ko‘ryapmiz.


Ya’ni, aytishimiz mumkinki, talaba yoshlarimizda umuman olganda diniy dunyoqarash shakllanishida markaziy o‘rinni olamga bo‘lgan tabiiy-ilmiy, ratsional yondashuv egallaydi. Ularning olamni anglashida mifologik emas, balki tafakkur chig‘irig‘idan o‘tgan tasavvurlar ko‘maklashadi.

Bizning tadqiqotimiz diniy faollikning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi o‘zaro tafovutlarni statistik jihatdan qay darajada ahamiyatliligin o‘rganmasak to‘liq bo‘lmaydi. Ushbu maqsadda biz ular o‘rtasidagi farqlar ahamiyatliligini Studentning ichki guruhiy juft qiyoslash t-mezonidan foydalanishga qaror qildik.

Mazkur mezonga ko‘ra har bir omil o‘zaro qiyoslanadi, faqat bu qiyoslash Studentning mustaqil guruhlar o‘rtasidagi tafovutlarni o‘rganishga mo‘ljallangan mezon orqali emas, balki bir guruhda olingan tobe o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi tafovutlarning statistik jihatdan qay darajada ahamiyatlidir.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

■ O‘rtacha arifmetik;  
Zohiriy/botiniy  
faollik;



■ O‘rtacha arifmetik;  
diniy/ilmiy  
dunyoqarash;



■ O‘rtacha arifmetik;  
Farzlarga amal  
qilish;



### 1-rasm. Diniy faollikning tarkibiy qismlarini parametrik mezonlari

Olingan statistik ko‘rsatkichlar quyidagi 2-jadvalda o‘z ifodasini topgan:

### 2-jadval. Diniy faollikning tarkibiy qismlarini o‘zaro qiyosi

Qiyoslanayotgan juftlik		O‘rtacha arifmetik	N	S – standart og‘ish	t-mezon	Ahamiyatlilik p≤
1	diniy faollik ichki/tashqi	5,85	285	1,339	21,705	0.000
	diniy/ilmiy dunyoqarash	3,76	285	2,396		
2	diniy faollik ichki/tashqi	5,85	285	1,339	5,922	0.000
	farz amallari	5,41	285	1,820		
3	diniy/ilmiy dunyoqarash	3,76	285	2,396	-14,957	0.000
	farz amallari	5,41	85	1,820		

Ko‘rinib turibdiki, diniy faollikning ichki/tashqi (zohiriy/botiniy) motivlari shkalasining o‘rtacha arifmetik qiymati  $M=5.85$  ni, standart og‘ish  $S=1.339$  ni tashkil qilgan bir paytda diniy/ilmiy dunyoqarash o‘rtacha qiymati  $M=3.76$  ni, standart og‘ish  $S=2.396$  ni tashkil qilgan, ular o‘rtasidagi farqlar ahamiyatliligi  $r\leq 0.000$  ( $t=21.705$ ).

Shuni alohida e’tirof etish kerakki, diniy faollikning ichki/tashqi motivlari shkalasining o‘rtacha arifmetik diniy urf-odatlar, farzlarni ado etishdagi ishtiroki darajasini aks ettiruvchi shkalaning o‘rtacha arifmetik qiymatidan ham statistik jihatdan ahmiyatli ravishda yuqoridir (farz amallari shkalasi o‘rtacha qiymati  $M=5.41$ , standart og‘ish  $S=1.820$ ni tashkil qilgan, ular o‘rtasidagi farqlar ahamiyatliligi  $r\leq 0.000$ ,  $t=-14.957$ ). Ya’ni talaba yoshlarimizning dinni o‘zlashtirishga qaratilgan ichki (botiniy) motivlari shiddati hozirda farz amallarini ado etishdagi ishtirokidan ham kuchliroq.

#### **Xulosa.**

1. Shaxsning yaqin ijtimoiy atrof-muhiti, ya’ni diniy dunyoqarash paydo bo‘lishi shaxs tarbiyalangan oila a’zolarining (asosan otasi, onasining) obrazi andazasi bo‘yicha yoki ota-onalarning, yaqin kishilarining dunyoqarashlari obrazi bo‘yicha yuz beradi.

2. Talabalarning diniy dunyoqarashini o‘rganishda erta ulg‘ayishga, yangi ijtimoiy rollarni, jamiyatning yangilangan sharoitlarini o‘zlashtirishga, tashqi dunyonи qabul qilishning izlovchi xarakteriga, ham ijobiy, ham salbiy tashqi ta’sirga nisbatan yengil moyillikda namoyon bo‘ladigan ularning psixologik o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish zarur.

3. Diniy faollikning ichki/tashqi motivlari ham diniy/ilmiy dunyoqarash, ham diniy urf-odatlar, farzlarni ado etishdagi ishtiroki darajasini aks ettiruvchi shkalalarning o‘rtacha arifmetik qiymatidan m statistik jihatdan ahmiyatli ravishda yuqoriligi.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

---

4. Diniy dunyoqarashning umumiy darajasi pasayishi, diniy faollikning tashqi (zohiriy) motivlari bilan belgilanishi, va aksincha, uning ortishi diniy faollikning ichki (botiniy) motivlari tomonidan belgilanayotgan bo‘lishini taxmin qilishimiz mumkinligi.

5. Diniy dunyoqarash shakllanganligining umumiy darajasini pasayishi diniy tasavvurlar bilan belgilanishi, va aksincha, uning ortishi diniy tasavvurlar tabiiy-ilmiy asosga qurilayotgan bo‘lishi.

6. Diniy dunyoqarashning umumiy darajasini pasayishi, shaxsning diniy urf-odat, farzlarni ado etishdagi tajribasizligi, va aksincha, uning ortishi shaxsning diniy urf-odat, farzlarni ado etishdagi tajribasi mavjudligi bilan belgilanishi.

### Adabiyotlar

1. Лобазова О.Ф. Религиоведение: Учебник / О.Ф. Лобазова. - М.: “Дашков”, 2008. - 488 с.
2. Финк Р.А. Религиоведение: Учебное пособие / Р.А. Финк. - Омск: Издательство Омского государственного технического университета, 2009. - 112 с.
3. Ахмедов Р.М. Религиоведение: курс лекций / Р.М. Ахмедов, Р.Ю. Рахматуллин, Т.Ф. Сулейманов. - Уфа: ОН и РИО Уфимского юридического института МВД РФ, 2005. - 219 с.
4. Еротич В. Психологическое и религиозное бытие человека. - М.: “Библейско-богословский институт”, 2004. - 212 с.
5. Раҳмонов С.Т. Методологические проблемы психологического исследования религиозности // Современная психология, 2010. - №4 - С. 143- 155.
6. Белоусов С.А. Психология духовности, веры и религии // Психология религиозности и мистицизма: хрестоматия / сост. К.В. Сельченок. - Минск: АСТ, 2001. - С. 92-146.

**NABIYEVA Odina**

Namangan davlat universiteti psixologiya kafedrası doktoranti

**PANDEMIYA DAVRINING REPRODUKTIV YOSHDAKI AYOLLAR  
RUHIYATIGA TA'SIRI**

*Ushbu maqolada pandemiya davri, ushbu davrda yuzaga kelgan iqtisodiy, oilaviy muammolar, turli noo'rin tarqatilgan xabarlarni reproduktiv yoshdagi ayollar ruhiyatiga ta'siri bayon etilgan va ruhiyatni sog'lomlashdirish, har qanday holatda ham tushkunlikka tushmaslik uchun tavsiyalar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** pandemiya, COVID-19, reproduktiv yosh, ayol, bola, {BMT} Birlashgan millatlar tashkiloti, UNISEF.

**ВОЗДЕЙСТВИЕ ПЕРИОДА ПАНДЕМИИ НА ПСИХИКУ ЖЕНЩИН  
РЕПРОДУКТИВНОГО ВОЗРАСТА**

*В статье описывается период пандемии, экономические и семейные проблемы, возникшие в этот период, влияние различных дезинформационных сообщений на психику женщин в репродуктивного возраста, а также даются рекомендации по психическому здоровью, чтобы они в коем случае не впадали в депрессию.*

**Ключевые слова:** пандемия, COVID-19, репродуктивный возраст, женщина, ребенок, ООН, ЮНИСЕФ.

**IMPACT OF THE PANDEMIC PERIOD ON THE PSYCHE OF  
REPRODUCTIVE AGE WOMEN**

*This article describes the pandemic period, the economic and family problems that occurred during this period, the impact of various misinformation messages on the psyche of women of reproductive age, and makes recommendations for mental health, not to be depressed in any case.*

**Key words:** pandemic, COVID-19, reproductive age, woman, child, United Nations, UNICEF.

**Kirish.** Barchamiz yaxshi bilamizki, bugungi kunda butun insoniyat koronavirus pandemiyasi degan global ofatni boshidan o'tkazmoqda. Bunday ulkan falokat jahon miqyosida so'nggi yuz yilda ro'y bermagan, desak, ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Afsuski, bu ofat butun insoniyat qatori xalqimiz uchun ham kutilmagan tashvish va murakkab muammolarni keltirib chiqardi [3]. Pandemiya davrida shu narsani guvohti bo'ldikki, mamlakatimiz aholisi o'rtaida tibbiy madaniyatni yetishmasligi, pandemiya boshlangan ilk kunlarda koronavirus infeksiyasi haqida to'liq ilmiy ma'lumotlarni yetarli shakllanmaganligi aholi o'rtaida asossiz vahima va turli shov-shuvli xabarlarni tarqalishiga sabab bo'ldi. Bu esa o'z navbatida judayam ko'p fuqarolarimiz orasida tahlikaga tushish, ayrim boshqa kasalliklar sababli tana harorati ko'tarilsa yoki yo'tal tutsa o'lim bilan yuzlashadigandek holatlarga tushib, kuchli ruhiy zo'riqishlarga yo'liqish natijasida qon bosimini keskin ortishi va yurak-qon tomir yoki qandli diabetdek kasalliklarni orttirib olishlariga sabab bo'ldi. Vatandoshimiz tibbiyot olamining buyuk allomasi Abu ali Ibn Sino ming yillar oldin "Vahimaning o'zi yarim kasallik, xotirjamlik yarim sog'lik, sabr esa shifoning boshlanishidir" degan fikri ayni karantin davrlarida o'z isbotini topdi.

**Asosiy qism.** Xotirjamlikning yo'qolishi va asosiz vahima inson ruhiyati va asab tizimini izdan chiqaradi va har qanday xastalikni osongina yengishiga yo'l ochib beradi. +

ning ta'kidlashicha, qo'rquv, xavotir va stress kutilayotgan yoki real yuz beradigan voqealarda, shuningdek, biz noaniqlik va mavhumlik bilan to'qnash kelgan paytda organizmimizda yuzaga keladigan normal reaksiyalardir. Shuning uchun ham koronavirus pandemiyasi davrida qo'rquvni his qilish normal tabiiy jarayondir. Pandemiya davrida virusni yuqtirib olishdan qo'rqishga yana kundalik hayotimizdagi o'zgarishlar ham kelib qo'shiladi, chunki virusni tarqalish zanjirini uzib tashlash uchun bizning harakatlarimiz cheklanadi. Uydan turib ishslash, vaqtinchalik ishsizlik, bolalarni uyda o'qitish, oila a'zolari, do'stlar va hamkasblar bilan aloqlarning uzilishi bilan odamlar nafaqat ruhiy, balki jismoniy sog'ligi haqida ham o'ylashlari zarur bo'ladi [4].

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

COVID-19 pandemiyasi ayollarning salomatligi, xavfsizligi va iqtisodiy farovonligi uchun qo’shimcha muammolarni keltirib chiqardi. “Gazeta.uz”ning yozishicha, bu haqda Jahon banki ekspertlari — Uilyam Zeys (Markaziy Osiyodagi kambag‘allik va tenglik masalalari bo‘yicha dasturlar rahbari) va Odri Saks (ijtimoiy rivojlanish masalalari bo‘yicha katta mutaxassis) maqlolarida qayd etilgan [5]. Xususan, O‘zbekistonda oiladagi zo‘ravonlik holatlari ortgan. Pandemiya tufayli yuzaga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklar bilan bir qatorda, ayollar va qizlarga nisbatan jismoniy, psixologik, iqtisodiy va jinsiy zo‘ravonlik holatlari ham ko‘paygan. Ta’kidlanishicha, mamlakatdagi ushbu turdagи huquqburzaliklar bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlar hali ham mavjud emas. Biroq Ichki ishlar vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2020-yilning yanvar-dekabr oylari davomida genderga asoslangan zo‘ravonlik qurbanlarining xavfsizligi va manfaatlarini ta’minalash uchun 14 800 ga yaqin himoya orderi berilgan. Ayollar, odatda, o‘z oilalarida zo‘ravonlikka ko‘proq uchraydi. 2020-yilda 13 230 ta holatning 82 foizida zo‘ravonlik ularning turmush o‘rtoqlari tomonidan sodir etilgan [6]. Pandemiya davrida xotin-qizlarni ruhiy salomatligini saqlash uchun amalga oshiriladigan tadbirlarni yetarli darajada emasligi ularni har tomonlama qamrab olinmaganligi, maqsadli ishlarni tashkil etish, oilalarda reproduktiv yoshdagи ayollarni ruhiy muhitni mustahkamlash, turli ziddiyatli vaziyatga uchragan ayollarni sog‘lomlashtirishni samarali mexanizmini yaratishga to‘sinqinlik qilayotgan bir qator muammo va kamchiliklarni mavjudligi ushbu mavzuni dolzarbligini ko‘rsatmoqda. Ushbu maqolamizning asosiy maqsadi pandemiya davrini reproduktiv yoshdagи ayollarning ruhiyatiga ta’siri, ayollar ruhiyatiga ta’sir etuvchi omillar, ruhiy holat sabab yuzaga keladigan kasalliklarni bayon etish orqali tug‘ruq yoshidagi ayollarni ushbu jarayonlardan xabardor etish, tushkunlik holatlarini oldini olishga va yuzaga kelgan vahima, tushkunlikdan chiqish uchun tavsiyalar beriladi. Ushbu mavzuning o‘ziga xos xususiyati pandemiya davrini insonlar ruhiyatiga ta’siri reproduktiv yoshdagи ayollar misolida o‘rganiladi.

COVID-19 pandemiyasi ayollarning qashshoqlik darajasi hamda qashshoqlikda yashovchi ayollar va erkaklar o‘rtasidagi farqni keskin oshiradi, deyiladi “BMT-ayollar” va BMT (Birlashgan millatlar tashkiloti) Taraqqiyot dasturining (BMTTD hisobotida. 2019–2021-yillarda ayollar o‘rtasidagi qashshoqlik darajasi 2,7 foizga pasayishi kutilayotgan edi, ammo pandemiya va uning oqibatlari sababli bu ko‘rsatkich 9,1 foizga o‘sishi kutilmoqda. “Biz bilamizki, ayollar oila a’zolariga g‘amxo‘rlik qilish bo‘yicha ko‘p vazifalarni o‘z zimmalariga olishadi, ular kam haq olishadi, kam tejaydilar, odatda barqaror ishga ega emaslar - umuman olganda, ayollarning ish bilan bandligining barqarorlik darajasi erkaklarnikiga nisbatan 19 foizga kamroqdir”, - dedi “BMT-ayollar” tashkiloti rahbari Fumzile Mlambo-Nguka. Bundan tashqari, ekspertlarning fikriga ko‘ra, pandemiyadan eng ko‘p zarar ko‘rgan ba’zi joylarda, masalan, turizm, umumiyoq ovqatlanish, maishiy xizmat va boshqa joylarda asosan ayollar ish bilan band bo‘lgan. Shunga ko‘ra, ular ishsiz qolish va moddiy ta’mintoni yo‘qotishda, ayniqsa, himoyasiz edi. “Bu o‘ta qashshoqlikda yashovchi ayollar va qizlarning umumiyoq sonini 435 mln kishiga yetkazadi va bu ko‘rsatkich 2030-yilgacha pandemiyagacha bo‘lgan darajaga qaytmaydi”, - deyiladi BMT (Birlashgan millatlar tashkiloti) Taraqqiyot Dasturi hisobotida. “Agar hukumatlar ta’lim va oilani rejalashtirish,adolatli va teng ish haqi hamda ijtimoiy nafaqalarni ko‘paytirish bo‘yicha keng qamrovli strategiyani amalga oshirganlarida, 100 million dan ortiq ayol va qizlarni qashshoqlikdan qutqarish mumkin edi”, - dedi BMT Taraqqiyot dasturi rahbari Axim Shtayner. Uning qo’shimcha qilishicha, gender tengsizlikni kamaytirishga sarmoyalar kiritishi nafaqat oqilona va arzon, balki hukumat uchun pandemiya oqibatida yuzaga keladigan qashshoqlikni kamaytirish uchun zudlik bilan amalga oshirilishi kerak bo‘lgan yo‘ldir. [5] Iqtisodiy va oilaviy muammolar ayollar salomatligining yomonlashishiga olib kelgan. 2020-yilning iyul oyidan dekabrgacha ayollarning 47 foizi o‘zlarining ruhiy salomatligini (“yaxshi”, “juda yaxshi” yoki “a’lo”dan farqli o‘laroq) “qoniqarli” yoki “yomon” deb baholagan. Bunday javoblarning eng ko‘pi avgust oyiga to‘g‘ri kelgan. O‘shanda ayollarning 55 foizi o‘zlarining ruhiy holatini “qoniqarli” yoki “yomon” deb ta’riflash mumkinligini aytgan [6]. Reproduktiv yosh - ayollar tug‘ishining tibbiyot tomonidan xavfsiz va ayol sog‘ligi uchun normal holat deb belgilangan yosh davri. Ayollarda reproduktiv yosh o‘rtacha 30 yil (16 yoshdan 46 yoshgacha) davom etadi [1, 144]. Ayrim adabiyotlarda 16-49 yosh deb qayd etilgan [2, 129]. Pandemiya davri Sog‘liqni saqlash sohasidagi favqulodda vaziyatlar sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlardan foydalanishga ta’sir qilishi, stress, jismoniy mehnatni kuchaytirishi va parvarish qilish mas’uliyatini kengaytirishi mumkin. Bu reproduktiv yoshdagи (15 dan 44 gacha) ayollarning sog‘liqni saqlash va ruhiy salomatligiga xavf solishi va ayniqsa homilador va tug‘ruqdan keyingi ayollar va chaqaloqlarga ta’sir qilishi mumkin. CDC (Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazlari) homiladorlik paytida COVID-19 ning ona va chaqaloqqa ta’sirini yaxshiroq tushunish bo‘yicha ko‘plab sa’y-harakatlarni qo’llab-quvvatlamoqda. Ushbu kuzatuv va tadqiqot harakatlarining bir qismi sifatida to‘plangan ma’lumotlar sog‘liqni saqlash sohasidagi harakatlarni boshqarishga yordam beradi va ta’sirlangan homilador ayollar, tug‘ruqdan keyingi ayollar va chaqaloqlarni parvarish qilish bo‘yicha klinik ko‘rsatmalar beradi [7]. Homiladorlik payti ayolning psixologik holati zaiflashadi. Pandemiya esa bu holatlarni murakkablashtiriishi mumkin. Homilador ayollarni koronavirusni

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

yuqtirish ehtimoli yuqorimi degan savol barchamizni qiziqtiradi, quyida shu savolga javob topamiz. Bunday ehtimol homilador bo‘lmagan ayollar bilan bir darajada. Yuqori ham, past ham emas. Ko‘pincha homilador ayollarda koronavirus oddiy shamollahash kabi yengil shaklda o‘tadi, lekin boshqa viruslar singari u organizmda o‘zini qanday tutishini va unga organizm qanday reaksiya qilishini oldindan bilib bo‘lmaydi, ayniqsa homiladorlik davrida. Shunga ba’zi hollarda koronavirus homilador ayollarda kasallanishning og‘ir shakllarini keltirishi mumkin. Shuning uchun homilador ayollar boshqalarga nisbatan ehtiyojkorroq bo‘lishi kerakligi tavsiya etiladi. Koronavirusni homilaga bo‘lgan salbiy ta’siri aniqlanmagan. Undan tashqari aynan kronavirus homila tushishiga ham olib kelmaydi. Oddiy paytda homiladorliklarning deyarli 20%ida depressiya va boshqa psixologik muammolar kuzatiladi. Pandemiya davrida bu kabi holatlar yanada ko‘payishi mumkin. Buning oldini olish uchun homilador ayolga:

- kamroq ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish;
  - yangiliklarni o‘qimaslik;
  - yaqinlari bilan ko‘proq suhbatlashish;
  - yoqimli faoliyat bilan muntazam ravishda shug‘ullanish;
  - adabiyot o‘qish;
  - dardini aytta oladigan inson bilan yaqin bo‘lish;
  - ko‘p dam olish
- tavsiya etiladi.

Agar homilador ayolda o‘zi, homilasi va yaqinlari uchun kuchli qo‘rquv, xavotir sezilayotgan bo‘lsa, tushkunlik alomatlari his etilsa, vahima namoyon bo‘layotgan bo‘lsa, ginekolog yoki psixolog bilan maslahatlashish talab etiladi. Bu borada ularga professional yordam kerak bo‘lishi mumkin [8]. BMT (Birlashgan millatlar tashkiloti) jamg‘armasi mutaxassislari homilador ayollar va ko‘krak bilan emizuvchi onalarning pandemiya vaqtida qanday yo‘l tutishi, qanday qilib virusni yuqtirib olmaslik choralar haqida ma’lumot berdi.“Hozirgi kunda homilador ayollarning COVID-19 ga nisbatan yuqori darajadagi beriluvchanlik borasida ma’lumotlar mavjud emas. Ammo homiladorlik respirator-virusli infeksiyalarga nisbatan ta’sirchanlikni oshiruvchi fiziologik o‘zgarishlar bilan kechishi mumkin. Respirator infeksiyasi bor homilador ayol yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan asoratlarni inobatga olgan holda, albatta, davolanish kursini olishi kerak, deyiladi jamg‘arma bayonotida. Shuningdek, bo‘lajak ona aksiruvchi, yo‘taluvchi odamlar bilan muloqotda bo‘lishdan saqlanishi kerak. Ular qo‘llarini tez-tez yuvib, tarkibida spirt mavjud bo‘lgan vositalardan foydalanishlari zarur. Aksirish yoki yo‘tal vaqtida og‘iz-burunni, albatta, sochiq bilan berkitish zarurligi ham ta’kidlandi. “Koronavirus yuqtirganlikda taxmin qilinayotgan ayol JSST (Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti)ning katta yoshdagи bemorlarga mo‘ljallangan ko‘rsatmalari asosida ayolning akusher-ginekolog shifokori bilan bamaslahat terapiya qabul qilishlari lozim”, deb aniqlik kiritiladi bayonotda. UNISEF (Birlashgan millatlar tashkilotining bolalar jamg‘armasi) bergen ma’lumotlariga ko‘ra, ko‘krak bilan emizuvchi ayol bolani shu zaylda ovqatlantirishni to‘xtatmasligi kerak. Negaki, virus ko‘krak suti orqali onadan bolaga o‘tishi mumkinligi haqidagi ma’lumotlar mavjud emas. Emizish vaqtida ayol niqob taqishi shart. Bola bilan kontaktga kirishishdan avval qo‘llarini yaxshilab sovunlab yuvishi zarur [9]. Har doim homiladorlik rejalshtirilganda ayollarga foliy kislotsasi yetarli miqdorda buyuriladi. Shuningdek, D vitaminini ko‘proq qabul qilish tavsiya etiladi, bu koronavirus kasalligidan keyin tananing tiklanishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatishi isbotlangan. Ko‘proq meva va sabzavotlarni iste’mol qilish, nafas olish yo‘llarini chiniqtirish mashqlarini bajarish tavsiya etiladi. Bir so‘z bilan aytganda, homilador bo‘lish uchun toza havoda yurish, jismoniy mashqlar bajarish va ijobjiy kayfiyat juda muhim. Aslida pandemiya boshlanishidan oldin ham ayollarga shunday tavsiyalar berilgan. Bu tavsiyalarga amal qilish har qanday sharoitda ham naf beradi. Masalan, koronavirus pandemiyasi vaqtida ularni bajarib yurish virusni yuqtirmaslikka yoki yuqtirsma ham uning asoratlari yengil o‘tishiga yordam beradi. Bo‘lajak onalar uchun qat’iy karantinga rioya qilish muhim. Virus yuqtirmaslik uchun iloji boricha ko‘proq harakatda bo‘lish lozim. Odamlar gavjum bo‘lgan joylarga borishdan tiyilish, masofa saqlash, har doim niqobda bo‘lish kerak. Katta oilada masofa saqlash qiyin, chunki er, bolalar va ota-onalar uchun, virus yuqtiradigan bo‘lsa, u homilador ayolga virus yuqtirmaslik uchun, albatta, o‘zini o‘zi yakkalashi kerak [10].

**Muhokamalar va natijalar.** Ruhiy salomatlik bizning hissiy, psixologik va ijtimoiy farovonligimiz holatini anglatadi. Bu haqda o‘ylashning oddiy usuli quydagicha: bizning ruhiy salomatligimiz his qilishimiz va fikrlashimizga, shuningdek, muayyan vaziyatlarda qanday harakat qilishimizga ta’sir etadi [11]. Reproduktiv yoshdagи ayollarni pandemiya davrida ruhiy tushkunlikka tushmasliklari va yuzaga kelgan ruhiy tushkunlik holatlarini yengib o‘tishlari uchun quydagi tavsiyalarni beramiz.

### 1. Uyqu rejimiga rioya qiling.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

---

Uyquning buzilishi nafaqat sog‘liqning holatiga, balki ruhiy salomatlikka ham bevosita ta’sir qiladi. Uyqusizlik paytida bezovtalanayotganda juda muhim gormon melatonin ishlab chiqarilmaydi. Melatonin yetishmovchiligi quyidagilarga yordam berishi mumkin:

- depressiya va xotira buzilishining rivojlanishi;
- uyqusiz uyqu va erta uyg‘onish;
- diqqat konsentratsiyasining pasayishi charchoqni kuchaytirdi.

Shuni ta’kidlash kerakki, melatonin vazn yo‘qotish va yoshlikni saqlab qolish uchun javobgardir. Siz uyqu jadvalingizni qayta ko‘rib chiqishingiz kerak. Birinchidan, uplash vaqt 7-8 soat bo‘lishi kerak. Ikkinchidan, o‘zingizni har kuni bir vaqtning o‘zida yotishga o‘rgatishingiz kerak.

Melatonin ishlab chiqarilishi uchun kechasi 12 dan oldin uxbab qolish kerak. Shu vaqtadan boshlab gormon sintezi sodir bo‘ladi. Yengil yorug‘lik oqimi melatonin sintezini buzishi mumkinligini bilish muhimdir. Shunday qilib, qorong‘u xonada va yoqilgan yorug‘lik moslamalarisiz uplashga arziydi!

### **2. Sog‘lom ovqatlanish.**

Ko‘philigimiz sog‘lom ovqatlanish jismoniy sog‘liq uchun foydali ekanligini bilamiz. Shu bilan birga, ko‘plab kasalliklar, shu jumladan, semirish, yurak-qon tomir kasalliklari, diabet va hatto xavfli o‘smalarning rivojlanish xavfini sezilarli darajada kamaytiradi. Shu bilan birga, inson miyasi ham to‘g‘ri ishlashi va inson tanasidagi boshqa tizimlarning ishlashini nazorat qilish uchun ozuqa moddalarining to‘plamiga muhtoj. Ruhiy salomatlikni sezilarli darajada buzadigan bir qator oziq-ovqatlar mavjud, masalan:

- shakar;
- ozuqa qo‘shimchalari;
- ortiqcha kofein;
- spirtli ichimliklarni suiiste’mol qilish.

### **3. Tana va ongni yaxshiroq javob berish uchun jismoniy faollik.**

Jismoniy faollik sog‘liqning barcha jihatlari, shu jumladan, ruhiy farovonlik uchun juda muhimdir. Shuning uchun sport uchun kuniga kamida 20 daqiqa ajratish tavsiya etiladi.

Bunday holda, yugurish yo‘lida uzoq va zerikarli yugurish bilan o‘zingizni toliqtira olmaysiz. Tabiatda vaqt o‘tishi yaxshi ruhiy holatni ham ta’minkaydi. Yurish jismoniy faoliyatning eng qulay shakli bo‘lib, u tabiat va do‘sstar bilan muloqotda stressning salbiy ta’sirini kamaytirishga yordam beradi. Shuni ta’kidlash kerakki, o‘tiradigan turmush tarzi (ofisda va uyda) ruhiy salomatlikka salbiy ta’sir qiladi.

Eslab qoling, yoga odamga ijobiy psixofizik ta’sirni olish usullaridan biridir, tashvish va depressiya belgilaringin og‘irligini kamaytirishga yordam beradi.

### **4. Tana va ong signallarni tinglang.**

Inson tanasi noyob o‘zini davolaydigan va o‘zini tozalash tizimidir. Kiruvchi va zararli ta’sirlarni qayd etadigan ko‘plab “sensorlar” mavjud. Tana biron bir narsani o‘zgartirish zarurligini ogohlantirganda, ko‘p usullar mavjud. Inson tanasi aqli, bizni har kuni biror narsadan qutqarishga harakat qiladi. Shuning uchun bunday signallarni tinglash kerak. Meditatsiya va yoga amaliyoti bunga qaratilgan, har kuni sinab ko‘ring!

### **5. Minnatdorchilikni mashq qiling.**

Minnatdorchilik bu shifobaxsh eliksirga o‘xshash tuyg‘u. Biror kishi biron bir yorqin narsani sezishni boshlaganda, hayot yorqin ranglar bilan gullaydi. Doimiy tushunish va minnatdorchilik bildirish (har kimga, hatto mushukningizga yoki yaxshi ob-havoga) kayfiyatningiz va farovonligingizni yaxshilaydi.

### **6. Miyangizni ovqatlantiring: o‘rganishni davom eting.**

O‘rganish miyani yaxshi holatda saqlashga yordam beradi va Altsgeymer kasalligi rivojlanish xavfini kamaytiradi. Chet tillarini o‘rganish yoki boshqa oliv ma’lumot olish shart emas. Jarayonning o‘zi juda muhim: ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun professional adabiyotlarni o‘qing. Pishirish darslariga boring. Badiiy va qiziqarli kitoblarni o‘qing. Trikotajning yangi naqshlarini o‘rganing yoki original hunarmandchilik qiling. Asosiy qoida - yangilikka intilish. Agar biror narsaga qiziqmasangiz, uni o‘rganmang, chunki siz allaqachon boshlagansiz. Miyani mamnun qiladigan narsani tanlang. O‘qish obyektlarini o‘zgartirish hatto foydalidir, chunki siz turli faoliyat turlariga o‘tishingiz kerak.

### **7. Hech qachon keraksiz narsalar haqida o‘ylamang.**

O‘tmishni, nima sodir bo‘lganligini va hech qachon bo‘lmasligi mumkin bo‘lgan narsalarni o‘ylamasdan, hozirgi paytda yashash ruhiy salomatlik uchun juda muhimdir. Siz hozirgi paytda yashashni, o‘zingizni va tanangizni his qilishni o‘rganishingiz kerak. Ba’zi odamlar bu davlatni xabardorlik deb atashadi. Bu sizning atrofingizda va yoningizda nima bo‘layotganini aniq bilishingiz shartidir. Bir qarashda, bu juda sodda ko‘rinadi, lekin aslida diqqat va murosasiz halollikni talab qiladi. Masalan, nima uchun g‘azablanganingizni tushuning: kimdir idishlarni yana yuvmagani uchun emas, balki ishda muvaffaqiyatsizlikka uchraganiningiz uchun ertalabdan bezovta bo‘lganiningiz uchun. Va endi siz g‘azabni olib tashlash uchun bahona izlayapsiz. Xabardorlik tufayli odamlar to‘g‘ri qaror qabul qilishadi, chunki biz

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

barcha sharoitlarni tushunamiz va biz nima istayotganimizni bilamiz. Xabardorlik nafaqat chiroyli so‘z, balki hayotni idrok etish usulidir. Bu ruhiy salomatlik uchun zarur!

### **8. Sizni baxtli qiladigan narsani tanlang.**

Hayotingizda qanday baxtli va yoqimli kechinmalar bo‘lsa, umumiy ahvolingiz shunchalik yaxshi bo‘ladi. Haftalik tartibda o‘zingizni baxtli his qilish uchun yetarli sabablarga ega bo‘lish muhimdir. Odamlar va salbiy his-tuyg‘ularni keltirib chiqaradigan vaziyatlar bilan aloqa qilishni rad etishni o‘rganining. Yodingizda bo‘lsin, sizni xursand qiladigan narsa sizning oltin zaxirangizdir, bu stress va hayotdagi to‘siqlarga qarshilikni oshiradi. Ushbu kichik tanlovlarni har kuni qilishni unutmaslik juda muhimdir. O‘zingizni salbiy narsalardan himoya qilishni o‘rganing hamda hayotingizga ijobiy va quvонchli daqiqalarni keltiring.

### **9. Gadgetlar va ma’lumotlardan tanaffus qiling.**

Barcha elektron qurilmalaringiz va internetdan tanaffus oling. Bir kun davomida smartfoningizni uyda qoldiring, ogohlantirishlarni va sizni chalg‘itadigan har qanday narsani o‘chiring. Jonli suhbatga vaqt ajarating, oila yoki do‘srlar bilan qiziqadigan narsaga ega bo‘ling. Buni bir marta qilsangiz, darhol boshingiz qanday ravshanlashayotganini his qilasiz.

### **10. Vaqtini tabiatga bag‘ishlang.**

Ko‘p odamlar bu arzimas tavsiyalarni berishadi, biz allaqachon hamma narsadan charchaganmiz, shuning uchun biz ushbu tavsiyani yangi burchakdan yoritmoqchimiz. Harakatlanuvchi tabiiy obyektlarni (shamolda daraxtlarning tojlari, oqayotgan suv, bulutlar va boshqalar) kuzatish odamni tananing barcha qo‘llab-quvvatlovchi tizimlari, shu jumladan, aqliy faoliyati uchun foydali hisoblanadi. Bundan tashqari, uy o‘simgiklari yoki sabzavot bog‘i bo‘lgan odamlar kamroq stressga duch kelishadi. Toza havo, yangi taassurotlar va ko‘zlar uchun dam olish ham foydali “sotib olish”dir, buning uchun hech qanday maxsus narsa kerak emas. Tabiatga yaqinroq bo‘ling! [12]

**Xulosa** qilib aytganimizda reproduktiv yoshdagagi ayollar ruhiy salomatligiga pandemiya davrining ta’siri kuchli bo‘lmoqdi. Iqtisodiy va oilaviy muammolar, COVID-19 haqidagi turli noo‘rin gaplarning tarqatilishi reproduktiv yoshdagagi ayollar salomatligini yomonlashuviga sabab bo‘lgan. Reproduktiv yoshdagagi ayollarning ruhiy salomatligini saqlash va mustahkamlash uchun mahalla, oila, oilaviy poliklinikalarda mas’ul xodimlar tomonidan profilaktika ishlarini olib borish, COVID-19 qarshi emlanish bu virusni yengib o‘tishning asosiy vositalaridan ekanligini tushuntirish, ruhiy salomatligida o‘zgarishi bor ayollarga to‘g‘ri maslahatlar berish kerak. Ruhiy salomatlikni tiklash uchun tabiat qo‘ynidagi dam oilish maskanlariga oilaviy sayohatlar uyushtirish lozim. Bunday sayohatlar ayolning ruhiy salomatligini tiklanishiga oilalarning mustahkamlanishiga sabab bo‘luvchi omillardan biri xisoblanadi. Biz ruhiy jihatdan sog‘lom bo‘lsak, barchamiz bir maqsad sari harakat qilsak hech qanday virus mag‘lub eta olmaydi, oilalarimiz tinch bo‘ladi, sog‘lom farzandlar dunyoga keladi.

### **Adabiyotlar**

1. Akramova.F.A, Bilolova.B.Z, Jovliev.S.I Oila ensiklopediyasi. –Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2019. -144 b.
2. Aripova.S.M; Bo‘rixo‘jayeva H.S. Sog‘lom avlodning tibbiy- ijtimoiy asoslari o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2016. -29 bet
3. oliy-majlisga-murojaatnama-baxtiyoruz.doc (live.com)
4. t.me/namdu309 “Koronavirusning “britancha shtammi” va uning inson ruhiyati va salomatligiga ta’siri” Namangan davlat universiteti dotsenti, Biologiya fanlari doktori, Abdullaev G‘ofurjon Raximjonovich 3-4 bet 08.02.2021
5. Pandemiya ayollar orasida qashshoqlikni kuchaytiradi - BMTTD – Gazeta.uz
6. O‘zbekistonda pandemiya davrida oilalardagi zo‘ravonlik holatlari ortdi - Daryo
7. <https://www.cdc.gov/reproductivehealth/emergency/index.html>
8. rcpsych.ac.uk Muminova D.R. Uzbaby.uz uchun
9. Koronavirus: Pandemiya vaqtida homilador va ko‘krak bilan emizikli ayollar nima qilishi kerak? (aniq.uz)
10. “Koronavirus homilador ayollar uchun grippdan ko‘ra xavfsizroq”. Bo‘lajak onalar uchun taskin va tavsiyalar (kun.uz)
11. Ruhiy salomatlikni qanday yaxshilash mumkin - moda - 2021 (entwicklungsethnologie.org)

**KAYUMOV Oybek**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy  
universitetining Jizzax filiali kompyuter  
ilmari va dasturlashtirish kafedrasи mudiri

**INTERAKTIV INTELLEKTUAL ELEKTRON TA’LIM RESURSINI YARATISH  
JARAYONINI MODELLASHTIRISHNING METODIK ASOSLARI**

*Ushbu tadqiqotning maqsadi oliy o‘quv yurtlarida kadrlarni tayyorlashda interaktiv intellektual elektron ta’lim resursi yaratish, veb va axborot texnologiyalari asosida ta’limning axborotlashuviga jarayonlariga sun’iy intellektni keng tatbiq etish orqali ta’lim sifatini oshirish. Elektron ta’lim resursi interaktiv bo‘lishi va talabalarni o‘quv jarayoniga faol jaib qilishi kerak. Tadqiqot metodlari amaliy mashg‘ulot va mustaqil ta’lim topshiriqlarni qiyinchilik darajasiga nisbatan masalani quyi pog‘onadagi bo‘laklarga ajratish orqali talabaga qo‘ylgan masala mohiyatini anglatishdan iborat. Tadqiqot natijalarini elektron ta’lim jarayoniga sun’iy intellektni qo‘llashning asosiy yutug‘i shundaki, talabaga bo‘s sh vaqtida mustaqil o‘rganish imkonini beradi.*

**Kalit so‘zlar:** elektron pedagogika, e-learning, interaktiv, intellektual, AI, sun’iy intellekt, topshiriqlarni differensiyallash, topshiriqlarni integrallash.

**МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МОДЕЛИРОВАНИЯ ПРОЦЕССА СОЗДАНИЯ  
ИНТЕРАКТИВНОГО ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО ЭЛЕКТРОННОГО  
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО РЕСУРСА**

Целью данного исследования является создание интерактивного интеллектуального электронного учебного ресурса при подготовке кадров в высшей школе, повышение качества образования за счет широкого использования искусственного интеллекта в информатизации образования на основе сети и информационных технологий. Электронный образовательный ресурс должен быть интерактивным и активно вовлекать учащихся в учебный процесс. Методы исследования заключаются в выражении сути проблемы, поставленной студентом, путем разделения проблемы на части более низкого уровня по отношению к уровню сложности практических занятий и самостоятельных учебных задач. Результаты исследования показывают, что главным достижением применения искусственного интеллекта в процессе электронного обучения является то, что он позволяет обучающемуся заниматься самостоятельно в свободное время.

**Ключевые слова:** электронная педагогика, электронное обучение, интерактивное, интеллектуальное, AI, искусственный интеллект, дифференциация задач, интеграция задач.

**METHODOLOGICAL BASES FOR MODELING THE PROCESS OF CREATING  
INTERACTIVE INTELLIGENT ELECTRONIC EDUCATIONAL RESOURCE**

*The purpose of this study is to create an interactive intellectual e-learning resource in the training of personnel in higher education, to improve the quality of education through the widespread use of artificial intelligence in the informatization of education based on the web and information technology. An e-learning resource should be interactive and actively engage students in the learning process. Research methods consist of expressing the essence of the problem posed by the student by dividing the problem into lower-level sections in relation to the level of difficulty of practical training and independent learning tasks. The results of the research show that the main achievement of the application of artificial intelligence in the e-learning process is that it allows the student to study independently in his spare time.*

**Keywords:** electronic pedagogy, e-learning, interactive, intellectual, AI, artificial intelligence, task differentiation, task integration.

**Kirish.** Jahonning rivojlangan davlatlarida axborot texnologiyalari asosida ta’limning axborotlashuviga jarayonlariga sun’iy intellektni tatbiq etish orqali yuqori natijalarga erishmoqda. AI (sun’iy intellekt) - bu bizning ijtimoiy munosabatlarimizning barcha jihatlarini o‘zgartirishga qodir bo‘lgan jadal rivojlanayotgan texnologik sohadir. Ta’lim sohasida sun’iy intellekt asosida o‘qitish va o‘rganish yechimlarini ishlab

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

chiqarishni boshladi, ular hozir turli kontekstlarda sinovdan o’tkazilmoqda. Sun’iy intellekt ilg‘or infratuzilmalar va rivojlanayotgan innovatorlarni talab qiladi. Raqamli va ijtimoiy tafovutni kamaytirish uchun imkon qadar tezroq hal qilish uchun sun’iy intellekt ustuvor vazifa bo‘lishi kerak. Ta’lim sifatini raqamli texnologiyalar asosida doimiy takomillashtirish bo‘yicha yirik loyihalarni amaliyatga tatbiq etish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda.

**Asosiy qism.** Oliy ta’lim muassasalarida mutaxassis kadrlarni tayyorlash jarayoniga interaktiv intellektual dasturiy vositalar, masofaviy ta’lim shakllarini keng tatbiq etish, ochiq ta’lim resurslari, aralash ta’lim (online,/offline) texnologiyalarini rivojlantirishda intellektual elektron ta’lim resurslaridan foydalanish dolzarb muammo sifatida qaralmoqda. Elektron ta’lim jarayoniga sun’iy intellektni qo’llashning asosiy yutug‘i shundaki, talabalarning texnikaga savol berib undan javob olishidir. Talabalar ba’zan auditoriyada savol bermaslikka harakat qilishadi, chunki tengdoshlari gaplarini rad etishdan qo‘rqishadi. Shu sababli ta’limda interaktiv intellektual dasturiy vositalar joriy etgan holda elektron ta’limdan foydalanishga asoslangan talabalarning ta’lim faoliyatini individuallashtirishga bo‘lgan yondashuvlarni amalga oshirish mumkin bo‘ladi. Bo‘lajak muhandislarni tayyorlash jarayonida texnika fanlarni o‘qitish uchun ta’lim xizmatlarini vizuallashtirish va axborot–kommunikatsiya texnologiyalari yutug‘larini tadbiq etish orqali ta’lim sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish, tahliliy natijalarini umumlashtirish hamda xulosalash mexanizmlarining amaliyoti alohida o‘rin tutadi.

Mashina o‘qituvchi bo‘lishi uchun sun’iy intellekt boshqa aqlli vazifalarga qaraganda ancha rivojlangan bo‘lishi kerak. Ilg‘or texnologiyalar bizga elektron o‘quv materiallarini sifatli tayyorlash uchun imkon beradi. Sifatli elektron o‘quv materiallarini ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan resurslar hajmi shunchalik kattaki, bizda hali ham yuqori sifatli elektron o‘quv materialari yetishmayapti. Keyinchalik takomillashtirilgan bu ta’lim dasturiy ta’minoti masalasi va mavjud elektron o‘quv materiallarini ko‘rib chiqish va tahlil qilishdan kelib chiqqan holda, ularning aksariyati dasturlashtirilgan o‘quv resurslari hisoblanadi.

1950-yillarda olimlar ta’limda sun’iy intellekt yechimlarini o‘rganishni boshladilar. Tizim qachon “aqlii” deb hisoblanadigan muammoning birinchi yechimi Turing tomonidan taklif qilingan (Russell & Norvig, 2010). U simulyatsiya qilingan o‘yinni inson tinglovchisining mashina va boshqa odam bilan suhbatni farqlash qobiliyatini sinab ko‘rishni taklif qildi; agar tizim bu farqni aniqlay olmasa, biz ta’limda sun’iy intellekt (AI) borligini tan olamiz.

1956-yilgi Dartmut konferensiyasida sun’iy intellekt (AI) sohasi haqidagi fikrlar yuritilgan. Yaqin tarixdagi bir nechta texnologik ishlanmalar AIning rivojlanishiga olib keldi. AI qariyb 60 yildan beri mavjud bo‘lsa-da, so‘nggi yillardagi keskin o‘zgarishlar (“katta sakrash” deb ataladi) tufayli ma’lumotlarning ko‘pligi (katta ma’lumotlar), iqtisodiy foydalanish imkoniyatini ta’milanganligi sababli u yaqin vaqtgacha ishlatilmayotgan texnologiya bo‘lib qoldi.

Keyinchalik 1956-yilda Jon Makkarti ta’limda sun’iy intellektning eng keng qamrovli ta’riflarini taklif qildi: “AI - o‘rganishning har bir jihatni yoki aqlning boshqa har qanday xususiyati aniq mashina yoki dasturning xususiyatini tasvirlash mumkin degan taxminning asosidir; tizim ko‘rsatadigan aql” (Kerr, 2017).

Ta’limda sun’iy intellektning asosiy ta’rifi mavjud adabiyotlarda o‘tgan tadqiqotlarni qayta ko‘rib chiqishga asoslangan (Dacre Pool & Qualter, 2012). Ta’limda sun’iy intellekt (AI) o‘rganish, moslashtirish, sintez qilish, o‘z-o‘zini tuzatish va murakkab ishlov berish vazifalari uchun ma’lumotlardan foydalanish kabi insonga o‘xshash jarayonlarni amalga oshiradigan hisoblash tizimlari sifatida ta’riflanadi.

Ta’limda sun’iy intellekt hozirda jadal sur’atlar bilan rivojlanmoqda va bu allaqachon oliy ta’limdagи xizmatlarning chuqur tabiatiga ta’sir qilmoqda. Ta’limda sun’iy intellektning ba’zi yechimlari dasturlashga juda bog‘liq, ammo bu yechimlarning ba’zilari ajralmas xususiyatga ega.

**Muhokamalar va natijalar.** Ushbu ilmiy metodni, bizning tadqiqotimiz uchun qo’llashning dolzarbligi shundan iboratki, model nazariya va voqeylek o‘rtasidagi bo‘g‘in roilda ishtirot etishi mumkin. Bundan tashqari modelni oldindan yaratish konseptual g‘oyalarni ko‘rgazmali shaklda taqdim etish va resursni yaratish jarayoni barcha ishtirokchilarining (o‘qituvchilar, mutaxasislar, dasturiy taminot ishlab chiquvchilar) o‘zaro bir-birini tushunishlariga yordam beradi.

Modellashtirish esa pedagogik loyihalashning eng muhim bosqichi bo‘lib, unda nima bo‘lishi kerak bo‘lsa, shu haqida eng qisqa tafsilotni anglish faoliyatini tushuniladi.

Interaktiv elektron ta’lim resurs modelini ishlab chiqishda o‘qitish maqsadi va ta’lim tamoyillari, ta’limga yondashuv kabi tayanch tushunchalarga tayanildi.

Algoritmik tillar va dasturlashga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni egallah bo‘yicha faoliyat metodikada belgilangan maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Ta’lim vositalari (ularning qatoriga bizning tadqiqotimizda ko‘rib chiqilayotgan elektron ta’lim resurs ham kiradi) ta’lim oluvchi

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

(talaba) bajaradigan barcha harakatlar “Algoritmik tillar va dasturlash” o‘quv kursini o‘qitishda ko‘zda tutilgan maqsadiga erishishga yordam beradigan tarzda konstruksiyanishi kerak [1].

Dasturlash tili buyruqlarini o‘rganish jarayonida elektron ta’lim resursning tarbiyaviy ta’siri quydagilar yordamida amalga oshiriladi: o‘quv materiallarning mazmuni: ta’lim oluvchilar mustaqilligini rag‘batlantirishi. Buning uchun esa, elektron ta’lim resurs tarkibiga kiritiladigan materiallarni shunday tarzda tanlab olinadi, ta’lim oluvchining topshiriqlar bilan ishlashning nafaqat eng optimal ish strategiyalari va taktiklariga o‘rgatish, balki har bir buyruqning o‘ziga xos xususiyatlari haqida ma’lumotlarni taqdim etadi.

Elektron ta’lim resurs ta’lim oluvchilarning mustaqil ishini rag‘batlantirishning samarali vositasi hisoblanadi, chunki ularga zarur bo‘lgan materiallarni nafaqat taqdim etadi, balki ular bilan interaktiv rejimda zarur ish usullarini egallashga yordam beradi. Elektron ta’lim resurs har bir ta’lim oluvchi tomonidan yo‘l qo‘yiladigan tipik xatolarni aniqlash va ushbu xatolar yo‘l qo‘yilgan topshiriq tiplarini bajarishning eng optimal va samarali usullarini egallashga yordam beradigan tarzda ishlab chiqilgan [3].



Yuqoridagi 1-rasmda talabaga topshiriqlarni qadamma-qadam bo‘laklab berish jarayonining modeli tasvirlangan. Bunda berilgan topshiriqni ta’lim oluvchining bajara olishiga qarab, n ta bo‘laklarga ajratiladi. O‘qitish tamoyillari – bu boshlang‘ich qoidalar bo‘lib, ular birgalikda o‘quv jarayoni va uning tarkibiy qismlariga bo‘lgan talablarni ya’ni, maqsadlar, vazifalar, metodlar, vositalar, tashkiliy shakllar, o‘qitish jarayoni belgilaydi.



**2-rasm. Topshiriqni bo‘laklarga ajratadi va nihoyat yechimini taqdim etadi**


Yangi avlod ta’lim vositalari sifatida elektron ta’lim resurs modelini ishlab chiqish asosiy didaktik, psixologik va o‘qitishning shaxsiy metodologik tamoyillariga, shuningdek elektron pedagogika tamoyillariga asoslanadi [1]. Yechim ham talabaga keyingi topshiriqlarni bajarish yoki yuqori qadamdagi bo‘lakni mazmun mohiyatinini anglashga ko‘mak beradi.

Bundan tashqari, elektron ta’lim resurs tarkibiga kiritilgan qiziqarli va dolzarb axborotni o‘z ichiga olgan fan bo‘yicha o‘quv materiallari ta’lim oluvchining motivatsiyasini qo‘llab-quvatlaydi. Resursning o‘quv materiallarni tez va katta moddiy xarakatsiz yangilash va tuzatish imkoniyati, ta’lim oluvchiga taklif etiladigan topshiriq materiallari doim dolzarb bo‘lishini kafolatlaydi. Resursning elektron shakli, uning rasmiylashtirilishi, multimediali ma’lumot mavjudligi, zamonaviy shaxsning taraqqiyot fan va texnika yutuqlari haqidagi tasavvurlariga mosligi, istalgan qulay vaqtida va qulay joyda foydalanish, shuningdek, bosma shakldagi o‘quv materiallarni xarid qilib olishni tejash imkonini beradi.


Ta’lim oluvchi shaxsining individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olish tamoyili elektron ta’lim resursida quyidagi tarzda amalga oshiriladi: dastur chiziqli bo‘Imagan ko‘rinishda tashkil etilgan, topshiriqlar

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

to‘plami va tarkibi, ma’lumotnomali axborot, mashq qilish davomida ta’lim oluvchiga beriladigan maslahatlarning muvaffaqiyatliligi va bajarish tezligiga bog‘liq ravishda farqlanadi.



**3-rasm.** Topshiriqni bo‘laklarga ajratadi va natijalar birlashtiriladi



**4-rasm.** Topshiriqlarni bo‘laklarga ajratib, natijani jamlash algoritmi

Tajriba-sinov ishlarini olib borishda olingan natijalar samaradorligini aniqlash maqsadida talabalarga kasbiy bilim va ko‘nikmalarini baholashda oliy ta’lim muassasalarida nazorat guruhlarida erishilgan natijalar bir-biri bilan taqqoslandi. Nazorat guruhlarida o‘qitish jarayoni amaldagi an’anaviy o‘qitish asosida amalga oshirilgan bo‘lsa, tajriba-sinov guruhlarida biz taklif etgan elektron ta’lim resursdan foydalangan holda masofaviy o‘qitish asosida o‘tkazildi.

Biz taklif etgan “Algoritmik tillar va dasturlash” majburiy fani bo‘yicha o‘qitish jarayonini elektron ta’lim resurslari asosida tashkil etish natijasida o‘qitishda ta’lim samaradorligining oshishini kuzatdik.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarining maqsadi ilmiy tadqiqotimizda ilgari surilgan farazimizning nechog‘lik to‘g‘ri ekanligini isbotlashdan iborat edi.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

Tajriba-sinov guruhlarining natijalari muntazam tahlil etildi va bir-biriga qiyoslanib, xulosa chiqarildi. Zarur bo‘lgan hollarda bu jarayonda bevosita ishtirok etuvchi o‘qituvchilar tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalar atroflicha muhokama etib borildi.

### 1-jadval.Talabalarni topshiriqlarni bajarish ko‘rsatkichlari

№	Talaba soni	Birinchi qadamda bajargan talabalar	Topshiriqni bo‘laklash natijasida	Ko‘rsatma yordamida bajarganlar	Topshiriqni umuman bajara olmaganlar
1	28	<b>5</b>	18	4	<b>1</b>
2	27	<b>7</b>	15	3	<b>2</b>
3	29	<b>6</b>	19	4	<b>0</b>
4	28	<b>9</b>	12	6	<b>1</b>
5	26	<b>6</b>	17	3	<b>0</b>
6	27	<b>3</b>	20	3	<b>1</b>
7	17	<b>8</b>	6	1	<b>2</b>
8	16	<b>2</b>	8	5	<b>1</b>
	<b>198</b>	<b>46</b>	<b>115</b>	<b>29</b>	<b>8</b>
	<b>100%</b>	<b>23,2 %</b>	<b>58 %</b>	<b>14,6</b>	<b>4,2 %</b>

Talabalarni topshiriqlarni birinchi qadamda tushunishlari birmuncha qiyin hisoblanadi. Tajribada jami 198 nafar 1-kurs talabalar ishtirok etdi. Jadvalimizda ko‘rsatilganidek, birinchi qadamda bajargan talabalar jami 46 tani, yani 23,2 % ni tashkil etadi. Bu degani talabalar an’anaviy darsda ko‘pi bilan 30 % talaba o‘zlashtirishi mumkin. Mustaqil o‘rganish orqali bu ko‘rsatkichni oshirishimiz mumkin bo‘ladi. Har bir talaba bilan alohida shug‘ullanishning imkonini bo‘lmaydi. Bu masalaning yechimi electron ta’lim resurslari orqali qamrovni oshirishimiz mumkin bo‘ladi. Topshiriqni bo‘laklash natijasida 115 nafar talaba topshiriqni bajara oldi. Shunda topshiriq bajargan talabalar 161 nafarga yetdi. Bu 81,2 % ni tashkil etadi.

**Xulosa va takliflar.** Ushbu interaktiv intellectual electron ta’lim resursi sun’iy intellektga asoslangan bo‘lib, talaba toki o‘rganmaguncha keying topshiriqqa o‘tmaydi. Topshiriq darajasini pasaytirib bo‘laklarga ajratib bo‘laklarni taqdim etaveradi. Har bir bo‘lak ishlanganda uning natijasini saqlab, parallel bo‘lakni ishlashga imkon beradi. Parallel bo‘laklar natijalari olingandan so‘ng yaxlit topshiriq qayta taqdim etiladi va natija olinadi. Bunday jarayon ko‘p vaqt talab etishi mumkin, lekin avtomatik tarzda n ta talaba parallel ishlashi mumkin. Shu bois vaqt va samaradorlik yuqori bo‘ladi. Dars jarayonida talaba auditoriyada savol berishiga imkon bo‘lmasisligi mumkin, lekin electron ta’lim resursidan qayta-qayta so‘rashi va o‘rganishi mumkin. Muammoga bag‘ishlangan adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, insonda ijodkorlikni shakkantirish tarbiyaning vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bois oily ta’lim muassasalari talabalarini mustaqil ta’lim olishida mutaxassislik ijodiyotini rivojlantirish dolzarb muammo hisoblanadi. Interaktiv intellectual electron ta’lim resursidan foydalanganda talabaning mustaqil fikrlash doirasi keskin o‘zgaradi. Sun’iy intellect ta’limga qo‘llanganda talabalarning eng yaxshi natijaga erishishi uchun birgalikda ishlaydigan virtual o‘qituvchisi hisoblanadi. Ta’limni individual talabaning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda moslashtirish o‘qituvchilar uchun yillar davomida ustuvor vazifa bo‘lib kelgan, ammo AI har bir guruhda 20-30 nafar talabalarni boshqarish imkonini va differensiallik darajasini beradi.

### Adabiyotlar

- 1.Туракулов О.Х, Савурбаев А, Эшанкулов Б. С. Территориально распределённая информационно-образовательная среда и методы оценки её электронно-образовательной ресурсной базы. Сборник научных статей по итогам работы Международного научного форума. Москва 2019. 124-131 с.
2. Kayumov O.A.,Interaktiv intellektualelektron ta’lim resursini sun’iyintellekt yordamida yaratish.O‘zMU XABARLARI, 1/4 2022, 96-100 betlar.
3. Achilovich, Q. O. (2021). Efficiency of Using Smart Technologies in Teaching Technical Sciences in Higher Educational Institutions. Middle European Scientific Bulletin, 17, 133-137.
4. Pozilova Sh., Mirsaliyeva M., Kayumov O. International Conference on Education and Training Technologies. Development of professional creativity of professional teachers in professional courses on the basis of e-pedagogy principle. 2022 Macau, China.
5. Kayumov, O. (2021). Scientific and theoretical basis of development and introduction of innovative methods in inclusive education. Scienceweb academic papers collection.

**SANAYEVA Surayyo**

Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti,  
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
(PhD)

**FLESHMOBLAR – TALABALARING OMMAVIY TADBIRLARDA ISHTIROKINI  
TA’MINLASH USULI SIFATIDA**

*Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasasi talabalarining ma’naviy-ma’rify, tarbiyaviy ishlarga jalg etish zarurati, jumladan, ommaviy tadbir usuli sanalmish ‘fleshmob’lar va ularning o’tkazilish tartibi haqida bayon etilgan. Shuningdek, fleshmoblarning paydo bo‘lish tarixi, asosiy tamoyillari, ularning umum qabul qilingan qoidalari, fleshmoblarni o’tkazishdan maqsadlar hamda oliy ta’lim muassasalarida talabalarining fleshmoblarda ishtirokini ta’minlash yo’llari ko’rsatib o’tilgan.*

**Kalit so‘zlar:** talaba, ma’naviy-axloqiy shakllanish, ommaviy tadbirlar, fleshmob, fleshmobning paydo bo‘lish tarixi, fleshmoblarning maqsadi, tamoyillar, umumqabul qilingan qoidalari, OTMda o’tkaziladigan fleshmoblar.

**ФЛЕШМОБ КАК СПОСОБ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УЧАСТИЯ СТУДЕНТОВ  
В МАССОВЫХ МЕРОПРИЯТИЯХ**

*В данной статье описывается необходимость привлечения студентов высших учебных заведений к духовно-нравственной, воспитательной работе, в том числе к “флешмобам”, являющимся методом массовых мероприятий, и порядок их проведения. Также изложена история флешмобов, их основные принципы, их общепринятые правила, цель флешмобов и способы обеспечения участия студентов во флешмобах в высших учебных заведениях.*

**Ключевые слова:** студент, духовно-нравственное формирование, массовые мероприятия, флешмобы, история флешмобов, цель флешмобов, принципы, общепринятые правила, проводимые флешмобы в высшей школе.

**FLASHMOB AS A WAY TO ENSURE STUDENT PARTICIPATION IN MASS EVENTS**

*This article describes the need to involve students of higher education in spiritual, educational, educational work, including "flash mobs", which are a method of public events, and the order of their holding. It also outlines the history of flash mobs, their basic principles, their generally accepted rules, the purpose of flash mobs and ways to ensure the participation of students in flash mobs in higher education institutions.*

**Keywords:** student, spiritual and moral formation, public events, flash mobs, history of flash mobs, purpose of flash mobs, principles, generally accepted rules, flash mobs held in higher education.

**Kirish.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmonida ko‘rsatilgan 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 70-maqsadida yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruvida, zargarli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo‘lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash, ularni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo‘ravonlik va shafqatsizlik g‘oyalaridan himoya qilish, ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, iqtidorli va iste’dodli yoshlarni qo‘llab-quvvatlash hamda rag‘batlantirish, sog‘lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek, yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish masalasiga alohida urg‘u berilgan [1].

**Asosiy qism.** Talaba-yoshlarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish ko‘p qirrali va murakkab jarayondir. Talabalarning ma’naviy-axloqiy shakllanishi bir-biri bilan uzviy bog‘liq va biri ikkinchisini taqozo qiladigan yaxlit ta’lim-tarbiya ishlarini muntazam va izchil ravishda bajarishni talab etadi [3].

Ma’lumki, oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-tarbiyaviy ishlar, tadbirlar ko‘plab o’tkaziladi. Shunga qaramay, talabalar orasida axloq-odobga to‘g‘ri kelmaydigan xatti-harakatlar uchrab turadi, ya’ni oliy ta’lim muassasalarida amalga oshirilayotgan tarbiyaviy ishlar birdek natija bermaydi. Ko‘pincha, oliy ta’lim muassasasi tarbiyaviy ishlar universitet, institut miqyosida, shuningdek, fakultet va guruhlarda biri ikkinchisi

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

bilan bog‘lanmagan har turli tadbirlarni amalga oshirishdan iborat bo‘lib qolmoqda. Odatda, bunday tarbiyaviy tadbirlarda ko‘pincha faolroq talabalar qatnashadilar. Tarbiyaga muhtoj va tarbiyalash zarur bo‘lgan ayrim talabalar esa bu ishdan chetda qolaveradi. Tarbiyaviy ishning ba’zan kam samara berayotganligining sabablaridan yana biri, yoshlarga axloqiy ta’sir o‘tkazish usullarining bir tomonlamaligidadir. Ommaviy tadbirlar ana shu muammoning yechimini yechishga yordam beruvchi usul sanaladi.

Ommaviy tadbirlar ma’lum bir tashkilotchi yoki tashkilotning xohishiga qarab o‘tkazilmasdan, balki keng xalq ommasining tadbirga bo‘lgan ma’nnaviy ehtiyoji tug‘ilganda o‘tkazadigan, haqiqiy tadbir tomoshasi sanaladi. Mustaqillik g‘oyalarini keng xalq ommasiga singdirish, ulardagi yuksak fuqarolik tushunchalarini tarbiyalashda ommaviy tadbirlarning tutgan o‘rni beqiyosdir [2].

Ommaviy tadbirlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

- teatrlashtirilgan konsert;
- konsert-miting;
- ommaviy sayl;
- teatrlashtirilgan namoyish;
- ko‘chalarda, maydonlarda, stadion va bog‘larda o‘tkaziladigan tadbir harakati;
- milliy san’at dekadalari;
- san’at festivallari;
- qo‘sish tadbirlari;
- raqs tadbirlari;
- karnavallar;
- suvda o‘tkaziladigan tadbirlar;
- ochiq havoda namoyish etiladigan teatr-spektakllar;
- ko‘cha tadbirlari;
- sport tadbirlari;
- bolalarning teatrlashtirilgan tadbirlari;
- aksiyalar;
- fleshmoblar.

Ushbu ommaviy tadbirlarni o‘tkazishdan asosiy maqsad – yoshlarni bir maqsad yo‘lida birlashtirish, ommaviy madaniyatni shakllantirish sanaladi. Ommaviy tadbirlarda oliy ta’lim muassasasi talabalarining umumiyligi maqsadlari sari harakatini tashkil etish, madaniy-ma’naviy yuksalishini ta’minalash usullaridan biri bu “fleshmob”lardir.

“**Flashmob**” inglizcha so‘zdan olingan bo‘lib, “flash” – “chaqmoq, yashin, lahza” va “mob” – “olomon, bir guruh odamlar, to‘da” ma’nolarini bildirib, “bir zumda ommaviylik” deb tarjima qilinadi [9].

**Flashmob** – tarbiyaviy faoliyatning nisbatan yangi shakli sanaladi. Media tadbirning mazkur shakli o‘zining noan’anaviyligi, ijodiy imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish imkoniyatining yuqoriligi bilan talabalarni o‘ziga tez jalg etadi. Flashmob, ya’ni “zumda” va “olomon” tushunchalari birinchi marta XX asrning 70-yillarida kelajakda arzon teleportatsiya haqida hikoya yaratgan amerikalik fantast yozuvchi tomonidan birlashtirilgan.

2002-yilda amerikalik sotsiolog Govard Reingoldning kitobi nashr etildi, u XXI asrda axborot texnologiyalarining o‘sib borayotgan imkoniyatlaridan foydalangan holda, odamlar ommaviy aksiyalarini o‘tkazish uchun birlashishini bashorat qildi. O‘zini madaniyatli ko‘rsatuvchi bunday guruhalr “smart mob”, ya’ni “aqlli olomon” deb ataldi[9].

Fleshmob atamasi bugungi kunda bir guruh odamlar, jumladan, begona kishilar ishtirok etadigan ommaviy aksiya sifatida tushuniladi. Olomon belgilangan joyga yig‘ilib, ma’lum vaqt oralig‘ida o‘zlariga biriktirilgan vazifaga ko‘ra to‘planishadi va keyin esa tezda (bir zumda) go‘yo hech narsa bo‘limganday tarqalib ketishadi.

Tarixiy faktlarga ko‘ra, fleshmoblarning rasmiy tashkil etilgan sanasi 2003-yil 17-iyunda bo‘lib, aynan shu kuni bir yuzi ellikga yaqin odam dunyodagi eng yirik – Nyu-Yorkdagi “Macy’s” do‘konidagi qimmatbaho gilam yonida to‘planib, sotuvchilarga megapolisning chekkasidagi omborxonada yashashlarini va “Muhabbat gilami”ga erishmoqchi bo‘lishganini tushuntirishadi.

Birinchi Yevropa aksiyasi o‘sha yilning 24-iyulida Rimda bo‘lib o‘tdi. Uch yuz kishi kitob do‘konida to‘planib, sotuvchilardan nomlari yo‘q kitoblarni talab qilishadi. 2003-yil 16-avgustda Rossiya va Ukrainada birinchi fleshmoblar bo‘lib o‘tgan.

Mutaxassislarining fikricha, yuqoridaqiga o‘xshash harakatlar avval ham sodir bo‘lgan bo‘lib, ya’ni uyushgan odamlar guruhlari metroda shimsiz yurishgan, mamlakatning turli mintaqalaridan velosipedda sayr

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

qilish uchun yig‘ilganlar yoki bir zumda Nyu-York vokzalida turli xil holatlarda muzlab qolishgan. Biroq, bugungi kunda fleshmoblar haqiqatan ham ommaviy aksiyaga aylanib bormoqda [9].

Hozirgi kunda ushbu harakatning terminologiyasi va qoidalari ishlab chiqilib, uning nomi lug‘atlarining akademik nashrlarida va ommaviy axborot vositalarida mustahkam o‘rin olmoqda. Fleshmoblarda har bir harakatning maqsadi uning turiga bog‘liq bo‘ladi. Odatda, ular ishtirokchilarining o‘z-o‘zidan o‘yin-kulgilari va o‘tkinchilarni hayratda qoldirishi uchun tashkil etiladi: odamlar ommaviy raqsga tushishadi, qo‘shiq aytishadi, supermarketlar poliga yotishadi, o‘tkinchilarni quchoqlashadi, yostiq janglarida qatnashadilar, muzlaydilar va hokazo. Ammo ba’zi harakatlar siyosiy yoki tijorat maqsadlarida o‘tkaziladi.

### **Fleshmobning asosiy tamoyillariga:**

- keng mazmunda yaratilishi;
- biron tayinlangan rahbarning yo‘qligi;
- biror iqtisodiy yoki reklama maqsadlarining yo‘qligi;
- depersonifikatsiya; fleshmob ishtirokchilari aksiya o‘tkazish vaqtida o‘zaro bir-birini biror narsa bog‘lashini ko‘rsatmasligi;
- fleshmobni ommaviy axborot vositalarida yoritishni rad etish.

Fleshmob tasodifiy tomoshabinlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, tushunmaslik, qiziqish va hatto ishtirok etish kabi aralash tuyg‘ularni keltirib chiqaradi.

### **Fleshmobning umum qabul qilingan qoidalari:**

1. Ishtirokchilarining hech biri pul to‘lamaydi yoki pul olmaydi.
2. Harakat o‘z-o‘zidan paydo bo‘lishi kerak (ishtirokchilar harakatdan oldin voqeа joyiga yig‘ilmaydi yoki repetitsiya qilinmaydi).
3. Ishtirokchilar fleshmob o‘tkaziladigan joyda aksiyadan oldin ham, davom etish jarayonida ham, so‘nggida ham bir-birlari bilan maslahat qilinmaydi.
4. Ssenariy ma’nosiz bo‘lishi lozim.
5. Fleshmob ishtirokchilari kulgu uchun emas, balki hamma narsani jiddiy nigoh bilan qilishlari kerak.
6. Fleshmobda reklama yoki uning elementlari bo‘lmasligi kerak, aksiyalar hech kimni ovoz berishga majburlamaydi.

### **Fleshmobni o‘tkazishdan maqsad:**

Fleshmob ishtirokchilari aksiyada ishtirok etishlari uchun to‘lov to‘lamaydilar, bu ixtiyoriy faoliyat sanaladi. Bunda har bir ishtirokchining turli maqsadlarga intilishlari amalga oshadi. Masalan:

- o‘yin-kulgu;
- bir xillikdan voz kechish, o‘zini erkin tutish;
- boshqalarni hayratda qoldirish;
- o‘z-o‘zini tasdiqlash, ya’ni o‘zini sinab ko‘rish;
- his-hayajon;
- umumiyl ishga daxldorlik hissi;
- jamoa psixoterapiyasi kabi samara olish;
- hissiyotga to‘lish;
- yangi do‘stlar orttirish kabilari.

Maqsadga “olomon samarasи” orqali erishiladi. Aksiya ishtirokchilari hayotda ko‘proq muvaffaqiyatga erishgan va jiddiy odamlar sanaladi. Ba’zi ruhshunoslarning ta’kidlashlaricha, fleshmoblarda ishtirok etish kundalik hayotda kunlik tashvishlardan charchaganlik bilan izohlanadi.

**Muhokamalar va natijalar.** Oliy ta’lim muassasasi talabalari o‘rtasida quyidagi mavzularda fleshmoblar tashkil etish mumkin:

- “Biz tozalik tarafdorimiz”;
- “Tabiatni asraymiz!”;
- “Farroshlar mehnatini qadrlaymiz”;
- “Donorlar kuni”;
- “Biz gullarni sevamiz”;
- “Sog‘lom tanda – sog‘ aql”;
- “Mehribon yurak”;
- “Biz sportni tanlaymiz!”;
- “Eng zo‘r hadya – kitob!”;
- “Talabalik – oltin davrim”;
- “Institutim – faxrim!”;
- “Bolaning begonasi bo‘lmaydi” kabilari.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

Talabalar orasida sog‘lom muhit, tozalik va o‘zaro mehr-oqibatni tarkib toptirish maqsadida tashkil qilingan fleshmoblardan biri – bu “Biz tozalik taraf Dorimiz” yoki “Farroshlar mehnatini qadrlaymiz” aksiyalaridir. Ma’lum vaqtida tashkil etiladigan ushbu aksiyalarda talabalar ixtiyoriy ravishda institut hovlisi, bino va auditoriyalarini tozalashga bir zumda jalb etiladi. Majburan ishlash talab qilinmaydi, balki talabalarning fidokorligi va samimiy ishtiroki asosida tashkil etiladi. Kimdir supurishi, kimdir deraza artishi, yana kimdir boshqa tozalash ishlari bilan shug‘ullanadi.

“Sog‘lom tanda – sog‘ aql” aksiyasida har oyning ma’lum sanasi “sport kuni” deb belgilanadi va ushbu kun barcha talabalar sport kiyimida kelishib, marafon tashkil etishadi. Yoki “Biz sportni tanlaymiz!” aksiyasida fakultet talabalarini bir zumda institut hovlisiga yig‘ilib, bir pasda turli gimnast holatlarni amalga oshirib, yana darslarini davom ettirishlari mumkin.

“Talabalik oltin davrim” aksiyasi bitiruvchi guruhlarda auditoriyada tashkil etilsa, ya’ni 3-4 yil davomida eng yaqin insonlarga aylangan kursdoshlarning bir-biriga samimiy tilaklarini va dil izhorlarini kutilmaganda tashkil etish orqali talabalarda his-hayajon, do’stona aloqalarning mustahkamligini oshirishga xizmat qiladi.

“Institutim - faxrim” aksiyasi o‘quv yili boshlanishida talabalarning yangi o‘quv yili uchun o‘z maqsadlarini shior qilib namoyish etishadi.

“Bolaning begonasi bo‘lmaydi” aksiyasida talabalar mehribonlik uyidagi bolalar uchun xayriya aksiyasini tashkil etishadi. Kimdir kitob, kimdir o‘quv qurollari kabi maktab o‘quvchilariga kerakli buyumlarni yig‘ishadi va mehribonlik uyiga taqdim etishadi.

O‘tkaziladigan fleshmob aksiyalari ma’lum turlarga ajratiladi. Tarixiy faktlarga ko‘ra, fleshmoblar o‘tkazilishi davomida shunday ssenariylar paydo bo‘ladiki, fleshmobning qoidalariga to‘g‘ri kelmaydi. Shuning uchun, ular tashkil etilganidan so‘ng “fleshmob” atamasining o‘zi barcha tadbirlarga to‘g‘ri kela olmasligi aniq bo‘lgan. Hozirgi vaqtida “fleshmob” atamasining o‘zi umumiy nomga aylangan va buni ma’lum odamlar ishtirok etadigan aksiyalar deb atash mumkin.

Garchi barcha yangi turdagи aksiyalar fleshmob so‘zidan kelib chiqqan bo‘lsada, ularning ba’zilari g‘oyaviy va tashkiliy jihatdan fleshmobdan anchа farq qilib, ular oxirgi vaqtarda fleshmob turlari emas, balki smartmob texnologiya turlari deb atalmoqda.

Fleshmobning bunday turlari virtual tashkil etilishi orqali smartmob texnologiya deb atlishi to‘g‘ridir.

Virtual tadbirlar telegram yoki Fasebook ilovalari orqali tashkil qilinishi mumkin. Bunda fleshmoblar ta’lim yo‘nalishi talabalarining barchasini jalb etgan holda (musobaqalar, kitobxonlar bellashuvi, insholar tanlovi, rasmlи pictogrammalar tanlovi, yozma bahru-bayt va boshqalar) olib boriladi. Bu virtual fleshmob, ya’ni smartmob texnologiyalari oliy ta’lim muassasalari talabalarini o‘qishdan tashqari vaqtarda jamoa bo‘lib ishlashi va o‘zaro hurmat, madaniyatni shakllantirishga mo‘ljallanadi. Fleshmoblarning smartmob texnologiyalari sifatidagi ko‘rinishi quyidagi mavzularda tashkil etilishi mumkin:

“Ota-onamga talaba farzandidan maktub”;

“Mening eng sevimli ustozim”;

“Eng go‘zal shukrona”;

“Suratlarga yashiringan asarlar”;

“Men sevgan asar va men sevgan qahramon”;

Aksariyat aksiyalarni birlashtiradigan umumiylig – bu birgalikda biror narsani qilish istagidir. Barcha aksiyalar tasodifiy tashkil etilib, talabalar uchun kutilmagan bo‘lishligidadir. Shuning uchun fleshmob so‘zining asl ma’nosini endilikda klassik fleshmob deb atalmoqda.

**Xulosa** o‘rnida shuni aytish lozimki, fleshmoblar talabalarda kommunikativ kompetensiyalarni tarkib toptirish, nostandard vaziyatlarda tez qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

### **Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF–60-son Farmoni.
2. Ahmedov F. Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari// Darslik. -T.: “Aloqachi”, 2008. -424 b.
3. Ochilov M., Ochilova N. Oliy mакtab pedagogikasi// Darslik. -T.: “Aloqachi”, 2008. -304 b.
4. Sanaeva Surayyo Bobonazarovna. Preschool education instructions principles and innovative technologies of educational processing //Scientific Bulletin of Namangan State University, 2019, №8, 339-344.
5. Санаева С.Б. Необходимость развития общепрофессиональных компетенций у студентов // Colloquium-journal, 2022, 3 (126), 13-15.

## **“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4**

---

6. Санаева С.Б. Дидактические возможности развития методической компетенции будущих педагогов // Colloquium-journal, 2020, 3-4, 59-61.
7. Санаева Сурайё Бобоназаровна. Условия развития методической компетенции будущих педагогов // Традиции и новации в профессиональной подготовке и деятельности педагога, 2020, 190-194.
8. S.S.Bobonazarovna. Development of methodical competence of the teacher of preschool educational institution // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 2019, №9.
9. <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/11636>.

**УРАКОВ Шерзод Рахмонович**

Самарқанд давлат университетининг  
Каттакўрғон филиали директори

**ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ  
ПЕДАГОГИК МУАММО СИФАТИДА**

Ушбу мақолада олий таълим муассасаларида таълим сифатини оширишнинг меъёрий-хуқуқий асослари, устувор йўналишлари, омиллари таҳлил қилинган. Таълим назарияларига оид конуниятлар, сифат ва таълим сифати тушунчаси, таълим сифатини бошқаришнинг аҳамияти ёритилган. Шунингдек, олий таълим тизимида таълим сифатини ошириш механизмларининг камчилик ва муаммолари асосида олий таълим муассасалари профессор-ўқитувчиларининг касбий фаолиятини баҳолаш, шунингдек, олий таълим тизимини ривожлантиришнинг стратегик мақсадли йўналишлари бўйича тавсиялар ишлаб чиқилган.

**Калит сўзлар:** таълим ислоҳотлари, бихевиористик, когнитив ва фаолиятли ёндашув назариялари, сифат, миқдор, таълим сифати, касбий фаолият, касбий фаолият кўрсаткичлари.

**ПОВЫШЕНИЕ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В ВУЗЕ КАК  
ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА**

В данной статье анализируются нормативно-правовые основы, приоритеты и факторы повышения качества образования в высших учебных заведениях. Освещены законы, связанные с образовательными теориями, понятие качества и качества образования, важность управления качеством образования. Также на основе недостатков и проблем механизмов повышения качества образования в системе высшего образования были разработаны рекомендации по оценке профессиональной деятельности профессорско-преподавательского состава высших учебных заведений, а также стратегические направления развитие системы высшего образования.

**Ключевые слова:** образовательные реформы, теории бихевиористического (поведенческого), когнитивно-функционального подхода, качество, количество, качество образования, профессиональная деятельность, показатели профессиональной деятельности.

**IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION AT THE UNIVERSITY AS  
PEDAGOGICAL PROBLEM**

This article analyzes the legal framework, priorities and factors for improving the quality of education in higher education institutions. The laws related to educational theories, the concept of quality and quality of education, the importance of managing the quality of education are highlighted. Also, based on the shortcomings and problems of the mechanisms for improving the quality of education in the higher education system, recommendations were developed for assessing the professional activities of the teaching staff of higher educational institutions, as well as strategic directions for the development of the higher education system.

**Key words:** educational reforms, theories of behavioral (behavioral), cognitive-functional approach, quality, quantity, quality of education, professional activity, indicators of professional activity.

Замонавий шароитларда жаҳон фани ва инновацион фаолиятнинг ютуқларидан кенг фойдаланиш жамият ва давлат ҳаётининг барча соҳаларини изчил ва барқарор ривожлантиришнинг, мамлакатнинг мунособиб келажагини барпо этишининг муҳим омили бўлиб бормоқда[1].

Хозирги даврда олий таълим муассасаларининг ижтимоий мақоми ўзгараётганилиги муносабати билан ушбу таълим муассасалари профессор-ўқитувчиларининг касбий фаолиятини замонавий компонентлар асосида такомиллаштириш, олий таълимда инновацион компонентларга асосланган ёндашувни қарор топтириш долзарб педагогик муаммолардан биридир.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 юнадаги ПҚ-3775-сон "Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги қарорига муфовиқ кенг қўламли ишлар амалга оширилмоқда. Жумладан, олий таълим

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

муассасаларида таълим сифатини оширишнинг омиллари ва йўналишлари қаторида профессор-ўқитувчилар фаолиятини баҳолаш тизимини таълим сифати индикаторларига устуворлик бериш асосида такомиллаштириш масалалари ҳам эътироф этилмоқда [3].

Худудларда янги олий таълим муассасаларининг ташкил этилиши, кадрлар тайёрлашнинг замонавий таълим йўналишлари ва мутахассисликлари ҳамда сиртқи ва кечки бўлимларнинг очилиши, олий таълим муассасаларига қабул квоталарининг оширилиши мазкур йўналишдаги муҳим ислоҳотлар ҳисобланади.

Олий таълим муассасалари профессор-ўқитувчилари касбий фаолияти бўлажак кадрларни жамият ижтимоий-иктисодий ҳаётига кириб кетишини таъминлаш, уларнинг аниқ мутахассислик бўйича зарурий билим, кўникма ва малакалар билан қуроллантириш, таълим муассасаларида ўкуватарбиявий жараённи ташкил этиш масалалари билан узвий боғлиқдир.

Олий таълим муассасаларида таълим сифатини тубдан такомиллаштириш, уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қарори мутахассисликларни таъминлаш мақсадида Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини янада ривожлантиришнинг асосий йўналиши сифатида мамлакат тараққиёти учун янги ташаббус ва ғоялар билан майдонга чиқиб, уларни амалга оширишга кодир бўлган, интеллектуал ва маънавий салоҳияти юксак янги авлод кадрларини тайёрлаш, олий таълим ташкилотлари битирувчилари замонавий касб эгалари бўлишлари учун уларда зарур кўникма ва билимларни шакллантириш масаласига алоҳида урғу берилмоқда[4].

Шунинг билан биргаликда 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясида кўзда тутилган мақсадлар доирасида бир қатор вазифаларни амалга ошириш белгиланган бўлиб, уларни амалга оширишда, хусусан ОТМларнинг QS ва THE халқаро рейтингларига киришида бевосита таълим сифатининг кўрсаткичлари, шунингдек, профессор-ўқитувчиларнинг сифат кўрсаткичи муҳим индикаторлардан биридир.

Таълим бериш ва тарбиялаш жараёнларига қўйилган талаблар, таълим сифатини таъминлаш муаммолари турли хил тарихий даврларда давр талаблари ва жамият муносабати даражасига қараб ўзгариб келган, бироқ таълимни такомиллашуви йўллари ҳақидаги саволлар долзарблигича қолиб келган.

Таълим сифатини ошириш муаммоларининг энг муҳим жиҳатларидан бири унинг процессуал ва бошқарув жиҳати ҳисобланади. Шу сабабдан диққат эътиборимизни кўрсатилган муаммони ўрганишда назарий ва амалий йўналишларнинг эволюциясига қаратамиз. Шу ўринда айтиш жоизки, бошқарув йўналишлари ва ёндашувларини ҳисобга олмасдан уларни тўлиқ ва объектив таҳлил қилиш мумкин эмас.

Олий ўкув юртларида ўқитиши муаммоси энг кам тадқиқ этилган муаммолардан биридир. Ушбу муаммо тизимли таҳлил ва бошқарув назарияси билан боғлиқ ҳолда янги ёндашувларни тақозо этади.

Психология фанида таълим назариясининг турларини белгилайдиган йўналишлар ажратиб кўрсатилган: бихевиористик, когнитив ва фаолиятли.

Таълимнинг бихевиористик назариялари (А.Гасри, Б.Скиннер, Э.Толлен, Ж.Уотсон, К.Халл ва бошқалар) ўкув жараёнини таҳлил қилишда фақат ўкувчига таъсир этувчи таъсирлар (рагбатлантирувчиларни) ва бу таъсирларга бўладиган жавоб реакцияларига эътибор қаратади. Ўрганишнинг когнитив назариялари (Ж. Брунер ва бошқалар) икки гурухга бўлинади. Биринчи гурух ўрганишни ахборот жараёнининг бир тури сифатида қарайдиган назариялардан иборат. Иккинчиси - асосий ақлий функциялар ёрдамида ўрганиш жараёнини тавсифловчи назариялар: идрок, хотира, тафаккур, фикрлаш ва бошқалар.

Таълимнинг фаолиятли ёндашув назарияси К.Д.Ушинский томонидан илгари сурилган таълимнинг тарбияловчи хусусиятига устувор аҳамият қаратувчи ҳамда шахснинг фаол табиатига асосланадиган педагогик антропологиядан келиб чиқади. Ушбу ёндашув фаолиятнинг шакллантирувчи ва ривожлантирувчи имкониятлари ҳақидаги ғояларни, шунингдек, талабани фаолиятга йўналтирувчи таълимни моделлаштириш ғоясини илгари суради.

Фаолиятли ёндашув, биринчидан, педагогик жараёнларни фаолиятнинг барча асосий таркибий қисмларини (унинг мақсадлари, мотивлари, ҳаракатлари, эришилган натижаларни таҳлил қилиш) яхлит кўриб чиқиш мантиғида ўрганишни талаб қиласди; иккинчидан, назарий билим ва амалий кўнинкамарни ўз вақтида узлуксиз узвий боғлаш асосида ўқитишини кўриб чиқиш имконини беради; учинчидан, ўқитувчи ва таълим олувчилар фаолиятининг мақсадлари, воситалари ва натижасини, уларнинг ўзаро таъсирни ва ўзаро боғлиқлигини очиб беришга ёрдам беради (Л.С.Выготский, А.Н.Леонтьев, С.Л.Рубинштейн ва бошқалар). Ҳозирги вақтда ўқитишининг фаолиятли назарияси П.Я.Галперин, В.В.Давидова, А.К.Маркова, Н.Ф.Тализина, Д.Б.Элконина ва бошқаларнинг ишларида

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

ўрганилган бўлиб, замонавий талқинда фаолиятли ёндашув ўқув жараёнини яхлит тизим сифатида, шу фаолият субъекти бўлган шахс олдида турган муаммоларни ҳал этишнинг реал жараёни сифатида қаралади [2].

Таълим ислоҳотлари бўйича тажрибаларни ўрганиш, илғор олимлар ва мутахассислар тадқиқотларининг таҳлили қўйидаги мулоҳазаларни шакллантиришга имкон беради: мустақилликнинг дастлабки йилларида амалиётга жорий этилган кадрларни тайёрлаш миллий модели таълимга бўлган муносабатларни, ислоҳотларнинг мақсадли ўрнатилганилигини тарихий ва илмий жиҳатдан тўғри белгилади. Таълим тавсифномасини кадрлар тайёрлаш бўйича Миллий дастурнинг асосий таркибий қисмлари ҳисобланган шахс, давлат ва жамият, узлуксиз таълим, илм ва ишлаб чиқариш компонентларининг ўзаро боғланган позицияларида кўриб чиқиш қабул қилинган. Бу компонентларнинг алоқадорлигини аниқ белгилаш нафақат таълим натижасини белгилашга, балки, энг муҳими, таълим сифатини ривожлантириш ва бошқариш бўйича стратегик мақсадли кўрсатмаларни шакллантиришга имкон берган. Лекин, шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, мазкур компонентларнинг интегратив фаолият кўрсатишига тўскинлик килувчи маълум бир омиллар, жумладан таълимни марказлашган бошқариш тамойилларининг амал қилиниши, олий таълим муассасаларида таълим натижаси эмас балки, қанча талаба қабул қилинса, шунча мутахассис тайёрлаш асосий планга қўйилиши таълим сифати масаласини эътибордан четда қолдирди. Бундан ташқари барча ҳудудлардаги ОТМлар учун намунавий меъёрий ҳужжатлар (ДТС, малака талаблари, ўқув режа, фан дастури) амал қилиниши ҳам таълим сифатини таъминлаш бўйича стратегик режаларни амалга оширишга ўзига хос чеклов қўйиб берди.

2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси билан Давлат олий таълим муассасаларига академик ва молиявий мустақиллик бериш, шу жумладан, улар томонидан меҳнатга ҳақ тўлаш, ходимлар сони, тўлов-контракт миқдори ва таълим шаклини мустақил белгилаш амалиётини йўлга қўйилиши юқорида таъкидланган чекловларни бартараф этишда муҳим қадам бўлди. Хусусан, республикамизда 36 та олий таълим муассасасига академик ва молиявий мустақиллик берилди ҳамда баркамол авлодни шакллантириш, ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмонан соғлом этиб тарбиялаш, уларни олиб борилаётган ислоҳотларнинг фаол иштирокчисига айлантиришга қаратилган чора-тадбирлар изчил амалга оширилмоқда. Жумладан, сўнгги йилларда талаба ёшларда замонавий билим ва кўникмаларни шакллантириш, таълим тизимлари ҳамда илм-фан соҳаси ўртасида яқин ҳамкорлик ва интеграцияни, таълимнинг узвийлиги ва узлуксизлигини таъминлаш борасида тизимли ишларни бунга мисол қилиш мумкин.

Шу билан бирга, миллий таълим-тарбия тизимининг амалдаги ҳолати уни замон талаблари асосида модернизация қилиш, ёшларни юксак билим-маърифат эгалари, жисмоний ва маънавий соғлом инсонлар этиб тарбиялаш, таълим муассасаларининг раҳбар ва педагог ходимлари нуфузини ошириш, уларнинг самарали фаолият юритиши учун зарур шарт-шароитлар яратиш бўйича изчил чора-тадбирларни амалга оширишни талаб этмоқда.

Олий таълим муассасаси – фан, иқтисодиёт, маданият, жамият ҳаётининг турли соҳалари учун юқори малакали мутахассислар тайёрлайдиган таълим муассасасидир [5].

Олий таълим муассасаси мактабдан биринчи навбатда ўзининг фундаментал характерга эгалиги билан фарқ қиласи. Яъни, ўқитиши методикаси, талabalар билимини баҳолаш ва аллақачон болалик давридан ўтган талabalарнинг ўзлари учун бутунлай ўзгача ҳаёти билан фарқланади.

Биламизки, олий таълим муассасаслари институт, университет ҳамда академия турларига ажратилади. Шубҳасиз, кўпчилик олий ўқув юртлари нима учун турли номларга эгалиги ва бу номлар олий таълим муассасаси мавқеига, ўзлаштирилган таълим сифатига, академия ёки университетдан қай бири юқорироқ эканлиги ҳақида етарлича фикр юритилган. Институт, университет ва академиялар ўртасида фарқлар мавжуд, бироқ олий таълим муассасаларининг расмий тоифаси унинг дипломининг нуфузини белгиламайди ва олинган билим даражасига таъсир қилмайди.

Ўзбекистон Республикасида олий таълимни тизимли ислоҳ қилишнинг устувор йўналишларини белгилаш, замонавий билим ва юксак маънавий-ахлоқий фазилатларга эга, мустақил фикрлайдиган юқори малакали кадрлар тайёрлаш жараёнини сифат жиҳатидан янги босқичга қўтариш, олий таълимни модернизация қилиш, илғор таълим технологияларига асосланган ҳолда ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқларини ривожлантириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон Фармони билан “Ўзбекистон Республикаси Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси” тасдиқланди. Концепцияда ижтимоий соҳа ва иқтисодиёт тармоқлари эҳтиёжларидан келиб чиқсан ҳолда, фан, таълим ва ишлаб чиқаришнинг мустаҳкам интеграциясини таъминлаш асосида таълим сифатини яхшилаш, рақобатбардош кадрлар

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

тайёрлаш, илмий ва инновацион фаолиятни самарали ташкил этиш, халқаро ҳамкорликни ривожлантиришга устуворлик берилган.

Республикамизда олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини амалга ошириш бўйича «Йўл ҳаритаси» тасдиқланди. Концепция тегишли даврга мўлжалланган мақсадли параметрлар ва асосий йўналишлардан келиб чиқиб, ҳар йили алоҳида тасдиқланадиган «Йўл ҳаритаси» орқали босқичма-босқич амалга оширилиши белгиланди [6].

Таълим сифатини яхшилаш борасидаги илғор хорижий тажрибаларни ўрганиш ва амалиётга татбиқ этиш жараёнларини жадаллаштириш мақсадида, олий таълим тизимида хорижий ҳамкорлик корпоративи йўлга қўйилди ва тартибли амалга ошириш жорий этилди.

Шу ўринда тадқиқотимиз учун асосий категория ҳисобланган таълим сифати тушунчасининг мазмун моҳияти ва тадқиқот ишларидаги талқинига эътибор қаратамиз.

Таълим сифати моҳиятан кенг тушунча. Баъзилар таълим сифати деганда талабалар ўзлаштиришининг фоиз қийматига асосланган категорияни тушунишади; айрим тадқиқотчилар таълим сифатини шахнинг ривожланиш даражасига тенглаштиришади; учинчи тоифадагилар таълим сифати мазмунида олий таълим муассасаси битирувчиларининг ижтимоий ҳаётга тайёрлик даражасини тушунишади; тўртинчи тоифадагилар таълим сифатини талабаларни ўқитаётган илмий даражава унвонга эга профессор-ўқитувчилар улушининг даражаси билан изоҳлашади.

Белгилаш жоизки, таълим сифатини назорат қилишнинг муаммоси, бевосита, таълимнинг хар қандай миллий дастурининг муҳим қисми ҳисобланади, бироқ уни таълим сифатини бошқаришнинг умумий муаммоларидан ташқарида ажратилган ҳолда қўриб чиқиш мумкин эмас. Шу сабабдан бошқарувнинг маҳаллий назарияси ва амалиётида ишлаб чиқилган турли хил бошқарув ёндашувларини таҳлил қилиб чиқиш зарур.

Бунда, А.А.Абдуқадиров, Р.Ш.Ахлиддинов, Х.Рашидов, Ш.Қурбанов, Д.В.Маневич, В.А.Черкасов, Э.А.Сейтхалилов, М.Сайдовлар ва бошқаларнинг докторлик диссертациялари; О.Г.Зуев, Т.П.Михневич, Л.Н.Русакова, Г.П.Чепуренко, И.Б.Щуванов, С.Е.Ярцева ва бошқаларнинг тадқиқот ишлари бўлажак мутахассис бакалаврларни тайёрлашда таълим сифатини бошқариш муаммоларининг турли хил жиҳатларини очиб беришган.

Юқорида санаб ўтилган изланишларда талаба ва ўқувчиларнинг ўрганиш фаоллиги шаклланишининг амалиёти таҳлил қилинган; таълимнинг шакли ва усуслари моҳиятининг такомиллашишига таъсир кўрсатадиган объектив ва субъектив омилларни аниқлашга, таълим жараёнини мақбуллаштирадиган турли хил усувлар орқари таълим самарадорлигини оширишнинг илмий асосларини аниқлашга ҳаракат қилинган.

Умуман олганда, хозирги олимлар сифатни турли хил жиҳатларда талқин этишади – предметнинг аҳамиятли хусусиятларининг функционал бирлиги сифатида ҳам, ўзаро таъсир қонунлари билан органик жиҳатдан ўзаро боғланган кўпгина хусусиятлар сифатида ҳам, аниқ тузилмага эга бўлган тизим сингари предметнинг бутун ифодаси сифатида ҳам.

Сифат ва миқдорнинг ўзаро боғлиқлигига етарли даражадаги ишлар бағишлиланган. Умумий ва фарқли жиҳатлари асосланган. Бунда, сифат шаклланиши қонуниятига нисбатан сифат ва миқдорнинг бирлиги, биринчидан, сифатда доимо миқдор акс эттирилишини, иккинчидан, миқдорда аниқ бир сифатлар акс эттирилишини билдиради.

Шундай қилиб, “миқдор” ҳам “сифат” ҳам предметларнинг объектив томонлари ва муносабатларини кўрсатади, бироқ уларнинг моҳияти турлича. Сифат – улар хусусиятларининг йиғиндисида акс этадиган объектларнинг объектив ва умумий характеристикасидир. Бунда сифат абсолют тушунча сифатида кўрилади. Олимларнинг айтишича, бундай тушунчанинг сифатни бошқариш тизими билан хеч қандай умумийлиги йўқ. Таълим контекстида сифатни нисбий тушунча сифатида қўриш мақсадга мувофиқ ҳисобланади. Нисбий тушунча сифатида ушбу тушунча икки жиҳатга эга: 1) стандарт ёки таснифлашга мос келиши; 2) истеъмолчи талабларига мос келиши. Бизнинг назаримизда, энг мақбули, ушбу икки жиҳатни уйунлаштиришдир.

“Таълим сифати” тушунчасини талқин қилганда, таълим феномени тушунчасининг кўп аспектли тушунча сифатида маълум мураккабликка дуч келамиз. Агар таълим тушунчасини таърифлашда унинг белгилари (хусусиятлари) орқали кўриб чиқсан, унда бу мажмуавий белгиларнинг ҳар бирини иккинчи белгилари мажмуаси орқали таърифлаш, кейин учинчи тартибда ва х.к., уларни зарур бўлган даражагача етказган ҳолда давом эттириш керак бўлади.

Охириги вактларда педагогикада педагогик фаолиятнинг турли хил жиҳатларини таҳлил қилишда “сифат” тушунчаси жадал ишлатилиб келинмоқда. Бундай таҳлилнинг йўналишларидан бири таълим олувчиларнинг билим сифатини тизимли кўриб чиқиш ҳисобланади (Г.Я.Алимова, Л.Л.Зорина, И.Л.Лернер, М.Н. Скаткин, Б.Л.Фарберман ва б.).

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

Таълим сифати муаммоларининг тадқиқотчилари қатор методологик мухим хулосаларни кўрсатишган:

1) Таълим сифати – бу хусусиятларнинг шундай йифиндиси бўлиб, у ўрганувчилар шахсини ҳар томонлама тарбиялаш ва баркамол ривожлантириш бўйича вазифаларни ечишга имкон беради;

2) Таълим сифатини умумий, интеграл, процесуал каби жиҳатларнинг натижаси сифатида ҳам кўриб чиқиши тўғри саналади;

3) Маълумотлилик таълим сифатининг натижавий томони сифатида ўз таркибига фаолиятда ўзлаштирилган шахс маданияти турларининг тизимини ҳамда уларга мос бўлган психиканинг функционал механизми ва шахсий типологик сифатлар тизимини киритиши зарур;

4) Таълим сифати жараён сифатида ўқув жараёнидаги таълим бериш ва ўқитишнинг ўзаро боғланган фаолиятлари самарадорлигини белгилайди;

5) Таълим бериш сифати, энг аввало, ўрганувчиларда билимнинг тўлиқлик, чуқур, тезкор, эгилувчан, аниқлик, умумлашганлик, англанганлик, мустахкамлик каби хусусиятларининг тизимини шакллантиришни таъминлаш қобилияти билан аниқланади;

6) Таълим (таълим бериш) сифати тизимли кўриб чиқилиши, уларнинг янаям аҳамиятли ташқи ва ички боғлиқликлари контекстида аниқлайдиган хусусиятларини ажратиши тахмин қилиши зарур.

Хозирги илмий тадқиқотларда таълим сифати ва инсоннинг ривожланиши интеграл тавсифнома сифатида, инсоннинг ўзининг, таълим тизимининг, умуман жамиятнинг фаоллигининг мухим мақсади ва ўз қадрияти сифатида кўрилади.

Ўз изланишларимизда биз қўйидаги таърифларга амал қиласиз: таълим сифати – бу ижтимоий тоифа бўлиб, у жамиятда таълим жараёнининг ҳолати ва натижавийлигини, уни шахснинг фуқаровий, турмуший ва касбий компетентлигини ривожланиши ва шаклланишида жамиятнинг (турли хил ижтимоий гурухларнинг) талаблари ва кутилган натижаларга мос келишини белгилайди.

Таълим сифатини таъминлаш тўғрисида сўз борганда дастлаб унга таъсир кўрсатувчи омиллар, шунингдек, таълим жараёни самарадорлигини таъминлашнинг педагогик-психологик қонуниятларини аниқлаш мухим ҳисобланади.

Таълим сифатининг кафолати, энг аввало, таълим жараёни субъектлари ҳисобланган таълим олувчи шахсининг эҳтиёжи ва мақсади, таълим берувчи профессор-ўқитувчининг касбий фаолияти, шунингдек ота-оналарнинг муносабат характерига узвий боғлиқдир.

Бунда биз тадқиқотимизнинг мақсади ва предметидан келиб чиқиб, профессор-ўқитувчилар касбий фаолиятини баҳолашнинг таълим сифатига таъсирини ўрганишга эътибор қаратдик.

Тадқиқот давомида хозирги кунда олий таълим тизимида таълим сифатини ошириш механизмларининг бир қатор долзарб муаммо ва камчиликларга дуч келдик. Жумладан:

- кейинги йилларда олий таълим билан қамров даражасининг ошириб борилиши билан боғлиқ ҳолда келиб чиқадиган муаммолар, жумладан профессор-ўқитувчилар сифат таркибининг зарурий даражасига эришиш;

- профессор-ўқитувчилар касбий фаолиятини баҳолашнинг амалдаги мезон ва кўрсаткичлари таълим сифатини таъминлашга етарли даражада йўналтирилмаганлиги, хусусан профессор-ўқитувчининг ўқув, ўқув-услубий, илмий-тадқиқот ҳамда маънавий-маърифий ишларга оид кўрсаткичлар асосида баҳоланиши, лекин ўқитувчининг педагогик маҳорати, педагогик техникаси, педагогик фаолият самарадорлигини таъминлайдиган, индивидуал-психологик хусусият (лаёқат, қобилият, истеъодд, талант)ларини белгилаб берувчи индикаторлар кўзда тутилмаганлиги;

- профессор-ўқитувчиларнинг хорижий тиллар ва ахборот-коммуникация технологияларини ўзлаштириш даражаси пастлиги сабабли уларнинг касбий маҳоратини баҳолашда ушбу категорияларга оид индикаторлар устувор характерга эга эмаслиги;

- педагог ходимларнинг малака ошириш тизими самарали ташкил этилмаганлиги, жумладан, малака ошириш муассасаларида ўқув машғулотлари ўtkазиш учун юқори малакали профессор-ўқитувчилар жалб қилинмаганлиги, малака оширишга жалб этишда тингловчиларнинг салоҳияти инобатга олинмаслиги;

олий таълим муассасалари ва кадрлар буюртмачилари билан ўзаро ҳамкорликда кадрлар тайёрлаш бўйича ишлар самарали йўлга қўйилмаганлиги, иш берувчиларнинг олий таълим мазмунини шакллантиришдаги иштироки етарли эмаслиги;

талабаларда танқидий фикрлаш, ахборотни мустакил излаш ва таҳлил қилиш кўнникмаларини шакллантиришга йўналтирилган таълим мухити етарли даражада ташкил қилинмаганлиги;

ишлаб чиқариш корхоналарида амалий машғулотлар самарали ташкил этилмаганлиги, тайёрланаётган мутахассислар малакавий даражаси меҳнат бозорининг замонавий талабларига етарлича жавоб бермаслиги;

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

ўқув адабиётлари етишмовчилиги, мавжудларининг аксарият қисми замон талабларига жавоб бермаслиги, ўқув адабиётлари сифатини яхшилаш, хорижий адабиётлардан қўшимча ёки муқобил ўқув адабиётлари сифатида фойдаланиш ишлари етарли даражада ташкил этилмаганлиги.

Олий таълимда маънавий-ахлоқий мазмунни кучайтириш, ёшларни миллий қадриятларга ҳурмат, инсонпарварлик ва юксак маънавий гоялар асосида ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, уларда ёт фоя ва мағкураларга қарши иммунитетни мустаҳкамлаш борасидаги ишларни янада ривожлантириш зарурати мавжуд ва муҳим аҳамиятга эга.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 5 июнь 2018 йилдаги “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-3775 қарорида бугунги кунда олий таълим муассасаларида таълим сифатини оширишга, республикада амалга оширилаётган ислоҳотлар, ижтимоий ва иқтисодий соҳалардаги янгиланишларда ушбу муассасаларнинг фаол иштирокини таъминлашга тўсиқ бўлаётган бир қатор муаммолар борлиги таъкидланган. Улардан бири олий таълим тизимида ўқитишни ташкил этиш жараёни бугунги кун талабларига жавоб бермаятганлигидир. Шунга ўхшаш муаммоларнинг асл сабаблари, таълим тизимида фаолият кўрсатаётган айрим педагогларимиздаги замонавий билим бериш, педагогик маҳорат, компетентлик, ўз фанини ҳаёт, турмуш, ишлаб чиқариш билан боғлаб, фан-техниканинг энг сўнгги ютукларидан, илғор хориж тажрибаларидан, замонавий ахборот ва педагогик технологиялардан фойдаланиб таълим олувчиларга етказиш малакасининг етишмаслигидадир.

Ҳозирги давр ўқув машғулотларини таълим олувчиларни мустақил ва эркин фикрлашга йўналтирадиган ўқитиш технологиялари ва интерфаол усусларни жорий этиш асосида ташкил этиш, асосий эътиборни уларнинг мустақил таълим олиши билан боғлиқ механизмларни амалга оширишга қаратишни тақозо этмоқда. Таълим сифатини ошириш, фан ва технологиянинг энг сўнгги ютукларини амалиётга жорий этиш асосида ижодкор, касб-хунарли, ижодий ва мустақил фикр юрита оладиган, ташаббускор ва тадбиркор, ўз жавобгарлигини ҳис этадиган ёшларни тайёрлаш каби муҳим вазифаларни амалга ошириш назарда тутилади. Бу ўз навбатида таълим жараёнида замонавий таълим технологияларидан фойдаланишни тақозо этади. Уларни қўллаш, аввало, педагогик муносабатларни инсонпарварлаштиришни талаб этади. Чунки, уни амалга оширмай туриб қўлланган ҳар қандай технология кутилган натижани бермайди.

Мазкур муаммоларни бартараф этиш учун олий таълим тизимида профессор-ўқитувчиларни касбий фаолиятини баҳолашнинг муҳим босқичиолий таълим тизимини модернизация қилиш, ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан барқарор ривожлантириш учун юқори малакали кадрлар тайёрлаш сифатини ошириш, инсон капиталини меҳнат бозори талаблари асосида ривожлантириш зарур.

Хулоса қилиб айтганда таълим сифатини такомиллаштиришда профессор-ўқитувчилар касбий фаолиятини баҳолашмуҳим омил бўлиб, бу жараёнда ҳалқаро стандартлар асосида юқори малакали, креатив ва тизимли фикрлайдиган, мустақил қарор қабул қила оладиган кадрлар тайёрлаш, уларнинг интеллектуал қобилиятларини намоён этиши ва маънавий баркамол шахс сифатида шаклланиши учун зарур шарт-шароит яратиш, соҳада соғлом ракобат мухитини шакллантириш, унинг жозибадорлигини ошириш, жаҳон миқёсидаги рақобатбардошлигини таъминлашкаби кўрсаткичларга алоҳида эътибор қаратиш лозим.

Юқорида таъкидланган тизимли муаммолар, шунингдек, мақсадли стратегик вазифалардан келиб чиқиб, олий таълим тизимини ривожлантириш қўйидаги йўналишларгаустуворли бериш муҳимдир: олий маълумотли мутахassisлар тайёрлаш сифатини ошириш; таълим жараёнига рақамли технологиялар ва замонавий усусларни жорий этиш; олий таълим муассасаларида илмий-тадқиқот ишлари натижадорлигини ошириш, ёшларни илмий фаолиятга кенг жалб этиш, илм-фаннинг инновацион инфратузилмасини шакллантириш; маънавий-маърифий ва тарбиявий ишлар таъсирчанлигини ошириш; юқори малакали мутахassisлар тайёрлаш жараёнига кадрлар буюртмачиларини фаол жалб этиш; олий таълим муассасаларининг молиявий мустақиллиги ва барқарорлигини таъминлаш, моддий-техник таъминотини мустаҳкамлаш; олий таълим муассасаларини тизимли ривожлантириш ва бошқарув фаолиятини такомиллаштириш; коррупцияга қарши курашиш, шаффофликни таъминлашнинг таъсирчан механизмларини жорий этиш; олий таълим тизимининг инвестициявий жозибадорлигини ошириш, ҳалқаро миқёсда танилиши ва рақобатбардошлигини таъминлаш.

**Адабиётлар**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 30 ноябрдаги “Ўзбекистон Республикаси инновацион ривожланиш вазирлиги фаолиятини ташкил этиш тўғрисида” ПҚ-3416-сонли Қарори. [www.lex.uz](http://www.lex.uz).

2. Зимняя И.А. Педагогическая психология. Учебник для вузов. – М.: Издательская корпорация «Логос», 1999. – 384 с., 191-бет

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 5 юнданги ПҚ-3775-сон "Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги Қарори

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 6 ноябрдаги “Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-6108-сон Фармони.

5. <https://edunews.ru/students/info/chto-vyshe-akademiya-ili-universitet-i-chem-oni-otlichayutsya-ot-institut.html>

6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги ПФ-5847-сон “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгacha ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони. <https://lex.uz/docs/4545884>.

**SABIROVA Ch.A.**

UrDU “Pedagogika va psixologiya”  
kafedrasi dotsenti, p.f.f.d.

**ERKINOVA Lobaroy Otamurot qizi**

UrDU Magistratura bo‘limi  
Pedagogika nazaryasi va tarixi (faoliyat  
turi bo‘yicha ) yo‘nalishi  
1-bosqich magistranti

### **BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARDA AXLOQIY-MA’NAVIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI**

*Ushbu maqolada kompetensyaning pedagogik imkoniyatlari va rivojlanish tarixi, kompetensiya muammosi, axloqiy-ma’naviy kompetensiya va kompetentlik mazmuni va uni bo‘lajak o‘qituvchilarda rivojlanirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** bo‘lajak o‘qituvchi, kompetensiya, kompetentlik, axloqiy-ma’naviy kompetensiya, shaxsiy kompetensiya, ijtimoiy kompetensiya.

### **ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ЭТИЧЕСКОЙ И ДУХОВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ**

В статье приводятся описание педагогических возможностей и история развития компетенции, проблема компетенции, содержание нравственно-духовной компетентности и личностной компетентности и пути её развития у будущих учителей.

**Ключевые слова:** будущий учитель, компетенция, компетентность, нравственно-духовная компетенция, личностная компетенция, социальная компетенция.

### **PEDAGOGICAL OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF ETHICAL AND SPIRITUAL COMPETENCE IN FUTURE TEACHERS**

*This article describes the pedagogical possibilities and history of development of competence, the problem of competence, the content of moral and spiritual competence and competence and ways to develop it in future teachers.*

**Key words:** future teacher, competence, competence moral and spiritual competenc'e, personal competence, social competence.

**Kirish.** Yurtimizda bo‘lajak pedagoglarni zamonaviy ta’lim olishi va egallagan bilimlarni amalda qo‘llash muammolari xalqaro ta’lim standartlari talablarining joriy qilinishiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Bunda yosh o‘qituvchilarning pedagogik kompetentligi, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayonida qo‘llashga qaratilgan ilmiy izlanishlar muhim o‘rin tutadi. Mamlakatimizda ilg‘or xorij tajribalari asosida uzlusiz ta’lim tizimi uchun yosh pedagoglarni tayyorlashning zamonaviy ta’lim tizimi talablari asosida ichki imkoniyatlarni ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishda tadqiqot ishlari olib borilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlanirish bo‘yicha “Harakatlar strategyasida” “uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatlari ta’lim xizmatlarining imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” kabi ustuvor vazifalar belgilangan [1]. Bugungi kunda zamonaviy jamiyatni shakllanish jarayonida jamiyat hayotining barcha jahbalarida raqobat kuchayib insonning axloqiy ma’naviy va intellektual fazilatlariga talab ortib bormoqda. Axloqiy tamoyillarga ega bo‘lgan ijodkor pedagoglar jamiyat uchun ishonchli kasbiy faoliyat sohasini yaratishga qodir bo‘lishlari kerak. Bu borada axloqiy ma’naviy, kasbiy kompetentlikni rivojlanirish pedagogik tizimni yanada takomillashtirishda muhim o‘rin tutadi. Shu o‘rinda fan va texnika rivoji ta’lim va uning natijalariga qo‘yiladigan talablarni tubdan o‘zgartirishni talab etmoqda. Shunga asosan, yangi avlod standartlarini yaratish pedagoglarning oldiga muhim vazifa qilib qo‘yilmoqda. Hozirgi vaqtgacha yaratilgan davlat ta’lim standartlari tizimli-faoliyatli yondashuvga asoslangan, ya’ni ta’lim maskanlarining maqsadini bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish tarzida aniqlashtirishdan iborat edi. Shu bois yangi davlat ta’lim standartlarini o‘z-o‘zini rivojlanirishga qaratilgan kompetent-faoliyatli yondashuvga asoslanishdan kelib chiqqan holda belgilash talab etilmoqda. Chunki oliy ta’limda tashkil etilayotgan o‘quv-tarbiya jarayonining mohiyati tinglovchilarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlanirish emas, balki bilimlarni axborot-verbal

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

tarzda yetkazish, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat bo‘lib qolmoqda. Bunday reproduktiv tarzda o‘zlashtirilgan ma’lumotlar tinglovchining amaliy faoliyat tajribasini rivojlantirishga yetarlicha imkon bermaydi. Natijada, talabalar juda ko‘p axborotni behuda jamg‘arilishi, ta’limning samarasi past ekani va uning real voqelikka mos kelmasligi kabi tafovutlar ko‘zga tashlanmoqda. Aniqrog‘i, o‘quvchi real hayotdan uzoqlashib qolgandek, uning oldiga faqat ilgaridan to‘plangan axborotlarnigina o‘zlashtirish maqsadi qo‘yilgandek tuyuladi. Ta’lim jarayonidagi markaziy shaxslar o‘qituvchilardir. Ta’limning muvaffaqiyati ularning tayyorgarligi bilimdonligi va ishslash sifatiga bog‘liq. Bunda o‘qituvchining kompetensiyasi muhim o‘rin tutadi.

**Asosiy qism.** Yuqoridagi dolzarb muammolarni bartaraf etish maqsadida, ta’lim jarayonlarini turli yangicha yondashuvlar asosida tashkil qilish maqsadga muvofiq sanaladi. Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Yoshlarimiz mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘s sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etamiz” [2], degan fikrlari ham mustaqil O‘zbekistonimiz yoshlarini erkin fikrlashni tarkib toptirishga qaratilayotgani ham e’tibordan xoli emas. Shunday ekan, biz o‘qituvchilar hozirgi yangi davr talabi asosida darslarni zamонавиy yondashuvlar asosida tashkil qilishimiz oldimizdagи yuksak vazifalardan biridir. Ushbu muammoli vaziyatdan chiqishning yagona yo‘li - oliv ta’limda yangicha, ya’ni kompetent yondashuvni joriy etishdir. Kompetent yondashuv talabidan bilim va ko‘nikmalarni alohida-alohida emas, balki yaxlitlikda egallashni talab etadi. Mazkur talab bilan bog‘liqlikda, o‘z navbatida, o‘qitish metodlarini tanlash tizimi ham o‘zgarishga uchraydi. O‘qitish metodlarini tanlash va amaliyotda qo‘llash ta’lim jarayonida qo‘yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiya va funksiyalarni takomillashtirishni talab etadi.

**Kompetensiya** u yoki bu sohada bilimdonlik demakdir. “Kompetensiya” lotincha competence – erishyapman, munosibman, loyiqman degan ma’nolarni anglatadi. Kompetensiya tushunchasi ijtimoiy mazmuni juda keng bo‘lib, u ishlab chiqarishning barcha yo‘nalishlarida qo‘llaniladi. Kompetensiyaning ba’zi xususiyatlari quyidagilardan iborat. 1. Kompetensiya bir yoki bir nechta malakalardan iborat bo‘lib, ularning egallanishi kompetensiya erishish imkonini beradi. 2.Kompetensiya samaradorlikni baholash mumkin bo‘lgan uchta soha bilan bog‘liq: bilim, ko‘nikma va munosabat. 3. Qobilyatlar kuzatilishi mumkin bo‘lganligi sababli ular ham o‘lchanadi. O‘qituvchi faoliyatida kompetensiyanı baxolash mumkin. O‘qitish kompetensiyalari teng miqdordagi bilim, ko‘nikma va munosabatni talab qilishi mumkin, ammo ba’zilari buni talab qilmaydi. Kompetensiyalar ko‘nikma yoki munosabatdan ko‘ra ko‘proq bilimni o‘z ichiga olishi mumkin, ba’zi kompetensiyalar esa ko‘proq mahorat yoki ishlashga asoslanadigan bo‘lishi mumkin. Kasbiy kompetensiya bilim ko‘nikma va munosabatlar nuqtai nazaridan kompetensiyalarni tavsiflashning an’anaviy urinishlaridan voz kechishiga va buning o‘rniga ana shu o‘ziga xos qadriyatlar xususiyatlar va motivatsiyalarga ya’ni odamlarning nisbatan mustahkam xususiyatlariga e’tibor qaratishga intildi. Talabalarning malakasi bugungi jamiyatning turli murakkabliklari odamlarni jiddiy sinovdan o‘tkazadi. Ushbu talablar shaxslar egallashlari kerak bo‘lgan asosiy vakolatlar uchun nimani anglatadi? Bunday kompetensiyalarni aniqlash bizga ta’lim tizimlari va uzlusiz ta’limning asosiy maqsadlarini aniqlash va o‘qituvchi uchun kompetensiyalar qatorini baholash imkonini beradi. Avvalo, biz talabalar muvaffaqiyatli muloqot qilish uchun, zarur bo‘lgan ko‘nikmalar va quyi ko‘nikmalarni tushunishimiz kerak. Shaxsiy rivojlanish, ularga hayotda raqobatbardosh ustunlikni ta’minlashi kerak bo‘lgan narsalar: fikirlash va muammolarni hal qilish, fikrlashni nutqiy baholash va muammolarni imkoniyatlarga aylantirishni taxmin qilish, o‘z – o‘zini yo‘naltirish va o‘rganish, xotirani rivojlantirish, shaxsiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, jamoada ishlashni muhokama qilishda boshqalarni ishontirish kabi ko‘nikma va malakalarni o‘zimizda shakillantirishimiz lozim. Kompetensiya bilim va ko‘nikmalardan ko‘proq narsadir, u muayyan konteksda psixo – ijtimoiy resurslarni, jumladan, malaka va munosabatlarni jalb qilish va safarbar qilish orqali murakkab talablarni qondirish qobilyatini o‘z ichiga oladi. Pedagogning mukammallikka intilishida malaka zarur. Zamонавиy dunyoning murakkab muammolariga dosh berish uchun o‘qituvchilarga keng ko‘lamli kompetensiyalar kerak. O‘qitish kompetensiysi samarali o‘qitish jarayonining ajralmas elementi bo‘lib, u ma’lum bir mamlakat yoki dunyoning faravonligiga hissa qo‘shishga intiladi. Professional o‘qituvchining o‘qituvchilik mahorati va ta’lim kompetensiyalari quyidagilardan iborat: murakkab pedagogik vazifalarni bajarish, ruhiy va jismoniy sog‘lom barqaror va bag‘rikeng bo‘lish, yosh avlod bilan ishslashga moyillik, yaxshi kommunikativ va kuzatuvchanlik qobilyati kabilarni o‘z ichiga oladi.

**“Kompetentlik”** tushunchasi dastlab ta’lim sohasiga psixologik, pedagogik izlanishlar natijasida kirib kelgan tushuncha bo‘lib, zamонавиy atama sifatida qo‘llanilib kelinmoqda. “Competentia” lotincha so‘zdan olingan bo‘lib o‘zbek tiliga tarjima qilinganda uning lug‘aviy ma’nosи “yaxshi biladigan inson, tajribaga ega bo‘lgan kishi” kabi ma’nolarni bildiradi. “Kompetentlik” tushunchasining mohiyati bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o‘rin egallagan, kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish har bir mutaxassisdan

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

kasbiy kompetentlikga ega bo‘lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo‘sheets kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o‘zida qanday kompetentlik sifatlarni aks ettira olishi zarur. Ayni o‘rinda shu va shunga yondosh savollar yuzasidan so‘z yuritiladi. Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxasis kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi:

Kasbiy kompetentlik –mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olishi bilan bog‘liqdir.

### **Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlar:**

1. Ijtimoiy kompetentlik.
2. Shaxsiy kompetentlik.
3. Texnologik kompetentlik.
4. Maxsus kompetentlik.

Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati yoritilgan.

- **Ijtimoiy kompetentlik** – ijtimoiy munosabatlarda faoliyati ko‘rsatish ko‘nikma va malakalarga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish kabilarni o‘z ichiga oladi.

- **Shaxsiy kompetentlik** – izchil ravishda kasbiy o‘sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

- **Texnologik kompetentlik** – kasbiy-pedagogik faoliyatni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

-**Maxsus kompetentlik** – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalardagi muammolarni oqilona hal qilish, faoliyatdagi natijalarini real baholash muhim o‘rin tutadi.

### **Adabiyotlar tahlili**

Bugungi kunda kompetensiya tushunchasi psixologik va pedagogik jihatdan tadqiq etilgan bo‘lsa-da, pedagogik tadqiqotlarda aynan mutaxassis kadr kompetensiyasi ta’lim jarayonini tashkil qilish, uning samaradorligini ta’minlash uchun muhimligini namoyon qilmoqda. Kompetensianing qo‘llanilishi juda xilma – xildir, bu esa jiddiy tushunmovchiliklarga olib keladi. Ba’zi olimlar kompetentliknining amaliy va nazariy bilimlar, kognitiv qobiliyatlar, xatti – harakatlar va ish faoliyatini yaxshilash uchun qo‘llaniladigan qadriyatlarning kombinatsiyasi deb biladilar. Kompetensiya bo‘yicha tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kompetensiya juda murakkab va keng qamrovli tushunchani o‘z ichiga oladi va ko‘pchilik olimlar kompetensiyaga turlicha ta’rif bergenlar. L.M.Mitina pedagogik kompetentlik - deganda predmet haqidagi bilimlar, o‘qitish metodikasi va didaktikasi, pedagogik muloqot ko‘nikma va malakasi, shuningdek o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini takomillashtirish, o‘zo‘zini amalga oshirish usullari va vositalarining uyg‘un birlashishini tushungan [3]. Kompetensiya tushunchasi shaxsga nisbatan umumiyligini kasb etsa, Kompetentlik individuallikni namoyon qiladi. Kompetentlikning asosiy mezoni mahsuldar faoliyat, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash natijasi bilan belgilanadi. Kompetentlikning o‘ziga xos jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- **tayyorgarlik bosqichi** : Shaxsning maxsus xususiyatlari, axborotni qabul qilish va uni qayta ishslash, o‘rganish qobiliyati.

- **Bilim**: Kompetentlik sterotipler, kompetentlik bilan bog‘liq bo‘lgan o‘rganishlar haqida tasavvurning mavjudligi.

- **Tajriba**: kompetentlikka mos keladigan masala va topshiriqlarni bajarish .

- **Munosabat**: kompetentlikni amalga oshirish bilan bog‘liq o‘zga va boshqalarga nisbatan munosabatlarning shakllanishi .

-**Muntazamlilik**: Kompetentlikka bog‘liq amallarni nazorat qilish xususiyatlari, matonat, qat’iyat, sabrlilik, kompetentlikni amalga oshirishdagi qarama –qarshiliklarni yengishga tayyorgarlik.

G.M.Qo‘jaspirova tahriri ostidagi pedagogik lug‘atda o‘qituvchining kasbiy kompetensiyasiga quyidagi ta’rif berilgan: “O‘qituvchining pedagogik faoliyati, pedagogik muloqoti va o‘qituvchi shaxsining shakllanishini belgilovchi zarur bilim, ko‘nikma va malakalar miqdoriga ega bo‘lishi. O‘qituvchi ma’lum qadriyatlar, ideallar va pedagogik ongning tashuvchisi sifatida” [4]. A. K. Markov pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot yetarli darajada yuqori saviyada olib boriladigan, o‘qituvchi shaxsini ro‘yobga chiqaradigan, o‘quvchilarni o‘qitish va tarbiyalashda yaxshi natijalarga erishiladigan shunday ish deb hisoblaydi. Bundan tashqari, o‘qituvchining malakasi, bir tomonidan, uning kasbiy bilim va ko‘nikmalari, ikkinchi tomonidan, kasbiy pozitsiyalari, psixologik fazilatlari nisbati bilan belgilanadi.

A.K. Markov kasbiy kompetensiyani hisobga olib, uning quyidagi turlarini ajratadi: maxsus, shaxsiy, individual, ijtimoiy [5]. E.F.Zera nuqtai nazaridan kompetensiya nafaqat mutaxassisning bilim va tajribasini, balki hayotning bir lahzasida to‘plangan bilim va ko‘nikmalarni amalga oshirish va o‘z kasbiy funksiyalarini

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

amalga oshirish jarayonida ulardan foydalanish qobiliyatini ham anglatadi. Bunday holda, vaziyatga qarab, ushbu bilimlarni qo‘llashga tayyorlik muhim ahamiyatga ega [6].

NV Kuzmina “kompetentlik” tushunchasini o‘qituvchining o‘zi tashuvchisi bo‘lgan ixtisosligini o‘qitish va ta‘lim jarayoniga qo‘ylgan cheklolvar va ko‘rsatmalarni hisobga olgan holda o‘quvchi shaxsini shakllantirish vositasiga aylantirish qobiliyati sifatida belgilaydi. N.V. Kuzmina kompetensianing quyidagi turlarini ajratadi [7]: – maxsus va kasbiy kompetensiya (o‘qitiladigan fan sohasida); – uslubiy kompetensiya (talabalarda bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish yo‘llari sohasida); – ijtimoiy-psixologik kompetensiya (muloqot jarayonlari sohasida); – differensial psixologik kompetensiya (talabalarning motivlari, qobiliyatlar, yo‘nalishi bo‘yicha); – avtopsixologik kompetensiya yoki pedagogik faoliyatning aks etishi (o‘z faoliyati va shaxsiyatining afzalliklari va kamchiliklari sohasida). Zamonaviy dunyoda o‘qituvchi kasbiy malakaga ega bo‘lishi uchun, bir tomondan, doimo o‘rganishi, o‘z-o‘zini tarbiyalash bilan shug‘ullanishi, ikkinchi tomondan, pedagogik faoliyatda o‘zini namoyon qilishi kerak. O‘z-o‘zini anglash jarayonida o‘qituvchi o‘zlashtirish – in’om qilish munosabatlari kirdi. O‘zini-o‘zi amalga oshiradigan o‘qituvchi nafaqat jamiyatda ishlaydi, balki o‘z qadriyatlariga, o‘quvchi sifatida ham o‘zi sarmoya kiritadi. Ta‘lim tizimidagi o‘qituvchi - bu o‘z-o‘zini rivojlantiruvchi shaxs bo‘lib, u doimiy ravishda o‘z ustida ishslash orqali o‘zining kasbiy va shaxsiy fazilatlarini oshiradi. Kompetentlikni namoyish qilishga tayyorgarlik darajasini quyidagi masalalarda o‘z ifodasini topishi mumkin: shaxs bиринчи navbatda o‘zini-o‘zi hurmat qilishi, rivojlantirishi, o‘zini namoyon etish g‘oyasi, kasbiy yo‘l tanlashi, turmush qurish, farzandli bo‘lishga nisbatan qaror qabul qilishga tayyorgarlik, hayot yo‘lini mustaqil tanlash, o‘z hayotiga javobgarlik, kasb sohasida ko‘nikma, malakalarni hosil qilishga tayyorgarlik va boshqalarda namoyon bo‘ladi. Kompetentlikga asoslangan yondashuvning maqsadi zamonaviy ta‘lim nuqtai nazardan kelib chiqqan holda, mutaxassisning nazariy bilimlari va uni amaliy qo‘llash o‘rtasidagi uzilishni yengishga intilishdir. Shuning uchun zamonaviy o‘quv jarayoni amaliyotda qo‘llanilishi qiyin bo‘lgan bilimlarni talabalarga berishdan iborat emas, aksincha shu bilimlarni dolzarb kasbiy muammolarni hal qilish uchun safarbar etish, shuningdek, o‘quv jarayonida bu kabi muammolarni talabalarning o‘zlar mustaqil ravishda hal qilishlari uchun sharoit yaratishdan iborat bo‘lishi kerak. Bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish uchun avvalo kuzatuvchanlik xususiyatining rivojlanishiga, ya’ni perseptiv, kognitiv, refleksiv, empativ, motivatsion va prognostik jihatlarining taraqqiy etishiga e’tibor qaratish lozim. Pedagogik faoliyat va muloqot jarayonida ijtimoiy-perseptiv kompetentlikka ega bo‘lib borish uchun mutaxassis o‘zida insonparvarlik, ijtimoiy-refleksiv, bilim hamda ko‘nikmalar, ijobjiy kasbiy “Men”- siyoshi, ba’zi shaxsga xos sifatlar (intellekt, iroda, empatiya, kuzatuvchanlik, mehribonlik, hissiy bag‘rikenglik va boshqalar)ni shakllantirishga oid mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanishi maqsadga muvofiqdir. Pedagogik-psixologik trening-seminar, ish o‘yini, mahorat darsi va turli amaliy mashg‘ulotlarga jalb qilish, malakaviy amaliyotning rolini oshirish, har bir talabaga o‘zining pedagogik faoliyatga xos imkoniyatlari va mahoratini namoyon etishi mumkin bo‘lgan qulay sharoitlarni yaratib berish orqali unda ijtimoiy-perseptiv

kompetentlikni shakllantirish mumkin. Buning uchun nafaqat shu sohaga oid bilim,

ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishi, balki insonlar bilan muloqot o‘rnatish texnikasini egallah, motivatsion sohani rivojlantirish, psixologik bilimdonligini oshirib borish, kasbiy faoliyatga psixologik jihatdan tayyorgarlik ko‘rib borish lozim.

**Xulosa** qilib aytish lozimki, shaxsga ta‘lim va tarbiya berishda nafaqat ta‘lim oluvchiga ta‘limning yo‘naltirilishi, balki o‘qituvchining pedagogik faoliyatga

psixologik tayyorligi muhimdir. Bunday hollarda o‘qituvchining kasbiy kompetentlik

darajasiga alohida e’tibor qaratishni talab etadi. Ta‘lim tizimida kompetentli yondashuv ta‘lim islohotlarining konseptual asoslari sifatida qabul qilinishi, ta‘lim tizimiga kompetentli yondashuvning joriy etilishi ta‘lim maqsadi, mazmuni, o‘qitish shakli, o‘qitish usullari, pedagogik va axborot texnologiyalari, nazorat usullarini hamda ta‘lim beruvchi va ta‘lim oluvchi rolida jiddiy o‘zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi. O‘qituvchining kasbiy kompetentligini tarkib toptirish uchun pedagogik oliy ta‘limda tub o‘zgarishlarni amalga oshirish kerak. Oliy ta‘lim Davlat ta‘lim standarti, o‘quv dasturi va darsliklarni takomillashtirish yo‘nalishida muayyan ishlar olib borilayotgan bir paytda, mavjud an‘anaviy mazmundan voz kechish qiyin kechsa-da, ta‘lim mazmunini yanada aniqlashtirish lozim bo‘ladi. shaxsning bilim olishida ta‘lim- tarbiyaning o‘rnii beqiyosdir. Ta‘lim-tarbiya berishda nafaqat ta‘lim oluvchiga, balki o‘qituvchining pedagogik faoliyatga psixologik tayyorgarligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday hollarda o‘qituvchining kasbiy kompetensiya darajasiga alohida e’tibor qaratilishni lozim bo‘ladi. O‘qituvchining kasbiy kompetensiyasini tarkib toptirish uchun pedagogik oily ta‘limda tubdan o‘zgarishlarni amalga oshirish kerak. Oliy ta‘lim o‘quv dasturi va darsliklarni takomillashtirish yo‘nalishida muayyan ishlar olib borilayotgan bir paytda, mavjud an‘anaviy tizimdan voz kechish qiyin kechsa-da, ta‘lim mazmunini yanada aniqlashtirish lozim bo‘ladi.

### **Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagи PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-yil, 6-son, 70-modda.
2. Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini bирgalikda barpo etamiz. Toshkent, 2016. 14-bet
3. Митина Л.М. (2004). Психология труда и профессионального развития учителя. - М.: Академия. - 320 с.
4. Kodzhaspairova, G. M. Pedagogical dictionary / G. M. Kodzhaspairova. — Academy: 2001. — 672 p.
5. Маркова А. К. Психологический анализ профессиональной компетентности учителя. — 1990. — № 8.7.
6. Зеер, Э.Ф. / Психология профессий / ЭЭФ. — Екатеринбург: 1999. — 259 с.
7. Кузьмина Н. В. Профессионализм личности педагога и мастерство производственного обучения. Кузьмина. — М.: Высшая школа. — 1990. — 198 с.
8. ziyo.uz sayti.

**РАЗЗАҚОВА Райхан Сайлаубековна**

УрДУ, психология фанлари  
бўйича фалсафа доктори (PhD)

## **ОИЛАВИЙ ҲАЁТГА АДАПТАЦИЯ ПОТЕНЦИАЛИ ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК ТАДҚИҚОТ СИФАТИДА**

Уибу мақолада оилавий ҳаётга адаптация потенциали ижтимоий-психологик тадқиқот сифатида ўрганилган.

**Tayanch so`zlar:** Oilaviy xayot, oilaviy hayotga tayyorlik, adaptatsiya, nikoh, jismoniy yetuklik, ruhiy yetuklik, ijtimoiy tayyorlik.

### **ПОТЕНЦИАЛ АДАПТАЦИИ К СЕМЕЙНОЙ ЖИЗНИ В КАЧЕСТВЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ИССЛЕДОВАНИЯ**

*В данной статье рассматривается потенциал адаптации к семейной жизни изучается как социально-психологическое исследование.*

**Ключевые слова:** Семейная жизнь, готовность к семейной жизни, адаптация, брак, физическая готовность, психологическая готовность, социальная готовность.

### **THE POTENTIAL OF ADAPTATION TO FAMILY LIFE AS A SOCIO-PSYCHOLOGICAL RESEARCH**

*In this article, the potential for adaptation to family life is studied as a socio-psychological study.*

**Key words:** Family life, preparation for family life, adaptation, marriage, physical maturity, spiritual maturity, social readiness

**Кириш.** Изланаётган муаммо бўйича илмий адабиётлар таҳлили шуни кўрсатадики, оилавий ҳаётга адаптациянинг самаралиги кўплаб омилларга боғлиқ бўлиб, улар орасида шахсий тузилмаларнинг муайян комплекси етакчи бўлади ва адаптация потенциали сифтида қаралашиши мумкин. Бунда ушбу атама, оила кесимида нисбатан янги бўлиб, изланувчилар томонидан турлича – оилавий ҳаётга адаптацияланувчанлик, муайян қобилияtlар, оилавий ҳаётга тайёрлик, сифатлар, индивидуаль-психологик хусусиятлар, уларнинг ўзига хос синтези каби талқин қилинади. Бундай ҳолат фаолиятнинг, унинг призмаси орқали бу тушунча, одатда, ҳар бир алоҳида ҳолатда таҳлил қилинади, маҳсуслашган структураси билан ҳам, олимларнинг назарий ёндашишлари билан ҳам боғланган. Бу билан шу ҳам тушунтириладики, баъзи бир олимлар адаптация потенциалини шахс фонида, бошқалари эса шаклланиши исталган натижаларга эришиш учун зарурат деб ҳисоблайдиган психик функцияларни ҳисобга олган ҳолда, функционал фонда кўриб чиқадилар. Адаптация потенциали, олимлар томонидан шахснинг бутунлигича намоён бўлиши, унинг рағбатли-эҳтиёжли соҳасининг шаклланганлиги ва б. сифатида қараладиган алоҳида психик ҳолат каби ҳам намоён бўлади [1, 11, 13].

**Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили (Literature review).** Бундан ташқари, шуни ҳам таъкидлаш лозимки, адаптация потенциали тушунчасининг ўзи кўпинча фаолиятнинг аниқ бир турини таҳлил қилиш орқали очиб берилган, ижтимоий психологияда жиддий диккат-эътибор фаолиятнинг педагогик, экстремал ва бошқа турларига адаптация потенциали шаклланишига ва ривожланишига қаратилган. Оилавий ҳаётга нисбатан бу тушунча, одатда, етарлича кам қўлланилади. Шу сабабли, у тўлиқ очилмасдан қолмоқда, унда ойдинлаштирилган таркибий элементлар ажратилмаган, тегишли психодиагностик ускуналар аниқланмаган ва ҳакозо. Масалан, Ю.И. Толстыхнинг фикрича, адаптация потенциали мураккаб динамик тармоқقا эга, у шахснинг ақлий, ҳиссий, иродавий таркибий қисмларнинг органик жамланмаси сифатида майдонга чиқади. Юқори адаптацияйлик ҳолати, ўқитиш давомида мустаҳкамланиб бориб, доимо амалда бўлувчи турғун, узоқ тайёрликка айланади, шундай экан уни ҳар сафар янги топширик сабабли шакллантиришга эҳтиёж бўлмайди. Адаптация потенциали шахснинг, унинг эътиқодини, қарашларини, муносабатларини, мотивларини, ҳис-туйғуларини, иродавий ва ақлий сифатларини,

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

билимини, кўникмаларини, қобилиятларини, йўналишини, муайян хулқа тузилганлигини ўз ичига қамраб олувчи мақсадга йўналтирилган ифодасини билдиради, деб олим бежизга таъкидламайди [12].

В.Н.Марков, илмий адабиётлар таҳлили натижалари бўйича, бир хил муаммоли вазиятларда турли шахслар турлича ва турли даражадаги муваффақият билан адаптацияланади. Бу шундан далолат берадики, шахснинг адаптацияяга бўлган қобилияти ёки адаптация потенциали мавжуд ва индивидуал фарқлар тўғрисида шундай қобилиятни эгаллаганлик даражаси бўйича баҳо бериш мақсадга мувофиқ. Адаптация потенциали тушунчаси микро ва макро гурухлар шароитида инсон хулқининг адаптацияланувчанини каби аниқланади. Психология планида бундай хулқ инсонда борлиқка мўлжалнинг мураккаб тизимини ишлаб чиқиш, юқори психологик функцияларни қайта тузиш ва шахснинг сифат жиҳатдан янги қобилиятларини, хусусиятларини шакллантириш билан таъминланади. Ижтимоий-психологик хоссалар, шунингдек, шахснинг самарали адаптация хулқини таъминлайдиган қобилиятлари илмий изланишлар учун жуда долзарб ҳисобланади [12].

И.Ф.Дементьевая, шахснинг оилавий ҳаёт соҳасидаги самарали адаптация қобилияти, оиланинг муваффақиятли фаолият юритиши учун зарур бўлган, унинг юзага келган турғун сифатлари тизими бўлади, деб ҳисоблайди. Қадриятларга бўлган қарашлари у томонидан шахснинг оиладаги хулқининг созловчиси, шунингдек, оилавий ҳаётга тайёрлик кўрсаткичи сифатида каралади [5].

А.С.Щукина адаптацияланишнинг ахлоқий-психологик томонини ажратди, унинг остида у хулқнинг талаблар, мажбуриятлар ва ижтимоий стандартлар билан оилавий ҳаёт тартибга солинади, бир бутун комплексининг ўзлаштирилишини тушунади. Изланувчи никоҳга қобилиятлилик тушунчасини киритди ва унинг қўйидаги таркибий қисмларини ажратиб берди:

бошқа инсон тўғрисида ғамхўрлик қилиш, савоб иш қила олиш қобилияти;

ҳамдард бўлиш, биргаликда бошдан кечириш, шеригининг ички дунёсига кириш, уни тушуниш, унинг билан руҳан бирлашиш;

тижоратга, ҳамкорликка, мулоқотга кира олиш қобилияти;

чидамли, олийжаноб ва раҳмидил бўлиш, бошқа шахсни унинг барча камчиликлари билан бирга тушуниш, ўзининг хусусий манманлигини боса олиш қобилиятини назарда тутувчи юқори даражадаги этика маданияти [8].

**Тадқиқот методологияси (Research Methodology).** Қизларнинг оилавий ҳаётга адаптацияси потенциалининг таркибий қисмларини баҳолаш бўйича муаллиф томонидан тузилган Эксперт сўровномаси; қизларнинг оилавий ҳаётга адаптацияси потенциалини баҳолаш бўйича муаллиф томонидан тузилган эксперимент шкаласи; В.В.Столин, Г.П.Бутенко, Т.Л.Романовнинг “Никоҳдан қониққанлик сўровномаси”; Э.Г.Эйдемиллер, И.В.Юстицкисларнинг “Оилавий аҳвол типологиясини диагностика қилиш” методикаси; В.И.Недашковскийнинг “Мулоқотга киришишнинг ўзига хосликларини диагностика қилиш методи”; А.В.Зверьков, Е.В.Эйдманларнинг “Иродавий ўз-ўзини бошқаришни ўрганиш тест-сўровномаси”; “Бахтли оилавий ҳаёт” муаллиф томонидан тузилган ижтимоий-психологик ўқитиши дастури.

- **Таҳлил ва натижалар (Analysis and results).** Т.В.Королева оилавий ҳаётга адаптацияланиш қобилияти шаклланганлигининг муҳим кўрсаткичи сифатида эр-хотинларнинг бир-бирларига йўналганликларини кўрсатади. Шерикни тушуниш истагини шакллантириш, унинг қизиқишиларини, таъбини, кайфиятини, одатларини инобатга олиш қобилияти баҳтли оилавий ҳаёт қуриш учун муҳим шарт ҳисобланади. Бундан ташқари, ушбу комплекс хусусият шерикларда идеаллар, тасаввурлар, оилавий ҳаёт тўғрисидаги орзиқишлар, биргаликдаги ҳаётнинг, қадриятлар йўналишининг, оилага бўлган қарашларнинг мотивларини англаб етишнинг мавжудлигини қамраб олади. Ажратилган ўрин асосида олима оилавий ҳаётга муваффақиятли адаптациясини таъминлайдиган қўйидаги кўрсаткичларини очиб беради:

инсонда шеригининг характеристи, темпераменти, мулоқотга киришишнинг ўзига хосликлари, қизиқишилари, ўз-ўзини баҳолаши тўғрисидаги билимларнинг мавжудлиги;

оиласда соғлом психологик мухит яратиш, низоли вазиятларни ҳал қила олиш билими ва қобилияти;

бошқа шахснинг индивидуал хусусиятларини билиш, эркак ва аёл ўртасидаги ўзаро муносабатларнинг ахлоқий меъёrlарини билиш.

Бунда изланувчи дикқатни психологик жиҳатдан мураккаб бўлган никоҳгача бўлган даврнинг аҳамиятига, унинг асосий қўйидаги функцияларини ажратган ҳолда, каратади:

бергаликдаги ҳайратланишлар ва ғамхўрлик қилишларни тўплаш;

бир-бируни янада чукурроқ билиш, қабул қилинган қарорни ойдинлаштириш ва текшириш;

оилавий ҳаётни лойиҳалаштириш ва б.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

Айнан никохгача бўлган танишиш даврида эр-хотинларнинг оилавий роли, келажақдаги оиланинг ҳаёт кечиришида моддий ва маънавий қадриятларнинг ўрни тўғрисидаги тасаввурлар келишилади [9].

Н.Б.Гафизова инсоннинг интегратив характеристикасини очиб бериб, унинг остида ҳаётнинг оилавий тарзига адаптацияланиш учун зарур бўлган бир қатор сифатларни тушунади. Ушбу сифатлар инсон шахсининг турли томонларига тааллуқли. Шундан келиб чиқиб, муаллиф ушбу интегратив характеристиканинг қуидаги таркибий қисмларини ажратади:

- motivatsiyachi;
- ўрганувчи;
- хис-туйгу – иродавий;
- мулокотга киришувчи [5].

У.А.Зацепин, замонавий психологиянинг ютуқларини инобатга олган ҳолда, ўзининг мазмуни жиҳатдан оилавий ҳаётга самарали адаптацияни таъминлайдиган бир қатор ўзига хос хусусиятларни белгилайди. Бунда бу хусусиятлар бутун, интегратив, ҳаракатдаги, кўплаб ташки ва ички омилларга боғлиқ бўлиб, ўзаро боғланган ва ўзаро шартли таркибий қисмларнинг мураккаб синтезини ташкил қилувчи психологик яратилма сифатида майдонга чиқади. Ушбу яратилма тармоғига муаллиф қуидаги таркибий қисмлари қўшади:

- motivatsiyavii;
- шахсий;
- ўрганувчи;
- хис-туйгули-созловчи;
- хулқий [7].

К.Р.Заверико ёш оиласалар билан психологик ишни очаётиб, оилавий ҳаётга адаптациянинг омадлилиги шерикларнинг қуида келтирилган шахсий сифатларининг бирикишига боғлиқ бўлади, деб хисоблайди:

фаолиятга фаол, ижобий муносабат, унинг билан худди эҳтиросли машғулот каби шугулланишга мойиллик;

турғун ақлий сезгилар;

билимлар, кўнкималар ва қобилиятларнинг муайян фонди, ушбу фаолиятга мос талаблар, индивидуал психологик ўзига хосликлар [6].

А.А.Ахмадеев, А.А.Ширяевалар никохга омадли адаптацияга қобилиятни, ўзи ичига, энг аввало, шахснинг психологик жинсининг шаклланиши, унинг ривожланиши, эркак ва аёл хулқи стереотипларини эгаллаши масалаларини қамраб олувчи, кўп томонлама муаммо сифатида қарайдилар. Бундан ташқари муаллифлар никохдаги шериклар ўзаро муносабатларининг ўйғулигига таъсир кўрсатувчи қуидаги омилларни очиб берадилар:

ижтимоий келиб чиқиш, энг аввало, шерикларнинг ўз ота-оналарининг оиласида яшаш тажрибаси (оилавий ролларни тақсимлашда ижтимоий-маданий ва миллий анъаналар ва уларнинг бажарилиши);

эр-хотинларнинг шахсий сифатлари (ниятлари, таъблари, одатлари, мотивация соҳасининг ўзига хосликлари);

шеригининг идеали тўғрисидаги тасаввур (никоҳ билан боғлиқ бўлган орзулар, никоҳдаги шерик ва оилавий ҳаётга нисбатан талаблари);

мотивация [2].

Т.В.Адреева, А.В.Толстова, Ю.Н.Олейниклар томонидан ўтказилган илмий адабиётлар таҳлили никохда қаноатланганликни таъминлайдиган мувофиқлик бу мураккаб, бирлашган, ҳаракатчан психологик яралма (таълим) бўлиб, у “МЕН” образининг адаптацияси, ўзлигини англаши, ҳаракатчанлиги ривожланишининг муайян ўзига хос хусусиятлари билан ҳаракетланиши тўғрисидаги қарашни бошланғич қараш сифатида олиш имконини берди. У ўз ичига оила қуришга бўлган турғун ижобий мотивацияни, ижтимоийлашиш (социализация) жараёни ва натижаси бўлган билимларнинг фаоллашишини, улар, оиланинг базавий вазифаларини амалга ошириш учун зарур бўлган ижтимоий-психологик қобилиятлар ва кўнкималарни, оиласи кишининг шахсий сифатларининг ривожланишини, шерикни тушуниш ва ўзини тута олиш, никоҳдаги самарали хулқни эгаллаш қобилиятини қамраб олади [11].

- **Хулоса ва таклифлар (Conclusion/Recommendations).** Шундай қилиб, юқорида баён қилинганлардан келиб чиқиб оилавий ҳаётга омадли адаптация сезиларли даражада ижтимоий-психологик томони етакчи бўлган маҳсус, шахсий таълим комплексига боғлиқ, деб хулоса қилиш мумкин. Ўзининг моҳияти бўйича бу комплексни, олимлар томонидан турлича –

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

адаптацияланувчанлик, муайян қобилиялар, никохга тайёрлик, билимлар, кўникмалар, сифатлар тўплами, индивидуал-психологик хусусиятлар, уларнинг ўзига хос синтези ва бошқалар каби талқин қилинадиган, оилавий ҳаётга адаптация потенциали сифатида қараш мақсадга мувофиқ. Шундай ҳолат ўрганилаётган тушунча устунлик билан фаолиятнинг муайян тури ўрнидан туриб очиб берилиши ва натижада, ижтимоий психологияда изланишларнинг сезиларли даражада кўпчилиги фаолиятнинг педагогик, экстремал ва бошқа турларига адаптация потенциалининг шаклланишига ва ривожланишига бағишиланганлиги билан тушунтирилади. Изланувчиларнинг умумий фикрига таянган ҳолда, мазкур диссертация доирасида, оилавий ҳаётга адаптация потенциали деганда инсоннинг оила аъзолари ўртасидаги (оилавий ҳаётдаги) алоҳида муносабатлар ва алоқалар шароитига мослашишининг (адаптациянинг) муваффақиятини сезиларли даражада таъминлайдиган шахсий таълим комплексини тушуниш мақсадга мувофиқ кўринади. Шахсий таълим комплекси сифатида ушбу ҳодиса оилавий ҳаётга мотивацияни, оиласа эга бўлишнинг англанган истагини, унинг ҳаётий зарурлигига чуқур ишончни, шахслараро ўзаро ҳамкорликни амалга ошириш қобилиятини, оила-никоҳ субъекти учун характерли бўлган усуллар ва амалларни эгаллашни, хулқни ва ҳиссий ҳолатларни мустақил тузатиш қобилиятини, тушуниш, ҳамфирлик, ҳамдардлик, ўзаро тушуниш, ўзаро ёрдам каби сифатларнинг шакллланганлиги, худди шунингдек, оилавий ҳаёт учун зарур бўлган билимлар комплексининг мавжудлигини ўз ичига қамраб олади.

### Адабиётлар

1. Karimova V.M. Oilaviy hayot psixologiyasi. T. - 2006. – 142 b.
2. Shoumarov G.B., Haydarov I.O., Sog‘inov N.A. va boshq. Oila psixologiyasi: Akad. litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘l. / G.B. Shoumarovning tahriri ostida; O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta-maxsus ta’lim vazirligi, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi. - T.: «Sharq», 2010. - 296 b.
3. Абрамова А.В. Управление социально-педагогической адаптацией женщин группы социального риска: Автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01 / Абрамова Алёна Владимировна. - Челябинск, 2011. – 24 с.
4. Аврамова Т.И. Личностно-ориентированные тренинги как метод коррекции самоотношения: Дис. ... канд. психол. наук: 19.00.05: Воронеж, 2000 - 210 с.
5. Агаджанян Н.А. Здоровье студентов: стресс, адаптация, спорт: Учебное пособие / Н.А. Агаджанян, Т.Е. Батоцыренова, Л.Т. Сушкова. - Владимир: Владимирский государственный университет, 2004. – 136 с.
6. Адмиральская И.С. Отношение супружеского к себе и друг к другу и удовлетворенность браком / И.С. Адмиральская // Психологическая наука и образование: психология семейных отношений / В.В. Рубцов, В.А. Гуружапов. - 2008. - № 4. 2008. - С. 5-11.
7. Айгунов В.Р. Мотивация брачного выбора у молодежи: Дисс.... канд... психол.... наук: 19.00.13 / Айгунов Владислав Русланович; ГОУВПО "Московский педагогический государственный университет".- Москва, 2009.- 192 с.
8. Алешина Ю.Е. Удовлетворенность браком и межличностное восприятие в супружеских парах с различным стажем совместной жизни. М.: Академия, 2008. - 320 с.
9. Алиева С. Семейная психология в исламе. – М.: Луч : Booksriptor, 2018. - 285 с.
- 10.Андреева Т.В. Психология семьи. - СПб.: Речь, 2007. - 384 с.
- 11.Андреева Т.В. Семейная психология: Учеб. пособие. - СПб.: Речь, 2004. - 243 с.
- 12.Андреева Т.В., Толстова А.В. Темперамент супружеского и совместимость в браке // Ананьевские чтения: Тез. науч. конф. - СПб.: СПбГУ, 2001. - С. 207-208.

**ARIPOVA Shaxnoza Shaaxrarovna****MUSTAQIL TA’LIM VA UNING MOTIVATSION XUSUSIYATLARI**

Ushbu maqolada Mustaqil ta’lim olish jarayoniga turli metodologik uslublarni tatbiq qilish muammolari ochib berilgan bo’lib, u bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo’lib qolmoqda. Zero, talabalar faqatgina auditoriyada olingan nazariy yoki laboratoriylar, seminar va amaliy mashg’ulotlar orqali kerakli bilim, ko’nikmalarni egallay olmaydi. Buning uchun esa, mustaqil ta’limni rivojlantirish, talabalarda mustaqil ta’lim olish ko’nikmalarini rivojlantirish, va eng asosiysi, tizimni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlarni kengaytirish masalasi ham maqolaning asosiy vazifalar qatoridan o’rin olmoqda. Mustaqil ta’lim olish uchun turli texnologiyalardan foydalanish, tizimga zamonaviy metodlarni joriy qilish, bu borada nafaqat talabalar, balki pedagoglarning ham asosiy maqsadi bo’lishi kerakligi, tizimni rivojlantirish va takomillashtirish uchun talabalar bilan birga ishlash, feedback jarayonlaridan foydalanish ham zamonaviy ta’limning ajralmas qismi sifatida namoyon bo’lmoqda.

**Kalit so’zlar:** mutaxassis, mustaqil ta’lim, feedback, uslubiy, kamchiliklar, amalga oshirish, ko’rinishlar, texnologiya.

**САМОСТОЯТЕЛЬНОЕ ОБУЧЕНИЕ И ЕГО МОТИВАЦИОННЫЕ ОСОБЕННОСТИ**

В данной статье рассматриваются проблемы применения различных методологических подходов к процессу самостоятельного обучения, что остается одним из наиболее актуальных вопросов на сегодняшний день. Ведь студенты не могут приобрести необходимые знания и навыки только за счет теоретических или лабораторных, семинарских и практических занятий, полученных на занятиях. С этой целью развитие самостоятельного обучения, у студентов навыков самообразования и, самое главное, расширение исследований, направленных на разработку системы, также входят в число основных задач статьи. Также неотъемлемыми являются использование различных технологий для самостоятельного обучения, внедрение в систему современных методов, главной целью которых должны быть не только студенты, но и преподаватели, работа со студентами над развитием и совершенствованием системы, использование процессов обратной связи.

**Ключевые слова:** эксперт, самостоятельное обучение, обратная связь, методологические, недостатки, реализация, взгляды, технология.

**INDEPENDENT LEARNING AND ITS MOTIVATIONAL FEATURES**

*This article discusses the problems of applying different methodological approaches to the process of independent learning, which remains one of the most pressing issues today. After all, students cannot acquire the necessary knowledge and skills only through theoretical or laboratory, seminars and practical classes received in the classroom. To this end, the development of independent learning, the development of students' independent learning skills, and, most importantly, the expansion of research aimed at developing the system are also among the main objectives of the article. The use of different technologies for independent learning, the introduction of modern methods in the system, the main goal of which should be not only students but also teachers, working with students to develop and improve the system, the use of feedback processes appears as an integral part.*


**Keywords:** feedback, methodological, independent education, shortcomings, implementation, manifestations, technology.

**Kirish.** Bugungi kun jamiyati uchun zarur bo’lgan mutaxassislar, professional xususiyatlari yuqori bo’lgan kadrlarni tayyorlashning asosiy shartlaridan biri – bu birinchi galda, ta’lim tizimi bo’lsa, ikkinchidan, kadrlarni tayyorlashda qo’llaniladigan ilg’or metodlar hisoblanadi. Ushbu metodlardan ko’zlangan asosiy maqsad talabalarni mustaqil holda bilim olishi va ushbu bilimlarini real hayotda qo’llay bilish salohiyatini oshirishdir. Shuningdek, yuqori malakaga ega bo’lgan mutaxassislar avvalo, xorijiy tillarni qay darajada bilishi va ularni amaliyotda qo’llay olishida ham namoyon bo’lishini aslo unutmasligimiz lozim. Zero xorijiy tillarni puxta egallash bugungi kun zamonaviy kadrlari oldiga qo’yilayotgan asosiy talablardan biridir. Shuning uchun ham, avvalo, yoshlarni ta’lim olishining ilk kunlaridan boshlab mustaqil ta’limga yo’naltirish, buning uchun ularda avvalo o’quv motivatsiyalarini rivojlantirish va yo’lga qo’yish masalalari eng muhim

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

vazifa hisoblanadi. “Talabalar o’quv faoliyatining umumta’limiy, tarbiyaviy, amaliy va rivojlantiruvchi maqsadlarini anglab yetishi va ularning shaxsiy maqsadlari bilan bog’lashi motivatsiyaning shakllanishiga sabab bo’ladi”<sup>1</sup>. Didaktik jarayondagi motivatsion bosqich o’quvchini o’quv faoliyatiga tez va oson kirishib yuqori natijaga erishishga, faoliyat mexanizmining qisqa hamda samarador bo’lishiga imkon beradi<sup>2</sup>.

### **Asosiy qism**



Xorijiy tillarni o’qitish metodikasining asosiy maqsadi til haqida talabalar yoki o’rganuvchilar uchun ma’lum bir axborotlarni berish bilangina cheklanish emas, balki ularda butun bir kognitiv bilim, ko’nikmalarni vujudga keltirish, til bilan bog’liq faktlarni o’zlashtirish faoliyati bilan bog’lik ko’nikmalarni rivojlantirish, shuningdek, faol nutqni rivojlantirish uchun verbal metariallarni ongli ravishda qabul qilish mexanizmlarini rivojlantirish ekanligini aslo unutmaslik lozim<sup>3</sup>. Xorijiy tillarni o’qitish tizimini tashkil qilishdagi yangi tendensiyalar bugungi kundanofilogik yo’nalish talabalarida ham professional darajada xorijiy tillarni o’qitishning innovatsion tizimlarini yaratishni taqazo etmoqda. Shu bilan bir qatorda, mazkur yo’nalishda o’quv ishlarini tashkil qilishning prinsiplarini ishlab chiqish va ushbu jarayonlarni zaruriy o’quv materiallari bilan ta’minlashning qanchalik darajada dolzarb ahamiyat kasb etishini namoyon qilmoqda.

Talabalarda mustaqil ta’limga nisbatan motivatsiyalarni rivojlantirishning eng muhim yo’llaridan biri – bu ularda og’zaki nutqni rivojlantirish jarayonini pedagog tomonidan tartibga solish va boshqarish hisoblanadi. “Bu borada garchi ko’plab muammolar saqlanib qolayotgan bo’lsa-da, xorijiy tilni o’qitish metodikasining eng muhim qismi sifatida doimo unga jiddiy yondashuv bugungi kun pedagogika fanining asosiy muammolaridan biri bo’lib qolmoqda”<sup>4</sup>.

B.R.Samatova tadqiqotida keltirilgan ta’rifga ko’ra “Bilim olishga oid motivatsiya til o’rganuvchining mustaqil ta’limga ehtiyojida namoyon bo’ladi. Bu motivatsiya yetishmayotgan lisoniy bilimlarni egallahga intilish, xorijiy til materialini o’zlashtirishning ma’qul usullarini egallahga ehtiyoj, til aspektlari haqidagi bilimlarni tizimlashtirish, chuqurlashtirish, lug’at boyligini kengaytirishga ehtiyojlarni o’z ichiga oladi”<sup>5</sup>.

1 Samatova B. (2020). Ingliz tilini o’qitishda nofilologik yo’nalish talabalarining motivatsiyasi (yurisprudensiya yo’nalishi talabalarini misoldida). Pedag. fan. dok. fals. diss. (13-b.). Toshkent.

2 Bespalko V. (1989). Slagayemiye pedagogicheskoy texnologii. M.: Pedagogika. (99-b), (192-b). Polsha.

3 Guzanov B. (2014). Organizatsiya samostoyatelnoy raboti studentov vuza v usloviyakh realizatsii mnogourovnevoy modeli obucheniya: monografiya / B. N. Guzanov, N. V. Morozova. Yekaterinburg: Izd-vo Ros. gos. prof.-ped. un-ta, (111-b). Moskva.

4 Juk O. (2005..№2). Organizatsiya samostoyatelnoy raboti studentov v logike kompetentnostnogo podxoda / O. L. Juk // Vissaya shkola. (45–50-b). Moskva.

5 Samatova B. (2020). (20 Ingliz tilini o’qitishda nofilologik yo’nalish talabalarining motivatsiyasi (yurisprudensiya yo’nalishi talabalarini misoldida): Pedag. fan. b.a fals.diss. (40-b). Toshkent.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

Hozirgi zamonda xorijiy tillarni o’qitish va bu jarayonda talabalarda xorijiy tillarni o’zlashtirishlari uchun motivatsiyalarni kuchaytirishda pedagoglar tomonidan duch kelinayotgan eng katta va og’riqli muammollardan biri – bu talabalar tomonidan garchi, ma'lum bir xorijiy tilning grammatiskasini chuqur o’zlashtirgan bo’lishiga qaramasdan, ularning gapirish jarayonida biror bir xatoga yo’l qo'yishi va kulgiga qolishidan qo’rqishi va uyalishidir. Bunday holatda, talabalar xorijiy tilda emas, balki o’z tillarida gapirishni afzal ko’rishlari va xorijiy tillarda faqatgina “mashq” bajarishlari bugungi kunda yaqqol namoyon bo’layotgan holatlardan biridir.

Bunday vaziyat nafaqat mustaqil ta’lim motivatsiyasi, balki butun ta’lim tizimiga tahlikali bo’lib, bu holatni o’z vaqtida anglab yetish va uni bartaraf etish choralarini ishlab chiqish eng zarur vazifadir. Aks holda, pedagog tomonidan amalga oshirilgan barcha ishlar yo’qqa chiqib ketishi mumkin. Nofilologik yo’nalish talabalarining xorijiy tillarni o’rganishda nutqiy salohiyatini oshirish bevosita ularda gapirish ko’nikmasi va faoliyatining turli shakllarini rivojlantirishga qaratilgan dominant omillar bilan bog’liq6.

Motivatsiyani rivojlantirishning eng asosiy omillaridan yoki yo’nalishlaridan biri – bu o’quvchiga, o’rganuvchiga yoki talabaga til o’rganishning dastlabki davri, bosqichidan boshlab, gapirish ko’nikmasini shakllantirish va uni doimiy takomillashtirib borish hisoblanadi. “Til o’qitishda chet tilida gapirishga ishtiyoq tug’dirish: ishtiyoq uyg’otish, fikrni shakllantirish va realizatsiya bosqichlarida amalga oshiriladi”7.

“Tajribali pedagog talabaning garchi, grammatick, orfografik, xatoliklar, talaffuzdagi xatoliklar bilan bo’lsa-da, gapirishini har tomonlama rag’batlashtirishi, unga yaxshi gapirishni o’zlashtirayotganligini doimo eslatib motivatsiya berib turishi talabalarda gapirish ko’nikmasi, og’zaki nutq rivojlanishining asosiy omili bo’lishini aslo unutmasligi lozim”8.

Shuningdek, motivatsiyalarni rivojlantirishning yana bir asosiy va muhim yo’nalishlaridan biri sifatida talabalarda o’z mutaxassisliklari bo’yicha turli mantlarni, hujjatlarni o’qish va uni takroran hikoya qilib bera olish, bayon qilish, badiiy qo’shimchalar yordamida tasvirlab berish tizimi hisoblanadi. Zero, aynan o’quv matnlari, hujjatlar o’quv va o’rganish bilan bog’liq muloqotlarning real vaziyatini yaratish, tasvirlab berish imkoniyatini pedagog va talaba uchun biday taqdim qiladi9.

Talabalarda professional nutqni o’rgatish yoki o’zlashtirish tizimida birinchi galda oson va asta-sekin murakkablashib boradigan vaziyatni, suhbat yoki nutq bilan xarakterlanadigan holatni modellashtirgan holda, talabalarning nutqiy salohiyatini, kommunikativ ko’nikmalarini rivojlantirib borish zarur. Aynan bunday holatdagi vazifalarning qo’llanilishi talabalarda xorijiy tillarda ko’plab murakkab so’zlarni talaffuz qilish bilan bir qatorda o’z-o’ziga ishonch xarakterlarini ham shakllantiradi. Mazkur jarayonlarda axborotlarning esktralingistik vositalaridan (jadvallar, suratlар, sxemalar, ko’rsatuvchilar) foydalangan holda, xabarlarini taqdim qilish ham vazifaning yechimi uchun o’ta muhim hisoblanadi10.

O.Rudenko-Morgunning fikricha, “... nutq faoliyati: o’qish, yozish, tinglash va so’zlashishning barcha turlarini o’zaro bog’liqlikda o’rganish muammosi, qabul qilishning turli tizimllariga ta’sirisiz hal qilinishi mumkin emas. Aynan shuning uchun ham chet tillarini o’qitishda ta’limming barcha ma'lum an'anaviy texnik vositalaridan foydalanish o’rinli bo’lib kelgan, ularning ta’siri o’rganilgan, o’quvchining faoliyatini nazorat qilib borish muammosi hal qilingan, ayniqsa, o’quvchi mustaqil ta’lim olish holatiga o’tkazilganda juda katta dolzarblik kasb qilgan qayta aloqa mexanizmi yaratilgan”11.

Talabalarda og’zaki nutqni rivojlantirishning asosiy motivatsiyasi nimalarda namoyon bo’ladi? Chunki aynan u mustaqil ta’limming asosiy yo’nalishi, maqsadlaridan biri sifatida namoyon bo’ladigan holat ekanligini aslo nazardan qochirmaslik lozim. D.Adriyan “kommunikativ vaziyat ham og’zaki muloqotning real jarayoni – bu o’zaro bir-biri bilan chambarchas bog’langan kategoriyalarning ketma-ketligi, bog’lanmasi bo’lib, u talabalarning eng asosiy til o’rganish motivatsiyasini jonlantiradi, jarayonni tezashtiradi”12. Biz D.Adriyanning fikriga qo’shilgan holda nutq notilli omillar yordamida ham aniqlanadi, deb hisoblayman.

6Pushkina G.(2011. № 3). Samostoyatelnaya rabota studentov vuza: kompetentnostniy podxod i vnedreniye internet-texnologiy / G. G. Pushkina // Gumanitarniye nauki.(94-100-b). Novasibirsk.

7Zimnyaya I. (1985). Psixologicheskiye aspekti obucheniya govoreniyu na inostrannom yazike: Kniga dlya uchitelya /2 – izd. (160-b). Moskva.

8Baynazarova A. (2012. № 3). Proskurina I. K. Ispolzovaniye informatsionno - kommunikatsionnoy texnologii v organizatsii samostoyatelnoy raboti studentov // (170-174-b). Yaroslavskiy pedagogicheskiy vestnik.

9Cotton D., Falvey D., Kent S. (2005). Market Leader Intermediate. Busi-ness English Course Book. New edition, Pearson Longman.

10Zaleski M. (2004). Using Debate in Second Language Teaching // Idebate. International Debate Education Association. (Vol. 1. – Issue 2).

11Rudenko-Morgun O. (2006). Elektronniy uchebnik russkogo yazika: istoriya i perspektivi razvitiya / Izd-vo Rossiyskogo un-ta druzbi narodov. (45-b, 238-b).Moskva.

12Doff Adrian. (2004). Teach English. Cambridge University Press in association with the British Council.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

Bugungi kunda ta'limning raqobatbardoshlilik xususiyati mamlakatning ham raqobatbardoshliliga sabab bo'lувчи омил еканлиги намоён бо'lмоқда. “Bunday sharoitda mamlakatdagi iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari singari ta'limni ham doimiy yangilab borish, unga innovatsion texnologiyalarni va zamonaviy ilg'or metodlarni doimiy tatbiq qilib borish, talabalar uchun xorijiy tillarni o'zlashtirishning eng ishonchli va samarali uslublarini joriy qilish kabi masalalar ularda motivatsiyani yanada rivojlantirishning yana bir muhim yo'nalishi sifatida talqin qilish mumkin”<sup>13</sup>.

Univetsitet yoki umuman ta'lim dargohining shuhrati, maqomi va salohiyati qanchalik yuqori bo'lsa, ushbu muassasada ta'lim olishga intilish, uning maqomida kelajak karyerasida foydalanish, ushbu dargohga munosib bo'lish istagi ular uchun asosiy motivatsiyalardan biri bo'lib qolaveradi. Ammo, dargohda ta'lim sifati va ta'lim berish metodlarining qanchalik ilg'or tajribalarga va texnologiyalarga tayanganligi singari omillar esa doim birinchi o'rinda bo'lishini unutmasligimiz lozim.

Zero, ta'lim muassasini tugatgan mutaxassislarining raqobatbardoshligi ularning ma'lum bir kompaniyalar, korporatsiyalar va boshqa sohalarda muvaffaqiyat bilan ishlayotgan xodimlarining salohiyatini belgilovchi asosiy mezondir. Bunday ta'lim dargohlariga haqli ravishda AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Isroil, Rossiya va boshqa bir qator davlatlarning yetakchi universitetlarini va kollejlarini kiritish mumkin. Ularni bitirgan mutaxassislarining bugungi kun dunyodagi mashhur kompaniyalarni boshqarayotganligini, davlat boshqaruv organlarida samarali faoliyat ko'rsatayotganligini, kuchli mutaxassis, professional xodim, mahoratlari boshqaruvchi sifatida doimo qadrlanishini talabalardagi bir muncha erta shakllanadigan motivatsiyaning asosi ekanligini e'tirof etishimi mumkin.

Shuning uchun ham oxirgi yillarda ta'limning, umuman yoshlar tomonidan bilim olishga bo'lgan intilishning o'rni va ahamiyati tobora ortib borishi kuzatilmogda. Ta'limda eng katta shuhrat qozonayotgan omillar qatoriga nafaqat ma'lum bir bilimlarning qo'lga kiritilishi, balki ushbu jarayonlarga ko'plab innovatsion texnologiyalarning joriy qilinayotganligi, bilim berishning tobora osonlashtirilib borilayotganligi, zamonaviy uslublarning borgan sari takomillashib borayotganligi singari holatlarni misol sifatida keltrishimiz mumkin<sup>14</sup>.

Talabalar o'quv jarayonida nafaqat ma'lum bir bilim va ko'nikmalar jamlanmasiga, majmuiga ega bo'lish, balki, kelajakda o'zлari uchun o'ta muhim bo'lgan inson faoliyatining sohalari, ya'ni iqtisodiy, siyosiy, madaniy va informatsion sohalarda muammolarning va masalalarning yechimini taqdim qila oladigan qobiliyat shakllanishida namoyon bo'ladijan tizimi kompetensiyalar shakllanishiga asosiy e'tiborni qaratadilar.

Bu harakatlar ham talabalarda eng asosiy motivatsion omil sifatida rol o'ynaydi va o'rganish paradigmasidan o'zlashtirish paradigmasiga o'zgaradigan ushbu almashinuv jarayoni aynan talabalarda mustaqil ta'lim olishi tizimi takomillashuviga turki beradi. Buning asosiy maqsadi esa shunchaki, ta'lim jarayonining shakli sifatida ro'y berishi emas, balki uning asosi, professional mustaqilligi shakllanishining bir yo'li, bilimlarning tez yangilanishi, o'zgarishi sharoitida mustaqil va uzlucksiz ta'lim olishga tayyorgarligi ortishi amalgal oshishi lozim.

Boshqacha aytganda, umumiyl xulosalar shunga olib keladiki, ta'lim sohasida bizni doim qandaydir keskin o'zgarishlar kutib turadi va ulardan asosiy elementlardan biri sifatida talabalarning o'zлari tomonidan mustaqil anglash borasidagi ishlarni faollashtirish hisoblanadi. Faollashtirish esa aynan motivatsiyaning eng asosiy fundamental ozig'i ekanligi yaqqol namoyon bo'ladijan holat sifatida talqin qilinadi<sup>15</sup>. Shuning uchun ham OTMlarda ta'limning predmet dasturini tayyorlash va amalga oshirishga mas'ul bo'lgan akademik soatlardagi o'quv ishlarining "qiymatini" belgilab beradigan o'quv jarayoni tashkilotchilari, shuningdek, aynan o'qituvchilarning ham asosiy vazifasi ushbu vazifalarni tizimli yechimi borasida kuchlarni birlashtirish hisoblanadi<sup>16</sup>.

Garchi talabalarning mustaqil ta'lim olishi va ularning motivatsion yo'nalishlari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan va ularning tabiatan o'z xususiyatlariiga berilgan baholar va ta'riflarda talabalarning mustaqil ta'lim olishi – bu metodik va ilmiy rahbar nazorati ostida, shunigdek, o'qituvchining bevosita rahbarligidagi ta'lim jarayoni doirasida amalga oshirilgan rejalshtirilgan individual va jamoaviy o'quv va ilmiy ish sifatida baholanib kelinmoqda . Demak, talabalarning mustaqil ta'lim olishi va o'z

<sup>13</sup>Verbitskiy A. (2009. № 1) Problemi razvitiya professionalnogo obrazovaniya s pozitsiy teorii kontekstnogo obucheniya: initsiativi XXI veka. Volgograd.

<sup>14</sup>Verbitskiy A. ( 2017). Camostoyatelnaya rabota i samostoyatelnaya deyatelnost studenta / A. A. Verbitskiy // Problemi organizatsii raboti studentov v usloviyakh mnogourovnevoy strukturi visshego obrazovaniya : tez. dokl. Vseros. nauch.-metod. konf. (6-b). Volgograd VolgGTU.

<sup>15</sup>Watson J.(2008) Blended learning: The convergence of online and face-to-face education. – Vienna: North American Council for Online Learning.(16-b). North American

<sup>16</sup>Saxn-Vald N. (2009. № 3). Informatizatsiya obrazovatelnogo protsesssa v professionalnoy podgotovke studentov po spetsialnosti «Perevod i perevo-dovedeniye» // Vestnik KGU im. N.A. Nekrasova. (455–458-b). Moskva.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

ustilarida ishlashini rag'batlantirish motivatsiyasi o'quv faoliyatining oliy shakli sifatida integral xarakterga ega va o'z mohiyatiga ko'ra o'z-o'zini doimiy takomillashtirib borish sari intilishni namoyon qiladi.

Talabalarda xorijiy tillarni o'rganish uchun mustaqil ta'lif olishlari uchun motivatsion yo'naltirishning yana bir muhim omili – bu ularning xorijiy tillarni chuqur o'zlashtirishlari natijasi sifatida dunyo mamlakatlari bilan muloqot ko'lami kengayishi va dunyoni anglashini tushunib yetishlaridir<sup>17</sup>. Zero, talabalar tomonidan xorijiy tillarni chuqur o'zlashtirishlari natijasida ijtimoiy, professional va anglash salohiyatlari oshishi, ularda har tomonlama rivojlanish yuz berishini pedagog tomonidan doimiy ta'kidlanishi – eng katta motivatsiya sifatida maydonga chiqadi<sup>18</sup>.

Talabalar tomonidan xorijiy tillarni chuqur o'zlashtirish uchun intilishlari jarayonida turli vositalar yordamida talabalarda profesional kompetentligining asosi hisoblangan ijodiy mustaqillikni rivojlantirish mumkin. Talabalardagi faol mustaqil ishslash ularda jiddiy va barqaror motivatsiya ham shakllanishiga zamin bo'ladi. Ma'lumki, mavzuimizning asosiy ob'ekti bo'lgan motivatsiya - bu insonni ma'lum bir faoliyat doirasida qandaydir harakatlarni sodir etishga rag'batlantiruvchi va undovchi omillar yig'indisi hisoblanadi. (R.White. 1959. №66.38-b)<sup>19</sup>.

Faoliyatning o'zi esa ma'lumki, yarim motivlashgan bo'lib, bir vaqtning o'zida bir qancha motivlar yordamida uyg'otiladi.

Motivatsiya xatti-harakatga nisbatan uchta tartibga soluvchi funktsiyalarni bajaradi:

- Undovchi, ya'ni insonni ma'lum bir harakatlarni amalga oshirishni boshlashi uchun harakatlantiruvchi impuls yoki motiv beruvchi omil;
- Mazmun shakllantiruvchi, ya'ni faoliyatga chuqun insoniy mazmun bag'ishlovchi omil;
- Tashkil qiluvchi, ya'ni maqsadga yo'naltirishga tayanadigan omil bo'lib, unda anglab yetilgan motivlar maqsad motivlarga aylanadi.

Aynan shunday motivatsion iyerarxiya ta'lif jarayonining mohiyati bo'lisi lozim bo'lgan mustaqil anglashning shakllanishi asosida yotadi. Talabalarda sodir bo'ladigan anglash faolligi va uning ortidan ro'y beradigan mustaqil ta'lif olish uchun layoqatning paydo bo'lisi tadrijiy xarakterga ega bo'lib, boshqalarda ushbu sifatlarni mustaqil ta'lifni hal qiluvchi darajaga olib chiqish yo'li bilan o'quv jarayonini tashkil qilishni shakllantirish lozim<sup>20</sup>.

Bu yerda asosiy maqsad esa talabalarda o'z ustilarida ishlashlari, mustaqil ravishda o'rganishlari uchun motivatsiyalarni rivojlantirishdan iborat.

Boshqacha aytadigan bo'lsak, o'quv jarayonida har bir pedagogning asosiy vazifasi - bu talabalarni mustaqil ravishda ta'lif olishga o'rgatish, ularda intellektual, psixologik, ijodiy va motivatsiya resurslaridan foydalana bilishni o'rgatish ekanligini singdirishimiz lozim. Talabalarga baho uchun o'qishni asosiy maqsad sifatida qamrab oladigan formal motivlardan voz kechib, mustaqil anglab yetiladigan faoliyatni tushunib yetish (misol uchun, talaba o'z oldiga kelajakdagi mehnat bozorida o'zining munosib o'rniga ega bo'lism uchun professional ahamiyatga ega bo'lgan bilimlarni olish va ularni doimiy tavkomillashtirish maqsadini qo'yadi) sari o'tishlariga yordam berishi lozim<sup>21</sup>.

Shunday qilib, aynan motivatsiya mustaqil ta'limning muhim elementi ekanligini aslo unutmasligimiz kerak. Oliy ta'lif muassasasida mustaqil ta'lif tizimiyl uzlusiz va asta-sekin murakkablashib boradigan xarakterga ega bo'lisi maqsadga muvofiq.

### **Xulosa**

Mustaqil ta'limga layoqatni shakllantiradigan ta'lif o'z ichiga o'quv faoliyatini modellashtirishning uslublarini rivojlantirish, talabalarga optimal kun tartibini rejalshtirishni belgilash, ular tomonidan o'quv materiallari bilan ishlashning ratsional usullarini anglab yetishlarini va bosqichma-bosqich ishlab chiqilishi kabilarni oladi. Talabalarda mustaqil ta'limga tayyorgarlikning shakllanishi o'z ichiga shaxsni uzlusiz ta'limga undaydigan jonli motivlarni, mustaqil anglash faoliyatining fundamenti sifatida foydalilaniladigan chuqur va mustahkam umumta'lif, politexnik va professional bilimlarni, bilimlarni va ko'nikmalarni (o'qish, eshitish va xokazo) mustaqil ravishda egallashning rivojlangan malakalarini, aqliy faoliyatning shakllangan xatti-harakatlari (tahlil, qiyoslash, sabab-oqibat aloqalarining o'rnatilishi va boshqa), muammoni va uni yechish yo'llarini ko'ra bilishni, anglash faoliyatini tashkil qila bilish ko'nikmasi kabi komponentlar qamrab olinishi ta'kidlangan.

17Uvarovskaya O. (2009). Samostoyatel'naya rabota studentov : ucheb.-metod. posobiye / O. V. Uvarovskaya, I. Y. Krayeva. Siktivkar : SiktGU.( 30-b). Saxalin.

18White R.W. (1959. №66). Motivation reconsidered the concept of competence.Psychological review. (26-b).

19Watson J. (2008). Blended learning: The convergence of online and face-to-face education. – Vienna: North American Council for Online Learning. (16-b). North America.

20White R.W. (1959. №66). Motivation reconsidered: The concept of competence.Psychological review. (38-b). Alabama.

21Humphreys P., Greenan K. and Mcilveen H/ Developing Workbased

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

Shunday qilib, xulosa tarzida aytish lozimki, talabalarining o’quv anglash faoliyatini yo’lga qo’yish uchun talabalarning mustaqil ta’lim olishga tayyorgarlik faoliyati bir qancha tadbirlarni, umuman olganda yaxlit bir kompleksdan iborat jarayon ekanligini, bu borada pedagoglarning va talabalarning yo’lga qo’yilgan aqliy faoliyati mahsuli deyish mumkin. Mustaqil ta’lim talabalar uchun birinchi galda ta’lim olish borasi bilim va ko’nikmalarga ega bo’lish deganidir. Bu shunday tizimki, mustaqil ta’limni kuchaytirish uchun auditoriyada olingan bilimlarning mustahkamlanishi, orttirilgan ko’nikmalardan foydalanilishi, bilimlarni mustaqil tarzda mustahkamlanishi demakdir. O’quv jarayonida o’zlashtirilgan bilimlar esa mustaqil ta’lim tashkil qilinishi va amalga oshirilishining asosi bo’lib xizmat qiladi.

### Adabiyotlar

1. Samatova B. (2020). Ingliz tilini o’qitishda nofilologik yo’nalish talabalarining motivatsiyasi (yurisprudensiya yo’nalishi talabalarini misolida). Pedag. fan. dok. fals.diss. (13-b.). Toshkent.
2. Bespalko V.(1989). Slagayemiye pedagogicheskoy texnologii. M.: Pedagogika. (99-b),(192-b).Polsha.
3. Guzanov B. (2014). Organizatsiya samostoyatelnoy raboti studentov vuza v usloviyax realizatsii mnogourovnevoy modeli obucheniya: monografiya / B. N. Guzanov, N. V. Morozova. Yekaterinburg: Izd-vo Ros. gos. prof.- ped. un-ta, (111-b). Moskva.
4. Juk O. (2005.№2). Organizatsiya samostoyatelnoy raboti studentov v logike kompetentnostnogo podxoda / O. L. Juk // Vissaya shkola. (45–50-b). Moskva.
5. Samatova B. (2020). (20 Ingliz tilini o’qitishda nofilologik yo’nalish talabalarining motivatsiyasi (yurisprudensiya yo’nalishi talabalarini misolida): Pedag. fan. b.a fals.diss. (40-b). Toshkent.
6. Pushkina G.(2011. № 3). Samostoyatelnaya rabota studentov vuza: kompetentnostniy podxod i vnedreniye internet-texnologiy / G. G. Pushkina // Gumanitarniye nauki.(94-100-b). Novasibirsk.
7. Zimnyaya I. (1985). Psixologicheskiye aspekti obucheniya govoreniju na inostrannom yazike: Kniga dlya uchitelya /2 – izd.(160-b). Moskva.
8. Baynazarova A. (2012. № 3). Proskurina I. K. Ispolzovaniye informatsionno - kommunikatsionnoy texnologii v organizatsii samostoyatelnoy raboti studentov // (170-174-b). Yaroslavskiy pedagogicheskiy vestnik.
9. Cotton D., Falvey D., Kent S. (2005). Market Leader Intermediate. Busi-ness English Course Book. New edition, Pearson Longman
10. Zaleski M. (2004). Using Debate in Second Language Teaching // Idebate. International Debate Education Association. (Vol. 1. – Issue 2).
11. Rudenko-Morgun O. (2006). Elektronniy uchebnik russkogo yazika: istoriya i perspektivi razvitiya / Izd-vo Rossiyskogo un-ta druzbi narodov. (45-b, 238-b).Moskva.
12. Doff Adrian. (2004). Teach English. Cambridge University Press in association with the British Council.
13. Verbitskiy A. (2009. № 1) Problemi razvitiya professionalnogo obrazovaniya s pozitsiy teorii kontekstnogo obucheniya: initia-tivi XXI veka. Volgograd.
14. Verbitskiy A. ( 2017). Samostoyatelnaya rabota i samostoyatelnaya deyatelnost studenta / A. A. Verbitskiy // Problemi organizatsii raboti studentov v usloviyax mnogourovnevoy strukturi visshego obrazovaniya : tez. dokl. Vseros. nauch.-metod. konf.(6-b). Volgograd VolgGTU.
15. Watson J.(2008) Blended learning: The convergence of online and face-to-face education. – Vienna: North American Council for Online Learning.(16-b). North American
16. Saxn-Vald N. (2009. № 3). Informatizatsiya obrazovatel'nogo protsessa v professionalnoy podgotovke studentov po spetsialnosti «Perevod i perevo-dovedeniye» // Vestnik KGU im. N.A. Nekrasova. (455–458-b). Moskva.
17. Uvarovskaya O. (2009). Samostoyatelnaya rabota studentov : ucheb.-metod. posobiye / O. V. Uvarovskaya, I. Y. Krayeva. Siktivkar : SiktGU.( 30-b).Saxalin.
18. White R.W. (1959. №66). Motivation reconsidered the concept of competence.Psychological review. (26-b).
19. Watson J. (2008). Blended learning: The convergence of online and face-to-face education. – Vienna: North American Council for Online Learning. (16-b). North America.
20. White R.W.( 1959. №66). Motivation reconsidered: The concept of competence.Psychological review. (38-b). Alabama.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

---

21. McClelland D.C. (1973. № 28). Testing for competence rather than for intelligence// American Psychologist. (1-14-b). Washington DC.
22. Humphreys P., Greenan K. and Mcilveen H/ Developing Workbased
23. Transferable Skills in a Universiti Environment // Journal of European IndustrialTrainig. – 1997. – Vol.21 №2 – P.63-69.
24. Merzlyakova, L. (2007). Aktualizatsiyasamostoyatelnoy rabi studentov v sovremenном образовательном процессе / L.V. Merzlyakova, N.P. Bashkova

**OLLABERGANOVA Surayyo**

Urganch davlat universiteti  
Pedagogika nazariyasi va  
tarixi (faoliyat turi bo‘yicha)  
1-bosqich magistranti

**MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO‘STLIGI MAMLAKATLARIDA OLIY TA’LIM TIZIMI**

*Ushbu maqolada MDH davlatlarida ta’lim jarayoni, ta’lim muassasalari, ta’lim tizimining rivojlanish bosqichlari, hozirda qay darajada rivojlanib borayotgani haqida so‘z yuritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** MDH, Ozarbayjon, O‘zbekiston, ta’lim, hamkorlik, soha, konferensiya, qonun, bakalavriat, ta’lim muassasa, ilmiy tadqiqot, imkoniyat, ta’lim to‘g‘risidagi qonun, stipendiya.

**СИСТЕМА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В СТРАНАХ СОДРУЖЕСТВА НЕЗАВИСИМЫХ ГОСУДАРСТВ**

*В данной статье рассмотрен образовательный процесс в странах СНГ, приведены современные этапы его развития.*

**Ключевые слова:** СНГ, Азербайджан, Узбекистан, сотрудничество в сфере образования, конференция, бакалавр, права, учебное заведение, исследование, возможность, образование, стипендия.

**THE SYSTEM OF HIGHER EDUCATION IN THE COUNTRIES OF THE COMMONWEALTH OF INDEPENDENT STATES**

*This article discusses the educational process in the CIS countries, shows the current stages of its development.*

**Key words:** CIS, Azerbaijan, Uzbekistan, education cooperation, conference, law bachelor, educational institution, research, opportunity.

*Olmox ishlov berilmay sof bo‘lmagani kabi inson ham dard-iztirob chekmay komil bo‘la olmaydi (Konfutsiy).*

**Kirish.** Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga Gruziya, Turkmaniston, O‘zbekiston, Ukraina, Ozarbayjon, Armaniston, Moldava kabi mamlakatlar a’zodir. Bitim tuzilgan paytda sobiq ittifoq respublikalarining yakkalanish tendensiyasi ancha bo‘lgan. Samarali hamkorlik uchun siyosiy irodadan tashqari ikkita shart zarur edi: Huquqiy baza va Institutlar. Ushbu ikkala shartni bajarish majburiyatları shartnomada mavjud bo‘lgan. Bitimni amalga oshirish maqsadida Ta’lim sohasida hamkorlik kengashi tashkil etildi. Kengash nizomi yuqoridagi bitimning yetishmayotgan qismi hisoblanadi. Kengashning asosiy vazifasi ta’lim sohasida hamkorlikni rivojlantirishdan iborat. O‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarga erishish uchun Kengashga uchta guruhgaga bo‘linadigan bir qator funksiyalar berilgan.

- 1) ta’lim sohasidagi dasturlarni ishlab chiqish bo‘yicha faoliyat;
- 2) a’zo davlatlarning ta’lim organlari faoliyatini muvofiqlashtirish;
- 3) ta’lim sohasidagi tadqiqotlar, tajribani umumlashtirish.

Ta’lim sohasida hamkorlik bo‘yicha konferensiya faoliyatini muvofiqlashtirish va ularning ishchi o‘zaro hamkorligini yo‘lga qo‘yish zarurligini ko‘rsatadi [1].

**Asosiy qism.** MDH mamlakatlaridagi oliy ta’lim tizmi bugungi kunda Yevropa va AQSH oliy ta’lim tizimiga mos keladi. 2011-yildan boshlab MDHning ko‘plab mamlakatlari oliy ta’limning ikki bosqichli tizimiga o‘tdi. Bular Bakalavriat va Magistratura. Bakalavriat bosqichi o‘qish muddati 3 yildan kam emas. Rossiya esa o‘qish muddati 4 yilga mo‘ljallangan bitiruvchilar bakalavriatni tamomlagandan so‘ng tugallangan oliy ma’lumot to‘g‘risidagi diplom oladilar.

Bakalavriat ta’limi umumiyligi va ixtisoslashtirilgan fanlarni o‘rganish, oraliq va yakuniy imtihonlarni topshirish, yozma test ishilarni o‘z ichiga oladi. Mamlakatimizda oddiy stipendiyadan tashqari turli fondler tomonidan joriy qilingan stipendiyalar mavjud [2]. O‘zbekiston Respublikasida bir qator ta’lim muassasalarida fanlarni o‘rganishda “kredit” tizimi, ball tizmi joriy etilgan. Bu kredit tizimida talaba yil davomida ma’lum belgilangan kredit to‘plashi zarur deb belgilangan. Agar talaba yetarlicha kredit to‘play olmasa, shu kursni

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

yana o‘zlashtiradi. Bunday tizim Yevropa mamlakatlari tajribalari asosida joriy etilgan. Bu tizim orqali talabaning o‘qish sifati, davomatida ijobiy o‘zgarishga erishiladi.

Magistraturadagi ta’lim bakalavr darajasidagi ta’limdan tubdan farq qiladi. Magistraturada o‘quv dasturi ko‘proq vaqtini ijodiy, tadqiqot va ilmiy ishlar hamda amaliy faoliyat uchun ko‘proq vaqt ajratiladi. Magistraturani tamomlaganligi natijasida aspirant davlat yakuniy imtixonlarini topshiradi va magistrlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Yakuniy testlarni muvaffaqiyatli topshirgandan so‘ng diplom beriladi.

MDH davlatlarida yagona ta’lim tizimini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar quyidagilar:

1. Ishtirokchi davlatning har bir fuqarosiga qonunda belgilangan yoshga to‘lganidan boshlab bepul ta’lim olish imkoniyatini berish.

2. Umumta’lim muassasalariga borish imkoniyati bo‘lmagan turli xil kasallikkarga chalingan bolalar uchun maxsus ta’lim muassasalarini tashkil etish (umumiylar ta’lim muassasalari barcha fuqarolar uchun ta’lim imkoniyatlarini ta’minlash);

3. Ota-onalarning bolalar uchun asosiy ta’lim olish majburiyatlarini bajarmaganliklari uchun qonuniy javobgarligi.

**Muhokamalar va natijalar.** Rossiya davlatida poytaxt universitetlar boshqa universitetlar uchun uslubiy rahbarlik va kadrlar bilan ta’minlash funksiyalarini bajargan. Universitetlar ishlab chiqarish jarayoniga qurilgan. Ushbu guruhda uchta kichik tipdagi universitetlar ajralib turardi [3]. Bular:

1. Ixtisoslashtirilgan universitetlar - Sovet sanoat klasterlarining bir qismi (masalan, Qozon aviatsiya instituti).

2. Markaziy ixtisoslashtirilgan universitetlar (Moskva po‘lat va qotishmalar instituti).

3. Tarmoq sanoat universitetlari (temir yo‘l universitetlari).

4. Fan uchun kadrlar tayyorlaydigan klassik universitetlar va boshqa universitetlar.

Oliy ta’lim rejalashtirilgan boshqarish talabalar o‘rinlari taqsimlash va ularni ma’lum bir sanoat tarmoqlari yoki hatto aniq zavodlar ehtiyojiga muvofiq moliyalashtirishga asoslangan bo‘lib, bitiruvchilarni ish haqi nazorati bilan ish joylariga joylashtirish bilan ta’minlangan. Universitetlari esa 28 ta vazirlikning yuridistikasi ostida edi. Ilmiy tadqiqot va ilmiy ishlanmalar, asosan, Fanlar akademiyasi institutlari tarkibida amalga oshirildi va kamdan-kam universitetlar tadqiqot funksiyalarini amalga oshirdi.

Rossiya Federatsiyasining 1992-yil 10-iyuldaggi 3266-1-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni oliy ta’lim bilan ta’minlashni ko‘paytirish uchun huquqiy shart-sharoitlarni yaratdi, ta’lim muassasalariga moliyaviy-xo‘jalik faoliyatini mustaqil ravishda amalga oshirish huquqini berdi. Oliy o‘quv yurtlariga byudjetdan tahqari mablag‘larni, pullik talabalar orqali jalg qilish huquqi berildi.

Moldova Respublikasi uchun ta’lim milliy ustuvor yo‘nalish hisoblanadi. Ta’lim ijtimoiy-iqtisodiy hayotning asosiy jihatlaridan aholining qoniqish darajasini belgilovchi reytinglarda yuqori o‘rnlardan birini egallaydi. Moldova Ta’lim vazirligining siyosati alohida ta’limga muhtoj bolalarni an’anaviy maktablarga integratsiyalashga qaratilgan bo‘lsa-da, inkyuziv ta’lim mummosi hamon dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu bilan birga, oliy ta’lim muassasalari ham, alohida ta’limga muhtoj shaxslar uchun ham yetarli darajada moslashtirilmagan. Ularda o‘quv binolari, maxsus ta’lim texnologiyalari va talabalarga yo‘naltirilgan ta’lim dasturlari ham mavjud emas.

Ozbarjon ta’lim sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi ta’lim va uning sifati to‘g‘risida xabardorlik darajasini oshirishdir [4]. Ta’limning jamiyatga ta’siri juda katta, murakkab belgilovchidir. Ta’lim sohasidagi islohotlar ta’lim tizimini o‘zgartirish, ta’lim muassasalarini mustahkamlash, ta’lim sohasiga rahbarlik qiluvchilarning bilimi, tajribasi va irodasini uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Ozbarjon aholisining bilim bazasi va malakasini oshirishning ahamiyati ortib bormoqda. Ushbu maqsadga erishish uchun inson kapitalini rivojlantirish, makro iqtisodiy boshqaruvni to‘g‘ri yo‘naltirilgan tarkibiy o‘zgarishlar, ishlab chiqarish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash hisobga olinishi zarur. Barqaror rivojlanish va raqobatbardoshlikni ta’minlashda ta’lim sohasining muhim rolini hisobga olib, Ozbarjon 1999-yilda Ta’limni isloh qilish dasturini tasdiqladi[4].

Ozbarjon ta’lim tizimini ta’lim sifati, ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarga yo‘naltirilgan investitsiyalar, shuningdek, texnologik innovatsiyalardan foydalanish asosida shakllantirish natijalarini tahlil qiladigan bo‘lsak, bugungi kunda biz ancha ortda qolayotganiga guvoh bo‘lamiz. Mamlakatda ta’limni isloh qilish dasturining asosi bo‘lgan yangi milliy o‘quv dasturini joriy etish boshlandi. Ta’limning jamiyatga ta’siri katta, murakkab va belgilovchidir. Ozbarjon Prezidentining 2011-yil 29-noyabrdagi “Ozbarjon-2020 taraqqiyot konsepsiyasini tayyorlash to‘g‘risida: kelajakka nazar” Qarorida respublikani innovatsion iqtisodiyot orqali rivojlantirish ko‘zdautilgan. Ozbarjon oliy ta’lim tizimi tub islohotlarga muhtoj. Islohotlar rejasи Ozbarjon Respublikasining 2008-2012-yillarga mo‘ljallangan oliy ta’lim tizimini isloh qilish Davlat dasturida o‘z aksini topgan.Ta’kidlash joizki, Ozbarjonorda oliy ta’lim muassasalariga qabul qilish darajasi pastligicha qolmoqda.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

---

Shunday qilib, badavlat qatlamdan bo‘lgan aholining qabul darajasi, umuman olganda, quyi qatlamdan bo‘lgan Ozarbayjonning oliy o‘quv yurtlariga qabul qilish darajasidan ikki baravar yuqori. Globalashib borayotgan dunyoda yoshlardan tortib keksalargacha butun Ozarbayjon aholisining bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ta’lim tizimida shoshilinch islohotlarni amalga oshirish zarur. Globalashuv bilim va axborot olamida ta’limni fansiz, ayniqsa, uning fundamental qismisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Ozarbayjon ham kelajakda talabalarni xorijiy universitetlar va xususiy ta’lim kompaniyalariga talabalarni jalb etish masalasini ko‘rib chiqishi kerak.

Qirg‘iziston Respublikasida mustaqillikdan keyin ta’lim tizimida jiddiy o‘zgarishlar amalga oshirildi. 2003-yilning yanvar oyida Qirg‘iziston Respublikasining ilmiy va ta’lim muassasalariga kirishni ta’minlashga qaratilgan “Virtual ipak yo‘li” xalqaro loyihasini amalga oshirish boshlandi. “Qirg‘iziston Respublikasini rivojlantirish bo‘yicha axborot-kommunikatsiya texnologiyalari” 2002-yil 10-martda tasdiqlangan kadrlar salohiyatini rivojlantirish va kadrlar tayyorlashga bag‘ishlangan bo‘limda quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tadbirlar ko‘zda tutilgan:

1. Axborotlashtirish ta’lim va bilimlarni boshqarish, kompyuter savodxonligining universal minimal darajasini ta’minlash, barcha darajadagi ta’lim muassasalarida informatika fanini o‘qitishning ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish, o‘qitishning kompyuterlashtirilgan texnologiyalarini joriy etish.

2. AKT sohasining kadrlar salohiyatini, kadrlar salohiyatini rivojlantirish ko‘p bosqichli kasbiy ta’limni rivojlantirish, axborot mahsulotlari va elektron sanoatini rivojlantirish.

3. Kattalar ta’limida AKTdan foydalanish, AKTga asoslangan masofaviy ta’lim tizimlarini, elektron darsliklar va kompyuter ta’lim tizmilarini yaratish, pedagog kadrlarni qayta tayyorlash.

Ta’lim va fan vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, Qirg‘izistonda 50 dan ortiq oliy o‘quv yurtlari mavjud bo‘lib, ularda 243 ming talaba tahsil oladi. Oliy ta’lim tizimi 51 ta, ulardan 33tasi davlat va 18 tasi xususiy. Deyarli barcha universitetlar internetga jumladan, “ANKET” ilmiy va ta’lim kompyuter tarmog‘iga ulangan. Qirg‘izistonda “Masofaviy ta’lim tarmog‘i” loyihasi amalga oshirilgan bo‘lib, uning maqsadi Qirg‘izistonning chekka hududlarida masofaviy ta’limni joriy etishdan iborat. Institut va uning filiallarida kunduzgi va sirtqi bo‘limlarida talabalani masofaviy texnologiyalar bilan tayyorlash boshlandi.

Armaniston Respublikasi Ta’lim va fan vazirligi 2010-yil fevral oyida “Oliy va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limda masofaviy ta’limni qo‘llash to‘g‘isisida”gi Nizomni tasdiqladi. Arman universiteti sifatlari ta’limni kafolatlaydi va eng yangi usul va materiallardan foydalanadi. Mamlakatning yetakchi universitetlarida ta’limning asosiy vositasi internet resurslaridan foydalanishni sinfda o‘qitish elementlari, ularning tashkiliy-texnik yechimlari, o‘quv materiallari, o‘quv uslubiy ta’lim tizimi bilan uyg‘unlashtirishga asoslangan aralash modelga aylanib bormoqda.O‘quv-uslubiy majmualar talabalarning mustaqil ta’limini ta’minlaydigan tarkibiy qismlardan - ma’ruzalar matnlari, topshiriqlar, lug‘atlar, o‘quv materiallarni sharhlaydigan kompyuter taqdimotlaridan tuziladi.

**Xulosa** qilib shuni aytish joizki, MDH davlatlarida, ya’ni O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi yuqori darajalarga erishmoqda, ya’ni dunyoda yetakchi universitetlar qatoridan joy olmoqda. Bir qator davlatlarda, shuningdek, Moldova davlatida oliy ta’limni xalqarolashtirishga katta e’tibor qaratish zarurdir. Moldova davlatida ta’lim tizimi juda past ko‘rsatkichda ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Dunyoning rivojlangan mamlakatlaridan biri Rossiya esa oliy o‘quv yurtlariga byudjetdan tashqari pullik qabul qilish imkoniyati va shunga o‘xhash bir qancha afzalliklar berildi. Qirg‘iziston Respublikasida esa mustaqillikdan keyin ta’lim tizimida bir qancha jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi. Buning yaqqol dalili sifatida “Virtual ipak yo‘li” xalqaro loyihasidir. Rossiya davlatida poytaxt universitetlar boshqa universitetlar uchun uslubiy rahbarlik va kadrlar bilan ta’minlash funksiyalarini bajargan.

### Adabiyotlar

1. Sidirovich A.V. Yagona ta’lim makonini shakllantirishda klassik universitetlarning roli to‘g‘risida qo‘llanma. -2012-yil.
2. Mutualipova M.J., Xodjayev B.X. Qiyosiy pedagogika. –T., 2015.
3. Frumin I.D., Kurminov Y.I. Milliy tadqiqot universiteti oliy iqtisodiyot maktabi. –Moskva, 2019.
4. Isaxanali H. Ozarbayjon Respublikasining Oliy ta’lim tizimin isloq qilish davlat dasturi. -Xazar universiteti nashriyoti, 2008.
5. YUNESKO-2011.
6. Jariqboyev K.B., Kaliyev S.K. Qozog‘iston pedagogik fikrlar antologiyasi. –Rauan, 2007.

**ANNAYEVA Nazokat**

Urganch davlat universiteti  
tadqiqotchisi

**TA’LIM MUASSASALARIDA GENDER KOMPETENSIYASINI SAMARALI SHAKLLANTIRISH SHARTLARI**

*Ushbu maqolada, ta’lim muassasalarida gender kompetensiyasini samarali shakllantirish shartlari, “gender identifikatori” konsepsiyasini talqin qilishning fanlararo tahlili uni shaxsning ijtimoiy jihatdan shartlangan yaxlit rivojlanishining asosiy tarkibiy qismi hamda matabning gender tuzilishining o’ziga xosligi boshlang‘ich maktab yoshidagi o‘quvchilarning o‘rganiladigan shaxsiy ta’limining sifat xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** zamonaviy jamiyatda konstruktiv sotsializasiya, androgin shaxs, mustaqillik, malaka, ambisiya, mehribonlik, mehnatsevarlik va noziklik, uyg‘unlashtirish tırgan jins vakili, o‘g‘il va qizlarning turli xil gender o’ziga xosligi, shaxsning ijtimoiy-psixologik salohiyati, gender identifikatorining moslashuvchanligi, ta’lim jarayonining yetakchi maqsadlari.

**УСЛОВИЯ ЭФФЕКТИВНОГО ФОРМИРОВАНИЯ ГЕНДЕРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ**

В данной статье рассматриваются условия эффективного формирования гендерной компетентности в общеобразовательных учреждениях, междисциплинарный анализ трактовки понятия “гендерный идентификатор” как ключевого компонента социально обусловленного целостного развития личности и специфика школьной гендерной структуры.

**Ключевые слова:** в современном обществе конструктивная социализация, андрогинная личность, самостоятельность, квалификация, амбициозность, доброта, трудолюбие и деликатность, гармонизированный пол, разная гендерная идентичность юношей и девушек, социально-психологический потенциал личности, гибкость гендерной идентичности, ведущие цели воспитательный процесс.

**CONDITIONS FOR EFFECTIVE FORMATION OF GENDER COMPETENCES IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS**

*This article discusses the conditions for the effective formation of gender competence in educational institutions, the interdisciplinary analysis of the interpretation of the concept of “gender identifier” as a key component of the socially conditioned holistic development of the individual and the specifics of the school’s gender structure.*

**Keywords:** modern society, constructive socialization, androgynous personality, independence, qualification, ambition, kindness, diligence and delicacy, harmonized gender, different gender identity of boys and girls, socio-psychological potential of the individual, flexibility of gender identity, leading goals of the educational process.

**Kirish.** Ta’lim muassasalarida gender kompetensiyasini samarali shakllantirish shartlari ishlab chiqilgan bo‘lib, ularni amalga oshirish jami ravishda gender ta’limining samarali modellarini amalga oshirishni va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim sharoitida gender munosabatlarini rivojlantirishni pedagogik boshqarishni ta’minlashi kerak. Ushbu shartlarni hisobga olgan holda, ta’limda gender podxolini amalga oshirish tendensiyalari va yo‘nalishlari zamonaviy jamiyatning ta’lim sohasidagi gender-rol tabaqlanishidagi sezilarli o‘zgarishlar sharoitida prognoz qilish va eng muhim strategik qarorlarni qabul qilish uchun zarurdir.

**Asosiy qism.** Gender ta’limi asta-sekin ta’lim jarayonining e’tiborli qismiga aylanib bormoqda va jamiyatdagi gender tabaqlanishining turli shakllarining “ayol” va “erkak” jihatlarini o‘rganishni o‘z ichiga oladi; oliy kasbiy ta’limning davlat ta’lim standartida yangi fanlarning jamlanishi gender ta’limi tan olinishining sifat belgisi sifatida qaralishi mumkin. Erkaklar va ayollar mehnatiga bir xil haq to‘lash masalasi ham avvalgidek dolzarb muammodir, bunday farq XXI asr boshlarida Skandinavyada 11 – 12 %ni tashkil etgan, bu esa boshqa mamlakatlardagiga qaraganda, albatta, katta farq emas. Ta’lim sohasida ham xuddi

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

shunga o‘xhash muammoli vaziyat kuzatilmoqda. Statistika ma’lumotlariga qaraganda, Skandinaviya mamlakatlarda ayollarning ma’lumotlilik darajasi erkaklarnikiga qaraganda yuqori, ayollar erkaklarga qaraganda ko‘proq oliy ma’lumot oladilar. Shunga qaramay, muammo mavjud va u eng avvalo kelgusidagi kasblarni tanlashda, ya’ni ayollar “o‘zlariga xos” kasblarni (tibbiyat, pedagogika), erkaklar esa “o‘zlariga xos” kasblarni (iqtisodiyot, moliya va h.z.) tanlayotganlarida namoyon bo‘ladi [1].

Maktab o‘quvchilarining “jinsiy tarbiyasi” bo‘yicha an’anaviy tadqiqotlar milliy ta’limda tenglik tamoyilini amalga oshirishga qaratilgan gender tadqiqotlariga aylantirilishi kerak. Biologik jinsnинг аhamiyati va ta’sirini inkor etmasdan, bolalarning jinsi bo‘yicha sotsializatsiyasini genderga yo‘naltirilgan tadqiqotlar jamiyatning shaxslarning gender o‘ziga xosligini va gender munosabatlarini shakllantirish va qurishga ta’siriga ustunlik berishi kerak. Gender farqlarining ko‘pligi, individualligi va plastikligi, gender identifikasiyasining individuallashuvi bilan gender sotsializasiyasi tadqiqotchilarining e’tibori jamiyatdagi jinslarning obyektiv funksiyalari va maqomlarini tahlil qilishdan har bir shaxs tomonidan o‘ziga xoslikning muayyan modelini yaratishning subyektiv ma’nolarini o‘rganishga qaratilishi kerak. Tibbiy-gigiyenik ma’noda “jinsiy tarbiya” mavzusi va muammolaridan gender ta’limi muammosiga o‘tish bilan tibbiy-pedagogik modellar tadqiqot obyektlarini qayta qurishning yanada istiqbolli psixologik, pedagogik va ijtimoiy-pedagogik modellariga o‘z o‘rnini bosadi. Bu jinslar va jinsiylik biologiyasi o‘qituvchilar e’tibordan chetda qolishi kerak degani emas. Aksincha, o‘qituvchilar va maktab psixologlari, pediatrlar gender masalalarida biologiya, tibbiyat, genetikaning so‘nggi kashfiyotlaridan xabardor bo‘lishga chaqiriladi. Shuningdek, jinslar va jinsiy aloqa biologiyasi o‘qituvchilarning diqqat-markazidan chiqarilishi kerak. Aksincha, o‘qituvchilar va maktab psixologlari, pediatrlar gender masalalarida biologiya, tibbiyat, genetikaning so‘nggi kashfiyotlaridan xabardor bo‘lishga chaqiriladi.

Jamiyatning keng kontekstida erkaklar va ayollar o‘rtasidagi munosabatlar haqidagi g‘oyalarning o‘zgarishi mahalliy ta’lim tizimida yaxlit shaxsnı rivojlantirishning yangi usullarini izlashga olib keldi. Shu munosabat bilan zamonaviy sharoitda pedagogik tadqiqotlar jinsnı erkak va ayolning individualligini va ta’lim va tarbiya jarayonida uning shakllanishi mexanizmlarini aniqlashning o‘ziga xos vositasi sifatida o‘rganishga qaratilgan. Fan rivojining hozirgi bosqichida erkak va ayolning konstitutsiyaviy va ijtimoiy-madaniy jihatlarini ajratib ko‘rsatadigan “jins” va “gender” tushunchalari aniq ajralib turadi. “Jins” atamasi hujayralar tuzilishining genetik xususiyatlari, anatomik va fiziologik xususiyatlar va reproduktiv funksiyalar bilan belgilanadigan odamlar o‘rtasidagi biologik farqlarni anglatadi. Ijtimoiy ma’noda gender tengligi nuqtayi nazaridan yondashuvni shakllantirish yangi nazariya paydo bo‘lishiga qaraganda muhimroq ahamiyatga ega. Bu o‘z mohiyatiga ko‘ra yangi nazariya bo‘lib, uni tan olish ba’zan insoniy qadriyatlar o‘zgarishi, ko‘plab odattagi tasavvurlar va “haqiqatlar”ning qayta ko‘rib chiqilishini anglatadi, bu esa ko‘philik uchun birmuncha og‘riqli kechadi [2].

Maktab ta’limi tizimi maktab o‘quvchilarida u yoki bu turdagи jinslarning shakllanishiga bevosita ta’sir qiladi. Bu jarayonda ta’lim muassasasida boshlang‘ich maktab yoshidan boshlab to‘plangan tajriba muhim omil bo‘lmoqda. Mahalliy pedagogik amaliyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy maktab ayollar va erkaklarga nisbatan stereotiplarga asoslangan qat‘iy gender o‘ziga xosligini shakllantirishga qaratilgan. Eng barqaror g‘oyalar: o‘g‘il bolalarning aniq fanlarga, qizlarning esa gumanitar fanlarga qobiliyati; jinsga qarab oilaviy va kasbiy rollarni bajarishga yo‘naltirilganlik; maktab o‘quvchilari va o‘quvchi qizlarga muqobil ijtimoiy-psixologik sifatlarni berish va h.k. Jinsiy stereotiplar jinslarning o‘zini o‘zi anglash imkoniyatlarini, faoliyatning namoyon bo‘lishini cheklaydi. Bundan tashqari, maktabda “asexual pedagogika” tamoyili amalda davom etmoqda va gender identifikatorini shakllantirishga qaratilgan professional tashkil etilgan faoliyat tajribasi deyarli yo‘q.

Zamonaviy jamiyatda konstruktiv sotsializatsiyaning namunasi sifatida, androgin shaxs moslashuvchan gender identifikatoriga ega va har ikkala jinsiy roling eng yaxshisini o‘zlashtirgani sifatida tobora ko‘proq e’tirof etilmoqda. Yaxshi moslashtirilgan odam g‘amxo‘r, sezgir va ifodali bo‘lishi mumkin. Yaxshi moslashtirilgan ayol - bu mustaqillik, malaka, ambitsiyani mehribonlik, mehnatsevarlik va noziklik bilan uyg‘unlashtirishtirgan jins vakili hisoblanadi. Androgin shaxsni shakllantirish bolalarda gender stereotiplariga ongli munosabatni, tenglik tamoyillariga asoslangan qadriyat munosabatlarini, o‘g‘il va qizlarning turli xil gender o‘ziga xosligini qabul qilishga tayyorligini, o‘qituvchilar va talabalarning o‘zaro hamkorligini o‘z ichiga oladi. Androgin shaxsning ko‘rinishlarining xilma-xilligi, o‘zgaruvchan sharoitlarga qarab, shaxsning ijtimoiy-psixologik salohiyatini yanada to‘liq rivojlantirishga yordam beradi, unga atrof-muhitni optimal moslashtirish va o‘zgartirish imkonini beradi. Binobarin, gender identifikatorining moslashuvchanligi xulq-atvorning plastikligiga olib keladi va stereotiplarga qat‘iy rioya qilish shaxsiy ichki ziddiyatning yuzaga kelishiga olib keladi. Erkak va ayol tamoyillarining ikki tomonlama birligini bilish va qabul qilish bola shaxsining har tomonlama rivojlanishini ta’minlaydi, muhitni optimal moslashtirish va o‘zgartirish imkonini beradi, bu ta’lim jarayonining yetakchi maqsadlaridan biridir. “Man’s studies”ning

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

shakllanishi va rivojlanishi gender g‘oyasi tuzilmasida burilish bosqichi bo‘ldi. Erkaklarga xos xususiyatlar aniq, tabiiy va ayollarga xos sifatlar ziddiyatli deb tushunilar edi. Bunday qarashlar tez orada barham topdi. Ayollar o‘z mavqelarini qayta anglagan holda erkaklarni ham ushbu masalani o‘ylab ko‘rishga majbur qildilar. Natijada odatdagi “Ayollik siri” o‘rniga “erkaklik jumbog‘i” to‘g‘risida fikrlar yuzaga kelib jiddiy muhokamaga sabab bo‘ldi va bu borada hali o‘rganilmagan tomonlar ham mavjud ekanligi ma’lum bo‘ldi. Erkaklar mohiyatini izohlab kelgan hukmron fikrlar barham topdi va endilikda gender g‘oyasi erkaklarning an‘anaviy obrazidan yangi qarashlarni izohlovchi yondashuvga o‘tishini amalga oshirmoqda [3].

**Muhokamalar va natijalar.** Hozirgi davrda mahalliy pedagogikadagi gender yondashuvi samarali ta’lim jarayonining gumanistik salohiyatini o‘z ichiga oladi, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi: jins turidan qat‘iy nazar, ta’limni shaxsga yo‘naltirishning ustuvorligi (androgin shaxsni rivojlantirish; individual rivojlanish holatini ta’minalash, turli xil jinsdagi talabalar faoliyatining turli sohalarida o‘zini o‘zi anglash va o‘zini namoyon qilish imkoniyatlarini kengaytirish); tenglik asosi (subyektning ongida erkak va ayolni o‘zaro istisno qilish va o‘quv jarayoni ishtirokchilari o‘rtasidagi tenglikni rad etish); ta’limning an‘anaviy gender stereotiplariga sezgirlik (o‘qituvchining patriarxal me’yorlar va sxemalar asosida turli jinsdagi bolalarni idrok etishdan bosh tortishi); gender bag‘rikengligini tarbiyalash (o‘qituvchining maqsadli faoliyati, jinsiy guruhlar o‘rtasida va ular ichida uyg‘un hamkorlikni rivojlantirishga ko‘maklashish); maktabning gender tuzilmasida boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining gender o‘ziga xosligini shakllantirish uchun qulay vaziyatni yaratish - yashirin omillar ta’siri ostida yaratilgan o‘quv jarayoni ishtirokchilari va o‘quv jarayonining o‘zi o‘rtasidagi gender munosabatlarining maxsus tartibi.

Maktabning gender tuzilishining o‘ziga xosligi boshlang‘ich maktab yoshidagi o‘quvchilarining o‘rganiladigan shaxsiy ta’limining sifat xususiyatlarini belgilaydi. Gender o‘ziga xosligi - bu shaxsning ijtimoiy shartli yaxlit rivojlanishining asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, uning ichki dinamik tuzilishi subyektning o‘zini o‘zi anglashini hamda o‘zi va uning ijtimoiy-jinsiy roli haqidagi g‘oyalarning maxsus tizimini belgilaydi.

Boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining gender o‘ziga xosligini shakllantirish samaradorligi pedagogikada gender yondashuviga asoslangan maqsadli, kasbiy tashkil etilgan ta’lim jarayonida zarur va yetarli pedagogik sharoitlar tizimini yaratish bilan belgilanadi: gender kompetensiyasini rivojlantirish o‘qituvchi, gender-qulay maktab tuzilishini ta’minalash, bolalarning individualligini pedagogik qo‘llab-quvvatlash turli genderlar, o‘quvchilarining gender ta’limini tashkil etish va boshqalar shular jumlasidandir. R.Samarov, K.Farfieva to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “...yoshlarda gender madaniyatini shakllantirish ko‘proq amaliy mazmun kasb etib, ularni oila sarvari (bekasi), kasbiy jamoa a’zosi, tengqurlari qatorida teng shaxs bo‘lib kamol topishlari uchun lozimdir. Shu sababli, ularda gender madaniyatini shakllantirish uchun majmuaviy yondashish maqsadga muvofiqdir, buning uchun “oila – mahalla – ta’lim muassasalari” tizimida amal qilib kelayotgan hamkorlikni mazmunan takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Nazariy jihatdan yoshlarda gender madaniyatning ifodalanganligining asosiy belgilari sifatida quyidagilar namoyon bo‘lishi mumkin:

- gnoseologik (ijtimoiy muhitda xotin-qizlarning o‘rnini belgilovchi gender bilimlar majmuasi);
- aksiologik (ijtimoiy-jinsiy munosabatlar hamda kasbiy ong tizimida qadriyatli me’yorlarni ifodalaganlikda);
- kasbiy-vazifaviy (jinsiy va rolli munosabatlar davomida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etuvchi gender muloqotning yo‘l va usullari);
- me’yoriy-faoliyatli (xotin-qizlarning kasbiy faoliyati natijasini baholashda namunaviy axloq me’yorlariga yondashish) va boshqalar [4].

**Xulosa** qilib aytadigan bo‘lsak, “gender identifikatori” konsepsiyasini talqin qilishning fanlararo tahlili uni shaxsning ijtimoiy jihatdan shartlangan yaxlit rivojlanishining asosiy tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqishga imkon berdi, uning ichki dinamik tuzilishi subyektning o‘z-o‘zini ongini belgilaydi va o‘ziga xos xususiyatni belgilaydi. Maktabgacha yoshdagи oilaning gender-rol munosabatlariga va maktab yoshidagi ta’lim tizimidagi gender stereotiplariga qarab, bolaning jinsi o‘ziga xosligining qat‘iy yoki moslashuvchan o‘ziga xosligi shakllanadi.

### Adabiyotlar

1. Ahmedshina F., Shnirova O., Shkolnikov I. Gender tenglik qo‘lamini kengaytirish xalqaro tajribasi. –Toshkent, 2007. –B.130.
2. Пушкирова Н.Л. Историческая феминология и гендерный подход в исторических исследованиях. В кн.: Гендерные проблемы в этнографии. -М.: РАН, 1998. – С.6-13.
3. Хай Луиза. Позитивный подход. -М.: “Олма-Пресс”, 1998.
4. Samarov R., Farfieva K. Yoshlarda jinslararo xulq, muloqot madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-madaniy ahamiyati// Zamonaaviy ta’lim / Современное образование 2014, 2. –B.52.

**АБДУСАМАТОВ Хасанбай**

“Оила ва хотин-кизлар” илмий тадқиқот институти илмий котиби, психология фанлари бўйича фалсафа доктори доцент в.б.

**ЎЗБЕК ОЛИМЛАРИ ТОМОНИДАН МИГРАЦИЯ ВА МИГРАНТ ОИЛАЛАРНИ ЎРГАНИЛГАНЛИГИ**

*Уибу мақолада мигрант оилаларни ўзбек олимлари томонидан ўрганилганлиги кўрсатилган. Мигрант оилалар бугунги оилашунослик фанлар доирасида ижтимоий-психологик муаммо сифатида қаралаётганлиги кўрсатилган. Мигрант оилаларни ўрганиши зарур эканлиги таъкидланган. Мигрант оилаларни ижтимоий-психологик муаммолари кўрсатилган.*

**Калим сўзлар:** миграция, оила, хориж, психология, мигрант оила.

**ИЗУЧЕНИЕ МИГРАЦИИ И СЕМЕЙ МИГРАНТОВ УЗБЕКСКИМИ УЧЁНЫМИ**

*В данной статье показано, что семейства мигрантов изучались узбекскими учёными. Было показано, что мигрантные семьи рассматриваются как социально-психологическая проблема в рамках современных семейных наук. Было подчёркнуто, что мигрантские семьи нуждаются в изучении. Показаны социально-психологические проблемы мигрантских семей.*

**Ключевые слова:** миграция, семья, зарубежье, психология, мигрантная семья.

**STUDY OF MIGRATION AND FAMILIES OF MIGRANTS BY UZBEK SCIENTISTS**

*This article shows that the families of migrants were studied by Uzbek scientists. It has been shown that migrant families are considered as a socio-psychological problem within the framework of modern family sciences. It was emphasized that migrant families need to be studied. The socio-psychological problems of migrant families are shown.*

**Key words:** migration, family, foreign countries, psychology, migrant family.

**Кириш.** Ўзбек олимлари томонидан миграция жараёнининг турли ижтимоий-иқтисодий ва хукукий жиҳатлари ўрганилган. Аммо мигрант оилалар муаммоларига илмий-тадқиқот обьекти сифатида тадқиқ этилмаган. Оилада турмуш ўртоғи узоқ муддат меҳнат мигранти бўлган ўзбек оилаларини ижтимоий-психологик томонлари тадқиқ этилмаган. Умуман олганда мигрант оилалар илмий тадқиқот сифатида ўрганилмаган. Иқтисод, хуқуқшунослик, фалсафа, сиёsatшунослик соҳаларида миграция муаммоси ўрганилган.

Мамлакатимизда кам сонли олимлар томонидан миграция жараёни ўрганилган. Миграция жараёнини ижтимоий-гуманитар соҳа доирасида Р.Мадалиева, Т.Сайдбаев, К.Каланов, А.Расулов, Н.Курбанов ва Ф.Пармоновлар ўзларини тадқиқотларида кисман ёндашганлар.

Бугунги кунда миграция жараёни ҳар бир халқнинг этник хусусиятларига, яшаш тарзига, кундалик ҳаёт тартибига кучли таъсир қилмоқда. Ҳар бир мигрант ўз ватанига қайтгандан сўнг, у мигрант ҳисобланмайди. Аммо у ўша давлатда ўрганган одатлар, кўнимкалар ва таржибаларни ўз оиласида амалда қўллай бошлади.

“Бу эса маданият, маънавият, халқнинг ментал хусусиятларига салбий таъсир кўрсатиши муқаррар. Айни ана шу жараёнда оиланинг турмуш тарзига путур етади. Бунда икки ҳил манзара акс этиши мумкин. Биринчиси, агар қайтиб келган мигрант ота бўлса, бутун оила унинг таъсирига тушиб, жамият қонун-қоидаларига зид ҳатти-ҳаракат туфайли атрофдагилардан алоҳида ажраб қолиш. Натижада, фарзанд тарбиясида нотекисликлар юзага келади” [1].

**Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили (Literature review).** Ижтимоий назорат йўқ бўлиб бораётган бир даврда, оиланинг ўзида ҳам фарзанд тарбиясига масъул бўлган отанинг меҳнат мигранти сифатида хориж мамлакатига ишлаш учун узоқ муддатга кетиш, фарзандларнинг хулқида девиант хусусиятларни шаклланишига кенг имконият яратилган бўлади. Ўсмирлик даврида болаларни турли ижтимоий ҳодисаларга қизиқишилари кучайган пайт бўлади. Ижтимоий тармоқлар

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

хавфи ортган вактда уларни назоратсиз қолдириш мумкин эмас. Мамлакатимизда мигрант оила фарзандларини ижтимоий назоратга олиш, уларни ижтимоий-психологик қўллаб-кувватлаш механизми мавжуд эмас.

Мажбурий меҳнат миграцияси оилаларнинг иқтисодий томони яхшилашга ҳизмат қиласи. Аммо танганинг икки томони бор бўлганидик, миграциянинг тескари таъсирини унтиш керак эмас.

“Яъни ота нарги жамиятда кўриб келганларини оиласига сингдиришга харакат қиласи. Фарзанд ўзи яшаб турган жамиятдаги тарбия тизимини англаб-англамай тарк этишга мажбур бўлади. Охир-оқибат, ҳеч қандай фазилатларга эга бўлмаган эгоист шахс тарбияланишига ҳизмат қиласи. Иккинчиси, оиласи ўзи яшаб турган жамиятдаги ахлоқ-одоб қоидалари асосида яшashi унга ёқмагани сабабли, сен шундай яшайвер мен эркин яшайман, деб ўз оиласини тарк этишига олиб келади” [1].

Тадқиқотчиларнинг хулосалари шуни кўрсатмоқдаки, ўзбек оилаларида мигрант сифатида хорижда ишлаб келган шахсларга психологик ёрдам кўрсатиш мухим ҳисобланади. Улардаги трансмаданий хусусиятларни шаклланиш жараёнида ўз-ўзини англашга ёрдам бериш тизимини ташкил қилиш керак бўлади.

Д.Н.Мўйдинов томонидан миграция жараёнларини жамият баркарорлигига таъсири ўрганилган. Тадқиқотчи томонидан “**тушкунлик модели**” ўрганилган бўлиб, унда меҳнат мигранти сифатида ишга кетган шахс янги ижтимоий маданий мухитдаги турли салбий ҳодисалар, атроф-мухитни ифлослиги, табиий ҳодисалар бош ўғриғи бўлиши унда уйга қайтиш, афсусланиш каби психологик ҳис-туйғуларни бошдан кечириш каби ҳодисалар борлиги ўрганилган. Д.Н.Мўйдинов томонидан миграцияга сабаб бўлаётган омилларни икки кисмга бўлган. Унга кўра юмшоқ омилларга – ишлизик, қашшоқлик ва ижтимоий қолоқлик, каттиқ омилларга – шахс инқирозларига сабаб бўлган драматик ҳодисалар.

Тадқиқотчи томонидан ижтимоий тармоқлар назарияси урғу беради. Унга кўра мигрантларнинг ортда қолган қариндошлари, дўстлари ва ўзи улгайиб ўсган инсонлар орасида ипсиз боғликлар бўлади. Мигрантлар ўз ватанида қолган қариндош уруғларига иш тўғрисидаги маълумотларни етказиш, кам ҳаражатли жойларни аниқлаш ва ижара уй топишда ёрдам бериш натижасида мигрантлар занжирини ҳосил қилмоқда. Юқоридаги занжир фақат меҳнат миграциясида эмас, соғлиқни сақлаш, таълим ва бошқа соҳаларга ҳам кенг кириб бормоқда. [2]

Миграция жараёнини ортишини асословчи яна бир назария институционал назариядир. Назария бўйича миграция жараёнини қўллаб-кувватлайдиган, ёрдам берадиган институтлар сонини ортиши асос қилиб кўрсатади. Ушбу назарияга кўра, конуний ва ноқонуний йўллар орқали инсонларни мигрант сифатида ташиш индустряяси вужудга келган.

Д.Н.Мўйдинов томонидан оилаларнинг миграция туфайли даромадларини катта миқёсида оширганини қўриш, кам даромадли оилаларнинг ўзларига нисбатан камбағал ҳис этишларига сабаб бўлмоқдаки, булар ҳам баъзиларни миграция бўлиш учун йўналтирумокда. Бу холат даромад тенгсизлигини янада оширмоқда ва миграция бўлмаганлар оилаларни миграцияга йўналтирумокда. Шу билан тадқиқотчи аёллар ўртасидаги мигрантлар сонини ортаётганлигини таъкидлаб ўтган.

Ўзбек тадқиқотчи олимлари томонидан мамлакатимизда қишлоқ худудлардаги ташки ва ички меҳнат мигрантларини ҳар томонлама қўллаб-кувватлаш учун қуидаги вазифаларни амалга ошириш кўрсатилган:

- маҳаллаларда ишли кучи этишмайдиган худудлардаги бўш иш ўринлари, ишнинг хусусияти, ойлик маоши, ишчиларнинг малакалари тўғрисида маълумотларни эълон қилиш;
- меҳнат мигрантларининг оила аъзоларига сифатли тиббий ёрдамлар кўрсатиш;
- хорижга ишга кетган мигрантларни фарзандлари таълими учун барча имкониятларни яратиш [3].

С.К.Алимов томонидан мигрантларни ахлоқий жиҳатлари тадқиқ этилган. Унга кўра, миграция сиёсати асосан иммигрант давлат томонидан амалга оширилиш кўрсатилади. Ушбу жараён маълум бир сиёсий, психологик, хукукий, этник мезонлар асосида амалга оширилиши таъкидланади. Мигрантлар олдида икки омил ҳуқуқ ва мажбурият туради. Мажбуриятлари ўз оиласини моддий жиҳатдан таъминлаш, фарзандларни ўқитиш, уй-жойли қилиш каби омиллар киритилади. Яъни ҳар қандай хукукий вазият мигрантларда мажбуриятни юзага келтиради. Ҳозирги кунда мигрант ва иммигрант давлатлар ўртасида меҳнат мигрантларининг этник хусусиятдан келиб чиқиб, ҳуқуқ ва мажбуриятларни белгилаш мухим ҳисобланади.

Мамлакатимизда олиб борилаётган миграция сиёсати инсон психологиясига таъсири доирасида қуидаги хулосаларга келиш мумкин:

## "PEDAGOGIK MAHORAT" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

Биринчидан, миграция жараёни ёпиқ сиёсат сифатида олиб бориш керак эмас. Зоро, шахснинг хукуқ ва мажбуриятлари хар қандай мамлакат хукуқ тизимнинг асосий тамойилларидан бири ҳисобланади.

Иккинчидан, миграция жараёни давлат ва инсон, уларнинг манфаатлари тизимидағи низолардан иборат бўлган психологияк мунозараларга сабаб бўлмоқда. Ушбу муаммони тўлиқ бартараф этиш баъзидаги имконсиз кўринади. Юкоридаги низоли ҳолатни бартараф этиш "олтин оралиқ"даги қарорларни қабул қилиш керак бўлади.

Учинчидан, мигрантларнинг ҳақ-хукуклари ва давлат сиёсати ўртасидаги тўқнашувни йўқ қиласидан механизмни шакллантириш, имтиёзлар масаласи, мигрантнинг масъулияти ва имкониятлари тўғрисида билим ва кўнкимларини ўргатиш зарур.

Тўртинчидан, миграция сиёсатнинг инсон манфаатлари мослашиш, уни инсон омили учун хизмат қилишга қаратилган "онгли бошқарув" шакли бугунги жуда кўплаб иммиграцион давлатларда кузатилмоқда. Бундай сиёсатни юритишида мигрантларнинг ўзига хос бўлган индивидуал, этник хусусиятлари ҳамда демократиянинг умуминсоний принципларини ҳисобга олиш зарур.

Унда меҳнат мигрантлари бошқа давлатга кирап экан, ўзи яшаши учун эркин жойни танлаш хукуки, ўша жамиятдаги қонунлар, урф-одатларни хурмат қилиш, қабул килувчи шахснинг миллий, этник ва миллий диний қадриятларини хурмат қилиш каби ахлокий мажбуриятларни ҳам ўз зиммасига олади. Хар қандай давлат ўзи қабул қилаётган мигрантларни этник хусусиятидан келиб чиқиб, уларни хукуқ ва мажбуриятларини белгилashi мухим ҳисобланади. Хар қандай давлат мигрантлар билан боғлиқ сиёсатни онгли бошқариш хукуқига эга. Бу нимани англатади, мамлакатга кириб келувчи мигрантларни маълум мезонлар асосида саралаш, индивидуал хусусиятдан келиб чиқиб, уларни соҳаларга йўналтириш кабиларни ўз ичига олади [4].

**Таҳлил ва натижалар (Analysis and results).** Ўзбекистон Республикаси Маҳалла ва оиласи қўллаб-қувватлаш вазирлиги хузуридаги "Маҳалла ва оила" илмий тадқиқот институтидаги меҳнат мигрантлари оиласидан шахслараро муносабатларнинг педагогик-психологияк омиллари бўйича қисқа муддатли лойиҳа амалга оширилган. Тадқиқотда миграция оиласидаги муносабатларга қандай таъсир этишига алоҳида эътибор қаратилган. Унга кўра;

- оиласидаги муносабатлар тизимидағи бузилишлар: катта авлод ва кичик авлод ўртасидаги жонли мулоқотнинг узилиши, эр-хотин муносабатидаги функционал бузилишлар, ишончсизлик, ажralишишлар ва хиёнат;

- ота-она ва фарзанд муносабатларидаги муаммолар. Бу эса ўз навбатида боланинг шахси, ҳиссий-иродавий соҳаси, шахсларо муносабатлари, ота-она обрўси ва шу каби муносабатлардаги муаммоларни юзага келишига сабаб бўлади;

- ота-она ёки улардан бирининг назоратисиз қолган болаларда шахс тузилмасида турли ўзгаришлар содир бўлади. Ўзининг мансублиги соҳасини англаши, яқинларига нисбатан ҳиссий боғланишнинг шаклланишидаги бузилишлар, ота-она фуннкцияларининг оиласидаги тўнғич фарзандга ўтиши билан болаларнинг кун тартиби ва мажбуриятидаги ўзгаришлар, таълимий қизиқишлигининг сўниши ва х.к. [5]

Тадқиқотчилар меҳнат мигрантларининг ўз юртида қолган фарзандлари билан педагогик-психологияк экспериментал тажриба ўтказилган. Ота-онаси меҳнат мигрант бўлган оиласидан ота-она ва фарзандлар ўртасидаги ўзаро боғланганлик даражаси ўрганилган. Тадқиқот учун ижтимоий ҳолатга кўра синалувчиларни кўйидаги икки гурухга ажратиб олинган; а) отаси меҳнат мигранти бўлган ёлғиз онаси билан қолган болалар, б) ота-онаси меҳнат мигранти бўлган бува ва бувиси ёки яқин қариндошлари билан қолган болалар. Тадқиқот учун Тошкент шаҳри ва Самарқанд вилояти танлаб олиган. Ёлғиз онаси билан қолган болаларнинг катталарга, бува-бувисига, онага, aka-opalarга ва дўстларига бўлган ҳиссий яқинлик ва шахслараро муносабат бошқа гурух синалувчиларга нисбатан юқори эканлиги аниқланган. Боланинг отасига нисбатан ҳиссий боғлиқлиги синалувчиларнинг **46,1 %** ида юқори чиққан. Уларнинг тадқиқотларида иккалага гуруҳда ҳам отага бўлган ижобий муносабат **21 фоизни** ташкил қилган. Миргант оила фарзандлари ота-онани эр-хотин сифатида қабул қилиш шкаласи иккала гуруҳда паст эканлиги кўрсатилган. Отанинг мунтазам равишда узокда бўлиши, боланинг идрокида оила ягона жамоа эмас, ота-она ўртасидаги муносабат тўла қонли эмаслиги тўғрисида таассуротлари мавжуд. Бу омиллар кейинчалик боланинг келажак ҳаётида ота-онанинг ҳаёт тажрибасини такрорлаш эҳтимолини юзага келтиради. Оқибатда болада нотўлиқ оиласи нормал оила сифатида кўра бошлади.

Юкоридаги омиллар оиласидаги мухит фарзанд учун мос эмаслиги, оиласидаги яхлитликнинг йўқлиги, ота-она ва фарзандлар ўртасидаги шахслараро муносабатларда муаммоларни юзага

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

келтиради. Бу эса болада нафакат ҳиссий-эмоционал ҳолатига, унинг хулқ-авторига салбий таъсир кўрсатади.

Тадқиқотчилар мигрант оила фарзандларида ўтказилган илмий изланишларидан қуйидаги хуносаларга келган:

1. Ота-онаси меҳнат мигранти бўлса ҳам болаларда уларга нисбатан эмоционал ҳиссий боғланганлик, ижобий муносабатда бўлиши кузатилган.

2. Болалар онаси ёки бошқа қариндошлари билан қолганда уларнинг шахслараро муносабати турлича бўлиши аниқланган.

3. Оиласада ота ёки онанинг фарзанд бирга қолиши, боланинг ижтимоий-психологик ҳолати, унинг психик хусусиятлари бошқа шахс билан қолган болаларга нисбатан ижобий характерга эга эканлиги билан ажralиб туради.

4. Меҳнат мигрант сифати ота-онанинг иккаласи ҳам сафарда бўлиши, бола учун психологик жиҳатдан оғир кечиши, ўз оламига кириб олишлик, ижтимоий омиллар сабабли девиант хулқни шаклланиши юзага келади.

5. Фақат отанинг меҳнат мигранти бўлиши, болада бошқа шахсларга нисбатан эмоционал боғланганлик даражаси паст бўлиши аниқланган. Демак оиласада отанинг бўлиши фарзандларда ишонч туйғуси шаклланишига ва уларда шахслараро муносабатларни тўғри йўлга қўйишда замин бўлади.

Ота-она ва қариндошлари томонидан назоратсиз қолдирилиши болада хулқ-авторнинг бузулиши, ўз ҳиссиётларини бошқара олмаслик ҳолатлари билан изоҳланади. Тадқиқот давомида фарзандларни ота-онага нисбатан сақланган эмоционал туйғуларини ота-онаси қайтганданг сўнг, қайта тиклаш мумкинлиги кўрсатилган. Мамлакатимизда мигрант оиласаларнинг фарзандлари учун сақланган ҳиссий туйғуларни қайта тиклаш механизми мавжуд эмас.

Тадқиқотчилар ўтказилган сўвornомага кўра, аёлларнинг **69 фоизида** ижтимоий яккалганлик даражаси паст, **23 фоизида** ижтимоий яккалганлик даражаси ўртача ҳамда **7,6 фоизида** ижтимоий яккалганлик даражаси юқори чиқкан.

Мигрант оиласалардаги аёлларни яккалганлик даражаси ўрганилган. Унга кўра, аёлларда ижтимоий яккалганлик даражаси паст эканлиги аниқланган. Оила бошлиғи меҳнат мигранти бўлган вақтда аёлларга яқин қариндошлари ёрдам бериб туриши, улардаги ижтимоий қийинчиликларни енгib ўтишига ёрдам берса-да, аёлнинг турмуш ўртоғи ёнида бўлмаслиги унинг яккалганлик даражасига таъсир қиласа экан. Ушбу масалага тадқиқотчилар қуйидагича изоҳ беради:

- турмуш ўртоғининг узок муддат меҳнат мигранти бўлиши, аёлларда рўзғор юмушларидан ташқари, фарзандларнинг тарбияси, таълим олиши билан боғлиқ муаммолар, аёлнинг ўзининг психологик ҳолатини ўйлашга имкон бермайди, натижада аёлда ўзи англамаган холда муаммолар юзага келади;

- баъзи оиласаларда турмуш ўртоғи узоқда бўлишига қарамай, ижтимоий тармоқлар ва телефондаги мунтазам сухбатлари, оиласига пул жўнатмаларини амалга ошириши, улардаги эр ва хотин муносабатларининг ижобий бўлиши, аёл учун психологик ёрдам эканлиги кўрсатилган;

- узок вакт турмуш ўртоғи меҳнат мигранти бўлган аёлларни мавжуд шароитга ижтимоий-психологик мослашиб, аёл сифатида ҳаётий қийинчиликларга мустақил ёндаша олиш қобилиятини шакллантириш бўйича механизм яратиш керак.

**Хулоса ва таклифлар (Conclusion/Recommendations).** Тадқиқотчилар томонидан мигрант оиласаларни комплекс қўллаб-куvvatlash учун маҳаллаларда қуйидагиларни жорий қилишини таклиф қилган:

- маҳалла тизимида мигрант оиласалар билан ишлаш, уларнинг муаммоларини ҳал этишда ёрдам кўрсатадиган тизими яратиш керак;

- мигрант оила аъзоларига моддий ёрдам бериш, оғир шароитда ишлаётган хотин-қизлар, оиласаларни ўз ватанига қайтариш, уларнинг билим ва қўникмаларини ошириш, уларнинг оиласидан муносабатларини тиклашда психологик ёрдам кўрсатиш, уларга муносаб иш ўринларини яратиш мухим эканлиги кўрсатилган;

- фарзандларини яқин қариндошларига ташлаб кетиш болаларнинг пси-хологиясига салбий таъсир кўрсатиши, назоратсизлик натижасида уларда девиант хулқ авторни бузилиши каби салбий ҳолатларни вужудга келиши кузатилган;

- фарзандларнинг идрокида нотўлиқ оила бутун оила сифатида кўрила бошлаши, узок муддат отасиз яшаш одат тусига айланиши каби омиллар бола психологиясига салбий таъсир кўрсатади;

- аёл мигрантларда яккалганлик даражаси юқори эканлиги, улар ижтимоий-психологик қўмакка муҳтожлиги алоҳида таъкидланади.

### Адабиётлар

1. Пармонов Ф, Ш.Тўраев, И.Даминов. Миграция: Мусоғир ватангадолар. Монография – Т.: “Sano-standart” нашриёт, 2015. – 112 б
2. Мухиддинов Э.М. Ахолини иш билан бандлигини таъминлашда меҳнат миграциясини ўрни. Диссер.номзод. 2019. 162 бет
3. Холмуминов Ш., Абдураманов X. Қишлоқ аҳолисининг ташки ва ички меҳнат мигрантларини самарали ташкил этиш // “Бизнес-Експерт”, 2018 йил 11 (131)-сон, 57-62 б
4. Алимов С. Миграция ахлоки ва миграцион сиёсат: замонавий муаммолар ва уларнинг ечимлари // “НамДУ илмий ахборотномаси”, 2020 йил 11-сон, 151-156 б
5. Маджидова Д.А, Ҳусанова Д.Ғ, Базаров А.А. Меҳнат мигрантлари оиласарида шахслараро муносабатларнинг педагогик-психологик омиллари.- Т.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2021. 88 б.

ДИЛОВА Наргиза Гайбуллаевна

Педагогика фанлари номзоди, БухДУ  
доценти

## ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К МЕЖЛИЧНОСТНЫМ ОТНОШЕНИЯМ

В данной статье рассматриваются психологические основы подготовки будущих учителей к межличностным отношениям, теоретические основы психологических барьеров, возникающих в межличностных отношениях различных проявлений, возникающих в ходе учебной деятельности.

**Ключевые слова:** потребительская кооперация, учебно-профессиональная деятельность, психологическая подготовка, психологическая культура, компоненты психологической подготовки, личностное и профессиональное развитие студентов.

### БҮЛАЖАК ЎҚИТУВЧИЛАРНИ ШАХСЛАРАРО МУНОСАБАТЛАРГА ТАЙЁРЛАШНИНГ ПСИХОЛОГИК АСОСЛАРИ

Уибу мақолада бўлажак ўқитувчиларни шахслараро муносабатларга тайёрлашнинг психологик асослари, ўқув фаолиятида давомида юзага келадиган турли кўринишдаги шахслараро муносабатларда юзага келадиган психологик тўсиқларнинг назарий асослари ҳақида фикр юритилган.

**Калим сўзлар:** истеъмолчи кооперацияси, таълим ва қасбий фаолият, психологик тайёргарлик, психологик маданият, психологик тайёргарликнинг таркибий қисмлари, талабаларнинг шахсий ва қасбий ривожланиши.

### PSYCHOLOGICAL BASIS FOR PREPARING FUTURE TEACHERS FOR INTERPERSONAL RELATIONS

*This article discusses the psychological foundations of preparing future teachers for interpersonal relationships, the theoretical foundations of psychological barriers that arise in interpersonal relationships of various manifestations that occur during educational activities.*

**Key words:** consumer cooperation; educational and professional activities; psychological training; psychological culture; components of psychological training; personal and professional development of students.

**Актуальность.** Модернизация системы образования, осуществляемая в нынешних социально-экономических условиях и направленная на дальнейшую гуманизацию процесса обучения, выдвигает на первый план целый ряд проблем, касающихся эффективности взаимодействия и качества взаимоотношений между учителем и учеником. В свете этих проблем актуальными становятся исследования, ориентированные на всестороннее изучение взаимоотношений между учителем и учеником и их взаимосвязей с личностными особенностями учителя как условий, которые определяют и обеспечивают эффективность данного взаимодействия.

Актуальность исследования взаимосвязей между личностными особенностями учителя и его отношением к ученикам определяется следующими положениями. Во-первых, отношения “учитель – учащиеся” являются центральным системообразующим отношением (структурной клеточкой), лежащим в основе деятельности учителя и объединяющим все другие виды отношений, в которые вступает учитель. Во-вторых, отношение учителя к учащимся и другим учителям (феномен «Я - другие») является одним из главных факторов, определяющих общую удовлетворённость учителя, основанную на самореализации его личности в деятельности. В-третьих, решение задач, связанных с вопросами влияния учителя на личность ученика невозможно вне рассмотрения характера отношений, непосредственно обуславливающих эффективность учебно-воспитательного процесса. В-четвёртых, межличностные отношения влияют как на раскрытие личностного потенциала самого человека, так и его партнёра по взаимодействию, что тесно связано с процессом личностного развития.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

Таким образом, по своей сути исследование межличностных отношений учителя оказывается неразрывно связанным с исследованием его психологических особенностей. В начале девяностых годов Маркова А.К. писала, что в педагогической психологии недостаточно анализируются психологические особенности учителя в их влиянии на ученика, и поэтому педагогическая и возрастная психология продолжают оставаться в большей степени психологией ученика, чем взаимодействия ученика и учителя. В конце девяностых этот “пробел” частично стал заполняться работами, посвящёнными изучению личности учителя. В связи с тем, что педагог обучает и воспитывает своих учеников не только как носитель определённой социальной роли, но и как неповторимая индивидуальность, обладающая своими психологическими особенностями, особую значимость приобретают те личностные качества педагога, которые влияют на его отношение к ученику. В нынешних сложных и нестабильных условиях жизни наше общество нуждается в гораздо большем уровне развития у педагога таких качеств, как осознанность, ответственность, эмпатия, самоуважение, самообладание и т.д. по сравнению с более благополучными в социально-экономическом плане периодами.

Таким образом, на данный период времени остается малоизученной не только проблема собственно педагогических отношений, но и проблема влияния личности учителя на различные стороны этих отношений. По всем выше изложенным причинам тема “Взаимосвязь между личностными особенностями учителя и его отношением к ученикам” является актуальной как с точки зрения психологии учителя, так и с точки зрения психологии развития личности ученика.

Методологической основой исследования являются концепция отношений личности В.Н. Мясищева, концепция помогающих отношений К.Роджерса, концепция персонализации А.В. Петровского, а также следующие принципы: принцип деятельностного опосредствования межличностного познания (Г. М. Андреева), принцип системности (гештальт-психологи, Б.Г. Ананьев, Б.Ф. Ломов), принцип развития психики (С.Л. Рубинштейн), принцип активности субъекта (А.Н. Леонтьев, К.А. Абульханова-Славская), принцип гуманизации образования (В.М. Зуев, Б.Б. Коссов, А.А. Крылов).

Межличностные отношения - многогранное и многоуровневое явление в педагогической и социальной психологии. Вероятно, именно в силу их необычайной сложности и подвижности, зависимости от сложнейшего переплетения противоречий социального, социально-психологического и психологического порядка философы и психологи находят в них своеобразные грани изучения и дают межличностным отношениям специфическое объяснение и толкование.

Определение межличностных отношений для исследования в диагностике осложняется тем, что межличностные отношения должны рассматриваться одновременно как социально-психологическое явление и как индивидуально-психологические особенности реализации личности в социуме. Таким образом, проблематичность определения межличностных отношений видна уже на поверхности.

В отечественной психологии отношения одного человека к другому как особый предмет широко исследовались, в основном, в ленинградской психологической школе. В зарубежной психологии межличностные отношения изучались преимущественно в рамках социально-психологических и гуманистических концепций личности. Анализ существующих исследований по проблеме межличностных отношений позволяет выделить четыре основные контекста этих работ.

1. Познавательные отношения - другой как предмет познания. Наиболее ярко это направление представлено в работах А.А. Бодалева, Г.М. Андреевой, В.А. Лабунской, А.А. Реана, Я.Л. Коломинского и др. В этом контексте другой человек выступает как предмет восприятия, понимания или познания. Познание совокупности свойств и качеств, определяющих образ другого, и особенности личности самого познающего составляют основу межличностного познания и понимания. 2. Эмоциональные отношения - другой как предмет симпатии или других эмоций. Это направление представлено как работами отечественных, так и зарубежных психологов. Главной задачей исследований этого направления является изучение обусловленности эмоциональных отношений между двумя людьми на разных этапах развития этих отношений. Расположение одного человека к другому рассматривается в зависимости от свойств объекта симпатии, в зависимости от свойств субъекта симпатии, в зависимости от соотношения этих свойств и т.д. Среди отечественных психологов к данному направлению исследователей относятся - В.Н. Мясищев, Л.Я. Гозман, Н.Н. Обозов и др.

3. Практические отношения - другой как предмет воздействия. Это направление наиболее широко представлено в практике человеческих отношений и развивается, в основном, в русле психологии обучения и воспитания, а также в психологии управления. В современных исследованиях

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

процесса обучения и воспитания в центре внимания находится субъект-субъектная (диалогическая или развивающая) модель воздействия на другого. Представителями этого направления в российской психологии являются В.С. Братусь, Б.Ф. Ломов, А.В. Петровский, А.К. Маркова, Л.М. Митина и др.

4. “Я – Ты” отношения, или развивающие отношения - другой как неотъемлемая часть мира и условие человеческого существования. Это направление берёт начало от философии экзистенциализма и развивается сначала преимущественно в рамках исследования психотерапевтических отношений. Позже оно постепенно переносится в контекст обычных человеческих отношений и педагогических отношений в частности. “Я – Ты” отношения в психотерапии рассматриваются как необходимое условие эффективной психотерапевтической работы, которая приводит к большей интеграции личности и сопровождается личностным ростом. Среди зарубежных философов и психологов наиболее яркими представителями данного направления являются М. Бубер, К. Роджерс, Х. Кохут, И. Ялом, М. Хайдеггер, К. Ясперс, Ж.П. Сартр, А. Камю и др.

Во всех перечисленных выше направлениях исследований очевидным образом прослеживается постепенный переход от взгляда на человека как противостоящего другому человеку, чья субъектность сводится к совокупности определённых специфически человеческих свойств, к гуманистической позиции по отношению к нему. В этой современной парадигме межличностные отношения, по выражению М. Бубера (1993), рассматриваются как “реализация внутреннего Ты в Ты встреченном”, при которых “через Ты человек становится “Я”.

**Выводы.** Психологические особенности личности учителя являются важным внутренним условием, определяющим количественное и качественное разнообразие параметров педагогических отношений, и образуют дифференциальные, интегральные и системные личностные факторы этих отношений. Установки учителя по отношению к ученикам, его дифференциальные отношения к разным группам учеников и адаптивность в этих отношениях связаны, в первую очередь, с индивидуально-психологическими особенностями ценностных ориентаций, или направленностью учителя, и особенностями его саморегуляции.

### Литература:

1. Дементьева, Е.В. Формирование профессионально-психологической культуры будущих специалистов в условиях высшего профессионального образования / Е.В. Дементьева // Психологическая культура человека: Теория и практика: материалы научной конференции, 27–28 февраля 2012 г., г. Саранск. – 2012. – С. 199–207.
2. Кевбрин, Б.Ф. Мотивы личности и профессиональная успешность / Б.Ф. Кевбрин, П. В. Новиков // Фундаментальные и прикладные исследования кооперативного сектора экономики. Научно-теоретический журнал. – 2007. – № 4. – С. 144–149.
3. Кевбрин, Б.Ф. Психология и педагогика в схемах, таблицах и иллюстрациях: учебное пособие / Б.Ф. Кевбрин, П.В. Новиков. – Саранск, 2013. – Ч. 1. – 164 с.
4. Кевбрин, Б.Ф. Психология и педагогика: учебное пособие: в 2 ч. / Б.Ф. Кевбрин, П.В. Новиков, Н.Н. Абрамова. – Саранск, 2007. – Ч. 1. – 296. с; Ч.2. 2008. – 224 с.

**АСРАНБАЕВА Муножатхон  
Халимжановна**

Наманган давлат университети  
Педагогика фанлари бўйича фалсафа  
доктори, (PhD)

### **ШАХС РУҲИЯТИДА ХАВОТИРЛАНИШ ҲОЛАТИ ВА УНИНГ НАМОЁН БЎЛИШИ**

*Одамлар қандайдир ташвиши, безовталик, хавотирланиши учун безовта бўлгани билан ажралиб туради, бу ҳолат стрессли вазиятларга ҳиссий реакция шаклида намоён бўлади, бунда интенсивлик ва динамика ўзгариб туриши мумкин. Хавотирланиши даражасининг ошиши одамларда ҳиссий, асабий руҳий касалликларга олиб келади.*

**Калим сўзлар:** ташвиши, стресс, ҳиссий бузилишлар, барқарор динамика, қўрқув, муносабат, ёндашув, ҳиссий жавоб.

### **СОСТОЯНИЕ ТРЕВОЖНОСТИ В ПСИХИКЕ ЛИЧНОСТИ И ЕЁ ПРОЯВЛЕНИЯ**

*Людям свойственна какая-то тревога, суматоха, беспокойство, это состояние проявляется в виде эмоциональной реакции на стрессовые ситуации, причем интенсивность, динамика могут варьироваться. Повышенный уровень тревожности приводит к эмоциональным, нервным расстройствам психики у человека.*

**Ключевые слова:** тревога, стресс, эмоциональные расстройства, стабильная динамика, страх, отношение, подход, эмоциональная реакция.

### **THE STATE OF ANXIETY IN THE PSYCHE OF THE PERSON AND ITS MANIFESTATIONS**

*People are characterized by some kind of anxiety, turmoil, anxiety, this condition manifests itself in the form of an emotional reaction to stressful situations, and the intensity and dynamics may vary. an increased level of anxiety leads to emotional, nervous disorders of the human psyche.*

**Keywords:** anxiety, stress, emotional disorders, stable dynamic, fear, attitude, approach, emotional reaction.

Шахснинг психик жиҳатдан соғлом бўлиши кўп жиҳатдан унинг эмоционал ҳолатига боғлиқдир. Бизга маълумки, инсонларга нимадандир хавотирланиш, нотинчлик, безовталаниш хос бўлиб, бу ҳолат стрессли вазиятларга эмоционал реакция тарзида намоён бўлади ва интенсивлиги, динамикаси турлича бўлиши мумкин. Шунга мувофиқ хавотирланиш даражасининг ортиб кетиши шахсадаги эмоционал, асаб психик бузилишларига олиб келади. Айниқса бу ҳолат илк ўспиринлик даврида кўпроқ кузатилиб, уларнинг катталик ҳаёти йўналишини танлаш, имтиҳон олди хавотир ва қўрқувларга боғлиқ бўлади.

Хавотирланиш муаммоси бўйича бир қатор психолог олимлар томонидан тадқиқотлар олиб борилган бўлиб, уларда турлича ёндошув ва қарашлар илгари сурилган. Жумладан Ч.Д.Спилбергер нинг фикрига кўра, бу ҳолат зўриқиши, нотинчлик, ғамгинликни хис қилиш тарқасида физиологик жиҳатдан автоном асаб тизимининг фаоллашуви сифатида тавсифланади. Хавотирланиш ҳиссий ҳолати ўзида хавф, тайзик, зиён элементлари сифатида идрок қилиш натижасида вужудга келади.

Шахс хислати сифатидаги хавотирланиш ҳолатини қанчалик тез-тез ва интенсив равишда юзага келишига қараб аниқлаш мумкин. Хавотирланиш ҳолати ёрқин ифодаланган шахс, атрофимизни ўраб турган оламни хавф-хатар, қўрқинч, таҳлика натижасида идрок қилишга мойил бўлади.

Кўпинча чет эл психолог олимлари хавотирланиши шахс ҳолати сифатида қарайдилар ва шу мазмунда бир қатор назариялар яратганлар. Филипс, Мартин ва Майерс ўз тадқиқотлари натижасида шундай фикрга келадиларки, хавотирланиш стресснинг турли шакллари натижасида пайдо бўлиши мумкин. Филипс ва унинг хамфиркларининг таъкидлашларича, эмоционал ҳолатга ўтувчи хавотирланиш ўртасида концептуал (назарий) фарқ мавжуд. Бундай фарқни Кеттел ҳам ўз тадқиқотларида аниқлаган. И.Г. Серазаннинг фикрича, билимларни назорат қилиш жараёнида

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

намоён бўладиган хавотирланиш бундай вазиятларда шахснинг хавотирни ҳис қилиш мойиллиги каби индивидуал фарқда ўз аксини топади.

Психолог З.Фрейднинг таъкидлашича, объектив хавотир тушунчаси ўз ичига ташқи дунёдаги реал вазиятдаги хавфни қамраб олади. Хавфни идрок этиш эса эмоционал реакция ҳосил қиласи. Невротик хавотирда эса хавф-хатар манбаи ташки дунёда эмас, балки шахснинг ўзида, унинг ички дунёсида мажуд бўлади. Унинг уқтиришича, бу хавф-хатарнинг манбаи болаликда кечирилган агрессия ва жинсий майлардир.

Шунингдек, хавотирланиш муаммосини рус психолог ва физиологлари асаб тизимининг кучига боғлаб тадқиқ этгандар. И.П.Павловнинг таъкидлашича, “барқарор динамик” стереотипларнинг бузилиши билан одамда субъектив ҳолатда хавотирланиш сифатида тушуниладиган, кутилмаганлик ва кўнгилсизликдан қўркиш ҳисси пайдо бўлади.

В.Д.Небилициннинг фаразида келтирилишича, асаб тизими заиф ва шунинг билан бирга юқори таъсирчан типли одамлар учун хавотирланиш ҳолатига мойиллик характерли бўлади. К.Спенснинг фаразини кўллаб, шартли рефлексия ишлаб чиқариш тезлиги хавотирланиш ҳолатига мойиллик билан ўзаро боғланади.

Л.А.Копилованинг таъкидлашича, “куч- асаб тизимининг заифлиги” ва “хавотирланиш” ўртасида боғлиқлик мавжуд, “кучли” ва “кучсиз” созвучиларнинг иш фаолиятидаги фарқи ва уларнинг унумдорлиги айтилмаганда, сўзсиз унумдорликни мос даражада ушлашда “кучсизлар”, “кучли”ларга қараганда маълум даражада кўпроқ куч сарфлайдилар.

Жумладан, ота-оналардаги талабчанлик болалардаги эмоционал бузилишлар омили сифатида тадқиқ этилган. Тўғри, ҳар бир ота-она ўз фарзандига порлоқ келажакни, баҳтли ҳаётни тилайди ва бунинг учун қўлидан келган барча ишни қилишга ҳаракат қиласи. Бироқ фарзанднинг қобилияти, шахс хусусиятларини ҳисобга олмай катта талаблар қўйиш ҳолатлари кўплаб учрайди. Бундай ота-оналарнинг болалари аъло баҳога ўқиши уларнинг муваффақиятли келажаги гарови ва ўзларининг хавотирларини пасайтириш усулидир. Бундай ўқувчилар икки баробар босим остида бўладилар.

Айниқса, лицей-гимназияда таълим олувчилар шахслараро муносабатларга киришишга хос қийинчиликларга эгадирлар. Улар ўқишидан ташқарида дўст, ўртоқ орттиришга вақт топа олмайдилар, баъзилари эса ишларининг натижалари бўйича маслаҳат сўрашга, кўрсатма беришга оид соҳаларда мулоқот қилишни билмайдилар ва қўрқадилар. Гурухдагилар билан доимий рақобатда бўлганликлари учун ҳам улар билан дўстлаша олмайдилар. Тадқиқот натижаларига кўра бундай ўқувчиларнинг хавотирланиш ва тушкунлик даражаси юқори бўлади.

Ота-оналарнинг муккамал установкалари биринчи навбатда, салбий мазмунга эга ахборотни ажратишга мойиллиги ва болалардаги хавотирланиш ўртасида боғлиқликда намоён бўлади. Ота-оналарнинг талаблари ва кутишларининг таҳлили шуни кўрсатадики, улар фарзандидан кўп нарсаларни кутадилар ва катта талаблар қўядилар, уларнинг фикр мулоҳазалари **муккамал** характеристерга эга бўлади.

Масалан, ҳар бир ота-она фарзандлари “аълочи” бўлишини, доим «биринчи» бўлишини хоҳлайдилар ва кутадилар. Жумладан, мураккаблаштирилган таълим дастурлари ҳам ўқувчилар олдига катта талаблар қўяди. Мактабнинг ва ота-оналарнинг талаблари болалар томонидан интериоризацияланади. Бу эса боланинг ўз-ўзига бўлган талабининг ошишига олиб келади. Бола ўзини хато қилиш хуқуқидан маҳрум қиласи, у ҳар қандай ўқитувчи топширигини бажара олмасликдан хавотирлана бошлади. Хавотир эса ўзлаштириш кўрсаткичининг тушиб кетишига сабаб бўлади. Бу эса ўз ўрнида унинг ўзига-ўзи берадиган баҳосининг пасайишига олиб келади.

Бундай ўқувчилардаги эмоционал бузилишларни бартараф этиш, профилактика қилиш, нафакат уларнинг ўзига, балки уларнинг ота-оналари, ўқитувчилари зиммасига ҳам катта мажбурият юклайди. Бунда ота-оналарнинг дикқатини боланинг ёшига хос хусусиятларига ва имкониятларига қаратиш лозим бўлади. Оилалар билан ишлашда муҳими оилавий қоидаларни, меъёр ва қадриятларни, ота-она талабчанлигини қайта ишлаб чиқиш, уларнинг болага бўлган талабларни мақсадга мувофиқ меъёрга келтириш, муносабатларни танқидсиз яхшилашга йўналтириш керак.

Хавотирни хавотирланишдан фарқлаш зарур. Агар хавотир бу боланинг безовталанишининг эпизодик кўриниши бўлса, хавотирланиш мустаҳкам ҳолат ҳисобланади. Масалан, болада байрамда чиқиш қилишдан олдин ёки синф таҳтаси олдида жавоб беришда безовталаниш ҳоллари кузатилади. Бироқ бу безовталик ҳар доим ҳам намоён бўлмайди, баъзизда айни шундай вазиятда у сокин бўлиши ҳам мумкин. Бу хавотирнинг ўзига хос кўринишидир. Агар хавотир ҳолати тез ва турли вазиятларда (синф таҳтаси олдида жавоб беришда, нотаниш одамлар билан мулоқотда ва ҳоказоларда) такрорланса, у ҳолда хавотирланиш ҳақида гапириш мумкин.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

Хавотирланиш қандайдир муайян вазият билан боғлиқ бўлмайди ва деярли доим намоён бўлади. Бу ҳолат одамга фаолиятнинг ҳар қандай кўринишида хамроҳ бўлади. Қачонки одам аниқ бир нимадандир кўрқса, биз кўрқувнинг кўриниши ҳақида гапирамиз. Масалан, қоронгиликдан, баландликдан, нотаниш жойдаги кўрқув ва бошқалар.

К.Изард “кўрқув” ва “хавотир” атамаларининг фарқини шу тарзда тушунтиради, хавотир бу баъзи хисларнинг уйғунлашуви, кўрқув эса факт шу хислардан биридир. Кўрқув одамда исталган ёшда ривожланиши мумкин, бир ёшдан уч ёшгacha бўлган болаларда тунги кўрқувлар, ҳаётнинг иккинчи йилида А.И.Захаров фикрига кўра, бир мунча кўпроқ кутилмаган товушлар, ёлғизлик, оғриқ ( шу билан боғлиқ тиббий ходимлардан кўрқищ) дан кўрқув намоён бўлади. 3-5 ёшдаги болалар учун ёлғизликдан, қоронғулик ва бўш жойдан кўрқув характерлидир. 5-7 ёшдаги болаларда ўлимдан кўрқув етакчи бўлади. 7 ёшдан 11 ёшгacha бўлган болалар уларни қўллайдиган ва тушунадиган одам бўлмасликлари мумкинлигидан кўрқадилар (А.И.Захаров). Ҳар бир болага муайян кўрқувлар хос, бироқ агар улар жуда кўп бўлса, унда боланинг феъл-атворидаги хавотирлик кўринишлари ҳақида гапириш мумкин.

Ҳозирги вақтгача хавотирланишнинг пайдо бўлиш сабаблари юзасидан муайян нуқтаи-назар ишлаб чиқилмаган. Аммо кўпчилик олимлар мактабгача ва кичик мактаб ёшидаги болаларда хавотирланишнинг асосий сабабларидан бири болалар ва ота-оналарнинг муносабатидаги бузилишда деб ҳисоблайдилар.

“Мактаб ўқувчисининг ҳиссий турғунлиги” китобининг муаллифлари Б.И.Кочубей ва Е.В. Новикова хавотирланиш болада ички низоларнинг мавжудлиги оқибатида ривожланади деб ҳисоблайдилар ва қуидаги ҳолатларда ифодаланади деб кўрсатади:

1.Ота-оналар ёхуд ота-она ва мактаб (мактабгача тарбия муассасаси) томонидан тақдим этиладиган қарама-қарши талаблар, масалан, ота-она болани ўзини ёмон ҳис қилаётгани учун мактабга юбормайди, ўқитувчи эса журналга “икки” баҳо қўяди ва бошқа болалар иштирокида дарс қолдиргани учун тергайди.

2.Нотинч (кўпинча юқори) талаблар. Масалан, ота-оналар болага аълочи бўлиши кераклиги ҳақида қайта-қайта такрорлайдилар, ўғил ёки қизлари нафакат “беш” баҳо олишлари, балки синфдаги энг яхши ўқувчи эмаслигига кўнига олмайдилар.

3.Болани камситувчи ва уни тобе ҳолатга қўювчи салбий талаблар. Масалан, тарбиячи ёки ўқитувчи болага: “Агар сен мен йўқлигимда ким ўзини ёмон тутганлигини айтиб берсанг, сенинг бошқа болалар билан уришганингни онангга айтмайман”, дейдилар.

Мутахассисларнинг фикрича, мактабгача ва кичик мактаб ёшида ўғил болалар, 12 ёшдан кейин эса қиз болалар анча хавотирлидирлар. Бунда қиз болалар ўзаро бошқа одамлар билан муносабат юзасидан ҳаяжонланадилар, ўғил болаларни эса кўпроқ даражада зўравонлик ва жазо хавотирга солади. Ножўя ҳатти-ҳаракат содир этган қизларни ойиси ёки педагог у ҳақида ёмон фикрга боришлари, дугоналари у билан ўйнашдан воз кечишлари ташвишга солади. Бундай вазиятда ўғил болалар кўпроқ катталар уларни жазолашлари ёки тенгдошлари уришларидан кўрқадилар.

Китоб муаллифлари таъкидлаганлариdek, ўқув йили бошланганига олти ҳафта бўлгач ўқувчиларда хавотирланиш даражаси кўтарилади ва улар 7-10 кунлик таътилга эҳтиёж сезадилар.

Боланинг хавотирланиши унинг атрофидаги катталар хавотирлилигининг даражасига боғлиқ. Педагог ёки ота-онанинг юқори хавотирлилиги болага ўтади. Ҳайриҳоҳ муносабатда бўлган оиласалардаги болалар тез-тез жанжал бўладиган оила болаларидан кўра камроқ хавотирланадилар. Шуниси қизиқки, ота-оналар ажрашгач, оиласлаги жанжаллар тугаганида ҳам боланинг хавотирланиш даражаси пасаймайди, аксинча бирдан ошиб кетади.

Психолог Е.Ю.Брель шундай конуниятни аниқлади: агар ота-оналар ўз ишлари, яшаш шароитлари, моддий аҳволларидан қониқмасалар болаларнинг хавотирланиши янада ортар экан. Эҳтимол, шунинг учун ҳам бугун хавотирланиш даражаси юқори бўлган болалар сони узлуксиз ошаётгандир. Оилада ота-она тарбиясининг ҳукмрон усули ҳам боланинг ички ҳотиржамлигига ёрдам бермайди.

Шундай фикр мавжудки, ўқув фаолияти билан боғлиқ хавотирланиш мактабгача таълим ёшида ёки шаклланиши бошлайди. Бунга тарбиячининг фаолият услуги ва юқори даражадаги талабчанлик ҳам кўмаклашиши мумкин. Бундан ташқари ота-оналар кўп сонли ўқитувчиларни ёллайдилар, болани соатлаб турли топшириқларни бажаришга мажбур қиладилар. Боланинг чиниқмаган ва бундай жадал таълимга тайёр бўлмаган организми бардош беролмайди, гўдак касал бўлади, ўқишига иштиёқи йўқолади, яқинлашиб келаётган ўқув мавсуми юзасидан хавотири жадал

## **“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4**

ортади. Хавотирлилик невроз ёки бошқа психик бузилишлар билан алоқадор бўлиши мумкин. Бундай ҳолларда тиббий мутахассис ёрдами зарур бўлади.

### **Адабиётлар**

1. Богдалова Г.А. Эмоциональная устойчивость и ее формирование у учащихся раннего подросткового возраста: Автореф канд.психол.наук. – Ташкент: – НУУз. 2000. 18с.
2. Васильев И.А.,Магомед-Эминов М.Ш. Мотивация и контроль за действием. –М.: Изд-во МГУ, 1998. –143 с.
3. Немов Р.С. Психология. Учебник для ВУЗов. В 3-х кн. – М.: ВЛАДОС, 2001. Кн. 2. – 608 с.
4. Практическая психодиагностика личности: Учебное пособие. - СПб., 2001. - 224 с.

**RAHIMOVA Aziza Davronbekovna**

Urganch davlat universiteti “ Pedagogika  
va psixologiya” kafedrasи o’qituvchisi

**YOSHLARNING MA’NAVIY-AXLOQIY DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHDA  
MAXTUMQULINING FALSAFIY VA PEDAGOGIK ASARLARINING O’RNI**

*Ushbu maqolada, Maxtumquli o’z davri dahosini o’zida mujassam etgan she’rlarida insoniylikka katta e’tibor berganligi, olam haqidagi mulohazalari uning ijodiga butun teranligi va hikmati bilan singib ketganligi, u o’z taqdiriga fidoyilik cho’qqilarini zabit etib, o’z davrining usta shoiri sisatida xalq mehrini qozongonligi xaqidagi fikrlar aks etgan.*

**Kalit so`zlar:** axloqiy-falsafiy, dunyoqarash, adabiy,nasl –nasab, umuminsoniy, tinchlik pedagogik, baland bo`yli, lablari yupqa, peshonasi yoyilgan, dard,qudrat.

**РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ФИЛОСОФСКИХ И ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТРУДОВ  
МАХТУМКУЛИ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННОГО  
МИРОВОЗЗРЕНИЯ МОЛОДЁЖИ**

В этой статье отражены мысли о том, что Махтумкули уделял большое внимание человечности в своих стихах, воплощая гений своего времени, что его размышления о Вселенной проникли в его творчество всей глубиной и мудростью, что он достиг вершин самопожертвования и завоевал любовь народа как мастер-поэт своего времени.

**Ключевые слова:** этико-философский, мировоззренческий, литературный, генеалогический, общечеловеческий, миролюбивый, педагогический, высокий, тонкие губы, широкий лоб, боль, сила.

**THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF MAKHTUMGULY'S PHILOSOPHICAL AND  
PEDAGOGICAL WORKS IN IMPROVING YOUTH'S SPIRITUAL AND MORAL WORLD VIEW**

*This article reflects the thoughts that Makhtumkuli paid great attention to humanity in his poems, embodying the genius of his time, that his reflections on the Universe penetrated into his work with all depth and wisdom, that he reached the heights of self-sacrifice and won the love of the people as a master poet of his time*

**Keywords:** ethical-philosophical, worldview, literary, genealogical, universal, peaceful, pedagogical, tall, thin lips, wide forehead, pain, power.

Dunyo miqyosida Maxtumquli she’rlari, murakkab falsafiy va pedagogik asarlari nafaqat badiiy tafakkur rivojida balki yoshlarning ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini yuksaltirishda muayyan mulohazalar ilgari surilmoqda. Maxtumquli baland bo`yli, ozg’in, peshonasi yoyilgan qoramtil, lablari yupqa, yonog’i (daraxt), ot yuzli, umurtqa burunli, ingichka soqolli odam edi. Shovqinli, fojiali, shaxsiy va oilaviy hayot qayg’u genini ham muhrlab qo’yan. Uning aka-ukalaridan ayrılıq she’rida ayanchli fojia, farzandlarining o’limi tufayli jigaridan uzilgan she’rlarining fojiali lirikasi xarakterlidir. Mumkin bo’lgan taqdirda, vaziyatingizni hal qilish uchun to’g’ri odamni topish yo’llarini doimo izlashingiz kerak. Shubhasiz, bir-biringiz bilan rozi bo’ling, unga ota-onalarning bolaga so’zsiz itoatkorligi, nasl-nasabining nozikligi uning cheksiz itoatkorligi doirasida namoyon bo’ladi. Hayotingizni odatga aylantirishingiz mumkin, lekin Maxtumqulini o’qishni odatga aylantirib bo’lmaydi. Unga qo’l tekkizsangiz, yuragingiz, ruhingiz, hatto suyaklaringiz ham odatdagidan uning tili bilan aytganda, to’satdan ochilishgacha harakatlana boshlaydi. Goh ko’zda yosh, goh g’am, goh g’urur, goh ehtiros, satrlardagi o’lmas hayot, bitmas-tuganmas kuch qalbingni to’ldiradi. “Maxtumqulining siyosida ham, asarlarida ham o’ziga jalb etuvchi ohanrabo bor, joziba bor. U hech qachon quyonga faqat “qoch” deb, toziga esa, “quv” deb xitob etmadı. U hamisha o’quvchi bilan bir otashda yonadi, birlikda o’rtanadi. Maxtumquli hech qachon “menng jonim jonu, seniki baqlajon” deguvchilardan bo’lmadi. Ko’zlarning tusi turlicha bo’lgani bilan ko’zyoshlarning rangi bir xil (Rumi) ekanini anglab yashadi. Shu sababli Maxtumquli o’z davrida zulmatga burkangan osmondagи yo’lchi yulduz misol balqib chiqdi” .

Maxtumqulini ichdan o’qish, yolg’ondan o’qish mumkin emas. Satrlar, kompozitsiyalar, damlar tantanali ohangda yoki sekin ohangda yoki zukko ohangda o’qilganiga e’tibor bermay bo’lmaydi. Uning

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

she’rlari buyuk she’riyat, dil tili ma’nosida haqiqiy qo’shiqlardir. Maxtumqulida tovush hosil qiladimi yoki<sup>1</sup> yo’qmi anglab bo’lmaydi. Ularning ikkalasi birga yashaydi, bir vaqtning o’zida bir narsa. Uni o’qiganingizda turkman tilidan zavq olasiz. Ona tilingiz qanday yuksaklikka ham, go’zallikka ham, teranlik va cheksizlikka ham yetib borishini ko’rib, hozirgi tuyg’ularga to’lib-toshgan bo’lasiz. Bu yerda turkman xalqining Olloh ahli orasidagi muhabbatni, qadri va muhabbatini his qilish mumkin. “Bugungi kunda dunyo madaniyatini turkman adabiyotining mumtoz namoyandasini Maxtumqulining boqiy she’riyatisiz tasavvur etib bo’lmaydi. Shoiring o’z xalqi qalbini, uning orzu-tilishlari va dardu alamlarini teran badiiyat bilan kuylagan asarlarini ma’rifiy dunyo axdi yaxshi biladi”. Bu Maxtumquli uchun hayot, ijod va san’at manbai. U o’lim va hayotni lazzatli qilish uchun yaratdi. O’lim hayot bilan birga hayotning birlashgan haqiqatini tashkil qiladi. O’lim hayotning oxiri emas. Maxtumquli sharhida hayot yangi, boshqacha kelajakni ochadi, degan ijobiy hikmatga mos keladi. O’lim hayotni aks ettiruvchi oynadir. Maxtumquli hayotni “hayotning o’lim ko’zgusida aks etishi yoki tirikligida o’lim qandayligini ko’ra olish qobiliyati” deb ataydi. Bu ma’lumotni uning “Bu dard” she’ri orqali olib berishimiz mumkin. Hayot o’lim orqali amalga oshadi, chunki o’lim hayotning tayanchidir. Shuning uchun, o’lim deb shikoyat qilish - osib qo’yish. Hayotning ikkiligi - yuz va orqa tomondan iborat, faqat noaniqlik ochilganda namoyon bo’ladi. Maxtumquli boshiga tushgan so’fiylik uning dunyoqarashining asosiy xususiyati, ya’ni paradoksallikdir. So’fiy paradoksalizmi Maxtumqulining ishq yo’lini tasvirlovchi she’rlarning erish qozonidir. Ishq orqali hayot tuyg’usi o’ziga xos she’riy til yaratadi. Bu til paradoksal. Shunday ekan, uni to’g’ri anglashning sharti o’z dunyoqarashini, o’z qalbingni o’sha makonga olib kirishdir. Bu shartga amal qilmasang, shoiring nurini anglab bo’lmaydi. Buni qilmasdan tushunishga urinish birinchi navbatda muvaffaqiyatsizlikka uchraydi.

Tinchlikni did va baholash vositasi sifatida shakllantirish uchun hozirda tarixiy-madaniy sharoitlar vujudga keldi. Suhul falsafiy va adabiy tasavvufning yuksak ma’naviy-madaniy hodisa sifatidagi o’ziga xosligini anglash imkonini beradi. “Navoiy o’zining ko’p yillik kuzatishlari va ular asosida tug’ilgan mushohadalarini hayotiy misollar vositasida keng va batafsil tushuntirsa, “Zar bo’lmas” she’rida Maxtumquli ayni fikrni xalq maqollari va obrazli iboralari orqali dalillaydi:

Tagi past g’amini yeish behuda,  
Mis har qancha yaltirasa, zar bo’lmas.  
Har qancha ranj chekma, tortar asliga,  
Har qarg’ a-quzg’ undan kabutar bo’lmas.

Maxtumqulining quyidagi misralari esa buyuk salafi va o’zining ushbu fikrlaridan kelib chiqqan xulosa yanglig’ jaranglaydi:

Kimningki badbaxtlik tabiatida,  
Butun olam ojiz tarbiyatida.

Ishqu muhabbat haqidagi otashin she’rlari bilan turkman ishqiy she’riyatini o’zining yuksak cho’qisiga ko’targani jihatidan ishq mulkining shohi deb ulug’langan Mullanafas ham Navoiyning qudsiy nafasidan ilhomlangan shoirlar sirasiga kiradi. Uning o’z zamonasining asosiy ilmlarini egallagan, hayotda ko’p narsani ko’rib, oq qorani tanigan donishmand inson bo’lganligi uning pand-nasihat mavzuidagi she’rlarida yorqin ko’zga tashlanadi” .

Maxtumqulining ishqiy she’rlar to’plamida ham aynan mana shunday holatga guvoh bo’lamiz. Ishq – komillikdan komillikka o’tish bo’lib, shoiring o’zi<sup>2</sup> buni “mard bo’lish” deb ta’riflagan, “katta bo’lish” deb ta’riflagan. Ilm-fan, san’at, bunyodkorlik – barcha hayotiy ish, et va qon, suyak, yurak, nomus, tushunchalar va hokazo. “Mardlar kirgan maydonga kirolmaydi. Butun bir qabila yoki urug’ning izzat-nafsi yerga urishdan qaytmaydi. Agar shunday nomard saltanat taxtiga o’tirib qolsa, u taqdirda ho’lu quruq baravar yonadi. Maxtumquli «Fattoh» deb atalgan hajviy asarida shunday shaxslarning umumlashma obrazini yaratgan deb aytish mumkin:

Sen turkmanning elin gulin so’ldirding,  
Qonlar to’kib go’zal yurtim to’ldirding,  
Shahid bo’lganlarning boshin qoldirding,

Unutarsan taxi ravonni sen Fattoh” . Maxtumquli hech qaerda o’zining ma’naviy ustozini nomini to’g’ridan-to’g’ri aytmaydi, garchi qadimiy odatlarga ko’ra, ustozsiz darveshlik yo’liga kirish gunoh sanalgan. Maxtumquli she’rlaridan naqshbandik tariqati asoschisi Bahouddin Naqshband nomini tilga olib, u

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш. Миллий тараккиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.: Ўзбекистон, 1-жилд, 2017. 368-бет. Ораз Яғмур. Махтумқулинома. - Т.: — 0’zbekiston|| НМИУ, 2016. – Б.3.

<sup>2</sup> Махтумқули. Дунё ўтиб борадур. Шеърлар. — Тошкент: Шарқ, 2007. — 240 б. <https://ziyouz.uz/ilm-fan/tarix/manaviyat-yulduzlar/mahtumquli-1733-1783/>

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

---

fakr (ixtiyoriy faqirlik) talabiga qat’iy rioya qilish ta’limotini asos qilib olgan. Bahouddin Naqshband ma’naviy yo’lboshchisi sifatida Maxtumquliga ibrat bo’ldi, chunki aynan u insonning eng muhim vazifasi boshqalarga yordam ko’rsatish, beminnat xizmat qilish ekanligini ta’kidlagan. Shuningdek, inson doimo butun dunyo bilan yolg’iz qolgandek yashashi kerakligini alohida ta’kidlab o’tgan. Bu ko’rsatmalarning barchasini Maxtumquli o’rganib, shoirning ongi va qalbiga singib ketgan. U o’zgaruvchan dunyonи ham fikrlash, ham ruhiy o’z-o’zini yo’q qilish orqali tushunishga intildi. Gohida esa Maxtumqulining xotirjam tafakkuri idealga bo’lgan qoniqmagan tashnalikdan ichkaridan ovoz isyon qiladi. Shoir uyg’unlik va yaxlitlikda bo’lishni anglashning imkonsizligini ta’kidlaydi. postulatlar va sof insoniy mulohazalar va imkoniyatlar o’rtasida sezilarli kontrastli farq bor. Idealga chanqoqlik (“Yomg’ir, yomg’ir ber, podshohimga”) to’ymaydi va shu orqali ijodiy individuallikning universalligi tasdiqlanadi. Shoir o’zini demurgdek his qiladi. Ijodiy iroda qalbni ozod qiladi, hayotga to’kinlik, erkinlik tuyg’usini baxsh etadi. “Shoirning buyukligini ko’rsatuvchi qirralardan yana biri shundaki, u o’z o’quvchisini ana savollarga javob topishga, sirlarni yechishga muttasil undaydi. O’qiganingiz sari o’zingiz sezmagan holda Maxtumqulining shaydosiga, maftuniga aylanib boraverasiz”.

18-asrda Maxtumqulining asosiy ijtimoiy tafakkurini - “turkman qabilalarini birlashtirish”ni amalga oshirishda katta qarama-qarshilik yuzaga keldi. Bu asrda har bir turkman qabilasi o’z yo’lini izlagan, qabilalar o’rtasida kuchli nifoq bo’lgan. Milliy turkman davlatining yo’qligi, bu qabilalarning turli joylarda himoya izlashi kelishmovchilikni yanada kuchaytirdi, ularni bir-biridan yanada uzoqlashtirdi. Turkmanlar o’rtasida tartibsizlikni keltirib chiqarmoqchi bo’lgan ataylab harakat qiluvchi kuchlar juda oz edi. Va o’shanda mutafakkir Maxtumquli xalqning eng katta dushmani tarqoqlik, umumiyl tushuncha, barcha qabilalarni birlashtirish, bir maqsad va yagona davlatga xizmat qilish zarurligini qayta-qayta takrorlagan. Yagona turkman millati, kuchli va buzilmas turkman davlatini shakllantirish uchun kurashish zarurligini yodga solishga harakat qildi. Maxtumqulining bu g’oyasi hamma uchun aniq va ko’ngilga yaqin bo’lgan. XVIII-XIX asrlarda bu she’r turkman xalqi uchun davlat madhiyasi bo’lib xizmat qilgan. Lekin bo’lingan xalqni bir dastaxon ortida birlashtirish uchun bu yorqin orzuni qanday amalga oshirish kerak? Buning uchun mutafakkir shoir g’oyani ilgari surdi – hamma “vijdoniga qarab”, bir yetakchi atrofida birlashsin. Shoir qanchalik og’ir va umidsiz vaziyatlarda bo’lmasin, xalqining baxtli kelajagiga ishonchini yo’qotmagan.

**Xulosa** qilib aytganda, Maxtumqulining turkman xalqi oldidagi eng katta xizmati uning birdamlik uchun kurashi va nifoqni qoralashidir. Uzoq vaqt davomida turkman xalqining ko’plab avlodlari uning birdamlik sabog’ida tarbiyalangan va tarbiyalanmoqda. Qudratli davlatni orzu qilgan Maxtumquli yorqin g’oyalari to’g’riligini hayot isbotladi. Mutafakkir shoir xalqiga orzu qilgan baxtli kelajak bugun haqiqatga aylandi. Hozirda mustaqil Turkmaniston dunyo xaritasida tinchlik va totuvlik mamlakati sifatida tanilgan. Birlikni buyuk mo’jiza deb bilgan turkman xalqi Maxtumqulidan hamisha minnatdor bo’ladi. Buyuk shoirning yorqin g’oyalari, hikmatli ko’rsatmalari, saboqlari Vatanimiz qudrati va ravnaqi yanada mustahkamlanishida hamisha muhim ahamiyat kasb etadi. Yangi tarixiy davrda - Turkman davlatining qudrati va saodati davrida Maxtumquli nufuzi tobora ortib bormoqda, uning umuminsoniy qadriyatga aylanib, ma’naviy poydevori bo’lgan uzoqni ko’ra oluvchi fikr va axloqiy-falsafiy qarashlariga talab tobora ortib bormoqda.

### Adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo’limizni qat’iyat bilan davom ettirib ,yangi bosqichga ko`taramiz-T.: O`zbekiston,1-jild,2017.338-bet.
2. O’raz Yag`mur. Maxtumqulinoma .- T.: - O`ZBEKISTON NMIU ,2016 –b 3.
3. Maxtumquli. Dunyo o`tib boradur .She`rlar. – Toshkent .Sharq , 2007.-240-bet.
- 4.<https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/manaviyat-yulduzlari/mahtumquli-1733-1783/>.

**SHERMATOV Fayzullo Toshtillayevich**

O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi  
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va  
Aloqa harbiy instituti boshlig‘ining tarbiyaviy va  
mafkuraviy ishlar bo‘yicha o‘rinnbosari,  
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),  
podpolkovnik

**OLIY HARBIY TA’LIM TIZIMIDAGI BO’LAJAK OFISERLARNING O‘QUV  
MOTIVASIYASINING EMPIRIK TAXLILI: XULOSA VA TAVSIYALAR**

*Ushbu ilmiy maqolada, O‘zbekiston Respublikasi Mudofa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti kursantlarining o‘quv motivatsiyasini taxlil qilish diagnostikasi asosida ularning kommunikativ, qochish, nufuzga intilish, kasbiy, ijodiy o‘zini-o‘zi anglash, ta’lim va kognitiv hamda ijtimoiy motivlari psixologik taxlil etilib, harbiy ta’lim jarayonida bo‘lajak ofisерlarning o‘quv jarayonidagi motivatsion holatining taxlili asosida xulosa va tavsiyalar ilmiy bayon etilgan.*

**Kalit so‘zlar:** o‘quv motivatsiya, kommunikativ motiv, qochish motivi, nufuzga intilish motivi, kasbiy motiv, ijodiy anglash motivi, ta’lim va kognitiv motiv, ijtimoiy motiv, psixologik taxlil, harbiy ta’lim.

**ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ УЧЕБНОЙ МОТИВАЦИИ БУДУЩИХ ОФИЦЕРОВ В  
СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ВОЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ВЫВОДЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ**

*В данной научной статье на основе диагностики анализа учебной мотивации курсантов Министерство обороны Республики Узбекистан Военного института информационно-коммуникационных технологий и связи, их коммуникативности, уклончивости, стремления к престижу психологически проанализированы профессиональное, творческое самосознание, научно-познавательная и социальная мотивации, научно сформулированы выводы и рекомендации на основе анализа мотивационного состояния будущих офицеров в процессе военного образования.*

**Ключевые слова:** учебная мотивация, коммуникативный мотив, мотив бегства, мотив престижа, профессиональный мотив, мотив творческой самореализации, учебно-познавательный мотив, социальный мотив, психологический анализ, военное образование.

**EMPIRICAL ANALYSIS OF LEARNING MOTIVATION OF FUTURE OFFICERS IN THE  
SYSTEM OF HIGHER MILITARY EDUCATION: CONCLUSIONS AND RECOMMENDATIONS**

*In this scientific article, on the basis of the diagnosis of the analysis of educational motivation of the cadets of the Ministry of Defense of the Republic of Uzbekistan, Military Institute of Information and Communication Technologies and signals, their communicative, avoidance, striving for prestige, professional, creative self-awareness, Scientific and cognitive and social motivations were psychologically analyzed, conclusions and recommendations were scientifically stated based on the analysis of the motivational state of future officers in the process of military education.*

**Keywords:** educational motivation, communicative motive, escape motive, prestige motive, professional motive, creative self-realization motive, educational and cognitive motive, social motive, psychological analysis, military education.

Ma’lumki, insonga xos barcha faoliyat turlari motivlar orqali amalga oshib, faoliyatning qay darajada bajarilishi sabablari motivatsiya fenomenida aks etadi. Hozirga qadar psixologiya fanida motivatsiya masalasiga oid ko‘plab nazariy qarashlar, ilmiy yondoshuvlar, konsepsiylar mavjud bo‘lib, ularda motivatsiya tushunchasi turli mazmunda ta’riflangan. Ayrim tadqiqotlar inson motivatsion sohasini biologik ehtiyojlar bilan tushuntirsa, boshqasi esa, qiziqish, yo‘nalganlik, ishtiyoyq va munosabat kabi tushunchalar bilan tavsiflaydi.

Zamonaviy psixologiyada fanida motivatsiya fenomeni ko‘proq, faoliyat va uning o‘ziga xos psixologik mexanizmi sifatida tushuntiriladi. Tadqiqotchi V.G.Leontev fikricha, motiv – bu faoliyatni boshqaruvchi impulsdir[1]. Haqiqatdan ham, insonlar doimiy ravishda turli xil faoliyatda bo‘ladilar va turli

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

xil xatti-harakatlarni amalga oshiradilar. Bunda insondagi motivatsiya belgilari faoliyatining tashqi tomonida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham tadqiqotchilar faoliyatni amalga oshirish sabablari haqidagi savolga motiv va motivlarning tushunchalari bilan javob beradilar.

Mohiyatan, motivatsiyani tadqiq etish - bu insonni faoliyatga boshlaydigan va quvvatlantiradigan sabablар va omillarni aniqlash shuningdek, ma’lum bir xulq-atvorni bajarilishiga olib keladigan chorlovchi sabablarni o‘rganish ham sanaladi.


Motiv tushunchasidan birinchi bo‘lib, XX asr boshlarida nemis faylasufi A.Shopengauer o‘z asarida foydalangan. Muallifga ko‘ra, motiv bu – keng ma’noda inson ehtiyojlari, instinktlari, munosabatlari va hissiyotlarida aks etuvchi kategoriyaadir[2]. Hozirgi kunga kelib, ushbu tushuncha psixologiya fanida inson xatti-harakatlarining sabablarini tushuntiruvchi ichki reguliyatsion tizim sifatida xizmat qilmoqda.

V.G.Aseyevning ta’rificha, motiv – bu harakatlarning maqsadlarini aniqlash yoki rejadagi faoliyatni qaysi vositalar bilan bajarish kerakligi aniqlashdir[3]. Demak, motivlar faoliyat maqsadi va natijasini belgilovchi psixologik asosdir. Biroq, mazkur tushunchaning asoslanishi uzoq tarixga ega bo‘lishiga qaramay, haliga qadar fanda motivlarning mohiyatini ochib beruvchi yagona ta’rif mavjud emas. “Motiv” tushunchasi keng qamrovli yondoshuvlar bilan tavsiflanadi. Motiv va motivatsiyani o‘rganishdagi turli xil nazariy yondashuvlar, birinchidan, zamonaviy psixologik maktablarning turli falsafiy, psixologik yo‘nalishlari, ikkinchidan, ushbu kategoriyaning mazmun jihatdan murakkabligi tufayli yuzaga kelgan. Ana shu holatlardan kelib chiqib, biz insonning motivatsion sohasini o‘rganishdagi asosiy yo‘nalishlarni ajratib olishimiz muhim hisoblanadi.

Tadqiqotchi Ye.P.Ilinning ta’kidicha, hozirga qadar yaratilgan motivatsiya borasidagi nazariyalar, mumtoz qarashlarning barchasi zamonaviy motivatsiya psixologiyasining boshlang‘ich tarixi yoki evolyutsiyasidir[4]. Ushbu nazariyalar fanda tadqiqotchilar o‘rtasida qarama-qarshi fikrlarni hosil qilishiga keng xizmat qildi.


Demak biz tadqiq etayotgan ishimizda aynan kursantlarning harbiy ta’lim jarayonida o‘quv motivatsiyasining taxlili hakida so‘z boradi. Mazkur tadqiqotimizda ta’lim motivatsiyasi diagnostikasi metodikasi (A.A.Rean va V.A.Yakunin, N.S Badmayeva modifikatsiyasi) dan foydalandik. Tadqiqot jarayoniga O‘zbekiston Respublikasi Mudofa vazirligi Axborot-komunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutining 39 nafar kursantlari jalg etildi.

Biz “**Sinaluvchilarni o‘quv motivatsiyasini taxlil qilish**” metodikasidan foydalananib tadqiqot o‘tkazdik. Tadqiqot 22 yoshdan 28 yoshgacha bo‘lgan o‘quvchi-kursantlarni qamrab oldi.



**Rasm-1.** Sinaluvchilarning yoshi haqida malumot

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4



**Rasm-2 Sinaluvchilarning yashash joyi haqida malumot**

**1-jadval**

### Ko'rsatkichlarni normal taqsimlanishga mosligini tekshirish (Kalmogorov-Smirnov)

Ko'rsatkichlar	Kalmagorov - Smirnov	P
Komunikativ motivlar	0.717	0.682
Qochish motivlari	0.810	0.528
Nufuzga intilish motivlari	0.787	0.565
Kasbiy motivlari	1.421	0.035
Ijodiy o'zini o'zi anglash	0.946	0.333
Ta'lim va kognitiv motivlari	0.578	0.891
Ijtimoiy motivlar	0.602	0.862

Ma'lumotlarni tahlil qilish vaqtida biz qaysi mezonda ishlashimizni aniqlab olishimiz zarur. Agar ma'lumotlar normal taqsimlanishga mos kelsa biz parametrik mezonlardan foydalanamiz, agar ma'lumotlar normal taqsimlanish qonuniga mos kelmasa noperametrik taqsimlanish mezonlaridan foydalaniadi. Kommunikativ motivlar ( $D_z=0.717; p>0.05$ ), qochish motivlari ( $D_z=0.810; p>0.05$ ), nufuzga intilish motivlari ( $D_z=0.787; p>0.05$ ), kasbiy motivlari ( $D_z=1.421; p>0.05$ ), ijodiy o'zini o'zi anglash ( $D_z=0.946; p>0.05$ ), ta'lim va kognitiv motivlari ( $D_z=0.578; p>0.05$ ), ijtimoiy motivlar ( $D_z=0.602; p>0.05$ ) shkalalari bo'yicha normal taqsimlanishga moslik kuzatildi. Demak, bu shkalalar bo'yichba biz parametrik mezonlaridan foydalanamiz.


#### **Kommunikativ motivlar:15.5641**

Metodika meyoriy ko'rsatkichlari ushbu shkala bo'yicha kursantlar **Yuqori darajada** motivga ega deb baxoladi. Bundan hulosha shuki, kursantlarda kishilarni o'ziga ishontra olish, muloqotga tez kirisha olish, ochiqlik yuqori darajada shakillangan.

#### **Muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivlar:15.7436**

Metodika meyoriy ko'rsatkichlari ushbu shkala bo'yicha kursantlar **O'rtacha darajada** motivga ega deb baxolandi. Albatta bu tabiy hol chunki kursantal muntazam ravishda buyruqni sitqidildan amalga oshirganlik tufayli o'z diqqatini o'quv va mashg'ulot mobaynida ustozlar va yuqori lovozimdag shaxslarga qaratilganligi ushbu shkala bo'yicha yuqori darajada baxolanmaganligiga sabab deb keltirish mumkun.

**(Student-t mezoni) bo‘yicha kursantlarning ko‘rsatgichlarining  
o‘rtacha qiymatlari taxlili**



**Nufuzga intilish motivlari: 16,1282**

Metodika meyoriy ko‘rsatkichlari ushbu shkala bo‘yicha kursantlar **Yuqori darajada** motivga ega deb baxolandi. Kursantlarga komandirlar va professor o‘qituvchilar tomonidan berilyotgan bilim va malakalarni yuqori darajada o‘zlashtiryoqganligin guvohi bolishimiz mumkin chunki, kursantlar aniq bir nufuzga erish uchun allaqachon yo‘naltirilgan.

**Kasbiy motivlari: 25,8205**

Metodika meyoriy ko‘rsatkichlari ushbu shkala bo‘yicha kursantlar **Juda yuqori darajada** motivga ega deb baxolandi Kursantlar o‘zlarini tanlagan kasbga yaroqli deb topilgan va ular ushbu kasbda borini berib sitqidildan ishlay oladi.

**Ijodiy o'zini o'zi anglash motivlari: 7,5385**

Metodika meyoriy ko‘rsatkichlari ushbu shkala bo‘yicha kursantlar **yuqori darajada** motivga ega deb baxolandi. Kursantlar buyruq bajaruvchi sifatida ushbu shkala bo‘yicha yuqori darajada baxolanish ular uchun juda yuqori baxolanish darajasiga teng. Chunki o‘quv mashg’ulotlar mobaynida ijodiy o‘z-o‘zini anglash birmuncha qiyinchilik tug‘diradi. Ammo kursantlar bo‘sh vaqtidan unumli foydalana oladi deb aytishimiz mumkin.

**Ta’im va kognitiv motivlari: 27,3590**

Metodika meyoriy ko‘rsatkichlari ushbu shkala bo‘yicha kursantlar **yuqori darajada** motivga ega deb baxolandi. Kursantlarda ta’lim terminlarini va umuman olganda bilish jarayonlari yuqori darajada baxolandi. Bu shuni anglatadiki kursantlar izlanuvchanli, hususiyati yaxshi rivojlangan.

**Itimoiy motivlar:20,5641**

Metodika meyoriy ko‘rsatkichlari ushbu shkala bo‘yicha kursantlar **yuqori darajada** motivga ega deb baxolandi. Shaxs odamlar orasida o‘z harakterini ko‘rsata olishi bu uning uchun eng katta yutug‘i kursantlarda ham ushbu ko‘rsatkich yuqori daraja baxolandi. Kursantlar kelgusida o‘z bilimlarini ommaga yetkazib berish uchun yetarli darajada mativlar shakillangan.

**Xulosa o‘rnida** shuni aytish mumkinki, o‘tkazilgan metodikada 2 ta mezon bo‘yicha kursantlarning o‘quv motivatsiyasi taxlil qilindi. Sinaluvchilarni normal taqsimlanish bo‘yicha mosligi tekshirildi (Kalmogorov-Simirov) ko‘rsatkichlar normal taqsimlanishga mos kelganligi uchun parametrik mezondan foydalanildi. Kursantlarni ko‘rsatgichlarining o‘rtacha qiymatlarini (Student-t mezoni) bo‘yicha taxlil qilindi. Mezon bo‘yicha kursantlarni ko‘rsatkichlari ishonchli malumot taqdim etdi. (Student-t mezoni) metodikaning 7 ta shkalasi bo‘yich respondentlarni ko‘rsatgichlarini **O‘rta daraja va Yuqori daraja** deb baholandi. Bundan xulosa qilishimiz mumkunki kursantlar yuqori darajada bilim salohiyatga va aqliy rivojlanishni ega ekanligini ko‘rshimiz mumkin.

### Adabiyotlar

- [1] Леонтьев В.Г. Психологические механизмы мотивации / В.Г. Леонтьев.-Новосибирск: НГПИ, 1992. – С.58.
- [2] Шопенгауэр А. Мир как воля и представление. Т. 1. // Шопенгауэр А. О четверояком корне. М.: Наука, 1993. –С.65.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

---

- [3] Асеев В.Г. Проблема мотивации и личности / В.Г. Асеев //Теоретические проблемы психологии личности. – М.: Просвещение, 1994. – С.70.
- [4] Shermatov F.T., Beknazarov A.A., “Ekstremal vaziyatlarda insonda stress holatlarining vujudga kelishi, ularni bartaraf etish yo‘llari va usullari” //Monografia. Hamburg (Gyermany). Lambyert Academic Publishing, 2021.–42-51 b.
- [5] Kolodich.E.N., Pavlova I.M. Possibilities of socio-psychological training in the process of increment of emotional stability of students of professional schools/World of psychology - 2008. - N4. P39.
- [6] Shermatov F.T. Socio-psychological problems concerning formation of stress resistance in future officers European Journal of Reflection in Educational Sciences. Volume 7 Number 12, 2019 Progressive Academic Publishing, UK. – Б. 163-167.

**ZARIPOV Nozimbek**

Buxoro davlat universiteti axborot texnologiyalari kafedrasi o‘qituvchisi,  
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori  
(PhD)

**INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI FANINI O‘QITISHDA  
DASTURLASH TILLARINING ROLI**

*Hozirgi zamонавиј axborot texnologiyalari keng taraqqiy etган bir davrda umumta’lim maktab o‘quvchilariga dasturlash tillarini o‘qitishda alohida uslub bilan yondashish, soddalashtirilgan usullarni ishlab chiqish, o‘quvchilarni yoshini inobatga oлган holda vazifalar tayinlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Umumiy o‘rtta ta’lim mакtablarida o‘quvchi yoshlarda mustaqil dastur tuzish ko‘nikmalarini shakllantirish, dasturlash tillariga qiziqtirish, ularni kelajakda o‘z o‘rinini topishiga va mamlakat rivoji uchun mukammal dasturlar yaratishiga turtki bo‘ladi.*

**Kalit so‘zlar:** ma’lumotlar bazasi, dastur, dasturlash muhiti, Delphi, maydon, IOS, komponent, ilova.

**РОЛЬ ЯЗЫКОВ ПРОГРАММИРОВАНИЯ В ОБУЧЕНИИ  
КОМПЬЮТЕРНО-ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ**

*В настоящее время, когда современные информационные технологии широко развиваются, одна из наиболее актуальных проблем заключается в том, чтобы предложить особый подход к обучению языкам программирования для учащихся средних школ и обратить внимание на разработку упрощённых методов распределения заданий с учётом возраста учащихся. Эта статья развивает навыки самостоятельного программирования у учащихся средних школ, поможет развивать интерес к программированию и помочь им найти своё место в будущем, а также создавать лучшие программы для развития страны.*

**Ключевые слова:** база данных, программное обеспечение, среда программирования, Delphi, поле, IOS, компонент, приложение.

**THE ROLE OF PROGRAMMING LANGUAGES IN TEACHING  
COMPUTER AND INFORMATION TECHNOLOGIES**

*Nowadays when modern information technologies are widely developed, one of the most actual problems is to issue a special approach for teaching programming languages to secondary school students and to pay attention to the development of simplified methods assigning tasks based on the age of students. This article develops self-programming skills among high school students, helps to develop an interest in programming and help them find their place in the future, as well as create better programs for the development of the country.*

**Key words:** database, software, programming environment, Delphi, field, IOS, component, application.

**Kirish.** Hozirgi kunda inson faoliyatining barcha sohalarini axborotlashtirish qamrab oлган bo‘lib, bu hodisa har bir kishidan yuqori axborot madaniyatini talab qiladi. Shu sababli maktabning fan o‘quv dasturlari o‘quvchilarining bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarini rivojlantirishni ta’minlaydigan fanlar bilan to‘ldirishlari zarur. Mamlakatimizda ayni vaqtida jamiyatning barcha sohalarini Jadallik bilan raqamli texnologiyalar bilan ishslash jarayoniga kirishmoqda. Raqamli texnologiyalardan foydalanish bajarilayotgan ishda inson omilini kamaytiradi, vaqtini va xarajatlarni tejaydi hamda ish samaradorligini oshiradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sон Farmoni, 2019-yil 26-noyabrdagi “Zamonaviy mакtablarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4537-sон, 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3931-sон Qarorlarining asosiy g‘oyasi umumiy o‘rtta ta’lim mакtablarini zamon talablari darajasida rivojlantirish, o‘quv-adabiyotlarini yangilash hamda raqamli texnologiyalardan foydalanishni nazarda tutadi [9].

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

**Asosiy qism.** 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ta’lim va fanni rivojlantirishga asoslangan uzlusiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatlari ta’lim xizmatlari salohiyatini oshirish, malakali kadrlar tayyorlash, oliy va umumiyligi o‘rtalim maktablari o‘quv adabiyotlari sifatini tubdan yaxshilash nazarda tutilgan. Bundan tashqari, ta’lim sifatini tubdan yaxshilashda fan, ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash bilan bir qatorda raqamli texnologiyalardan foydalanish muhimligi ta’kidlangan [9].

“Delphi dasturlash muhitida komponentalar bilan ishlash texnologiyalari” nomli o‘quv qo‘llanmada dasturlash tillari, raqamli texnologiyalar, dasturlash muhitini o‘rganish mezonlari haqida ma‘lumotlar mavjud. O‘quv qo‘llanmadan umumiyligi o‘rtalim maktablari o‘qituvchi va o‘quvchilari, kasb - hunar kollejlari va texnikumlar talabalari, oliy o‘quv yurtlari talabalari va magistrлari hamda foydalanishlari mumkin [7].

Ta’limning bugungi vazifasi o‘quvchilarni kun sayin ortib borayotgan axborot ta’lim muhiti sharoitida mustaqil faoliyat ko‘rsata olish, turli sohalarda zamonaviy axborot texnologiyalarini samarali qo‘llash va axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iborat. Shu maqsadda o‘quvchilarga uzlusiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish hamda ijodiy fikrlash va mustaqil qarorlar qabul qilishga o‘rgatish ta’lim sifatini oshishiga olib keladi. Bu masalaning yechimi tabiiyki, mazkur jarayonning asosiy tashkilotchisi - pedagoglarni tayyorlash sifatiga bog‘liq. Darsga kiruvchi har bir o‘qituvchidan quyidagi 3 ta sifat talab qilinadi:

- o‘qituvchi bilimi ya’ni o‘zi o‘qitadigan fanni chuqur bilishi;
- o‘qituvchining pedagogik mahorati ya’ni mavzuni o‘quvchilarga yetkaza berishi;
- o‘qituvchining psixologik holati ya’ni hayotiy, oilaviy muammolarni unutgan holda darsga kirishi.

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo‘lgan ta’lim tizimining qaydarajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi kunda uzlusiz ta’lim tizimini isloq qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko‘tarish, unga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish, ta’lim samaradorligini oshirish, yuqori darajada o‘zlashtirish natijalariga erishishni ta’minlovchi innovatsion texnologiyalardan foydalanishning samarali usullarini ishlab chiqish, xususan, zamon talab etayotgan axborot texnologiyalari bo‘yicha pedagogik innovatsiyalardan foydalanish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Ta’lim jarayoniga innovatsiyalarni qo‘llash bugungi kunda quyidagi vazifalarni amalga oshirishni talab etadi [5] :

- o‘quv fanining aniq maqsadini aniqlash;
- fanning hajmi va mazmunini aniqlash;
- zarur bo‘lgan ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va tavsiya etish;
- fanning moddiy va texnik ta’minotini yaratish;
- ta’lim oluvchilarining xususiyatlarini o‘rganish;
- o‘qituvchining tayyorgarligi va dars mashg‘ulotini loyihalash.

Yuqoridaqgi vazifalarni hal qilishning eng to‘g‘ri yo‘li dars mashg‘ulotini loyihalashda integrallashgan ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan darsning turli bosqichlarida samarali foydalanish imkoniyatlarini izlashdan iboratdir. Informatika fanini o‘qitishda shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning quyidagi metodlarini qo‘llash maqsadga muvofiqdir [5]:

- o‘yinli texnologiyalar;
- muammoli o‘qitish;
- dasturlashtirilgan o‘qitish;
- kompyuterlashtirilgan o‘qitish;
- modulli o‘qitish.

Ushbu metodlar o‘quvchilarning faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyati tashkil etish, hayotda o‘z o‘rnini barqaror qilish, o‘zini-o‘zi boshqarish, o‘z imkoniyatlarini amalga oshirish, irodani tarbiyalash, muayyan yondashuvlar, ma‘naviy, estetik va dunyoqarashni shakllantirishdagi hamkorlikni, jamoaga kirishib keta olishni, kommunikativlikni tarbiyalashga mo‘ljallangan. Informatika va axborot texnologiyalarini fanini o‘qitishda dasturlash tillaridan foydalanish o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, algoritmlar va dasturlarni tuzish, ularni kompyuter yordamida amalga oshirish, ishlab chiqilgan dasturlarni jamiyatning turli sohalarida qo‘llash va natijalarni tahlil qilishga o‘rgatadi. O‘quvchilarga dasturlash fanlarini o‘qitishda asosan ularni qobiliyatlarini inobatga olib, qaysi dasturlash tillariga qiziqishiga qarab yo‘naltirish yaxshi samara beradi. Bundan tashqari, o‘yin dasturlari, trenajor dasturlar, ko‘rgazmali, multimedia vositalaridan foydalanilsa o‘quvchi eslab qolishi va jarayonni ko‘z oldida tasavvur qilishi oson kechadi.

Hozirgi kunda bir nechta dasturlash tillari ishlab chiqilgan bo‘lib, bularga Paskal, Delphi, C++, C#, Python, Java va boshqalarni misol qilish mumkin. Bu dasturlash tillari biror yo‘nalishdagi masalalarni hal qilishga mo‘ljallangan bo‘lib, ularni obyektga yo‘naltirilgan dasturlash tillari deyish mumkin [6]. Dasturlash

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

tillari ichida keng tarqalgani bu Paskal dasturlash tili bo‘lib, dasturlash tilini o‘rgatish maqsadida ishlab chiqilgan. Paskal dasturlash tilidan keng foydalanishga asosiy sabab dasturning soddaligi va undan foydalanish qulayligidadir. Bundan tashqari Delphi dasturlash muhitini ishlab chiqilgan bo‘lib, bunda yoziladigan kodlash asosini Paskal dasturlash tili tashkil etadi. Delphi dasturlash muhitida ilova va komponentalardan foydalanib, tuziladigan dasturni ko‘rgazmali qilish imkoniyatlari mavjud. O‘quvchi Delphi dasturlash muhitidan foydalanganda ilova oynasini hosil qilish, unga tayyor boshqarish obyektlarini joylash va interfaol ilovalarni yaratish imkoniyatlarini o‘zlashtiradi. Bir so‘z bilan aytganda, o‘quvchi o‘zining ma‘naviy, ruhiy va intelektual salohiyatini rivojlantiradi, kamolotga intilish, kognitivlik ko‘nikmalarini mustaqil ravishda muntazam oshirib borish va o‘z xatti-harakatlarini baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Delphi muhitida quyidagi dasturlarni ko‘rib chiqamiz, bu dasturlar o‘quvchini dasturlashga qiziqtiradi, mantiqiy fikrlashga undaydi va shu bilan birgalikda matematika, fizika fanlarini yaxshi o‘zlashtirishiga sabab bo‘ladi [8].

Zamonaviy ta’lim metodlardan foydalanib dars mashg‘ulotlarni olib borishni faol o‘qitish shakllaridan biri deb qarash mumkin. Bunday darslar o‘qituvchi va o‘quvchilarning ijodiy yondashuvini, o‘quvchilarning faol bilish faoliyati jarayonida malakalarini o‘zlashtirishlarini, o‘zining kelajakdagagi pedagogik faoliyatida o‘yinli texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishni ko‘zda tutadi. O‘yinli texnologiyalaridan foydalanib mashg‘ulotni tashkil etish va o‘tkazish o‘rganilayotgan materialga doir atamalarni mukammal tushunishda va eslab qolishda muhim asos bo‘lib hisoblanadi. O‘yinli texnologiyalar natijasida talabalarning bilish faoliyati rivojlanadi, o‘quv materialini o‘rganishga qiziqishi uyg‘onadi, olgan bilimlarini mustahkamlaydi. Bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri aynan yosh avlodni mustaqil va erkin fikrlashga o‘rgatishdan iborat [5].

**Muhokmalar va natijalar.** Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonida o‘qitishning zamonaviy metodlari keng qo‘llanilmoqda. O‘qitishning zamonaviy metodlarini qo‘llash o‘qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta’lim metodlari hozirda eng ko‘p tarqalgan va barcha turdagи ta’lim muassasalarida keng qo‘llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta’lim metodlarining turlari ko‘p bo‘lib, ta’lim-tarbiya jarayonining deyarli hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun mos metodlar hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun mos metodlarni ajratib olib tegishlishcha qo‘llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta’lim metodlarini ma’lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to‘g‘ri tanlash muammosini keltirib chiqargan. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta’lim beruvchi tomonidan ta’lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta’lim jarayonida faolligi doimiy rag‘batlantirib turilishi, o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo‘naltiruvchi matn, loyiha, rolli o‘yinlar kabi metodlarni qo‘llash va ta’lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Interfaol metod biror faoliyat yoki muammoni o‘zaro muloqotda, o‘zaro bahs-munozarada fikrlash asosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o‘quvchini mustaqil fikrlashga o‘rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi. Hozirgi kunda eng ommaviy interfaol ta’lim metodlardan biri “Keys-stadi” (yoki “O‘quv keyslari”) hisoblanadi. Keyslardan foydalanish talabalarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, o‘quv jarayonini ishlab chiqarish bilan bog‘laydi [4].


1-Keys topshirig‘i. “Moodle tizimidan foydalanishda texnik ta’minotlar”

**Maqsad.** Har bir foydalanuvchi o‘zining shaxsiy kabinetiga kirish ma’lumot olishi yoki joylashtirishi mumkin.

**Vaziyat bayoni.** Foydalanuvchi uchun texnik ta’minotga kompyuter, internetga ulanish uchun modem yoki telefon tarmog‘idan foydalanib o‘z resurslarini moodle tizimiga joylashtiradi. Resurslarga quyidagilar kiradi: test, glossariy, ma’ruza, laboratoriya, amaliy mashg‘ulotlar, video, audio fayllar va boshqalar.

**Keys muammosi.** Moodle platformasi 150 MB dan ortiq fayllarni qabul qilmaydi? Internet xizmatlari qimmat? Foydalanuvchi qo‘yilgan talablarni qondiruvchi bajarishi uchun qanday yo‘l tutishi lozim? Fayllarni qanday qilib Moodle tizimiga joylashtiradi? Internetdan foydalanishni qanday yo‘llarini topadi?


2-Keys topshirig‘i. Berilgan dastur ta’minotlarni guruhlarga ajrating.



Software names:

1. Linux, Unix, Prezi, FsCapture; 4. Paradox, Far manager, Machintosh;
2. iSpring, CourseLab, Windows; 5. Mandriva, FoxPro, Chrome, Opera;
3. Doppix, Mandriva, Access; 6. Macromedia Flash, Nova, CorelDraw;

Teacher answer:



Interfaol ta’lim metodlari ko‘pincha turli shakllardagi o‘quv mashg‘ulotlari bilan bir vaqtida qo‘llanilmoqda. Bu texnologiyalar o‘quv mavzusi maqsadidan va mavzuning mazmunidan kelib chiqib, darsning turli bosqichlarida turlichaligi qo‘llanishi mumkin. Maktab o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olib, fanni o‘qitishda g‘oyat samarali bo‘lgan qator o‘yinli texnologiyalar ishlab chiqilgan. Odatda insonning asosiy faoliyat turi uch ko‘rinish: mehnat faoliyati, o‘yin faoliyati, o‘quv faoliyatida shakllanadi. Ularning barchasi o‘zaro bog‘liq holda sodir bo‘ladi. O‘quvchilarining maktabdagagi o‘quv materiallari asosidagi aqliy harakatlarini shakllanish qonuniyatlarini o‘yin faoliyatlarida tarkib topadi. Bu metodlarni qo‘llash mashg‘ulot ishtirokchilarining faoliyklarini oshirib, ta’lim samaradorligini yaxshilashga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Interfaol ta’lim metodlaridan dars jarayonida foydalanish o‘quvchilarni mustaqil izlanishlariga, o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirishga, zukkolik, hozirjavoblik qobiliyatlarini rivojlanishiga zamin tayyorlaydi. Interfaol ta’lim metodlari o‘quvchi ongida mavzuni to‘liq mustahkamlashiga, undagi bilim, ko‘nikma va malakalarni rivojlanishiga, dasturlash tillariga mukammal o‘rganishga, hayotda o‘z o‘rnini topishiga yordam beradi. Xulosa qilib aytganda, umumiy o‘rtta maktabda zamona viy dasturlash tillarini o‘qitilishi o‘quvchilarda dasturlash muhitida ishlash va mustaqil dastur tuzish, mamlakatimizning turli sohalari uchun ilovalar yaratish, zamona viy axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishga va ularning amaliy ishlarida yangi qirralarning ochilishiga zamin hozirlaydi.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

### Adabiyotlar

1. Ibragimov X., Abdullayeva Sh. Pedagogika nazariyasi// Darslik. -T.: “Fan va texnologiya”, 2008. - 288 bet.
2. Лапчик М.П. Теория и методика обучения информатике: учеб. для пед. вузов. – М.: Издательский центр “Академия”, 2008. -592 с.
3. Малеев В. В. Общая методика преподавания информатики: учеб. пособие. – Воронеж: ВГПУ, 2005. – 271 с.
4. Olimov Sh.Sh., Hasanova Z.D. Pedagogik texnologiyalarni o‘quv – tarbiya jarayoniga qo‘llash. – T.: “Fan va texnologiya”, 2014. - 184 bet.
5. Olimov Sh. Sh., Durdiyev D.Q. Pedagogik texnologiya. -Buxoro: “Sadriddin Salim Buxoriy” Durdona nashryoti, 2019. – 184 b.
6. Nazirov Sh.A., Qobulov R.V., Musayev M.M., Ne’matov A.N. Delphi tilida dasturlash asoslari. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. –280 b.
7. Zaripov N.N. Kompyuter grafikasi // O‘quv qo‘llanma. –Buxoro: “Durdona”, 2020. - 202 b.
8. Zaripov N.N. Delphi dasturlash muhitida komponentalar bilan ishlash texnologiyalari». O‘quv qo‘llanma. – Buxoro, Durdona nashriyoti, 2020. - 128 b.
9. www.lex.uz

**МАКТАБГАЧА ВА БОШЛАНГ‘ИЧ ТА’ЛИМ****OCHILOV Fariddun**

Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika institute boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasи o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA TABIIY-ILMIY BILIMLARNI  
KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA O‘RGATISH  
JTIMOIY-METODIK MUAMMO SIFATIDA**

*Maqolada tabiiy-ilmiy bilimlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘rgatish metodikasining dolzarbligi va zarurati, hozirgi kunda ta’lim jarayoniga qo‘yiladigan talablar, ilmiy tadqiqotchilar hamda butunjahon pedagog olimlarining qarashlari, fikrlari asosida atroflicha tahlil qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** tabiiy-ilmiy bilimlar, ijodiy faoliyat, o‘quv jarayoni, kompetensiyaviy yondashuv, tayanch kompetensiyalar.

**ОБУЧЕНИЕ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ЕСТЕСТВЕННОНАУЧНЫМ  
ЗНАНИЯМ НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА КАК СОЦИАЛЬНО-  
МЕТОДИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА**

*В статье анализируются важность и необходимость обучения методики преподаванию естествознания на основе компетентностного подхода общих требований к образовательному процессу, исходя из сегодняшнего дня, а также проанализированы взгляды научных исследователей и учёных педагогов разных стран мира на основании их мнения.*

**Ключевые слова:** естественные науки, творческая деятельность, учебный процесс, компетентностный подход, базовые компетенции.

**TEACHING NATURAL SCIENCE KNOWLEDGE TO PRIMARY SCHOOL STUDENTS ON  
THE BASIS OF A COMPETENCE-BASED APPROACH AS A SOCIAL AND  
METHODOLOGICAL PROBLEM**

*The article analyzes the importance and necessity of teaching the methodology of teaching natural science based on the competence-based approach of the general requirements for the educational process based on today, and also analyzes the views of scientific researchers and scientific educators from around the world based on their opinion.*

**Key words:** natural sciences, creative activity, educational process, competence-based approach, basic competencies.

**Kirish.** XXI asrda jahon miqyosida ta’lim barqaror taraqqiyotni ta’minlovchi asosiy omil sifatida e’tirof etilib, 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim konsepsiyasida “sifatli ta’lim olish va ijodiy qobiliyatni rag‘batlantirish” dolzarb vazifa sifatida belgilandi [3]. Bugungi kunda jahon miqyosida sifatli ta’lim berish jarayoni kechmoqda. Bu borada mamlakatimiz umumiy o‘rtta ta’lim o‘quv rejalarini va dasturlarini takomillashtirishda milliy pedagogik tajribadan tashqari TIMSS, PISA, PIRLS va STEAM xalqaro ta’lim dasturlarining mazmuniga moslashtirildi. Ushbu xalqaro ta’lim dasturlarida o‘quvchilarga, eng avvalo, tabiiy va aniq fanlar bo‘yicha chuqurlashtirilgan ta’lim berish nazarda tutilgan. Bularning barchasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga dastlabki bosqichda tabiiy-ilmiy bilimlarni maqsadli berishni taqozo etadi. Mazkur jarayonda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim va savodxonlik darajasini kuchaytirish, “... o‘quvchilarning fanlar asoslari bo‘yicha muntazam bilim olishlari, ularda ..., ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo‘lishni va kasb tanlashni rivojlantirish” [4] muhim vazifalardan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rtta ta’limning davlat ta’lim standartlari”da “umumiy o‘rtta ta’limning turlari, bosqichlari bilan uzlusizligi va ta’lim mazmunining uzviyligi”ni ta’minlash alohida belgilangan [2]. Bu boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy-ilmiy bilimlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘rgatishning

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

zaruriyatligini belgilaydi. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy-ilmiy bilimlarni yuksak darajada va kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘rgatish taqozo etiladi.

**Asosiy qism.** Tadqiqotning turli jabhalari o‘zbekistonlik olimlar tomonidan maqsadli tarzda tadqiq etilgan. Jumladan, M.B.Raximqulovaning nomzodlik dissertatsiyasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini darsdan tashqari jarayonda ekologik qadriyatlar ruhida tarbiyalash masalalari hal etilgan. Sh.M.Mirzaxmedovaning nomzodlik ishida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tabiatga bo‘lgan qiziqishni shakllantirishning pedagogik asoslari yoritilgan. N.J.Isaqulovaning tadqiqot ishida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ekologik tarbiyaga oid tushunchalarni shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari tahlil etilgan. G.N.Najmiddinovaning tadqiqotida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘quv-biluv faoliyatini shakllatirishning didaktik asoslari yoritilgan. M.K.Shirinovning tadqiqotida boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishida tabiatshunoslik fanini o‘qitish uzviyligi va uzlusizligini ta’minalash mexanizmlari takomillashtirilgan. R.Ibragimovning doktorlik dissertatsiyasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilish faoliyatini shakllantirishning didaktik asoslari ishlab chiqilgan. A.K.Raximovning doktorlik tadqiqoti talabalarda tabiiy-ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish metodikasini takomillashtirishga bag‘ishlangan. J.E.O’sarovning doktorlik ishida tayanch va fanga oid kompetensiyalar asosida ta’lim mazmunini takomillashtirish va o‘quvchilar kompetentligini rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan.

O‘quvchilarga kompetensiyaviy yondashuv asosida tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘rgatish metodikasini takomillashtirish masalasiga yangicha yondashuv zaruriyati mavjud. Pedagogik manbalar va tadqiqotlarni o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, tabiiy-ilmiy bilimlar majmuuni quydagilar tashkil etadi:

1) tabiat va borliq haqida ilmiy tushunchaga ega bo‘lish; 2) tabiiy hodisalar haqida tushunchalarni egallash; 3) hayvonot va o‘simgiklar olami haqida kerakli darajada bilimli bo‘lish.

Bunday yondashuv asosida shaxsda tabiiy-ilmiy bilimlar kutilgan darajada hosil bo‘ladi. Mazkur yondashuv tadqiqotimizda metodologik asos sifatida qabul qilindi va tahlillarda asosiy e’tibor ana shu masalaga qaratildi. Bu boradagi bugungi asosiy vazifalardan biri – kompetensiyaviy yondashuv asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘rgatish metodikasini takomillashtirib borishdan iborat. Mavjud ilmiy manbalarning tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, ta’lim mazmuni va o‘qitish metodikasiga nisbatan turli-tuman yondashuvlar mavjud. Ta’lim nazariyasiga oid ishlarni har tomonlama o‘rganish shuni ko‘rsatmoqdaki, ta’lim mazmunini belgilashda jamiyat hayotining ijtimoiy rivojlanishi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ushbu masalaga dastlab faylasuflardan Platon, Aristotel va Sitsironlar e’tibor qaratgan. O‘quvchilarni “nimaga o‘rgatish kerak?”, – degan savolga javob izlash jarayonida pedagogikaning butun tarixi davomida ta’lim mazmuniga oid turli nazariyalar va ta’lim muassasalari vujudga kelgan. Biz bugungi kunda O‘zbekiston maktablarida amal qilayotgan ta’lim mazmunini tanlashda metodologik asos sifatida xizmat qilgan bir qator yondashuvlar tahliliga e’tibor qaratdik. Pedagogik ta’limotlar vujudga kelgan davrdan boshlab, ta’lim mazmuni va o‘quv jarayonida o‘rgatiladigan o‘quv fanlari jamiyatning ma’lum ijtimoiy guruhlari faoliyati bilan bog‘liq alohida sohalari nuqtayi nazaridan yondashilgan holda tanlangan. Mehnat taqsimoti bilan bog‘liq holda o‘quv fanlari va ta’lim sohalari ham takomillashib borgan. Jumladan, uzoq muddat davomida boshlang‘ich ta’lim mazmuni hisob, ya’ni matematika, yozuv, o‘qish, musiqa va tasviriy san’at kabi o‘quv predmetlarini o‘z ichiga olgan.

XVII-XVIII asrlarda ta’lim mazmuni barcha faoliyat sohalariga taalluqli bo‘lgan elementlar va bilim, ko‘nikma, malakalar tizimini o‘zida mujassamlashtirdi. XIX asrga kelib, bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘rgatish bilan birga, qo‘srimcha ta’lim maqsadlari ham belgilandi. Biroq o‘quv jarayonida bu maqsadlarning yechimi yetarlicha ta’minalashdi.

Turli pedagogik yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishga oid ta’lim nazariyalari vujudga keldi. Ushbu yo‘nalish rivojlantiruvchi ta’lim nazariyasiga asos soldi. Mazkur yondashuvga ko‘ra, o‘quvchilar bilimlarni o‘zlashtirish asosida mustaqil fikrleshga o‘rgatiladi, ularda amaliy faoliyat tajribasi hosil bo‘ladi. Bunday yondashuv o‘z davrida pedagogik jamoatchilik tomonidan qo’llab-quvvatlangan. Milliy va jahon pedagogikasi vakillaridan A.Avlonyi, A.Shukuriy, A.Fitrat, I.Pestalossi, E.Byork, I.Kant, A.Disterveg, G.Spenser, Sh.Amonashvili, J.Piajelar ushbu g‘oyalari asosida o‘qitish tarafdirular hisoblanganlar.

Bu davrda ta’lim mazmunini tanlashda katta hajmdagi bilim va ko‘nikmalarni egallash emas, balki uning rivojlantiruvchi ta’sir ko‘rsatishiga e’tibor qaratilgan. O‘quvchining rivojlanishiga aqliy qobiliyatlarni rivojlantirish mashqlarini o‘z ichiga olgan matematika, ona tili, adabiyot kabi o‘quv fanlari ta’sir ko‘rsatishi mutaxassislar tomonidan asoslab berilgan. Ta’lim oluvchilarning aqliy layoqatlarini rivojlantirish, ularni ijodiy va mantiqiy fikrleshga o‘rgatish, bilish jarayonlari, xotirasi, tafakkurini rivojlantirish orqali amalgalashirishi lozimligini alloma ajdodlarimiz va mutaxassislar barcha davrlarda birday ta’kidlaganlar.

Mazkur konsepsiya asosan ta’lim mazmuni muayyan dalillarni emas, balki “instrumental” materialdan iborat o‘quv fanlarini o‘z ichiga olgan. Bunga ona tili va matematikani misol qilib ko‘rsatish mumkin. Tabiiy hamda gumanitar turkumdagini o‘quv predmetlari esa bu doiradan tashqarida qolgan. Uzoq

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

vaqtlar davomida bilimlar, ularni tashkil qiluvchi qadriyatlarning hayotiy va amaliy ahamiyatiga yetarlicha e’tibor berilmagan. O‘quvchilarning layoqatlarini rivojlantirishda barcha o‘quv fanlari muhim ahamiyatga egaligi pedagoglar e’tiboridan chetda qolib kelgan. Pedagogning kasbiy mahorati o‘quv materiallari yordamida o‘quvchilarning fikrlash faoliyatlarini rivojlantirishdan iborat, deb hisoblangan. O‘quvchilarga badiiy-estetik va tabiiy-ilmiy bilimlarni o‘rgatishga uzoq yillar davomida yetarlicha e’tibor qaratilmagan. Bu esa o‘quvchilarda tabiiy-ilmiy, badiiy-estetik dunyoqarashning yetarlicha shakllamasligiga asos bo‘lgan.

Bugungi kunda ta’lim mazmunini tanlashda bilimlarning amaliy faoliyat uchun foydaliligi, mahsuldarligiga e’tibor qaratish lozimligi ustuvor o‘rin egallamoqda. Ushbu yo‘nalishdagi yondashuvlar R.G.Safarova, O.G.afforova, Sh.Mirzaxmedova, R.U.Nurjanova va boshqalarning ishlarida o‘z ifodasini topgan.

Bunda o‘quvchilarni amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan o‘quv materiallari, ko‘plab dalillar, qadriyatlarga oid tushunchalar, tabiiy-ilmiy bilimlar bilan qurollantirish talab etilmoqda. O‘quvchilarga tabiiy-ilmiy bilimlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o‘rgatish egallangan bilimlarni amaliy faoliyatga singdirish orqali mustahkamlash, o‘quvchilarning mustaqil fikrlashlari, moddiy borliqni chuqr idrok etishlari uchun qulay sharoit yaratish, o‘quvchilarda badiiy-estetik, tabiiy-ilmiy dunyoqarashni shakllantirish kabi muayyan afzalliklarga ega.

**Muhokamalar va natijalar.** Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishlari, shaxs sifatida shakllanishlari, amaliy faoliyat tajribasini egallashlari ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu jihatdan kompetensiyaviy yondashuvga tayanish zarur hisoblanadi. Chunki birinchidan, o‘quvchilar muayyan hajmdagi bilimlar va axborotlarni o‘zlashtirib, ularni amaliy faoliyatlariga singdiradilar. Natijada o‘quvchilarni rivojlantirish jarayoni jadallahadi, ularni ijtimoiy hayotga tayyorlash imkoniyatlari kengayadi.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o‘quv jarayoni optimallik xarakteriga ega. O‘quv jarayonini optimallashtirish masalasi R.X.Djurayev, R.G.Safarova, J.G.Yo‘ldoshev, E.O.Turdiqulov, M.A.Danilov, M.N.Skatkin, L.S.Vigotskiy, S.I.Galperin, N.A.Menchinskayalar tomonidan tadqiq etilgan.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim mazmunini tanlashning asosiy mezoni o‘quvchining o‘z ishini individuallashtirish, egallagan bilim, ko‘nikma va malakalarini amaliy xarakterdagi vazifalarini hal qilishda qo‘llay olish imkoniga ega bo‘lishiga qaratilgan. Bunday nazariya doirasiga quyidagilar kiradi: 1) o‘qitish inson uchun tajribalarni o‘zlashtirish va qayta tiklashga yo‘naltirilgan uzlusiz jarayon hisoblanadi; 2) ilgari ishlab chiqilgan o‘quv kurslari modernizatsiya qilinishi kerak; 3) o‘quv materiali o‘quvchilarning tajribalari, kundalik hayotlariga yaqin bo‘lishi lozim; 4) ta’lim sifati o‘quvchilarning kompetensiyalarini qay darajada o‘zlashtirganliklariga bog‘liq.

Kompetensiyaviy yondashuv doirasida o‘quvchilarning individual faoliyatlari rag‘batlantiriladi, ularda egallagan bilimlarini amaliyotda sinab ko‘rishga oid faoliyat mustahkamlanadi. Masalan, taom tayyorlash, turli jismlar, daraxtlarning barglari yordamida qo‘l ishlarini amalga oshirish, gerbariyalar yig‘ish shular jumlasidandir. Ushbu bilim, ko‘nikma va malakalar o‘zida yanada ko‘proq axborotlarni mujassamlashtiradi.

Kompetensiyaviy yondashuv doirasida amaliy ko‘nikma, malakalarini shakllantirishga ustuvor ahamiyat qaratiladi. Bilimlar esa ushbu ko‘nikma va malakalarning asosini tashkil qiladi. O‘quv jarayoni o‘quvchilarning o‘zlashtirilgan bilimlar asosida hayotiy-amaliy faoliyat tajribalarini o‘zlashtirishlariga yo‘naltiriladi.

R.X.Djurayev, S.T.Turg‘unov, J.G.Yo‘ldoshev, B.X.Xodjayev va boshqa mutaxassislar ta’limga tajribalarni o‘zlashtirish, boyitish va uzlusiz qayta tiklash omili sifatida qaraganlar. Ta’lim mazmunini tanlashda ta’lim mazmunini fanlararo bilimlar tizimi ko‘rinishida taqdim etishni nazarda tutuvchi muammoli, yondashuvli o‘qitishni o‘yin bilan uyg‘unlashtirish yoki o‘yin elementlarini o‘quv jarayoniga kiritish kabilar kompetensiyaviy yondashuvning asosini tashkil qiladi. Bu, ayniqsa, tabiiy-ilmiy bilimlar bo‘yicha tashkil etiladigan o‘quv jarayonida muhim ahamiyatga ega. Shu jihatdan boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga kompetensiyaviy yondashuv asosida tabiiy-ilmiy bilimlarni berish mezonlarini quyidagilar tashkil etadi: 1) borliq haqida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga dastlabki bosqichda ilmiy tushuncha berish; 2) boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiat va tabiiy hodisalar haqida davlat ta’lim standartlariga mos tushunchalar majmuuni o‘rgatish; 3) hayvonot va o‘simliklar olami haqida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ularning yosh, jismoniy, ruhiy va aqliy imkoniyatlariga mos darajada bilim berish.

Bizningcha, mazkur mezonlar asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy-ilmiy bilimlarni kompetensiyaviy yondashgan holda o‘rgatish kutilgan samarani beradi.

Kompetensiyaviy yondashuvning asosiy xususiyatlardan biri o‘quv materiallari sermahsulligini ta’minlashdan iborat. Ikkinchisi, o‘quv materiallarini modul shaklida bayon etish orqali o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, faollik ko‘nikmalarini shakllantirish nazarda tutiladi.

G‘arbda, ayniqsa, AQShda o‘quv dasturlar nazariyasini ishlab chiqishda B.Blumming ta’lim maqsadlarini strukturalashga bag‘ishlangan taksonomiysi, ya’ni o‘quv maqsadlarining ierarxik bog‘liqligi

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

nazariyasi katta ahamiyatga ega. B.Blum ta’lim maqsadlarini uchta qismga ajratgan edi: kognitiv, psixomotor va samarali maqsadlar. B.Blum ularni qat’iy bir tizim asosida o’zlashtirish darajasi va intellektual ko’nikmalarga tenglashtirilgan asosiy va ikkilamchi bilimlarga ajratgan. Masalan, u maxsus axborotlar, bilim elementlaridan foydalanish yo’llari, me’yorlar, yo’nalishlar, o’zaro bir-birini taqozo qiluvchi tushunchalar va tasniflar kabilarni bilishni ko’zda tutadi [8].

“Bilish” tushunchasi ostida xabardorlikning dastlabki bosqichi, qayta bayon qilish darajasi tushuniladi. Keyingi bosqichda o’zlashtirishning yuqoriqoq darajasi: tushunish, qo’llash, tahlil qilish, umumlashtirish, baholash darajalariga o’tiladi. Blum nazariyasining afzalliklaridan biri oraliq va yakuniy maqsadlarning qo’yilishi, shuningdek, dasturlarda maqsad qo’yish muammosining belgilab berilganligidan iborat. Blum nazariyasining natijalari sirasiga miqdor va oraliq maqsadlar orasidagi savollarni shakllantirish, shuningdek, maqsadni belgilash vositalarini aniqlash muammosining qo’yilganligini kiritish mumkin. Bunday vositalar sirasiga o’quvchilarning xatti-harakatlarini belgilash, hal qilinadigan vazifalarni aniqlash, savollarga beriladigan javoblar tabiatini aniqlash, o’quvchi harakatlanishi lozim bo’lgan vaziyatlarni belgilash kabilarni kiritgan [6]. G’arb pedagoglari ta’lim mazmuni tarkibiga nisbatan o’z yondashuvlarini bayon qilganlar. Ular bilimlar, qadriyatlar, ko’nikmalar va munosabatlarni alohida-alohida ajratganlar (Dj.Kerr, Angliya). Texnokratik falsafiy yondashuv tarafdorlari (J.Majo, Fransiya) ta’lim oldiga qo’yilgan ijtimoiy buyurtmaga asoslanib, o’quvchilarni bilimlarni o’zlashtirishga o’rgatish, ularni mustaqil izlab topish, muammolarga yechim izlash ko’nikmalarini shakllantirish vazifasini qo’yanlar.

Aksariyat xorijlik mutaxassislar ta’lim mazmunining tarkibiy qismlariga sezgi, his-tuyg’ular va munosabatlarni rivojlantiruvchi bilimlar va tushunchalarni kiritganlar (T.Brameld, AQSh). O’qitishning asosiy maqsadi o’quvchilarni aqliy rivojlantirish, deb hisoblaydigan pedagoglarning ishlarida bilimlarni tanlash muhim ahamiyatga ega ekanligi ko’rsatilgan. Bunda ta’lim mazmunining yetakchi elementlarini umumlashtirishda nazariy g’oyalarni ilgari surgan Dj.Brunering qarashlari muhim ahamiyatga ega [5]. Ta’lim mazmunini o’quvchilarning o’zini-o’zi anglash, namoyon etishga bo’lgan ehtiyojlariga moslashtirish ustuvor ahamiyat kasb etishi lozim. Buning uchun o’quv jarayonini insonparvarlashtirish talab etiladi. O’quvchining o’z-o’zini anglashi, muloqotga kirishishi, atrofdagilar bilan ijobiy munosabat o’rnatishi kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim mazmunini tanlashda asosiy mezon bo’lib xizmat qilishi lozim [1].

Ukrainada ta’lim mazmunini tanlash sohasida bir qator konsepsiylar, yondashuvlar mavjud. Xususan, bunda Suxomlinskiyning muammoli va integratsiyalashgan ta’lim nazariyasi alohida ahamiyatga ega bo’lib, o’quvchilarda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishda o’ziga xos o’rin egallaydi [7]. Ta’lim mazmunida o’zaro uyg’un tarzda bilimlar, tushunchalar, axborotlar, xalqning ijtimoiy tajribasi o’z ifodasini topishi kerak.

Mutaxassislar ta’lim mazmunining muayyan prinsiplarga tayangan holda tanlanishi lozimligini ta’kidlab o’tganlar. Ular:

- o’quv fanlari mazmunini integratsiyalash, bunda o’quv jarayonining asosini turli o’quv fanlariga xos bo’lgan o’zaro muvofiq kelgan bilimlar va tushunchalarni uyg’unlashtirgan holda o’quvchilarga taqdim etish nazarda tutiladi (R.X.Djurayev, R.G.Safarova, X.I.Ibragimov, R.Nurjanova, F.Qo’chqarova va b.);
- ta’lim mazmuniga kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etish (N.Turdiyev, M.Umaraliyeva, S.T.Turg’unov, X.M.Tojiboyeva, J.O’sarov va h.k.).

O’quv dasturlarida o’quv yuklamasining haddan tashqari ortib ketganligi, ularda ilm-fan, madaniyatga oid yangiliklarni imkon qadar ko’proq aks ettirish ehtiyojining vujudga kelganligi konsentrashgan ta’lim nazariyasini rivojlantirish ehtiyojini keltirib chiqardi. O’quv dasturlaridagi mavzular ilm-fanning eng so’nggi yutuqlari asosida tanlanishi, o’quv fanlari mazmunini yangi g’oyalar bilan boyitish zarurligi kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’limning muhim talablaridan biri hisoblanadi. O’rganilayotgan har bir o’quv predmeti mazmunida ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega o’quv elementlarining mavjud bo’lishi o’quvchilarga real borliq, ijtimoiy-siyosiy voqelikni anglash imkonini beradi. Konsentrizm prinsipi ko’ra, ta’lim mazmuni yirik konsentrlardan, asosiy tizimni tashkil qiluvchi komponentlardan iborat. Har bir o’quv fani mazmunida muhim ilmiy va ta’limiy ahamiyatga ega bo’lgan asosiy tarkibiy qismlar, shuningdek, ikkilamchi didaktik loyihalar ajratib beriladi. Konsentrizm prinsipi doirasida o’quv yuklamasining hajmi chegaralanadi.

**Xulosa.** Yuqoridaagi fikrlar asosida ta’kidlash mumkinki, tabiiy-ilmiy bilimlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o’rgatishni ta’lim jarayoniga tatbiq etish o’quvchilarda fanga oid va tayanch kompetensiyalarni hosil qilishda, dars samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

### **Adabiyotlar**

1. B.S.Abdullayeva va boshq. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiysi. - T.: RTM, 2015-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlari”. ([www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz))
3. Incheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: “O‘zbekiston”. 2017. – 17 b.
5. Брунер Дж. Процесс обучения. Перевод с англ.– М.: “Прогресс”, 1962. -412 с.
6. Пестерева Ю.В. Реализация компетентностного подхода в процессе построения содержания образования в начальной школе: диссертация... кандидата педагогических наук. –Майкоп, 2007 г. - С. 198.
7. Сухомлинский В.А. Успех обучения. - М., 1975 г.
8. Taxonomy of educational objectives: The classification of educational goals. Handbook I: Cognitive domain / Ed. by B.S. Bloom. – N.Y., 1956.

**RAHIMOVA Fazilat**

Urganch davlat universiteti  
katta o‘qituvchisi

**NOSTANDART MASALALAR MANTIQIY TAFAKKUR JARAYONLARINI  
SHAKLLANTIRISH VA O‘STIRISH OMILI SIFATIDA**

*Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim matematika darslarida o‘quvchilarning mantiqiy tafakkur jarayonining tarkib topishi va shakllanishida nostandard masalalarining o‘rni va ahamiyati tahlil qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** mantiqiy tafakkur, ma’naviy kamolot, insoniylik, taqqoslash, qiyoslash, umumlashtirish, tahlil qilish.

**НЕСТАНДАРТНЫЕ ЗАДАЧИ КАК ФАКТОР ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ  
ПРОЦЕССОВ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ**

*В данной статье проанализированы роль и значение нестандартных задач в содержании и формировании процесса логического мышления учащихся на уроках математики начального образования.*

**Ключевые слова:** логическое мышление, духовное совершенство, человечность, сравнение, сопоставление, обобщение, анализ

**NON-STANDARD TASKS AS A FACTOR OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF  
LOGICAL THINKING PROCESSES**

*In this article, it is given the role and significance of non-standard problems in the content and formation of the process of logical thinking of pupils in the mathematics lessons of primary education.*

**Keywords:** logical thinking, spiritual perfection, humanity, comparison, collation, generalization, analysis

**Kirish.** Bugun Respublikamiz ta’lim-tarbiya tizimida amalga oshirilayotgan islohiy o‘zgarishlar negizida o‘quvchi shaxsiga bo‘lgan diqqat-e’tiborning oshgani, undagi shaxsiy sifatlarni aniqlagan holda rivojlanishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, shaxsdagi komillik jihatlarini tarkib toptirish masalalari yotadi. Shu maqsadda boshlang‘ich ta’lim tizimiga oid islohotlarning asosini tashkil qiluvchi zamонaviy talablar boshlang‘ich ta’lim konsepsiysi, boshlang‘ich ta’limning davlat ta’lim standartlarida o‘z aksini topgan. Ushbu me’yoriy hujjalarning asosiy mohiyati shaxsdagi aqliy, ma’naviy va jismoniy rivojlanirishni maqsad qilib oladi. Uzlusiz ta’limning muhim bir bo‘g‘ini sifatida faoliyat yuritayotgan boshlang‘ich ta’lim ham zamон talabi va davr nafasi asosida tashkil etilgani holda shaxs kamolotida munosib o‘rin egallagan. Ta’limning diqqat-markaziga qo‘ylgan barkamol shaxsnii tarbiyalash masalalari mazkur bo‘g‘inda alohida ahamiyat kasb etadi. Shaxsdagi nav-nihol ijodiy va ta’limiy kurtaklarni ilg‘ab olish, aniqlash va ularni unib o‘sishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib ayni shu bo‘g‘inda to‘g‘ri, aniq, maqsadli amalga oshirilishi ta’limning navbatdagi yuqori bosqichlari samaradorligini ta’minalash garovlaridan biri hisoblanadi. Kichik mакtab yoshidagi bolalarning jamiyat rivoji bilan bab-barobar rivojlanib borayotgan rivojlaniruvchi xususiyat kasb etuvchi ta’limiy jarayonga jalb etish, undan ijobjiy natijalar olish, Davlat ta’lim standartlari talablari asosida bilim olish va ularni amaliyotga joriy etishga oid ijtimoiy malakalarining shakllanishida matematika ta’lim sohasi qator funksional imkoniyatlarga egadir. Matematika ta’lim sohasi abstrakt mantiqiy tafakkurning soddarоq ko‘rinishi bo‘lgan obrazli mantiqiy tafakkur vositasida bolalarning o‘y়lash, fikrlay olish, mulohaza yurita olishga o‘rgatadi, mustaqil fikrlash va xulosalar yasay olishga oid malakalarni shakllantiradi. Bolaning aqli kamolot sarhadlarini egallashda, aqliy rivojlanirish o‘quvchini aqliy mehnatga jalb etish tafakkur jarayonlari shakllantirish, mantiqiy rivojlanirish alohida o‘rin tutadi. Matematik ta’lim o‘quvchi mantiqiy tafakkurini shakllantirishda qator funksional imkoniyatga ega. Ana shunday imkoniyatlardan biri matematik ta’lim jarayonida masalalar yechishga o‘rgatish jarayonidir.

**Asosiy qism.** Boshlang‘ich sinflarda sodda va tarkibli masalalar yechiladi. Bunday masalalar o‘rganilgan qoida, tushuncha va xossalarga asosan yechilib, qoidali masalalar yechish jarayoni deb ham atash mumkin bo‘ladi. Bunday masalalar o‘rganilgan nazariy ma’lumotni mustahkamlash egallangan tasavvurlarga asoslangan holda tushunchalar shakllantirish, umumlashtirishga oid bo‘lgan bilimlar majmuasini tarkib topishiga yordam beradi. Mantiqiy tafakkur jarayonining tarkib topishi va shakllanishida nostandard masalalar yechishga o‘rgatish o‘ta muhimdir. Nostandard masalalarini tizimli ravishda yeshishga o‘rgatish qiziquvchanlik, uddaburonlik, sinchkovlik, sifatlarini tarkib toptiradi, bu esa o‘z navbatida

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

solishtirish, taqqoslash, umumlashtirish, tahlil qilish va xulosa yasash kabi bilish amallaridan o‘rinli foydalangan holda mantiqiy tafakkur qilish qobiliyatini o‘stiradi, aqliy rivojlanishi uchun zamin hozirladi. Nostandart masalalar ko‘proq sinfdan tashqari ishlar, kechalar bilan matematik daqiqalar o‘tkazish jarayonida qo‘llanishi ijobiy samara beradi. Shuningdek dars jarayonida o‘quvchilar diqqatini jalb etish, dam olish daqiqalarini mazmunli tashkil etish, mavzuni tushunarli va qiziqarli qilib o‘tish maqsadida ham qo‘llash mumkin. Dars jarayonida o‘qituvchining yo‘naltiruvchi savollari yordamida o‘quvchilar masalani mustaqil yechish yo‘llarini axtarib, fikrlash malakalarining o‘sishiga zamin hozirlaydi. Shuningdek, uy vazifasi sifatida ham nostandart masalalarni yechishga o‘rgatish mumkin. Bunda ularga katta sinf o‘quvchilar, ota-onalar yordami bilan masala yechishga o‘rganadilar, bu esa boladagi qiziquvchanlik va o‘z kuchiga ishonch hosil qilish uchun munosib omil bo‘ladi. Mantiqiy masalalar o‘zining o‘yin xususiyatiga ega ekanligi bilan bolaning e’tiborini jalb eta oladi, fikriy mushohada yuritish, qonuniyatlarini aniqlash, xossa va xususiyatlarga qarab narsa va xususiyatlarni guruhashga oid malakalarni shakllantiradi. Mantiqiy fikrlash jarayonida o‘quvchilar o‘z xatti-harakatlarini rejalshtirish, obdon o‘ylab ko‘rish, javob izlash, masala yechimini izlab topishga harakat qiladilar. Masala yechish ularda o‘ziga ishonch, mustaqil fikrlash, sezgirlik, izlanuvchanlik xususiyatlari shakllantiradi, qunt bilan ishlash, ma’suliyatni his qilish malakalari rivojlanadi. Bu esa ta’limiy maqsadlarning ayni muddaosi hisoblanadi. Nostandart masalalar yechishni rus matematigi, olimpiadalar tashkilotchisi Tarmakovskiy Vladimer Abramovich bir to‘plam moshlar ichiga yashiringan sichqonni axtarishga qiyoslaydi. Bunda ikki yo‘l bor deydi u, birinchisi moshlar to‘plami atrofida aylanib, sichqonni moshlar ichidan chiqishini kuzatish va ko‘ringan sichqonni dumidan mahkam ushlab tortib chiqarish. Ikkinci usuli bu mosh uyumidan moshlarni birma-bir olib tashlab sichqonchaga yetib borish. Haqiqatdan ham quyidagi masalani qaraylik: Dengiz bo‘yidan uchala o‘g‘lon 5 ta rakushka topib olishdi, bolalar ichida rakushka topmagani yo‘q. Ularning har biri nechtadan rakushka topishgan? Masala yechishda quyidagi variantlar bo‘lishi mumkin.

1. Ikki bola 2tadan bitta bola bittadan.
2. Ikki bola bittadan, uchinchi bola 3tadan.
3. Bir bola 1ta, ikkinchisi uchta va uchinchisi 0.

Agar masalaga bunday shart qo‘yilsa: uch bola dengiz bo‘yida qumdan 5 dona rakushka topib olishdi. Ularning har biri ikki donadan ko‘p topmagan bo‘lsa, bolalarning har biri nechta topgan?

Javob: ikki bola ikkitadan, bir bola bittadan.

**Muhokamalar va natijalar.** Mazkur masalani birinchi sinfda besh ichida qo‘shishni o‘rgangach, uyga vazifa sifatida berish mumkin yoki sinfdan tashqari ishlarda foydalanish mumkin.

Nostandart masalalarni yechishda quyidagi bosqichlar qabul qilingan.

1. Masala shartini sinchkovlik bilan o‘rganish.
2. Yechish g‘oyasini yoki rejasini ilgari surish.
3. Chizma, sxema va analoglar (o‘xshashliklar) izlab topish.
4. Masalani tarkibiy masalalarga bo‘lish.
5. Bir masalani bir necha usullar bilan yechish.
6. Yechimni tahlil qilish.

Albatta, masala yechishda har bir bolaning uddaburonligi, ziyrakligi, sinchkovligidan kelib chiqqan holda fikrlash yo‘llari, hosil bo‘lgan g‘oyalar, qonuniyatsizlikdan birorta qonuniyat yaratishga yo‘naltirilgan fikriy jarayonlarni ilg‘ab olish va umumlashtirish bola uchun mushkul ish, lekin shunday bo‘lsa ham masalani yechishga yo‘naltirilgan jarayonlarni quyidagicha umumlashtirish mumkin. Ingliz matematigi D.Poya o‘qituvchiga maslahat tariqasida, nostandart masalalarni yechishda qo‘l keladigan uchta maslahatomuz qoidani keltiradi.

1. O‘quvchingni masala mag‘zini chaqib, mohiyatini anglashga o‘rgat.
2. O‘quvchilarni o‘z fikrini asoslay olishga o‘rgatishga harakat qil.
3. Yo‘naltiruvchi maslahatlar ber, lekin hech qachon o‘z nuqtayi nazaringni o‘tkazishga harakat qilma.

**Xulosa.** Nostandart masalalarni yechish jarayonida yuqorida qayd qilganimizdek, “sinov va xatolar” yoki “urinishlar va xatolar” usulidan foydalanish hamma vaqt ham kerakli natija beravermaydi, shunung uchun asosiy maqsad bolani mantiq amallari taqqoslash, qiyoslash, solishtirish, umumlashtirish, tahlil va xulosa yasashdan foydalanib masala yechishga o‘rgatishdir.

### **Adabiyotlar**

1. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiysi. -Toshkent, 1998-yil.
2. Дидактические игры на уроках математики. kopilka-urokov.ru
3. Кругецкий В.А. Психология математический способностей. - Москва, 1968. 385-386ст.

XUDOYNAZAROV E. M.

Urganch davlat universiteti  
katta o‘qituvchisi

## BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI MANTIQIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK ASOSLARI

*Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilari mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari bayon qilingan.*

**Kalit so‘zlar:** fikrlash, mantiqiy fikrlash, ijodiy fikrlash, fikr, aql, sezgi.

### ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

*В данной статье описаны педагогико-психологические основы развития логического мышления у учащихся начальных классов.*

**Ключевые слова:** мышление, логическое мышление, творческое мышление, мышление, интеллект, интуиция.

### PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS FOR THE DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

*This article describes the pedagogical and psychological foundations for the development of logical thinking in primary school students.*

**Key words:** thinking, logical thinking, creative thinking, thinking, intellect, intuition.

**Kirish.** Jamiyatimiz istiqbolda qanday bo‘lishi yosh avlodning bilim darajasi va fikrlashiga bog‘liq. Boshlang‘ich ta’lim bolani yetuklikka undovchi, faol fikrlashga o‘rgatuvchi asosiy bosqich hisoblanadi. O‘quvchilarda Davlat ta’lim standartlariga mos ko‘nikma, bilim, malaka va kompetensiyalarni hosil qilish, umummadaniy ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni jamiyat hayotiga tayyorlash, fikrlashni rivojlantirish, vatanparvarlik, mustaqillik tamoyillari asosida demokratiyaga sodiqlik hissini shakllantirish o‘quv jarayonining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunga kelib ta’lim mazmuni va uning metodik tizimi yanada takomillashtirilmoqda. So‘nggi yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar va pedagogik amaliyat shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘quv jarayonida o‘quvchilarga ma‘lum darajada bilim berish, dastlabki amaliy ko‘nikma va malakalarni hosil qilishning o‘zi yetarli emas. Ularda ijtimoiy tajriba, ya’ni kompetensiyalarni shakllantirish alohida dolzarblik kasb etmoqda. Shu bilan bir qatorda, o‘quv jarayonining metodik tarkibini ham boyitish, ta’lim samaradorligini ta’minlash maqsadida ta’limda pedagogik texnologiyalarni qo‘llash uchun qulay muhit yaratish nihoyatda zarur.

**Asosiy qism.** Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchi shaxsini har tomonlama shakllantirish, ularda fikrlash faolligini tarkib toptirish uchun qulay davr hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida nutqning rivojlanishi bilan bir qatorda fikrlash faolligi ham vujudga keladi. O‘quvchining taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish, tizimlashtirishga oid dastlabki ko‘nikmalari uning o‘z fikrlarini mantiqiy izchillikda aniq, obrazli, ravon bayon qila olishida namoyon bo‘ladi.

O‘quvchilarni o‘qitish nazariyasiga oid L.S.Vigotskiy tomonidan aniqlangan aqliy rivojlanish darajalari “to‘g‘ri tashkil qilingan o‘qitish bolani aqliy rivojlanishiga olib keladi” degan xulosani ilgari surishga imkon berdi. L.S. Vigotskiy va P.P.Blokskiylar yoshlikda olingan ilm fikrlash qobiliyatini jadal rivojlanirishini aniqlaganlar [1].

Izlanishlardan ma‘lumki, inson tafakkuri insoniyat tomonidan yaratilgan bilim olish jarayonida rivojlanib subyekt uchun faol, yaratuvchanlik faoliyatidir.

Inson fikrlashini rivojlanirishning nazariy yondashuvlari quyidagi tarkibiy qismlarni ajratib ko‘rsatishga imkon beradi:

1. Yaxlitlik va tizimlilik.
2. Refleksivlik.
3. Tanqidiylik.
4. Innovatsionlik.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

- 
- 5. Qayishuvchanlik.
  - 6. Noaniq vaziyatda o‘z taqdirini o‘zi belgilay olish qobiliyati.
  - 7. Mahsuldarlik.

**Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim** – ta’lim oluvchilarning shaxsiy, individual layoqati, qobiliyati va imkoniyatlarini inobatga oлган holda o‘quv jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarni tatbiq etish asosida ularda ma’lum bilim, ko‘nikma, malakalarini hosil qilishgina emas, balki, eng asosiysi, o‘quvchi shaxsini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini anglatuvchi tushuncha [3].

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosini ta’lim oluvchilarda ong, xarakter, dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiluvchi tabaqalashtirish va individuallashtirish prinsiplari tashkil etadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning an‘anaviy ta’limdan farqi shundaki, u turli bilim sohalari bo‘yicha shaxsning xilma-xil, mustaqil va maqsadga muvofiq faoliyatini tashkil etilishi uchun shart-sharoitni yaratib berish orqali ta’lim oluvchining intellektual va axloqiy jihatdan samarali rivojlanishini ta’minkaydi.

Kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarining mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda bilim va malakalarini amalga oshirishni shakllantirish ahamiyatlidir. Turli, haqiqiy bilim va malakalar o‘quvchilarda qancha ko‘p hosil qilinsa, ularning fantaziysi, fikrashi o‘sadi hamda murakkabroq bo‘lgan topshiriqlarni bajara oladilar.

Insonning dunyoqarashini rivojlanishida uning tili va nutqining rivojlangan bo‘lishi juda muhimdir. Chunki topshiriqning yechilishi jarayonda o‘quvchi topshiriqni yechish yo‘llarini o‘z nutqi orqali bayon qilishi, topshiriqning asosiy elementlarini aytal olishi, grafik chizmalarni chiza olishi va bilishi - o‘quvchi ijodiy tafakkurini rivojlantirishda katta rol o‘ynaydi. O‘quvchi qanchalik darajada ko‘p so‘z boyligiga ega bo‘lsa, uning ichki, aqliy imkoniyatlari ham yuqori darajada rivojlanadi va shakllanadi. Ijodiy jarayonda o‘quvchi avval topshiriqni xayoliy tasavvuri, ya’ni aqli orqali bajaradi, reja tuzadi, keyin esa bu reja tashqi imkoniyatlar asosida amalga oshiriladi.

A.Savenkov [4] o‘quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirishning quyidagi tamoyillarini sanab o‘tadi:

- muammoni qo‘yish va uni yechishning divergent va konvergent tiplarini qo‘llash, ya’ni fikrlashda o‘quv mashg‘ulotlarini olib borish bir tekisda emas, balki masalada muammoning qo‘yilishini rivojlantirib borish;
- o‘quv materiali oxirgi muhim axborotlar bilan yangilanganligi muammoning qo‘yilishi va yechilishini uzlusiz rivojlantirib borish;
- o‘quvchining mantiqiy fikrashi doirasining kengayib borishi bilan uning o‘z bilim va ko‘nikmalarini amaliyotda qo‘llay olish malakasining uyg‘unligi;
- o‘quvchi o‘z xatti-harakatlari, amaliyotida yangi bilimlarni o‘zlashtirganligini ifodalay olishi;
- intellektual tashabbus ko‘rsata olish va masalani yechishda chamalay olishni bilish; bunda “intellektual tashabbus” - o‘quvchining turli o‘quv va ijodiy masalalarning yechilishida muammoni chuqurroq ko‘ra olishga, original va muqobil yechimlarni topishga mustaqil ravishda intilishida namoyon bo‘ladi.
- konformizmga yo‘l qo‘ymaslik, ya’ni noto‘g‘ri yechimga olib keluvchi g‘oya va holatlarni yo‘q qilish;
- g‘oyalarni tahlil qilishda tanqidiy yondashuv qobiliyatları shakllantiriladi;
- muammoni chuqurroq tadqiq qilishga intilish;
- o‘quv-biluv faoliyatida hurfikrlilikka erishish, ya’ni muammoni tadqiq qilishda va yechishda mustaqil izlanishga erishish;
- individuallashtirishga erishish - ta’lim jarayonda ishtiroy etayotgan o‘quvchilarining shaxs sifatlarini rivojlantirish va har bir o‘quvchini jaryonning subyekti sifatida o‘zini to‘la namoyon eta olish uchun sharoit yaratish;
- muammoli vaziyat hosil qilish – o‘quvchilar o‘rtasida muammoli vaziyat hosil qilishni o‘ylab topish va yo‘naltira olish.

Shunga asosan, biz yuqorida ta’kidlangan tamoyillardan maqsadli foydalansak, o‘quvchilarining mantiqiy fikrashi yuqori darajada shakllanadi.

Sharqda ham inson fikrashi muammosi xilma-xil qarashlar negizida tahlilga tortilgan. Inson va borliq munosabatlariga, fikrlashning turli xil fanlar asosida tahliliga Forobiy keng to‘xtaladi. Uning fikricha, inson ma’naviyatining oliy darajasi aql, ruh va fikrash bo‘lib, ular insonning bilish faoliyatiga mos bo‘lgan shakllarda namoyon bo‘ladi.

Forobiy “Aql to‘g‘risida”gi kitobida axloqli kishining “o‘n ikki tug‘ma xislati”ni ta’riflab, odamning fikrash qobiliyatiga to‘xtalib o‘tadi. Forobiy fikrash qobiliyati yuqori bo‘lgan inson barcha topshiriqlar yuzasidan o‘tkaziladigan tahlillarni tez va to‘liq tushunadigan, uning ma’nosini o‘zlashtirib, so‘zlayotgan shaxsning maqsadi va bayon qilingan fikrining rostligini tushunadigan, quvvayi hofizasi kuchli, borliqdan

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

qabul qilgan ma'lumotlarining barchasini eslab qoladigan, xotirasida saqlab qoladigan, zehni sezishi bilan, bu alomat nimani anglatishini tezda aniqlab oladigan, fikri va aytmoqchi bo'lgan mulohazalarini to'liq va izchil bayon eta oladigan, bilimlarni oson, tez o'zlashtira oladigan bo'lishini ko'rsatib o'tadi.

Abu Ali ibn Sino “Markaziy Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar” nomli asarda fikrlash jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarga batafsil to'xtalib o'tgan. Olimning “Tadbiri manozil” (“Bolani tarbiyalash va o'qitish”) asarida o'quvchilarning fikrlashini yaxshilash, bilim berish samaradorligini oshirishda fan yutuqlarini egallahsga qiziqish yuzaga kelishi va raqobatlashish imkoniyatini yaratishda o'quvchilarni birga o'qitish zarurligini ta'kidlaydi.

Olim suhbatdoshiga hurmat bilan munosabatda bo'lishiga to'xtalib, shunday deydi: “Sening fikring (bolaning) yuragiga yetib borib, unga o'ylab, fikr yuritib ko'rishga imkon bersin... Agarda sening suhbatdoshing yoki do'sting sening so'zlaringga va nasihatlaringga e'tibor bermayotganini sezsang, suhbatni boshqa vaqtga ko'chir”.

Kaykovus ilmiy-nazariy bilimlarga hamisha tayanmasdan, inson o'zining hayotiy tajribalaridan kelib chiqib, maqsadga yo'naltirilgan g'oyalari asosida fikrlashi mumkinligini o'g'liga nasihat tarzidagi “Qobusnomá” asarida quyidagicha yozadi: “Ey farzand, bilgilki, barcha hukmni kitob bo'yicha qilmasdan, o'z fikrlari bilan ham hukm qilurlar va bunday tadbirlar bilan ham ishni bilib olurlar” [2].

Inson fikr, aql, sezgilar vositasida bilimlarni egallanishi to'g'risida qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy mulohazalarini bayon qilar ekan, shunday deb yozadi: “Faqat sezgi orqali, sezgi organlari bilan erishilgan bilimlar xatolarga olib kelishi mumkin. Agar inson sezgilardan fikrlash va xulosa chiqarishda foydalansa, ana shu sezgilar yordamida idrok qilinadigan narsalarni o'rganishda juda katta yutuqlarga erishishi mumkin. Istaklarga mehnat tufayli erishiladi”. Uning ta'kidlashicha, hayotiy vaziyatlarda, mavjud muammolarni yechish jarayonida sezgi organlari orqali qabul qilingan ma'lumotlar to'g'ridan-to'g'ri idrok qilinmasdan, balki fikr to'liq tashxislansa va tegishli xulosalar chiqarilsa, ana shu bilimgina haqiqiy va mustahkam bo'ladi.

So'z va tafakkurni bir-biriga chambarchas bog'liq birliklar sifatida ko'rgan Alisher Navoiy o'z asarlarida fikrga mas'uliyat bilan qarash muammosi haqida “So'zni ko'ngulda pishqormaguncha, tilga keltirma, harnakim ko'ngulda bo'lsa tilga surma”, tarzida o'z qarashlarini bayon qiladi. Shoirning “Mahbub-ul-qulub” asarida ham bilim olgan, ammo to'g'ri fikr yurita olmaydigan insonni “Ilmiga amal qilmagan olim ustiga kitob ortilgan eshak kabitdir” deya undaylarni “nodon” deb ataydi.

Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida badan va fikr tarbiyasiga alohida ahamiyat beradi. Uning ta'kidlashicha, fikr tarbiyasi “muallimning yordamiga so'ng darajada muhtojdir” va inson hayotida muhim ahamiyatga ega.

**Muhomalar va natijalar.** Tadqiqotlarni tahlili natijasida boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning aqliy faoliyatini o'rganish quyidagi xulosani tasdiqladi: faqat o'quvchining o'z aqliy faoliyati, ijodiy topshiriqlarni yechishda chuqr o'ylanishi natijasida aloqalarning rang-barangligi vujudga keladi. Ushbu aqliy faoliyatning yuqori, izchil darajasini ifodalaydi. Shunga asosan o'quv-biluv faoliyatning jadallashuvi ta'minlanadi.

Bir nechta psixologlar ijodiy fikrlash va ijodiy faoliyat muammolarini o'rganganlar.

**Ijodiy fikrlash** – 1) erkin fikrlash va ijodkorlik tamoyili ustuvor bo'lgan tafakkur shakli. 2) ichki aqliy bir-biriga bog'liq bo'lgan omillar asosidagi yangi tafakkurga ega bo'lishning mantiqiy izchilligi mahsulidir [3].

Ijodiy fikrlash voqealarni tahlil etish, qiyoslash, taqqoslash, asosida fikrni takomillashtirish, uning yangi qirralarini topish, shu tariqa bilim va tasavvur dunyosini boyitishni nazarda tutadi. Ijodiy fikrlash – insonga xos bo'lib, bu xususiyatdan mahrum bo'lganlar bamisol hamma ishni ko'r-ko'rona bajaradigan qulga aylanib boradi. Ijodiy fikrlashga ega shaxs o'z mustaqil fikriga ega. U hayotga, odamlarga erkin munosabatda bo'lib, har qanday voqeа yuzasidan o'z fikrini bayon qila oladi. Ijodiy fikrlash – insonlar jamoasini ma'naviy yangilash, odamlarning tafakkurini kengaytirish, ezgu g'oyalar tantanasini ta'minlashning muhim shartidir.

Ijodiy faoliyat – muayyan sohada ish-faoliyat bilan shug'ullanuvchi insonning aniq bir maqsadga intiluvchanligi, maxsus hissiy holati – ilhomlanishi, ruhiy kechinmasi, shuningdek, muammoni to'liq hal etish istaklarini mujassamlashtirgan faoliyat turi [3].

O'qitish jarayonida fikrlashni rivojlantirish muammolarini hal qilishning keyingi bosqichida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning fikrlash jarayonlarini boshqarish masalasi yuzaga keldi. Bunda o'qish faoliyatida fikrlash bir tomondan tayyor bilimlar ustida amallar bajarish, ikkinchi tomondan yangi sof asl tizimni yaratishga loyiq ijodiy qobiliyat sifatida namoyon bo'ladi. Mahsuldar jarayonlar o'quvchilar tomonidan fikrlash layoqatini rivojlantiruvchi omil – muammoli holatlarni yechish davomida kechadi. O'quvchilarda faol, mustaqil, ijodiy fikrlash layoqatini rivojlantirish o'qitishning maqsadga muvofiq

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

yo‘naltirilganligi, uning oldiga qo‘yilgan muammoga bog‘liq. O‘qituvchi o‘quvchilarga faqat tayyor bilimlarni berib qolmasdan, ularda mustaqil ravishda o‘qib o‘rganish, o‘ziga xos izlanishga ishtiyoy uyg‘otishi maqsadida lozim ta’lim texnologiyalaridan o‘rinli foydalanishlari zarur deb hisoblaymiz.

Ayrim olimlar fikricha, mantiqiy fikrlash nazariy fikrlashning o‘zi ekanligi, u empirikdan analistik, rejalashtiruvchi, refleksiv fikrlashgacha bo‘lgan davrni muayyan izchillikda bosib o‘tadi (R.Ataxanov, V.V.Davidov, Le Txix Kxon Kxo, L.K.Maksimov va b.).

Matematikani o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarda shakllanishi lozim bo‘lgan matematik fikrlashni L.M.Fridman, umumiy fikrlash madaniyatining tarkibiy qismi deb hisoblaydi. Madaniy fikrlash – shunday fikrlashki, bunda fikrlashning turli usullari va amallarining qo‘llanishi ma’lum bir tartibda, qat’iy tizimda, yechilayotgan fikrlash masalasi xarakteriga to‘la mos ravishda amalga oshiriladi deydi.

Biz “fikrlash” tushunchasiga nisbatan bir nechta yondashuvlarni tahlil qildik. Fikrlash shaxsning faolligini tavsiflovchi jarayon bo‘lib, uning uzlusiz rivojlanayotganligi faoliyatda namoyon bo‘ladi. Bu faoliyat fanlarni o‘rganish jarayonida o‘quv masalalarini yechish faoliyatida namoyon bo‘ladi.

Mantiqiy fikrlash nazariya va amaliyotni, fikrlashning konvergent va divergent turlarini uyg‘unlashtiradi hamda o‘ziga xos topqirlik bilan tavsiflanadi.

Konvergent fikrlash muammoning yagona yechimini topishga qaratilgan, divergant fikrlash esa masalaning mumkin bo‘lgan barcha yechimlarini izlashga yo‘naltirilgan fikrlash tarzidir.

Biz izlanishlarimizda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari mantiqiy fikrlashni rivojlanishining evristik, mantiqiy algoritmik uslublaridan foydalanishga harakat qildik. Evristik uslublar real hodisalarining matematik modellarini qurishning asosli ekanligini ko‘rsatdi, mantiqiy uslublar esa uning “qat’iy” talablari bilan matematik model ichidagi masalani yechishga xizmat qildi.

Xulosa. Fikrlash jarayoni topshiriqni yechish tartibi bilan chegaralanganligi sababli fanlarni o‘rgatishda o‘quvchilarining fikrlash hodisasiaga nisbatan turlicha qarashlar mavjud. Murakkablik darajasiga ega bo‘lgan topshiriqlarni yechishda, o‘quv kursining qo‘srimcha bo‘limlarini o‘zlashtirishda, o‘qitishning muammoli-izlanish uslubidan foydalanish talab qilinadi.

Muhim masalalardan yana biri o‘quv jarayonida fanlardan sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish imkoniyatlarini aniqlash, maqsadga yo‘naltirilgan og‘zaki savol va mashqlarning didaktik asoslari, ulardan o‘quvchilarining mantiqiy fikrlash layoqatini rivojlantirishda foydalanish yo‘llari va shart-sharoitlarini ishlab chiqishdan iborat. Buning uchun quyidagi muammolarni hal etish talab qilinadi: boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mantiqiy fikrlash faoliyatini rivojlantirishda sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishning metodik imkoniyatlarini aniqlash zaruriyati mavjud.

### Adabiyotlar

1. Выготский Л.С. Педагогическая психология. – М.: “Педагогика”, 1991. -479 с.
2. Kaykovus. Qobusnoma. – Toshkent: “Istiqlol”, 1994. -321 bet.
3. Pedagogika. Ensiklopediya. III jild. Jamoa. -Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2017. -400 b.
4. Савенков А.И. Маленькие исследователи в реальной жизни // Дошкольное образование. № 7-2004. С. 6 -19.

**SHODIYEV Narziqul Shodiyevich**

SamDu O’zbekiston-Finlandiya  
pedagogika instituti “Pedagogika”  
kafedrasi professori

**NABIYEVA Dilfuza Temirovna**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand  
davlat universiteti, “Fakultetlararo  
pedagogika” kafedrasi o’qituvchisi

**ULUG’ AJDODLARIMIZ ILMIY MEROSI VOSITASIDA BO’LAJAK BOSHLANG’ICH  
SINF O’QITUVCHILARINI MA’NAVIY FAOLIYATGA METODIK TAYYORLASH**

*Ushbu maqolada tabiiy fanlarni o’rganishda buyuk ajdodlarimiz ma’naviy merosi vositasida talabalarni ma’naviy tarbiyaviy faoliyatga metodik tayyorlash bilan bog’liq masalalar xususan “Odam anatomiysi, fiziologiya va gigiyenasi” fan o’quv dasturi va didaktik vositalarida bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini ma’naviy tarbiyaviy faoliyatga metodik tayyorlash vazifasi bevosita qo’yilmagan bo’lsada biroq, keying yillarda yaratilgan ayrim o’quv qo’llanma (asosan, ularning kirish)larida buyuk ajdodlarimiz hamda zamonaviy o’zbek fiziolog, gigiyenik olimlarning fan taraqqiyotiga qo’shgan hissalari qisqacha muhokama qilingan.*

**Kalit so’zlar:** ma’naviy meros, milliy qadriyat, o’qituvchi, ta’lim jarayoni, fan dasturi.

**МЕТОДИЧЕСКАЯ ПОДГОТОВКА БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ  
К ДУХОВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ НАШИХ  
ВЕЛИКИХ ПРЕДКОВ**

*В данной статье при изучении естествознания рассматриваются вопросы, связанные с методической подготовкой учащихся к духовной деятельности средствами духовного наследия наших великих предков, в частности, в учебном плане по естественным наукам и дидактических пособиях “Анатомия человека, физиология и гигиена” в будущей начальной школе. Хотя задача методической подготовки учителей к духовно-просветительской деятельности прямо не ставилась, некоторые учебники, созданные в последующие годы (главным образом, во введении, внесли свой вклад наши великие предки и современные узбекские физиологи и гигиенисты) кратко обсуждаются вопросы.*

**Ключевые слова:** духовное наследие, национальные ценности, будущий учитель начальных классов, педагогический процесс, программа.

**METHODOLOGICAL PREPARATION OF FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS  
FOR SPIRITUAL ACTIVITY ON THE BASIS OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF OUR  
GREAT ANCESTORS**

*In this article, in the study of natural sciences, the issues related to the methodical preparation of students for spiritual activities by means of the spiritual heritage of our great ancestors, in particular, in the science curriculum and didactic tools of “Human Anatomy, Physiology and Hygiene” in the future elementary school. Although the task of methodological preparation of teachers for spiritual educational activities was not directly set, some textbooks created in the following years (mainly, in their introductions, our great ancestors and modern Uzbek physiologists and hygienists contributed to the development of science contributions are briefly discussed).*

**Keyword:** spiritual heritage, national values, teacher, educational process, science program.

O’tkazilgan tahlillar natijalari “Odam anatomiysi, fiziologiya va gigiyenasi” fan o’quv dasturi va didaktik vositalarida bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini ma’naviy tarbiyaviy faoliyatga metodik tayyorlash vazifasi bevosita qo’yilmagan. Istiqlol davrida xusan keying yillarda yaratilgan ayrim o’quv qo’llanma (asosan, ularning kirish)larida Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobi, Abu Rayxon Beruniy, Ismoil Jurjoniy, Umar Chakmoniy, Abu Bakr Roziy hamda zamonaviy o’zbek fiziolog, gigiyenik olimlarning fan taraqqiyotiga qo’shgan ishlari qisqacha bayon qilingan.

Oliy ta’lim muassasasi partasidanoq bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini ma’naviy tarbiyaviy faoliyatga metodik tayyorlash deganda, biz uning o’quv rejasiga kiritilgan fanlarning har bir mavzusini o’rganish jarayonida kafedra professor-o’qituvchisi talabalarni o’rganilayotgan ta’lim mazmuni bilan mifik

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

ta’lim mazmuni va u bilan bog’liq bo’lgan ma’naviy merosni, milliy qadriyatlarimizni ajratib olishni, unga didaktik ishlov berishni, uni kichik yoshdagi o’quvchilar ongi va qalbiga singdirib borish shakl, metod va vositalari bilan qurollantirib borishning sifat va miqorini tushunamiz [10].

Jamiyatimizning oldiga xalqimizning boy aql-zakovat merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida bo’lajak boshlang’ich sinf o’quvchilarini ma’naviy faoliyatga metodik tayyorlashning tarbiyalashning samarali shakl, usullarini joriy etish mazkur ta’lim muassasasi oldiga muhim vazifa sifatida qo’ylgan[1].

Ushbu vazifani amalga oshirish uchun kafedra professor-o’quvchisi o’quv matrealini talaba to’liq o’zlashtirishi uchun har bir mavzusi oddiy, soda shakldagi o’quv elementlariga ajratib tushunarli qilib izohlashi va auditoriya mashg’ulotlariga ajratilgan vaqtini hisobga olishi lozim.

Mashg’ulotada har bir mavzu (savol)ga mos holda ajdodlarimiz ma’naviy merosiga ega o’quv materiali tanlanishi va o’quv vositasi aniqlanishi lozim.

Bo’lajak boshlang’ich sinf o’quvchilarini kasbiy-pedagogik yo’naqltirilganlik prinsipi asosida ma’naviy faoliyatga metodik tayyorlashni “Oliy nerv tizimi” va ulug’ ajdodimiz Abu Nasr Forobiy ma’naviy merosidan foydalanib mavzuni tushuntirish ishlanmasi namuna sifatida 1-jadvalda keltiramiz.

*1-jadval*

<b>Oliy maktab va boshlang’ich ta’lim vazifalari dasturlari savol va mavzulari</b>		
Odam anatomiysi, fiziologiyasi va gigienasi	Tabiatshunoslik	Kichik maktab yoshidagi bolalar ongi, qalbiga ajdodlar ilmiy merosini singdirishning shakl, metodlari, ko’rgazmali vositalari, tarixiy materiallardan lavhalar.
<p>Oliy nerv faoliyati... Nerv sistemasi I.M. Sechenev va I.P. Pavlov (3-sinf) oliy nerv tuzilishi haqidagi ta’limotining asoschilaridir... Birinchi va ikkinchi signallar tizimidan.</p> <p>Abu Nasr Forobiy mazkur rus olimlaridan 1000 yil oldin birinchi va ikkinchi signallar haqidagi ta’limotga juda yaqin kelib qolganligi haqida aniq ma’lumotlarni bo’lajak o’quvchilarga yetkazish orqali ularni qalbiga milliy iftixorni jo’sh urdirish.</p>		

Ayni paytda yosh avlodni uzluksiz ma’naviy tarbiyalash jarayonini bo’lajak o’quvchi kadrlarni, shu jumladan bo’lajak boshlang’ich sinf o’quvchilarini, ma’naviy tarbiyaviy faoliyatga metodik tayyorgarligisiz tasavvur qilib bo’lmaydi.

Bugungi kunda amaldagi darslik va qo’llanmalar mazmuniga buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosi hamda istiqlol yillarida mazkur soha bo’yicha qo’lga kiritilgan yutuqlar singdirilmaganligini ta’kidlash joiz.

“Boshlang’ich ta’lim va spotr, tarbiyaviy ish” ta’lim yo’nalishi bo’yicha ushbu kamchilikni ma’lum daraja oldini olish bo’yicha keng potensial imkoniyatlar borligini ko’rsatmoqda.

Uzluksiz “Ta’limming barcha darajalarida ta’lim oluvchilarning... Sanitariya-gigeyena ta’limi hamda tarbiyasini takomillashtirish”[1,45] vazifasi qo’ylgan hozirgi kunda talabalarni gigiyenik tarbiya va sanitariya maorifining buguni, kelajagi, balki o’tmishi bilan tanishtirish, ularning mazkur soha bo’yicha pedagogik faoliyatda muhim ahamiyat kasb etadi.

“Gigiyenik tarbiya va sanitariya ” mavzusida bo’lajak pedagoglarni Abu Ali ibn Sinoning “Tib qonunlari” kitobidagi “Gigiyenaga oid ma’lumotlar bilan tanishtirish joiz. “Gigiyena” fani rivojiga Abu Ali ibn Sino katta xissa qo’shgan. U uy-joy gigiyenasi, kiyim-bosh gigiyenasi, ovqatlanish gigiyenasi, bolalarni tarbiyalash va ularda gigiyenik malakalarni tarkib toptirish va boshqa sohalarni ishlab chiqib yangiliklar bilan boyitgan, kasalliklar suv va tuproq orqali tarqalishini bundan X asr avval aytgani bilan talabalarni tanishtirish ularda buyuk bobokalonlarimizga mehr-sadoqatni uyg’otadi.

Shuningdek, ta’lim oluvchilarni Ismoil Jurjoniying “Xorazm shoh mo’jizalari” kitobida gigiyena masalalariga alohida to’xtab suv, havo, kiyim, uy-joy, xotirjamlik holati, uyg’oqlik, tush ko’rish masalalarini tibbiyot nuqtai nazaridan bayon etganligiga doir milliy qadriyatlar bilan tanishtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Abu Bakr ar-Roziyning fikricha, odamning kasalliklarida asosan havo, muhit, turmush sharoiti, yil fasllarining o’zgarishi sabab bo’ladi.

Respublikamizda qabul qilingan “Sog’lom avlod” davlat dasturi “Ijtimiy tafakkurida yetuk, ma’naviy boy, jismonan sog’lom va barkamol avlodning tug’ilishi va tarbiyalanishi uchun yuksak ma’suliyat psixologiyasini shakllantirish masalalari bo’yicha aholiga, shu jumladan talabalarga bo’lajak pedagog kadrlarga yalpi bilim berishni talab etmoqda.

“Odam anatomiysi, fiziologiyasi va gigienasi” fani “Nerv tizimi” mavzusining “...markaziy nerv tizimida tormozlanish turlari... charchash” savollarini o’rganish jarayonida bo’lajak boshlang’ich sinf

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

---

o’qituvchilar diqqatini nerv sistemasi doimo sog’lom bo’lib, me’yorida ishlashi uchun kun tartibiga, ya’ni ma’lum bir vaqtida ishlash, dam olish va ovqatlanishga rioya qilish, uning charchashini oldini olishga yordam berishga jalg qilish lozim.

Yurtimizda xalqimizning, birinchi galda, yoshlarimizning yuragini kuchli bo’lishi, uzoq vaqt charchamasdan mehnat qilishlari uchun mamlakatimizning barcha go’shalarida sportning barcha turlari bo’yicha ko’plab inshoatlar qurilib foydalanishga topshirilmoqda, ularda sportning barcha turlari bo’yicha Respublika, Osiyo, Yevropa championatlari o’tkazilmoqda.

“Oliy nerv tizimi” “I.M.Sechenev va I.P.Pavlov oliy nerv tuzilishi haqidagi ta’limotning asoschilaridir... Birinchi va ikkinchi signallar tizimlari” savollarini o’rganish jarayonida o’qituvchi oliy ta’lim muassasasi talabalariga Abu Nasr Farobiy mazkur rus olimlaridan 1000 yil ilgari birinchi va ikkincha signallar haqidagi ta’limotga juda yaqin kelib qolganligi haqidagi ma’lumotlarni yetkazish orqali ularda milliy iftixor tuyg’usini uygotdi.

Abu Ali ibn Sinoning tovush jismlarning bir-biriga urilganida havoning qattiq itarilib tebranishi va bu tebranish tarqalib qulq pardasiga urilishi natijasida eshitish sezgisi hosil bo’ladi, degan qarashlarini o’quvchilarga tushuntirish orqali ularda buyuk bobokalonlarimizga mehr-sadoqat tuyg’usini uyg’otadi.

Tovush bosimi eshitish organi uchun qabul qilingan me’yorlardan ortiq bo’lsa qisman yoki to’la kar bo’lib qolishga, markaziy asab va yurak-qon tomir tizimi, oshqozon-ichak traktini xastalanishiga olib kelishi mumkin.

Shovqin inson organizmi energiya sarfini oshirib, uni charchashiga sabab bo’lishi mumkin. Shovqinni pasaytirish ta’lim-tarbiya jarayonining sanitariya-gigiyena sharoitini yaxshilaydi.

“Tayanch skelet tizimi” mavzusining “Qo’l, oyoq skleti, ularning funksiyasi. Mushak ishi, charchash...” savollarni o’rganish jarayonida Abu Ali ibn Sinoning “Harakat o’z ta’siriga ko’ra hamma dorivor moddalarning o’rnini bosa oladi. Kam harakat qilish o’z organizmini kurmaklashi demakdir”, degan ta’limotiga tayanib Amir Temur avval o’zi cho’ponlar orasida, tog’da qor uyumlari, bo’rilar to’dasi bilan kurashib, jilovlab bo’lmaydigan yovvoyi zotli otlarni bo’ysindirib, cho’lda qum tepaliklariga oson chiqib, ulardan oson tushib, bepoyon cho’lda mo’jal olish kabi ko’p sonli mashqlarni bajarib mushaklarini yaxshi rivojlantirib, charchashni bilmaydigan, sarkarda sifatida o’z navkarlarining harbiy tayyorgarligi bo’yicha ishlab chiqqan jismoniy mashqlari va sport tizimidan foydalanilganini “Jismoniy tarbiya” fani o’qituvchisi bilan hamkorlikda talabalarni tanishtirib borish ularning pedagogik faoliyatida asqotadi.

Amir Temur o’z askarlarini qo’l va oyoqlari mushaklarini baquvvat qilish maqsadida ularning qilich, shamshirlarini o’ng qo’li bilan ham chap qo’li bilan ham bir xil o’ynatishga tez-tez mashq qildirishi, katta og’ir toshlarni ko’tarish, surish, tosh bilan nishonga olish, ilgak va changaklar yordamida baland devorlar ustiga arqonlarga tirmashib, tez va chaqqonlik bilan chiqib olishi, devor tepasida qilichbozlikni mashq qildirishi barobarida jismoniy mashqlarning bir turini ikkinchi turi bilan ma’lum dastur asosida tinimsiz almashtirib turganliklari va bunda dam olish, bayramlarni bilmasdan Sohibqironnning o’zi ham ishtirot etishini bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilariga tushuntirib berish ularda milliy g’ururni uyg’otadi. Zero, Amir Temur o’z o’gitlarida “Askari baquvvat mamlakat kuchli bo’lur, kuchli mamlakatning askari baquvvat bo’lur”[3], degan shiorni qayd etgan bo’lib, u davlat boshqaruvining asosini tashkil qildi.

“Tayanch skelit tizimi” mavzusini o’rganish jarayonida OTM o’qituvchisi Amir Temur o’z navkarlarini jismoniy jihatdan baquvvat bo’lishiga erishish maqsadida maxsus binolar qurdirib, ularda harbiy jangchilar uchun o’zi ishlab chiqqan mashqlar tizimini amalga oshirganligi to’g’risida pedagog mutaxassislarga ma’lumot berishi maqsadga muvofiq. Jumladan “Chiriq tuzib, navkar olmoqda uch qoidaga amal qildim, ya’ni yigitning kuch-quvvatiga, qilichni o’ynata olishiga, uning aql-zakovatiga e’tibor bergenligini, shu uch fazilat jamuljam bo’lganida navkarlikka olgani”ni [3] ta’kidlash barobarida. Amir Temur uning kuch-quvvatini oshirib har qanday qiyinchiliklar, azob-uqubatlarga chidashi, qo’l, yelka mushaklarini mashq qildirgan.

“Ovqat hazm qilish tizimi” mavzusi bo’yicha amaliy ish; ovqatlanishga qo’yiladigan gigiyenik talablarni o’rganish hamda “Modda va energiya almashinuvi” mavzusining “Ovqatlanish rejimi va me’yoriga amal qilishi lozimligini XI asrda yashab ijod etgan buyuk adabiyotshunos olim Yusuf Xos Hojib hayoti davomida turmushning son-sanoqsiz ikr-chikirini ko’rib, o’rganib va tahlil qilib o’zining “Saodatga yo’llovchi bilim” [12] kitobida badnafs bo’lishlik insonning ahloqiga ham umriga ham zarar yetkazishini bo’lajak mutaxassislarga tushuntirishi lozim. Jumladan, Yusuf Xos Hojib mazkur kitobida bu haqda shunday yozgan: “Men juda ko’p ko’rganman, qadr topgan kishilar ham nafsiyi tiya olmaganliklari tufayli yuztuban ketganlar. Elda ulug’lik kishilar ham nafsiyi tiya olmaganliklari tufayli yuztuban ketganlar. “Ey nafsi g’olib, sen nafsingga tutqun bo’lma, nafs qopqoniga ilinma, undan qutulib bo’lmaydi”.

Ovqatni me’yori bilan ye, ko’p ovqat yema. Zakovatli, aziz kishi senga shunday ta’lim: ko’p ovqat ye yeyuvchilarning yegan ovqati balo bo’ladi, ovqati balo kishi esa doimo dardmand bo’ladi.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

---

Insonning hayvondan ajratadigan narsalardan biri, o’z mijoziga qarab ovqat yeyishidir.

Shu o’rinda Amir Temur: pri komil shayx Baxovuddin Naqshbandiyning nasixatlariga amal qildim, arkoni davlatdagи barcha mulozimlarga ham aytur so’zim shu bo’ldi, “Kam yenglar - ocharchilik ko’rmasdan boy badavlat yashaysizlar. Kam uxlanglar-mukammallikka erishasizlar, kam gapiringlar – dono bo’lasizlar” degan ibratli sozlarini keltirish joiz.

Yusuf Xos Hojibning ovqatlanish to’g’risidagi pandu nasixatlariga Alisher Navoiy badnafslar uchun o’rnak bo’ladigan “Izzat tilasang oz de, sihat tilasang oz ye” degan aforizmini yozgan.

Abu Rayxon Beruniy” Inson organizmi tuzilishi haqida”gi kitobida inson organizmi, uning yaxlitligi va o’zaro aloqadorligini ta’kidlab, organizmda bo’ladigan kasalliklar va o’zgarishlar birinchi galda ovqatlanish tarkibi bilan bog’liqligini, organizmni sog’lomlashtirish uchun sog’lomlashtiruvchi tadbirlarni qo’llash zarur, degan fikrlarini bayon qilgan.

Abu Ali ibn Sino “Tib qonunlari” asarida kasalliklarni oldini olish uchun sog’lomlashtiruvchi badan tarbiya mashg’ulotlarini amalga oshirish zarurligi, bo’kib me’yorsiz ovqatlanish, termoregulyasiyaning buzilishi va kam harakat qilish yurak-qon tomir kasalliklarni ko’payishiga olib keladi. Bu esa aholini o’lishi va nogironlashuviga sabab bo’ladi.

Ovqatlanish odobiga rioya qiling. Go’shtli ovqatni me’yorida iste’mol qiling. Me’yordan ortiq iste’mol qilingan go’shtli va unli ovqatlardan hosil bo’lgan bioximik mahsulotlar, bir tomondan arterial qon tomirlarini qarib qolishini (aterosklerozga uchrashini) tezlashtirish, ikkinchi tomondan, organizmda zaharli moddalarni me’yordan ortiq to’planib qolishiga olib keladi. Natijada organizm o’zini-o’zi zaharlay boshlaydi. Uchinchidan, oqsillar organizmda to’liq parchalanmaydi, hosil bo’lgan turli zararli unsurlar bo’g’in, paylarda, siyidik yo’llarida o’tirib qolib, ularda tosh hosil bo’lishiga sabab bo’ladi.

Ingliz shifokori Bregt haftada ikki marta go’shtli ovqat iste’mol qilishni, organizmni zaharli moddalardan tozalash uchun haftada bir kun oyda 6-10 kun ovqat (och qolish) yemaslikni tavsiya qilgan.

Xalqimizning turmush tarziga aylangan ro’za tutish, haftada ikki kun zo’r ovqat qilish udumini naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini chet el olimlari endi tasdiqlashyotir. Atoqli rus olimi Anoxinning yozishicha, go’shtxo’rlar qancha ko’p go’sht iste’mol qilsa, ularning o’limi shunchalik oshib borar ekan[7,20].

“Oq zahar”- shakarni ortiqcha iste’mol qilish rafinat holidagi shakarni ko’p istemol qilish uglevod almashishi jarayonini buzish natijasida qand kasalligini ko’payishiga, allergik va diatez holatlarining oshib ketishiga sabab bo’ladi.

“Qon, yurak-qon tomir tizimi” mavzusining “Yurak ishi, yurak tuzilishi... yurak muskullari...” savollarini o’rganishda mamlakatimiz aholisini 60 foizini tashkil qilgan yoshlarning yuragini kuchli va sog’lom bo’lishi, uzoq vaqt charchamasdan ishlay olishi yurak ishini rivojlantirish, mustahkamlash uchun uch bosqichli “Umid nihollari”, “Barkamol avlod”, “Universiada” sport o’yinlarini muntazam ravishda o’tkazilayotganligi, “Bolalar sportini rivojlantirish jamg’armasini tashkil etilganligi”ning (2002-yil) sog’lom avlod tarbiyasidagi ahamiyatini kichik mutaxassislarga muntazam ravishda tushuntirib borish. Me’yordan ortiq iste’mol qilingan go’shtli va unli ovqat (ayniqsa yog’li go’sht)lardan hosil bo’lgan bioximik mahsulotlar arteriya qon tomirlarining qotib qolishi (ateresklerozga uchrashi)ni tezlashtiradi.

“Bola organizmini chiniqtirish”, “Teri orqali chiniqtirish usullari va gigiyenasi”ni o’rganish jarayonida Amir Temur chiniqqan kishining terisi issiqlikni yaxshi saqlashi va kam kasallanishini hisobga olib, o’z navkarlarini kasalliklarga chidamliligin oshirish maqsadida chiniqtirishning quyosh, havo, suv kabi tabiiy omillaridan foydalanib ularni yozning jazirama issiq, qishning o’ta sovuq kunlarida uzoq muddatlarda cho’lga piyoda, otda, tuyada yurishni, daryo havzalarida yilning turli fasllarida kechib o’tishni mashq qildirgan va ularda o’zi ham ishtirot etgan.

Shunday qilib, “Odam anatomiysi va fiziologiyasi” fani bo’yicha o’tmish ajdodlarimizning bebafo asarlarini chuqur o’rganish orqali yangidan-yangi ta’limiy qadriyatlarni to’plash, ularni didaktik qayta ishslash hamda istiqlol yillarda mamlakatimiz olimlari erishgan yutuqlarni mazkur fan mazmuniga misqollab singdirib borish uzlusiz davom etadigan jarayon bo’lib, bo’lajak boshlang’ich sinf oqituvchilarida milliy g’urur, iftixor tuyg’ularini uyg’otishga xizmat qiladi.

### Adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // “Zarafshon” gazetasi, 2020 yil 25 yanvar.
2. Amir Temur tuziklari.-T.: sharq, 1991.-144 b.
3. “Odam anatomiysi, fiziologiyasi va gigiyena” namunaviy fanidan o’quv dasturi. Tuzuvchi: M.Matqobilova. – T., 2007. – B. 28-33.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

---

4. Raximov S. Abu Ali ibn Sino ta’lim-tarbiya.T.: O’qituvchi, 1976-99 b.
5. Sodiqov K. Kichik maktab yoshidagi bolalar anatomiyasi, fiziologiyasi va gigiyenasi. O’quv qo’llanma. – T.: Ilm ziyo, 2017-191 b.
6. Solixo’jayeva S.S. Bolalar va o’smirlar gigiyenasi. – T., 1991.
7. Sog’lom muhit va sog’lom avlod mavzusidagi anjuman materiallari.-Samarqand, 2000. - 48 b.
8. Shaxmarova S.A., Mamatqulov D.A. Sport anatomiyasi. O’quv qo’llanma. - T.: Ilm ziyo, 201-221 b.
9. Shodiyev N., Rahimqulova M. Oliy ta’lim tizimida bo’lajak o’qituvchilarni tayyorlashda kasbiy-pedagogik yo’naltirilganlik. Uslubiy qo’llanma.-Samarqand, 2019.-68 b.
10. Qodirov T.Z. Odam fiziologiyasi.-T. Ibn Sino, 1996.

## FILOLOGIYA VA TILLARNI O‘QITISH

**ЮЛДАШЕВА Дилором**

Профессор кафедры узбекского  
языкознания Бухарского  
государственного университета,  
кандидат педагогических наук

**РУЗИЕВА Мадина**

Магистрант кафедры узбекского  
языкознания Бухарского  
государственного университета

### ОСНОВНЫЕ ТЕМЫ СУБСТАНЦИАЛЬНОЙ ЛИНГВИСТИКИ И ИХ ПРЕПОДАВАНИЕ

*Язык существует в нашем сознании как система возможности, общности, отношения, характера. Он возникает через речь, принимает определённую материальную форму, внешний вид. Законы языка изучаются на основе диалектических законов. Однако каждый из этих законов имеет свою систему, и это не совсем одно и то же явление. Действительно, глубокая национальная природа и сущность грамматического построения выявляются, прежде всего, в различии языка и речи, а затем в преемственности связи язык-мышление-речь, которая служит темой и составляет сущность узбекского субстантивного языкоznания.*

**Ключевые слова:** лисон, язык, мышление, субстанция, формальная лингвистика, содержательная лингвистика.

### SUBSTANTIAL LINGVISLIK FANINING ASOSIY MAVZULARI VA ULARNI O‘QITISH

*Milliy istiqlol o‘zbek xalqiga nafaqat siyosiy va iqtisodiy mustaqillk bag ‘ishladi, balki milliy o‘zligini anglash va, eng muhimi, uni jahonga yoyib, IX-XIV asrlardagi shuhrati-yu an’anasini sharaf bilan davom ettirish imkoniyatini ham berdi. Zero, grammatik qurilishning chuqur milliy tabiatini va mohiyati, eng avvalo, til va lisonning farqlanishi, lison va nutq o‘rtasidagi tafovut, shundan keyin til-lison -tafakkur-nutq munosabatidagi uzviylik va uzlusizlik bilan ochib beriladiki, bu o‘zbek substansial tilshunosligining bosh mavzusi bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur maqolada bugungi kun milliy substansial, ya’ni mohiyat tilshunosligining bosh mavzusi bo‘lgan lison, tafakkur, nutq qarashlar xususida mulohaza yuritilgan. Yuqoridagi tushunchalar tasnifiga mustaqil holda atroficha yondashilgan.*

**Kalit so‘zlar:** lison, tafakkur, substansiya, formal tilshunoslik, substansial tilshunoslik.

<table border="1" style="width: 100%; border-collapse: collapse;"> <tr> <td style="width: 20%; padding: 5px;"><b>Основополагающий вопрос</b></td><td colspan="2" style="padding: 5px;">По каким законам мы живём, что нас окружает повсюду?</td></tr> <tr> <td style="padding: 5px;"><b>Проблемные вопросы учебной темы</b></td><td colspan="2" style="padding: 5px;">           1. Где применяется закон радиоактивного распада?            2. С помощью какого прибора можно измерить радиацию?            3. Как радиация влияет на окружающую среду и живые организмы?         </td></tr> <tr> <td style="padding: 5px;"><b>Учебные вопросы</b></td><td colspan="2" rowspan="3" style="padding: 5px;">           1.Что называется радиационной безопасностью?            2.Что собой представляет радиация? Какие виды радиации вам известны?            3.Что такое санитарное обследование медицинских учреждений?            4.Как осуществляются дозиметрические и радиометрические измерения?            5.Что такое гигиеническая оценка условий труда в соответствующих учреждениях, отделениях (кабинетах) и т.д.?            6.Каким требованиям должна отвечать аппаратура, предназначенная для регистрации ионизирующего излучения при дозиметрических и радиометрических измерениях?            7.Какие факторы необходимо учитывать для повышения точности дозиметрических и радиометрических измерений?            8.Что нужно иметь в виду при количественной оценке уровня рентгеновского или <math>\gamma</math>-излучения с помощью дозиметров и рентгенометров?            9.Как выполняются дозиметрические измерения?            10.Что такое гигиеническая оценка результатов исследований?         </td></tr> </table>			<b>Основополагающий вопрос</b>	По каким законам мы живём, что нас окружает повсюду?		<b>Проблемные вопросы учебной темы</b>	1. Где применяется закон радиоактивного распада? 2. С помощью какого прибора можно измерить радиацию? 3. Как радиация влияет на окружающую среду и живые организмы?		<b>Учебные вопросы</b>	1.Что называется радиационной безопасностью? 2.Что собой представляет радиация? Какие виды радиации вам известны? 3.Что такое санитарное обследование медицинских учреждений? 4.Как осуществляются дозиметрические и радиометрические измерения? 5.Что такое гигиеническая оценка условий труда в соответствующих учреждениях, отделениях (кабинетах) и т.д.? 6.Каким требованиям должна отвечать аппаратура, предназначенная для регистрации ионизирующего излучения при дозиметрических и радиометрических измерениях? 7.Какие факторы необходимо учитывать для повышения точности дозиметрических и радиометрических измерений? 8.Что нужно иметь в виду при количественной оценке уровня рентгеновского или $\gamma$ -излучения с помощью дозиметров и рентгенометров? 9.Как выполняются дозиметрические измерения? 10.Что такое гигиеническая оценка результатов исследований?	
<b>Основополагающий вопрос</b>	По каким законам мы живём, что нас окружает повсюду?										
<b>Проблемные вопросы учебной темы</b>	1. Где применяется закон радиоактивного распада? 2. С помощью какого прибора можно измерить радиацию? 3. Как радиация влияет на окружающую среду и живые организмы?										
<b>Учебные вопросы</b>	1.Что называется радиационной безопасностью? 2.Что собой представляет радиация? Какие виды радиации вам известны? 3.Что такое санитарное обследование медицинских учреждений? 4.Как осуществляются дозиметрические и радиометрические измерения? 5.Что такое гигиеническая оценка условий труда в соответствующих учреждениях, отделениях (кабинетах) и т.д.? 6.Каким требованиям должна отвечать аппаратура, предназначенная для регистрации ионизирующего излучения при дозиметрических и радиометрических измерениях? 7.Какие факторы необходимо учитывать для повышения точности дозиметрических и радиометрических измерений? 8.Что нужно иметь в виду при количественной оценке уровня рентгеновского или $\gamma$ -излучения с помощью дозиметров и рентгенометров? 9.Как выполняются дозиметрические измерения? 10.Что такое гигиеническая оценка результатов исследований?										
<p><b>План оценивания</b></p>											
<p><b>График оценивания</b></p>											
<b>До работы над проектом</b>	<b>Студенты работают над проектом и выполняют задания</b>	<b>После завершения работы над проектом</b>									
стартовая презентация преподавателя; мозговой штурм; критерии оценивания	листы планирования работы в группах; листы самооценки и взаимооценки; журналы участников проекта; статьи; написание выводов; рефлексия	конференция; листы самооценки и взаимооценки; итоговая рефлексия									
<p><b>Описание методов оценивания</b></p>											
<p>Работа над проектом начинается с оценки имеющихся знаний, для этого используется стартовая презентация преподавателя, мозговой штурм.</p> <p>В ходе работы над проектом студенты заполняют листы самооценки и взаимооценки, что даёт возможность студентам оценить свою работу и исправить недочёты, заполняют журналы участников проекта, выполняют рефлексию.</p> <p>По результатам работы над проектом проводится конференция, на которой студенты представляют результаты своей работы в виде презентации, также на данном этапе используются листы самооценки и взаимооценки, проводится итоговая рефлексия.</p>											
<p><b>Сведения о проекте</b></p>											
<p><b>Необходимые начальные знания, умения, навыки</b></p>											
Знания по теме проекта из курса “Радиационная медицина и технологии”.											

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

Знания ПК, умение работать с текстовыми, табличными, графическими редакторами, умение создавать презентации.

Умение работать с различными источниками информации, поиск информации в сети Интернет, пользование электронной почтой.

### **Учебные мероприятия**

В процессе работы над проектом студенты рассматривают закон радиоактивного распада. Получают навыки обработки информации. Студенты исследуют законы отражения и преломления света, делают прибор для проверки законов.

1. Подготовительный этап: подготовка руководителем проекта необходимых материалов и оборудования.

2. Основной этап: знакомство учащихся с целями проекта, методами работы над проектом, проведение исследования учащимися.

3. Заключительный этап: представление результатов исследования; подведение итогов работы и награждение участников проекта.

### **Материалы для дифференцированного обучения**

<i>Студент с проблемами усвоения учебного материала (Проблемный студент)</i>	Очень важно для проблемного студента - заинтересовать его. Сформулировать задание так, чтобы ему стало интересно работать и соответствовало его уровню, а в дальнейшем постепенно усложнять. Результаты обучения можно проверять в виде игры, например кроссворд или викторина (студент сам составляет кроссворд или викторину, или отвечает на кроссворд преподавателя).
<i>Студент, для которого язык преподавания не родной</i>	Студентам, для которых язык преподавания не родной, нужно давать посильные задания, с которыми они могут справиться. Хорошо, если более сильные студенты группы будут помогать им при работе над проектом. Можно применять иллюстрированные тексты.
<i>Одарённый студент</i>	Для одарённого студента нужны более сложные задания. Таких студентов назначают ответственным в группе, где они помогают другим студентам.

### **Материалы и ресурсы, необходимые для проекта**

#### **Технологии – оборудование (необходимо отметить нужные пункты)**

Фотоаппарат, лазерный диск (или USB–модем), видеопроектор, компьютер(-ы), принтер, видеокамера, цифровая камера, проекционная система, видео-, конференц- оборудование, DVD-проигрыватель, сканер, другие типы интернет-соединений, телевизор.

#### **Технологии – программное обеспечение (необходимо отметить нужные пункты)**

СУБД/электронные таблицы, программы обработки изображений, программы разработки веб-сайтов, настольная издательская система, веб-браузер, текстовые редакторы, программы электронной почты, мультимедийные системы, другие справочники.

<i>Материалы на печатной основе</i>	<p>1. Стояжаров А.Н. и др. Радиационная медицина: учеб-метод. пособие // 3-е изд. – Минск: БГМУ, 2007. – С. 144.</p> <p>2. Ролевич И.В., Морзак Г.И., Зеленухо Е.В. Радиационная безопасность: учеб. пособие. В 2 ч. - Минск: РИВШ, 2012. – С. 226.</p> <p>3. Москалев Ю.И. Отдаленные последствия воздействия ионизирующих излучений/ Ю.И. Москалев; – М.: “Медицина”, 1991. – С. 63-68.</p> <p>4. Ярилин А.А. Радиация и иммунитет. Вмешательство ионизирующих излучений в ключевые иммунные процессы / А.А. Ярилин; // Радиационная биология. Радиоэкология. – Т. 39, № 1. 1999 г. – С. 181-189.</p> <p>5. Гофман, Дж. Чернобыльская авария: Радиационные последствия для настоящего и будущих поколений / Дж. Гофман; пер. с англ. – Минск: Высш. шк., 1994. –С. 574.</p>
<i>Интернет-</i>	<p><a href="http://www.vikipediya.ru">www.vikipediya.ru</a></p> <p><a href="http://www.ziyonet.uz">www.ziyonet.uz</a></p>

**Заключение.** При проведении урока-лекции “Методом проектов” на тему: “Обеспечение радиационной безопасности в медицинских учреждениях” учащиеся овладевают дополнительной информацией о том, какие принимаются дополнительные меры защиты в случаях аварийных ситуаций, обеспечивающие снижение дозы облучения населения загрязненной территории. Также в ходе исследования и разработки проекта узнают, что дополнительные меры включают оптимизацию медицинского обслуживания населения и снижение доз облучения от других источников, в частности за счёт ограничения поступления радона в жилые и производственные помещения.

### **Литература**

1. Zoirova L.Kh., Bozorov E.Kh., Khojiev Sh.E., Khojieva M.E., Kalandarova D.A. // Use of the modern innovative educational technologies in training competitive medical physicists.// International conference “Modern problems of nuclear energetic and nuclear technologies” November 23-25, 2021, pp.213-215
2. Костылев В.А., Наркевич Б.Я. Радиационная медицинская физика – фундаментальная основа медицинской радиологии // Российский онкологический научный центр им. Н.Н. Блохина РАМН. – Москва: “Радиология и практик”, №2, 2007. С. 42-52.
3. Агранович Н.В., Ходжаян А.Б. и соавт. Инновационные технологии и интерактивные методы обучения в преподавании клинических дисциплин в медицинском ВУЗе // Международный журнал экспериментального образования. № 12-2. 2016. С. 255-256.

**ARTIKOVA G.E.**Nizomiy nomidagi TDPU Geografiya  
kafedrasи tayanch doktoranti**9-10-SINFDA "JAHON IQTISODIY-IJTIMOY GEOGRAFIYASI" FANINI PEDAGOGIK  
VA AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O'QITISHNING  
ILMIY-METODIK ASOSLARI**

*Ushbu maqolada jamiyatimiz hamda geografiya ta'lismida pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llab o'qitishga doir olib borilayotgan ilmiy izlanishlar samarasи tahlil qilindi hamda umumiy o'rta ta'lismaktablarining 9-sinflarida o'qitiladigan "Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi" kursini samarali tashkil etishda pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanishning usul va vositalari haqida fikrlar bildirildi.*

**Kalit so'zlar:** Umumiy o'rta ta'lismaktablari, Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fani, axborot texnologiyalari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, innovatsion pedagogik texnologiyalar, elektron darslik, multimediali ta'lism resurslari.

**НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБУЧЕНИЯ ПРЕДМЕТУ  
«ЭКОНОМИЧЕСКАЯ-СОЦИАЛЬНАЯ ГЕОГРАФИЯ МИРА» С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ  
ПЕДАГОГИЧЕСКИХ И ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В 9-10 КЛАССЕ**

*В данной статье проанализированы результаты научных исследований, проведенных в нашем обществе и системе географического образования с помощью педагогических и информационных технологий, а также курс «Мировая экономическая и социальная география», читаемый в 9 классе общеобразовательной школы. высказывается о методах и средствах использования педагогических и информационных технологий в эффективной организации.*

**Ключевые слова:** общеобразовательные школы, мировая экономическая и социальная география, информационные технологии, современные педагогические технологии, инновационные педагогические технологии, электронные учебники, мультимедийные образовательные ресурсы.

**SCIENTIFIC AND METHODOLOGICAL BASES OF TEACHING THE SUBJECT  
"ECONOMIC AND SOCIAL GEOGRAPHY OF THE WORLD" USING PEDAGOGICAL AND  
INFORMATION TECHNOLOGIES IN GRADE 9-10**

*This article analyzes the results of scientific research conducted in our society and the system of geographical education with the help of pedagogical and information technologies, as well as the course "World Economic and Social Geography", read in the 9th grade of a comprehensive school. speaks about the methods and means of using pedagogical and information technologies in an effective organization.*

**Key words:** general education schools, world economic and social geography, information technologies, modern pedagogical technologies, innovative pedagogical technologies, electronic textbooks, multimedia educational resources.

So'nggi yillarda davlatimiz tomonidan uzlusiz ta'lismida ko'pgina qonunlar, farmon, chora-tadbirlar hamda islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lib[1,2,3,4], ushbu islohotlardan ko'zlangan maqsad ta'lism sifatini oshirish, o'sib kelayotgan barkamol yosh avlodga zamon talablariga mos va xos holda ta'lism tarbiya berish, ta'lism jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni keng joriy qilish, jamiyatimizda ilmiy izlanishlar hamda tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishdan iborat.

Hozirgi kunda ta'lism sohasida, xususan Geografiya ta'limi sohasida ham anchagina ilmiy yutuqlarning mavjudligi yuqorida fikrimizning isbotidir. Jamiyatimiz ta'lism tizimida (geografiya o'qitish metodikasi sohasida) pedagogik va axborot texnologiyalarni qo'llab o'qitish borasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar samarasini tahlil etar ekanmiz, avvalambor tarixga nazar solmog'imiz lozim.

Tarixdan ma'lumki ,O'zbekiston, Rossiya va boshqa MDH davlatlari ta'lism tizimiga XX asrning 90-yillaridan boshlab "Yangi pedagogik texnologiyalar", "Ta'lism texnologiyalari", "Axborot texnologiyalari", "Innovatsion texnologiyalar" va boshqa shu kabi tushunchalar kirib keldi.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

XX asrga kelib fan-texnikanining yuksak darajada rivojlanishi munosabati bilan ta’lim tizimida ham qator muammolar vujudga keldi. Bunday muammolarga avvaldan kafolatlangan natijalarni olishga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini loyihalash va amalga oshirish kiradi.

Shu maqsadda XX asrnинг 50-70-yillar oralig‘ida AQSHda B.Bulum, D.Kratvoll, N.Gronlund, Dj.Kerol, Dj.Blok, A.Anderson va boshqa pedagog olimlar tomonidan rejalashtirilgan natijalarni olishga kafolatlaydigan, qayta takrorlanadigan pedagogik siklni o‘z ichiga olgan texnologiyalar ishlab chiqildi. Mazkur texnologiyalar Yevropa davlatlarining ta’lim tizimida ham qo‘llanila boshlandi. Pedagogik texnologiyalar bo‘yicha ilmiy jurnallar nashr qilina boshlandi [19].

Rossiyada pedagogik texnologiyalar XX asrnинг 90-yillaridan boshlab tarqala boshladi. Mazkur texnologiyalar sohasida B.P.Bespolko, M.V.Karlin, V.G.Guzeev, T.S.Nazarov, N.Nikondova, N.F.Kostenko, V.R.Imakova, G.Ilini, B.I.Bulin, Sokolova, YU.G.Molokova, O.Episheva, P.K.Selevko va boshqalar yangi pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga qo‘llash bo‘yicha o‘zlarining ulkan ishlarini amalga oshirishgan. Rossiyalik pedagog olimlarning pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalari, ilmiy izlanishlarining ijobiy natijalari haqidagi ma’lumotlar “Школьные технологии” nomli jurnalda nashr qilina boshlandi. Yangi pedagogik texnologiyalar ta’limning barcha bosqichlarida (*maksiabgacha ta’lim, boshlang‘ich, o‘rta, o‘rta maxsus va olyi ta’lim*) qo‘llanila boshlandi.

O‘zbekistonda pedagogik texnologiyalar sohasida 2000-yildan boshlab yirik ilmiy ishlar va o‘quv qo‘llanmalar nashr qilina boshlandi. Bu sohada B.P.Ferberman, N.Saydahmedov, F.Jumaboyev, A.Ochilov, L.Golish, B.Ziyamuhamedov, Sh.Abdullayev, O.Tolipov, J.Tolipova, A.T.G.ofurov va boshqalar tomonidan yaratilgan manbalar uzlusiz ta’lim tizimining turli bosqichlarida faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilarga pedagogik texnologiya asoslari, ta’lim jarayoniga inavatsion-texnologik yondashuv, ta’lim jarayonini loyihalash, uni tashkil etishga xizmat qiluvchi ijodiy ishlanmalarni tayyorlash kabi jarayonlar bilan tanishtirish imkoniyatini bermoqda. [19]

Bizga ma’lumki, inson tabiatning bir qismi uning ajralmas bo‘lagidir. Tabiat va jamiyat munosabatlarni uyg‘unlashtirib o‘rganuvchi geografiya fani esa ko‘plab fan tarmoqlari hamda inson hayoti faoliyati bilan chuqur aloqada hisoblanadi. Hech bir fan geografiyachalik tabiat va jamiyat aloqadorligini o‘zida yaqqol namoyon eta olmaydi. Shu boisdan geografik bilimlarni mukammal egallahda ta’lim jarayoniga pedagogik va axborot texnologiyalarni tatbiq etish muhim va dolzarb masala hisoblanadi.

Geografiya va geografiya ta’limida pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha rossiyalik olimlardan N.N.Baraniskiy [5], A.V.Darinskiy[6], V.A.Juchkevich [7], L.M.Pancheshnkova [8], S.Matrusov[9] shuningdek respublikamiz olimlaridan O.Mo‘minov [10], P.Musayev [11], P.G‘ulomov[12], T.Abdullayeva [13], M.Asamov [14], M.Nabixonov [15], M.Yunusova [16], R.Saidov [17], R.Qurbaniyozov[18] kabi olimlarning ilmiy-metodik ishlari alohida amaliy ahamiyat kasb etadi. Ushbu olimlarning ilmiy ishlarida geografiya o‘qitish metodikasini ta’lim texnologiyalarni qo‘llash orqali takomillashtirish, o‘qitish vositalari hamda metodlari haqida keng bayon etilgan.

Jumladan, rus olimi A.V.Darinskiy ko‘p yillik izlanishlari natijasida geografiya darslarida o‘quvchilarni faollashtirish yo‘llari va usullarini chuqur tahlil etgan. V.A.Juchkevich esa geografiya darslarini samarali tashkil etishda qanday ko‘rgazmali qurollardan foydalanish kerakligi haqida ma’lumotlar keltirgan.

O.Mo‘minovning ilmiy tadqiqot ishida maktablarda tabiiy geografiyaning o‘qitish masalalariga doir ko‘plab metodik taklif va tavsiyalari o‘z ifodasini topgan. Olim geografiya o‘qitish metodikasiga doir ko‘pgina adabiyotlar yaratgan.

M.Nabixonov tadqiqot ishida maktab geografiya bosqichida badiiy ko‘rgazmali vositalarning roli va qo‘llanilishini tatbiq etgan. R.Qurbaniyozov esa maktab geografiya darslarida o‘quvchilarni mehnatga yo‘naltirish, darsga bo‘lgan qiziqishlarini orttirishda interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati haqida bayon etgan hamda ko‘plab metodik va o‘quv qo‘llanmalar yaratgan [22, 23].

1960-2020-yillar davomida, geografiya o‘qitish metodikasi sohasida N.Dolim, O.Mo‘minov, T.Abdullayeva, Z.Akromov, P. Musayev, P. G‘ulomov, X.Vohobov, A.Qayumov, P.Baratov, M.Mamatqulov, A.Abdulqosimov, R.Qurbaniyozov, A.Soatov, A.Nizomov, A.Rafiqov, G.Asanov, A.Xodjimatov, M.Nabixonov, I.Safarov, N.Sultonova, N.Alimqulov va boshqalar tomonidan umumta’lim maktablari hamda oliy o‘quv yurtlari uchun ko‘pgina darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratildi.

Jumladan, O.Mo‘minov [20], H.Vahobov, N.R.Alimqulov, N.B.Sultonovalar [19] tomonidan yaratilgan “Geografiya ta’limi metodikasi” va “Geografiya o‘qitish metodikasi” nomli adabiyotlarda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning turli shakl va metodlari dars davomida axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish imkoniyatini yaratish, geografiya o‘qituvchisining vazifasi talabani faol faoliyatga kiritishligi, buning uchun o‘qituvchi pedagogik hamda axborot texnologiyalardan unumli foydalanishi muhim natijalar berishi haqidagi fikrlar o‘z aksini topgan.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

Hozirgi davrda uzlusiz ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri o‘qitishning zamona viy axborot kommunikatsiya hamda pedagogik texnologiyalardan keng foydalanib dars samaradorligini oshirish hamda rivojlangan mamlakatlarning tajribalarini tatbiq etish muhim masala hisoblanadi.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi esa mavjud ilmiy manbalar tahliliga ko‘ra, XX asrning 80-yillaridan Yevropaning qator davlatlarida axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish keng joriy etila boshlandi. 1990 yillarning o‘rtalarida Internet tarmog‘ining rivojlanishi pedagogik jarayonlarda interfaol ta’lim doirasida qo‘llanilib, ta’limda o‘z aksini topa boshladi. Muammoni nazariy o‘rganish xorijiy mamlakatlardan AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Rossiya davlatlari mediata’limni o‘qitish jarayonida katta ijobjiy o‘zgarishlarni va yutuqlarni qo‘lga kiritganliklari aniqlandi [24].

Xorijiy mamlakatlarda axborot texnologiyalarini va media vositalar orqali ta’limni tashkil etish borasida B.Duncan [25], R.Kubey [26], S.Minkkinen [27], A.Silverblatt [28], Mc.Mahon [29], W.Potter [30], C.Worsnop [31] kabi olimlar tadqiqot ishlarini olib borgan.

Shuningdek, hozirgi kunda axborot texnologiyalarining pedagogik asoslarini ishlab chiqish bo‘yicha rivojlangan xorijiy davlatlar (*AQSH texnologiyalar milliy universiteti* (<http://www.ntu.edu>), Gollandiyaning ochiq universiteti (<http://www.ou.nl>), Isroiuning ochiq universiteti (<http://www.open.ac.uk>), Ispaniyaning masofadan o‘qitish milliy universiteti (<http://www.cesc.com>), Xitoyning Shanxay teleuniversiteti (<http://www.shtvu.edu.cu>), Britaniyaning ochiq universiteti (<http://www.open.ac.uk>), va Avstralaliyaning ochiq turdag'i o‘qitish agentligi (<http://www.ola.edu.au>) da olib borilayotgan ilmiy izlanishlarni alohida ta’kidlashimiz lozim [65,67,68,69,70,71,72,73].

Pedagogik jarayonda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish bo‘yicha Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi pedagog olimlari A.V.Fyodorov [32], A.V Shakirov[33], V.A.Vozchikov [34], E.A.Bondarenko, [35], A.A Jurin [36], I.Fateeva[37]va boshqalarning ilmiy ishlarida yoritilgan.

Barchamizga ma’lumki, vatanimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng, ta’lim sohasida ko‘pgina yangiliklar va o‘zgarishlar yuz berdi. Bugungi kunda respublikamiz uzlusiz ta’lim tizimi oldida bilim olishning zamona viy samarali vositalarini joriy etish kabi dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda va ular bosqichma- bosqich amalga oshmoqda. Respublikamiz olimlaridan ta’lim tizimida kompyuter texnologiyasidan foydalanib o‘qitishni takomillashtirish bo‘yicha A.A.Abduqodirov [38], U.Sh.Begimqulov [39], M.Mamarajabov [40], M.Arakov [41], F.Zakirova [42], V.Manaxov [43], N.Talizina [44], E.Mashbiz [45], M.Lutfullaev [46], R.Boqiyev [47], N.Tayloqov [48], U.Yuldashev [49] va boshqalar tomonidan olib borilgan bo‘lib, geografiya ta’limi samaradorligini oshirishda didaktik vositalar va kompyuter texnologiyalaridan foydalanib o‘qitish masalalariga doir ilmiy tadqiqot ishlari rossiyalik olimlardan N.N.Baraniskiy [5], A.V.Darinskiy [6], V.A.Juchkevich [7], L.M.Pancheshevskova[8], I.A.Kuvardina [50], I.B.Kozak [51], A.S.Baranov [52], E.Y.Zabolotovna [53], shuningdek, respublikamiz olimlaridan O.Mo‘minov [20,21], U.Safarov [54], H.Nikadamboeva [55], F.Xamroeva [56], A.Abdurahmonov [57], I.Abdug‘aniyev [58], D.Abdullayeva [59] va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Yuqorida nomlari sanab o‘tilgan olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida geografiya ta’limida axborot texnologiyalarini qo‘llashning afzalliklari tushuntirib o‘tilgan va ular tomonidan ko‘plab amaliy ahamiyatga ega metodik qo‘llamma hamda elektron darsliklar yaratilgan. Jumladan, O.Mo‘minov va U.Safarovlar “Oliy jo‘g‘rafiya ta’limida kompyuter texnikasidan foydalanish”, I.Abdug‘aniyev “Geografiya darslarida ta’limning texnika vositalaridan foydalanish”, H.Nikadambayeva “O‘zbekiston tabiiy geografiyasi fanini o‘qitish jarayoniga kompyuter va pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish”,. “O‘zbekiston tabiiy geografiyasi (*elektron darslik*)” D.Abdullayeva “Geografiya (*elektron darslik*)”, “Qiziqarli Geografiya (*mobil ilovasi*)” nomli adabiyotlar shular jumlasidandir.

Tahlillarga ko‘ra, mamlakatimiz maktab ta’lim tizimida tabiiy geografiya fanlarini turli usullar va vositalar bilan o‘qitishga doir ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan, ammo iqtisodiy-ijtimoiy geografiya, xususan “Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi” fanini o‘qitishda zamona viy pedagogik va kompyuter texnologiyalarini o‘quv jarayoniga joriy qilish masalasi hozirgi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

Respublikamiz umumta’lim maktablarining 9-sinfida o‘qitiladigan “Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi” fani o‘quvchilarga jahon va uning ayrim qismlariga xos betakror geografik xususiyatlarni ko‘rsatib berishi bilan birga, jahon mamlakatlarining tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jalik faoliyatini o‘rganishi hamda iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyot va hayotning hududiy tashkil etish qonuniyatlarini tavsiflaganligi uchun bu fan mamlakatimizning jahon hamjamiyati bilan yanada integratsiyalashuviga zamin yaratadi. ”Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi” fani o‘quvchilarga geografik bilim beribgina qolmay iqtisodiy-ijtimoiy, ekologik bilimlar berishi bilan ahamiyatlidir.

Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi, fanining qaror topishi va rivojlanishi jahonning ko‘p geograf olimlari nomi bilan bog‘liq. Ushbu fan taraqqiyoti ayniqsa N.N.Baraniskiy, A.I.Veter, N.N.Kolosovskiy,

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

B.N.Semevskiy, O.A.Konstantinov, V.V.Pokshishevskiy, Yu.G.Saushkin, I.M.Maergoyz, S.B.Lavrov va A.T.Xpushev kabi olimlarning nomlari bilan bog‘liq.

Respublikamizda bu borada Z.A.Akramov, M.Qoraxonov, T.I.Raimov, O.B.Otamirzayev, A.S.Soliyev, A.N.Ro‘ziyev, X.S.Salimov, A.A.Qayimov va boshqa olimlar tadqiqot ishlarini olib borishgan hamda o‘zlarining ilmiy maktablarini yaratishgan [59].

Demak, yuqorida nomlari qayd etib o‘tilgan olimlarimizning tadqiqot ishlarining tahlilidan umumta’lim mакtablaridagi ta’lim-tarbiya jarayonida, jumladan, “Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi” fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanib o‘qitish (*elektron-multimediali darslik yaratish*) obyektiv zaruriyat ekanligi ma’lum bo‘ldi.

Bizga ma’lumki, geografiya fanni o‘qitishda elektron ta’lim vositalardan foydalanib ma’lumotlarning o‘quvchilarga yanada to’liqroq va tushunarliroq bo‘lishini ta’minalash muammosi yuzaga kelmoqda. Geografiya darsliklaridagi mavzularning ko‘pchiligidagi mavzu yuzasidan rasmlar keltirilgan bo‘lib, bu rasmlar orqali o‘quvchilar mavzu yuzasidan to’liq tasavvurga ega bo‘la olishmaydi. Jumladan, 9-sinf “Jahon iqtisodiy ijtimoiy geografiyasi” kursi mavzularini o‘qitishda o‘qituvchi tomonidan zamonaviy elektron ta’lim vositalari (*videodars, multimedia resurslari, animatsiyalar, videofilmlar*)dan foydalanish orqali o‘quvchilar Jahon siyosiy xaritasida joylashgan davlatlar va ular haqidagi kengroq ma’lumotlarga ega bo‘ladilar, o‘quv jarayonini yanada qiziqarli, yorqin, hayajonli qilish, darsni o‘quvchilar uchun yanada tushunarli va qulay bo‘lish imkonini beradi, o‘quvchilarni mustaqil bilim olishga undaydi hamda geografik bilimlarni o‘rganish jarayonini jonli bo‘lishiga zamin yaratadi.

Elektron darslik kompyuter texnologiyasiga asoslangan o‘quv uslubini qo’llashga, mustaqil ta’lim olishga hamda fanga oid o‘quv materiallar, ilmiy ma’lumotlarning har tomonlama mustahkam o‘zlashtirilishiga mo’ljallangan bo‘lib o‘quv va ilmiy materiallar faqat verbal shaklda; o‘quv materiallari verbal va ikki o’lchamli grafik shaklda; multimedia qo’llanmalar, ya’ni ma’lumot uch o’lchamli, grafik ko‘rinishda, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal shaklda; his qilinuvchi, seziladigan xususiyatlari, o‘quvchini “ekran olamida” stereo nusxasi tasvirlangan real olamga kirishi va undagi obyektlarga nisbatan harakatlanish tasavvuri yaratiladigan shaklda ifodalanadi. Bu esa o‘quvchilarni mavzuni yanada chuqur, ko‘rgazmali ilmiy asoslangan holda mazmunli va qiziqarli tushunishiga imkon beradi [60].

Hozirgi vaqtida ta’lim tizimida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishning quyidagi usullari mavjud:

1. Elektron darsliklar;
2. Elektron xaritalar;
3. O‘quv filmlari;
4. Multimediali resurslar;
5. Bilim va ko’nikmalarni mustahkamlash bo‘yicha topshiriqlar to’plami;
6. O’rganilayotgan mavzular bo‘yicha nazariy bilimlar o‘quvchilar tomonidan qanday darajada o‘zlashtirilayotganini tekshirishga mo’ljallangan test dasturi;
7. Elektron virtual kutubxona;
8. Har bir o‘quvchi uchun amaliy topshiriqlarni tayyorlash va bosib chiqarish dasturi;
9. Distant uslubida o‘qitish, ya’ni o‘qituvchi va o‘quvchilar ma’lum masofada joylashgan holda ta’lim berish tizimi;
10. Internet tarmog’iga ulangan multimedia kompyuterlari va b.

Yuqorida sanab o‘tilgan dasturiy vositalardan hozirgi vaqtida ta’lim jarayoniga, ayniqsa, multimedia vositalarini qo’llash keng joriy qilingan bo‘lib, pedagogik va psixologik nuqtai nazardan juda katta ahamiyatga ega.

Multimedia (*ingliz tilidan multi – “ko’p, keng”, media – “muhit”*) resurslar ovoz, grafika, animatsiyalarni o‘ziga olgan harakatlanish mavjud bo‘lgan muayyan mavzuga doir resursdir [61]. Ushbu elektron axborot ta’lim resurslarini dars mashg’ulotlarida foydalanish uchun bizga kompyuter texnikasi va boshqa texnik vositalar (*videoproektor, kodoskop, interaktiv “elektron” doska, DVD-pleer, TV*) kerak bo‘ladi [62]. Geografiya kursi tinglovchilariga o‘quv-mashg’ulotlarini tashkil etishda multimedia vositalaridan foydalanilganda tinglovchilarning mavzular mazmun-mohiyatini to’g’ri anglashiga va shu orqali kerakli bilim, ko’nikma va malakalarga ega bo‘lishlariga katta imkoniyat yaratiladi. Davlatlar va ularning joylahgan geografik o‘rni, aholisi, milliy tarkibi tabiiy resurslari, iqtisodiy ko‘rsatkichlari va boshqa ma’lumotlarni multimediali resurslar orqali namoyish qilish dars jarayoni samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Multimediali texnologiya - bir vaqtning o‘zida ma’lumot taqdim etishning bir necha usullaridan foydalanishga imkon beradi: matn, grafika, animatsiya, videotasvir, ovoz va h.k.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

So'nggi yillar davomida ko'plab multimediali dasturiy mahsulotlar yaratildi va yaratilmoqda: ensiklopediyalar, o'rgatuvchi dasturlar, kompyuter taqdimotlari va boshqalar shular jumlasidan.

Multimedia mahsuloti:

Birinchidan, foydalanuvchiga, albatta, interfaollikni taqdim etadigan, ya'ni inson vakompyuter o'rtasida buyruq va javoblar almashinuvini ta'minlab, dialog muhitini yaratadigan dasturiy mahsulot;

Ikkinchidan, turli video va audio effektlar ishlataladigan muhit. Macromedia Direktor – taqdimot va multimedia mahsulotlari yaratishga xizmat qiladi. Ushbu dastur MMX-teknologiyalar bilan, shuningdek, tugmalar, slaydlar, klip va animatsiyalar bilan ishlashga imkon beradi.

Multimedia ilovalari quyidagi turlarga bo'linadi:

taqdimotlar;

animatsion roliklar;

o'yinlar;

videoilovalar;

multimediali galereyalar;

audioilovalar.

Multimediyada beriladigan material chuqurroq o'zlashtiriladi, vaqt ni tejash imkoniyatiga erishiladi, olingen ma'lumot kishi xotirasida uzoq vaqt saqlanadi, o'quvchilarning passiv tinglovchi sifatida ishtirot etishi qisqarib, izlanuvchanlik va bilish faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan multimedia dasturlari tadbiq etiladi, ta'lim jarayoniga badiiylik kiritiladi. Boshqacha qilib aytganda, multimedia ta'limning emotsiyonal-estetik ta'sirlanish, maqsadga intilish, tadqiqotchilik kabi motivlarini faolashtiradi [63].

Ta'lim jarayonida multimedia vositalarini qo'llashning quyidagi afzalliklari mavjud:

- axborot turlarini matn, jadval, turli xil bezaklar, nutq, musiqa, telekadrlar, videofilmdagi parchalar, animatsiya ko'rinishidagi axborotlarni o'z ichiga oladi;
- doimiy yangilash imkoniyatini beradi;
- nashr qilish va ko'paytirish uchun past xarajatlarga ega;
- unda interaktiv veb-elementlarni, masalan, testlar yoki ish kitobini joylashtirish imkoniyatini beradi;
- kotirovka qilish uchun qismlarni nusxalash va o'tkazish imkoniyatini beradi;
- giperhavolalarning ko'pligi tufayli material o'tishining chiziqli bo'lmasligiga imkon beradi;
- "o'quvchi-kompyuter-o'qituvchi" interaktiv muloqotning yangi darajasini ta'minlanishi, muloqot jarayonida o'quvchi ancha keng va har tomonlama axborotlarni olishi.

Hozirgi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari taraqqiy etgan zamonda o'quvchilarni an'anaviy dars o'tish shakli bilan dars mavzusiga qiziqtirish ancha murakkab bo'lib qolmoqda. Chunki inson jamiyatni axborotlashtirish jarayoni bilan bog'liqligini Internet ma'lumotlaridan bilishi mumkin. Hayotning o'zi bizni axborot texnologiyalardan o'quv jarayonida foydalanishni talab qilmoqda. Yoshlarning ekranidan ma'lumot olib o'zlashtirishga moyilligi juda kuchli. Telefon, Internet tobora globallashayotgan zamonda o'quvchilarga bilimlarning o'zi kerak emas uning hayotiyligi kerak. Mazkur mavzuda Xitoy faylasufi Konfutsiyning "Aytsang unutaman, ko'rsatsang eslab qolaman, o'zim bajarib anglab yetaman" va bu haqida yana bir pedagog olim K.D.Ushinskiyning "Biz ravshan taassurotlarni ko'rish orqali hosil qilamiz, chunki biz o'zimiz eshitgan narsalardan ko'ra, ko'zimiz bilan ko'rganlarimizni osonroq tasavvur qilamiz. Ayni bir vaqtida ham ko'rish, eshitish hamda muskul harakati yordami bilan hosil qilingan taassurot, ayniqsa, ravshan tasavvur hosil qildi va xotirada uzoq vaqt saqlanadi" [64] degan fikirlari bugungi hayotimizga ham mos kelishini alohida ta'kidlash o'rinli bo'ladi.

Jahon psixologlarning ta'kidlashicha, ta'lim oluvchi birinchi marta eshitgan mavzusining faqat to'rtdan bir qismini, ko'rgan materiallarining esa uchdan bir qisminigina eslab qoladi; ham ko'rib, ham eshitsa axborotning ellik foizini yodda saqlaydi. Interaktiv multimedia texnologiyalaridan foydalanganda esa bu ko'rsatkich 75 % tashkil etadi [66].

Shu bois katta hajmdagi axborotni qabul qilish, tushunish hamda voqelikka nisbatan faol va mas'uliyatli munosabatni tarbiyalashning psixofiziologik va estetik xususiyatlarini hisobga oluvchi multimedia nazariyasini, ya'ni multimedia pedagogikasini geografiya ta'limida tadbiq etish muhim masala hisoblanadi.

Maktab geografiya darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarga geografiya to'g'risidagi bilimlar bilan birga fanning mazmunini tashkil etuvchi tasavvur va tushunchalar tizmini shakllantirishdan iborat. Maktab ta'lim jarayonida har bir dars o'quv dasturiga muvofiq hozirgi zamon talablariga javob bera oladigan o'quv qurollari bilan jihozlanishi lozim. Geografiya fani boshqa fanlarga nisbatan o'quv qurollarining va ko'rgazmali vositalarning rang-barangligini talab qiluvchi fanlardan biri desak adashmagan bo'lamiz. Maktabda geografiya fanini o'qitishda ko'rgazmalli qurollarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Bu to'g'risida

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

mashhur geograf olimi N.N Baraniski “Fanlarning hech biri shunday darajada ko‘rgazmalilik va qiziqarlikka muhtoj emas, geografiya fanichalik ta’limning ko‘rgazmali va qiziqarli usullarini talab etmaydi” [64] deb bergen bahosi hanuzgacha o‘z ahamiyatini yo‘qtogani yo‘q. Darhaqiqat, Geografiya ta’limida, xususan “Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi” fanini o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanib o‘qitish samarali natija beribgina qolmay darsda ko‘rgazmali qurollarning rang-barangligini ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, axborot texnologiyalarini geografiya ta’limiga, xususan “Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi” fanining o‘qitish jarayoniga tatbiq etish, o‘quvchilarida intiluvchanlik va izlanuvchanlik qobiliyatini shakllantirishga turki beradi hamda egallagan bilimlarini xotirada saqlash darajasini oshiradi. Shu bilan birga, ta’lim materiallariga qiziqishini orttirib borib, kompyuterda ishlash qobiliyatini o’stirishga xizmat qiladi. Shuni anlagan holda biz yosh ilmiy izlanuvchilarning vazifamiz o‘quvchilarga oson bo‘lgan o‘qitish metodlari, usul va vositalarini o‘ylab, izlanib topmog‘imiz va amaliyotga joriy etmog‘imiz lozim. Shundagina davlatimiz tomonidan uziksiz ta’lim doirasida olib borilayotgan islohotlar, chora-tadbirlar, qonun va qarorlarda [1,2,3,4] belgilangan vazifalarni bajarishga hamda geografiya ta’limida, dars jarayonining sifat darajasi oshishiga erishamiz.

### **Adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq talimi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sen Farmoni. – Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 06/19/5712/3034-sen, 29.04.2019 y.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23-sentyabrdagi O‘RQ 637-senli “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev raisligida 2021yil 28-dekabr kuni maktab ta’limini rivojlantirish masalalari bo‘yicha videoselektor yig‘ilishida so‘zlagan nutqi.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-fevralddagi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-5349-sen Farmoni.
5. Баранский Н.Н Методика преподавания экономической географии.-М: Учпедгиз, 1960.
6. Даринский А.В Активизация деятельности учащихся на уроках географии.-М.: 1984.
7. Жучкевич В.А Наглядность и наглядные пособия в географии. –Минск: Виццкая школа, 1975.
8. Панчешник Л.М. Методика обучения географии в средней школе. –М.: Просвещение,1983.
9. Матрусов И.С. Методика обучения географии в средней школе. Пособие для учителя/ Под. Ред. – М Просвещение,1985.
10. Mo‘minov O. “O‘zbek maktablarida tabiiy geografiya o‘qitish masalalari” Ped.fan.nom...diss. – Toshkent, 1967.
11. MusayevP. “Maktab geografiyasini takomillashtirish muommolari” O‘zbekiston geografiya jamiyati ma‘lumotlari. – Toshkent, 1988.
12. G‘ulomov P. va boshqalar “Turkiston tabiiy geografiyasi”7 sinf uchun darslik– Т, O‘qituvchi, 1997.
13. AbdullayevaT. “Tabiiy geografiya o‘qitishda o‘lkashunoslik masalalaridan foydalanish”Ped.fan.nom...diss . – Toshkent, 1967.
14. Asamov M, “Tapografiyadan amaliy mashg‘ulotlarni uyishtirish”Ped.fan.nom...diss . – Toshkent, 1970.
15. Nabixonov M. “Geografiyada badiiy ko‘rsatmali vosetalarning ro‘li va qo‘llanilishi”Ped.fan.nom...diss . – Toshkent, 1969.
16. Yunusova M. “Geografiya ta’limida natural qo‘llanmalardan foydalanish” Ped.fan.nom...diss . – Toshkent, 1985.
17. Saidov R. “Geografiya darslarida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish”Ped.fan.nom...diss . – Toshkent, 1973.
18. Qurbaniyozov R. “Geografiyadan fakultativ mashg‘ulotlarda o‘quvchilarni mehnatga yo‘naltirish” Ped.fan.nom...diss . – Toshkent, 1986.
19. Vaxobov X., Alimqulov N.R., Sultanova N.B. “Geografiya o‘qitish metodikasi”. –Toshkent, Nodirabegim, 2021.
20. Mo‘minov O. “Geografiya ta’lim metodikasi”. –Toshkent, O‘qituvchi, 1986.
21. Mo‘minov O., Safarov U. “Oliy jo‘rofiya ta’limida kompyuter taxnikasidan foydalanish”. – Toshkent, 1992.
22. Qurbaniyozov R. “Geografiya o‘qitish metodikasi”. –Urganch, Xorazim, 2001.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

- 
23. Qurbaniyozov R. “O‘zbekiston geografiyasi qiziqarli mashq va masalalar” –Toshkent, O‘qituvchi, 1997.
24. Sulaymonova D.B. “Informatika va axborot texnologiyalari” fanini mediatexnologiyalar asosida o‘qitishning metodik tizmini takomillashtirish. (5-sinf misolida) Pedagogika fanlari bo‘yicha (PhD) ilmiy darjasini olish uchun tayyorlangan diss.avtorefrati. –Chirchiq, 2022.
25. Duncan B. (Ed) (1989). Media Literacy Resource Guide. Tornoto: Ministry of Education of Ontario, Publications Branch, the Queen’s Printer, 232p.
26. Kubey R. Media Education: Portraits of an Evolving Field. In: Kubey R. (Ed). Media Literacy in the Information Age. – New Brunswick & London: Transaction Publishers, 1997, p.2.
27. Minkkinen S. (1978) A General Curricular Model for Mass Media Education. Paris.: UNESCO
28. Silverblatt A. (2001) Media Literacy. Westport, Connecticut – London: Prager.
29. Mc. Mahon, B. Relevance and Rigour in Media Education. Keynote Presentation to the National Media Education Conference. Baltimore. 2003.
30. Potter W.J. (2001) Media Literacy. Thousand Oaks –London: Sage Publication.
31. Worsnop C.M. (2004) Media Literacy Through Critical Thinking. NW Center of Excellence in Media Literacy.
32. ФедеровА.В.Медиаобразованиеизарубежныхстранах. Монография // -Таганрог: Из-воКучма, 2005. 238 с.
33. Шакиров А.В. Так что же такое медиаобразование. 2005. № 2. – 77 с.
34. Возчиков В.А. Медиаобразование в педагогическом вузе. Методические рекомендации – Бийск: НИЦ Би ГПИ, 2000 - 25с.
35. Бондаренко Е.А. Творческая реабилитация средствами медиакультуры. –Омск: 2001.
36. Журин А.А. Интегрированное медиаобразование в средней школе. – Москва: Бином, 2013. – С. 405.
37. Фатеева И.А. Медиаобразование: теоретические основы и практика реализации // Монография . – Челябинск: Челяб . гос.ун-т, 2007. – 270 с.
38. Абдукодиров А.А. Теория и практика интенсификации подготовки учителей физико-математических дисциплин. Аспект использования компьютерных средств в учебно-воспитательном процессе: Дис...доктора пед.наук. –Т.: ТГПИ, 1990.
39. Begimqulov U. Sh. Pedagogikta’limjarayonlarinaxborotlashtirishnitashkiletishvaboshqarishnazaryas ivaamalyoti: Ped.fan.dok. diss. avtoref. –T, 2007.
40. Mamarajabov M.M. Kasb-hunarkollejlaridainformatikafanining “Amaliydasturiyta’milot” bo‘limimazmunivao‘qitishmetodikasi. Ped.fan.nom...diss.avtoref. –T: TDPU, 2004.
41. Aripov. M. Internet –asr mo‘jizasi //Fizika, matematika va informatika. –T.: 2002. 1-son. 38-54 b.
42. Закирова Ф.М. Теоретические и практические основы методической подготовки будущих преподавателей информатики в педагогических вузах: Автореф.дис...док.пед.наук. –Ташкент, 2008.
43. Манахов В.М. Технологическая харита паспорт проектируемого учебного процесса. – Новокузнецк: ИПК, 1966.
44. Талызина Н.Ф. Внедрению компьютеров в учебный процесс – научнуюосново // Сов. Педогогика. – 1985. - № 12. – С. 34-38.
45. Машбиц Е.И. Психологические основы управления учебной деятельности. – Киев: Высшая школа, 1987. - 224 с.
46. Lutfullayev M.H. Oliy ta’limda axborot texnologiyalari integrasiysi. – Samarqand, 2005. – 77 b.
47. Boqiyev R.R. Elektron o‘quv metodik materiallarni ishlab chiqarish va qo‘llashning didaktik va psixofiziologik jihatlari// Pedagogik mahorat. – Toshkent, 2005. -№2.62-65 b.
48. Taylaqov N.I. Uzluksiz ta’lim uchun informatikadan o‘quv adabiyotlari yangi avlodini yaratishning ilmiy pedagogik asoslari. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005. -106 b.
49. Юлдашев У. Информационные технологии. –Т.: ТГПИ , 2007.

**БОЗОРОВ Эркин Хожиевич**

Старший научный сотрудник  
лаборатории “Ядерная медицина”  
Института ядерной физики АН  
Республики Узбекистан

**АШУРОВ Жасур Джураевич**

Заведующий кафедрой  
«Инновационные и информационные  
технологии в медицине, биофизика»  
Бухарского государственного  
медицинского института

**ПРЕПОДАВАНИЕ ЯДЕРНОЙ МЕДИЦИНЫ В ВУЗАХ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ**

*Качественное преподавание предметов связано с масштабом применения современных методов обучения, а также оснащенностью баз высших учебных заведений. Подготовка высококвалифицированных кадров является одним из важных аспектов и в развитии ядерной медицины, так как позволяет проводить качественное обследование и способствует оказанию медицинских услуг населению на более высоком уровне. В статье проанализировано современное состояние подготовки кадров, применяющих радионуклидные методы в диагностике и терапии органов и систем организма человека.*

**Ключевые слова:** ядерная медицина, радионуклидная диагностика, радионуклидная терапия, радиофармацевтический препарат.

**ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРДА ҲОЗИРГИ БОСҚИЧДА  
ЯДРОВИЙ ТИББИЁТНИ ЎҚИТИШ**

*Фанларни сифатли ўқитиши замонавий таълим услубларини қўллаш кўламига ҳамда, олий ўқув юртлари базаларининг жиҳозланишига бевосита боғлиқ. Шунингдек, юқори малакали кадрлар тайёрлаши ядро тиббиёти ривожининг ҳам муҳим жиҳатларидан бири саналади, чунки айнан шундай кадрлар турли текширувларни сифатли ўтказиш ва аҳолига тиббий хизматни янада юқори савияда кўрсатишга хизмат қиласди. Мақолада инсон танасининг органлари ва тизимларини диагностикаси ва даволашда радионуклид усусларидан фойдаланган ҳолда фаолият олиб борувчи кадрларни тайёрлашининг ҳозирги ҳолати таҳтил қилинган.*

**Калим сўзлар:** ядро тиббиёти, радионуклид диагностикаси, радионуклид терапияси, радиофармацевтик препарат.

**TEACHING NUCLEAR MEDICINE IN UNIVERSITIES AT THE PRESENT STAGE**

*High-quality teaching of subjects is associated with the scale of application of modern teaching methods, as well as the equipment of the bases of higher educational institutions. The training of highly qualified personnel is one of the important aspects in the development of nuclear medicine, as it allows conducting high-quality examinations and contributes to the provision of medical services to the population at a higher level. The article analyzes the current state of training personnel using radionuclide methods in the diagnosis and therapy of organs and systems of the human body.*

**Key words:** nuclear medicine, radionuclide diagnostics, radionuclide therapy, radiopharmaceutical.

**Введение.** Успехи ядерной физики последних лет оказали большое влияние на развитие многих направлений. Развитие атомной энергетики дало учёным новые инструменты и методы для проведения научных исследований в различных направлениях. Возможности научного познания значительно расширились. С самого начала научная медицина черпает новые идеи и инструменты из физики и химии для предотвращения болезней и борьбы с ними. Например, открытие рентгеновских лучей в конце прошлого века привело к тому, что сегодня даже небольшое медицинское учреждение оснащено рентгеновским аппаратом.

**Ключевые слова:** Воспитатель, экономические знания, экономическое воспитание, экономическая деятельность, компонент, познавательная, мотивационная, креативная деятельность, экономическая культура, квалифицированные кадры, экономическое развитие, финансовая грамотность.

**COMPONENTS OF ECONOMIC CULTURE OF FUTURE TEACHERS**

The article is devoted to the issues of improving the financial literacy of future personnel, the formation of components of the economic culture of teachers.

**Key words:** teacher, economic knowledge, economic education, economic activity, component, cognitive, motivational, creative activity, economic culture, qualified personnel, economic development, financial literacy.

**Kirish.** Ta’lim-tarbiya jarayonida bo‘lajak mutaxassislarning iqtisodiy madaniyatini rivojlantirish davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylanib bormoqda. Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotiga oliv ma’lumotli mutaxassis kadrlarni yetkazib berish muhim vazifaga aylangan. Shuning uchun bo‘lajak tarbiyachilarining sifat samaradorligini oshirish, ularning kasbiy komponentlarini rivojlantirish masalalari yuzasidan bir qator keng ko‘lamdagi islohotlor olib borilmoqda. Bo‘lajak tarbiyachilar oliv o‘quv yurtlarida ta’lim olish jarayonlarida kerakli kasbiy bilimlarni egallashi, o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini yuzaga chiqara olishi, o‘z-o‘zini anglashi, atrofdagilarni va tengdoshlarini ijobiy fazilatlarini ko‘ra olishi, o‘zini ma’naviyatning iste’molchisi sifatida emas, balki yaratuvchisi sifatida ko‘ra olishi zarur.

**Asosiy qism.** Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan kadrlar siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biri, savodli, tashabbuskor va bilimdon mutaxassislarni hayotdagi iqtisodiy yutuqlarini ishlab chiqish va amalga oshira oladigan mutaxassislarni tayyorlashdir.

Iqtisod grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, “oykos” - uy, uy xo‘jaligi, “nomos” - qonun degani. Ya’ni uy yoki ijtimoiy xo‘jalik qonunlari ma’nosini beradi.

1575-1621-yillarda yashab, ijod qilgan fransuz iqtisodchisi Antuan Monkreten birinchi marta 1615-yilda “Siyosiy iqtisod traktati” nomli kichik ilmiy asar yozib, bu fanni mamlakat miqyosida iqtisodiyotni boshqarish fani sifatida asosladi. Keyinchalik klassik iqtisodchilar bu fikrni tasdiqlab, siyosiy iqtisod keng ma’noda moddiy hayotiy vositalarni ishlab chiqarish va ayrboshlashni boshqaruvchi qonunlar to‘g‘risidagi fandir, deb yozgan edilar [1].


Respublikamizda bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining iqtisodiy madaniyatini rivojlantirish, umumta’lim fanlarini xalqaro baholash dasturi talablari asosida o‘qitish bo‘yicha kasbiy kompetentligini takomillashtirish, sifatlari ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosati izchil davom ettirilmoqda. Jumladan, innovatsion iqtisodiyot rivojlanish ko‘rsatkichlariga muvofiq pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlashning didaktik shart-sharoitlarini takomillashtirish va amaliyotga joriy etishga doir keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Buyuk adiblarning iqtisod, iqtisodiy tarbiyaga doir fikrlarini o‘rganib, tahlil qilgan holda bo‘lajak tarbiyachilarining iqtisodiy madaniyatini rivojlantirish komponentlarini belgilash imkonini berdi.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

Bo‘lajak tarbiyachilarning iqtisodiy madaniyatni rivojlantirish mazkur jarayon komponentlarini ham aniqlashtirishni talab etadi.

Komponent (lot.componens, componentis - tashkil etuvchi; tarkibiy qism) biror narsaning tarkibiy qismi ma’nosini bildiradi [2].

Mavjud tadqiqotlar tahlili asosida bo‘lajak tarbiyachilarning iqtisodiy madaniyatni rivojlantirishning quyidagi tarkibiy qismlarini belgilab olamiz



**1-rasm. Bo‘lajak tarbiyachilarda iqtisodiy madaniyatning tarkibiy qismlari**

**Muhokamalar va natijalar.** **Iqtisodiy bilim** deganda pul, narx-navo, savdo-sotiq, talab, taklif, bank, kredit, bozor, biznes, tadbirkorlik, xarajat va foyda, menejment va marketing, moliya va shu kabi hayotimizning bir qismiga aylangan bir qancha moliyaviy bilimlarni shakllantirish tushuniladi. Iqtisodiy bilimlarni shakllantirish hayotda uchraydigan iqtisodiy muammolarni yechimini topishga yordam beradi. Iqtisodiyot - odamlarning ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan har xil ne’matlarni ishlab chiqarish, taqsimlash va iste’mol qilish vazifalarini bajarishga yo‘naltirilgan faoliyat tizimidir. Iqtisodiyot- insonning yashashi va kamol topishining birdan bir vositasi. Iqtisodiy ta’lim - kelajakda farovon hayotimiz kalitidir.

**Iqtisodiy tarbiya.** Iqtisodiy tarbiya shaxsning barkamol va yetuk bo‘lib voyaga yetishishida muhim rol o‘ynaydi. Yosh avlodni iqtisodiy tarbiyalash, ularning ongiga tejamkorlikni singdirish pedagogikaning muamolaridan biri bo‘lib kelgan. Hozirgi sharoitni hisobga oladigan bo‘lsak, ya’ni bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan davrda yoshlarning iqtisodiy tafakkurini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada mamlakatimizda bir qancha islohotlar amalga oshirilmoqda va pedagoglarimiz tomonidan tadqiqotlar olib borilmoqda. Iqtisodiy tarbiya bolalarda tejamkorlik, ishbilarmonlik, iqtisodiy hisob-kitob qilish qobiliyatini shakllantiradi. Bolalarga iqtisodiy tarbiya berish, eng avvalo, oiladan boshlanadi va maktabgacha ta’lim tashkilotlarida hamda matabda davom ettirilishi, iqtisodiy tarbiyaning mazmuniga sharq mutafakkirlari katta e’tibor qaratib kelganliklari, oqilona ehtiyojlarini, ularni moddiy imkoniyatlar bilan taqqoslash qobiliyatini shakllantirish, bolalarda o‘z ehtiyojlarini to‘laroq qondirishga bo‘lgan izlanishlarda mehnatga yo‘nalganlikni tarbiyalash haqida batafsil yoritib berilgan.

**Iqtisodiy faoliyat.** Ehtiyojlar turli-tuman bo‘lganidan ularni qondirish ham turli yo‘llar bilan amalga oshiriladi, lekin bu ish baribir iqtisodiy faoliyatni talab qiladi. Iqtisodiy faoliyat deganda inson tiriklikni ta’minlash usullari va vositalari tushuniladi. Iqtisodiy faoliyat ishlab chiqarishdan boshlanadi, yaratilgan mahsulotlarni ayriboshlash orqali iste’mol etish bilan tugallanadi. Kishilar o‘z ehtiyojini qondirmasa, ish faoliyatini tiklay olmaydilar. Iqtisodiy faoliyat yoki iqtisodiyot kishilarning ma’lum maqsad yo‘lidagi xatti-harakatini bildiradi. Uning ishtirokchilari ayrim kishilar, oila, korxona, xo‘jaliklar va davlatdir.

Jamiyatning iqtisodiy madaniyatni bu iqtisodiy faoliyatning qadriyatlarini va motivlari tizimi, iqtisodiy bilimlarning sifati va darajasi, shaxsning harakatlari va baholari, shuningdek, iqtisodiy munosabatlar va xatti-harakatlarni tartibga soluvchi an’analari va me’yorlardir. Iqtisodiy madaniyat mulkchilik shakllariga alohida munosabatni belgilaydi, ishbilarmonlik muhitini yaxshilaydi. Iqtisodiy madaniyat - bu insonning iqtisodiy faoliyatni rivojlanishida hal qiluvchi va ishlab chiqarish, taqsimlash hamda iste’mol qilish jarayonida namoyon bo‘ladigan ong va amaliy faoliyatning ajralmas birligi. Iqtisodiy madaniyat tarkibidagi eng muhim elementlarni bilim va amaliy ko‘nikmalar, odamlarning iqtisodiy sohadagi xulq-atvorining xususiyatlarini, uni tashkil etish usullarini tartibga soluvchi normalar deb atash mumkin.

1-rasmida ko‘rsatilgan komponentlar asosida bo‘lajak tarbiyachilarning iqtisodiy madaniyatini rivojlanishning uch guruh mezonlari aniqlashtirildi: motivatsion, kognitiv va kreativ-faoliyatli.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

Zamonaviy iqtisodiy bilim, malaka va tajribaga ega bo‘lgan shaxs mavjud ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda o‘zini to‘g‘ri yo‘naltirishga va xatolardan qochishga harakat qiladi.

Talabalarning iqtisodiy madaniyatni diagnostiqa qilish tanlangan mezonlarga muvofiq amalga oshiriladi: 1) kognitiv; 2) motivatsion; 3) kreativ-faoliyatli.

Kongnitiv (cognito – lotincha so‘z bo‘lib, bilim, bilish ma’nosini anglatadi) – eng avvalo, talabalarning tafakkurini shakllantirishga yo‘naltirilgan, u yoki bu shaklda jamoa muhokamasini tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan uslubdir [3].

Me’yorlar, ko‘rsatkichlar va ularni ifoda qilish darajalari asosida iqtisodiy madaniyatni shakllantirishning uchta darajasi farqlanishi mumkin: yuqori; o‘rta; past.

Talabalarning iqtisodiy madaniyatini mezonlarga muvofiq shakllantirish darajalari.

Yuqori daraja – iqtisodiy madaniyat, talabalarning kuchli tizimli bilimga ega ekanligini, ularning iqtisodiy amaliyotlar va jarayonlarni iqtisodiy rivojlanish qonunlarini to‘liq anglash bilan tavsiflash uchun amalda qo‘llashni ko‘rsata oladi.

O‘rta daraja – talaba iqtisodiy bilimlarni tushunadi, grafiklar, jadvallarni tuza oladi va ular yordamida iqtisodiy hodisalarning o‘zaro bog‘liqligini izlab topadi, stereotipik muammolarni hal qila oladi.

Past darajada – talaba nazariy bilimlar bilan cheklanadi, iqtisodiy hodisalarни aniqlashga, iqtisodiy bilimlarni mexanik takrorlashga va grafiklarni, tablitsalarni, sxemalarni tahlil qilishga qiziqmaydi.

Bu toifadagi bo‘lajak mutaxassislar o‘zlarini qiziqishlaridagi zaif tomonlarini ko‘rsatib qo‘yishadi va o‘z fikrlarini rivojlantirishga e’tibor bermaydilar, ularning passiv harakatlari olingan so‘rovnomalarda ham o‘z aksini topadi.

O‘quv rejaga binoan asosiy e’tibor mutaxassislik fanlarini o‘qitishga qaratilmoqda. Tarbiyachi yosh avlodimizni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim, faxrli ish bilan birga mas’uliyatlari vazifani bajaradi. Tarbiyachi, avvalo, bilimli bo‘lishi, o‘zi yashab turgan ulkan hayotni bilishi, jamiyatda sodir bo‘layotgan yangiliklarni tushina olishi, unga yaratilayotgan imkoniyatlarni tushungan holda harakat qilib, oldidagi vazifalarini ado etishi lozim. Darhaqiqat, Prezidentimiz tomonidan maktabgacha ta’lim sohasiga katta e’tibor qaratilib, uning faoliyatida bir qator yangiliklar joriy etilmoqda. Avvalo, aytish joizki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining bir qancha turlari faoliyat yuritib, ulardagi ta’lim-tarbiya jarayoni ham sezilarli darajada o‘smoqda. Shunday ekan, bugungi kun tarbiyachisi har tomonlama chuqur bilimli, kreativlikka intiluvchi inson va siyosiy ong jihatdan ham yetuk bo‘lishi zarur. Bo‘lajak tarbiyachilarni jamiyatimizdagi o‘zgarishlardan xabardor qilish, ya’ni ularga maktabgacha ta’lim tashkilotlarining turlari, nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini ochish, ularni faoliyat yuritish tartibi, oilaviy maktabgacha ta’lim tashkilotlarining qulayliklari haqida tushuncha berishimiz lozim. Buning uchun, avvalo, bo‘lajak tarbiyachilarimizning iqtisodiy madaniyatini shakllantirish maqsadga muvofiq. Ya’ni har bir oliy ma’lumotli maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi yaratilgan imkoniyatlardan keng foydalangan holda bugungi kunda qilayotgan ishining moddiy samaradorligini ham o‘ylashi kerak.

**Xulosa** sifatida quyidagilarni belgilashimiz mumkin:

1. Iqtisod va iqtisodiy madaniyataga doir Sharq va G‘arb pedagog-psixologlarining ta’limotlarini o‘rganish iqtisodiy madaniyatni shakllantirishda muhim omildir.
2. Iqtisodiy madaniyat integral tafsifga ega bo‘lib, falsafiy, huquqiy, iqtisodiy, sotsiologik, psixologik va pedagogik jihatlar bilan bog‘liqlikda mazkur jarayonga kompleks yondashuvni taqozo etadi.
3. Iqtisodiy madaniyat komponentlari –iqtisodiy ta’lim, iqtisodiy tarbiya, iqtisodiy faoliyat deb belgilandi.
4. Iqtisodiy madaniyatni rivojlantirishning mezonlari: kognitiv; motivatsion, kreativ-faoliyatli va mazkur mezonlar asosida uch (yuqori, o‘rta va past) darajaga mos ko‘rsatkichlari mavjud.
5. Bo‘lajak tarbiyachilarni moliyaviy savodxonligini shakllantirish ijtimoiy zaruriyat.

### Adabiyotlar

1. Антуан Монкретьен де Ваттевиль. Трактат по политической экономии. -М.: Дело, 2000 (серия Политическая экономия: ступени познания). -С.48.
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. (A.Madvaliyev taxriri ostida). -T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. B.397-398.
3. Aliqulova M.M. Innovatsion pedagogika. -T.: “TDIU nashriyoti”, 2012.– B.14.
4. Islomov A., Egamov E. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. Ma’ruzalar matni. -T.: “Iqtisod-moliya”, 2009.
5. Tolipov B.X. Shaxs iqtisodiy madaniyatida moddiy va ma’naviy omillar uyg‘unligi:Falsafa fan.nom....diss. -T., 2009. –B.152.

УТАЕВ Зафар Мухтарович  
Самарқанд давлат университети  
таянч докторанти

## СПОРТ ВОСИТАСИДА ЎҚУВЧИ-ЁШЛАРГА УМУМИНСОНИЙ ГОЯЛарНИ СИНГДИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ИМКОНИЯТЛАРИ

*Мазкур мақолада спорт воситасида ўқувчи-ёшларга умуминсоний гояларни сингдиришининг педагогик имкониятлари, шарт-шароитлари ва йўллари муҳокама этилган. Спорт нафақат баҳсолашни ва беллашув олиб борши шакли, балки у шахс тарбияси воситаси эканлиги очиб берилган.*

**Калим сўзлар:** спорт, шахс тарбияси, педагогик имконият, ижобий хислатлар, мусобақа.

### ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ВНУШЕНИЯ СТУДЕНТАМ ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ИДЕЙ ПОСРЕДСТВОМ СПОРТА

*В статье рассматриваются педагогические возможности, условия и способы привития общих идей молодежи. Спорт – это не только форма дискуссии и соревнования, но и выявлено, что это средство личностного воспитания.*

**Ключевые слова:** спорт, персональные тренировки, педагогическая возможность, положительные эмоции, соревнование.

### PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF SUGGESTING HUMAN IDEAS TO STUDENTS THROUGH SPORTS

*The article discusses the pedagogical possibilities, conditions and ways of instilling common ideas among young people. Sport is not only a form of discussion and competition, but it is also revealed that it is a means of personal education.*

**Keywords:** sport, personal training, pedagogical opportunity, positive emotions, competition.

**Кириш.** Республикаимиз мустақилликка эришган дастлабки кунларданоқ мамлакатда спортни ривожлантиришга алоҳида аҳамият қаратилди. “Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида”ги Қонуннинг амалиётга татбиқ қилиниши мамлакатимизда жисмоний тарбия ва спорт ривожининг янги уфқларини белгилаб берди [1]. Ўсиб келаётган ёш авлоднинг ҳар томонлама тарбияланиши ва баркамол авлодлар бўлиб вояга етишида спортнинг аҳамиятини ошириш, спорт орқали ёшларни турли салбий иллатлар таъсиридан асраш масалаларига Ўзбекистон Ҳукумати алоҳида аҳамият қаратиб бу борадаги асосий вазифаларни белгилаб берди.

Жисмоний тарбия ва спортга доир бир катор норматив-хукукий хужжатларда ёш авлодни спортга кенг жалб қилиш орқали уларни ҳам жисмонан, ҳам маънан тарбиялаш, ёшлар орасида sogлом турмуш тарзини шакллантириш каби мақсадларга йўналтирилган. Зеро, жисмоний тарбия ва спорт соҳасида олиб борилаётган сиёсатнинг туб моҳияти ва асосий йўналишлари сифатида ёшларда спортга меҳр уйғотиш, ўсиб келаётган ёш авлод онгига спорт билан шуғулланиш, sogлом турмуш тарзига амал қилиш, маънавий ва жисмоний камолга интилиш, уларни салбий таъсиридан ҳимоя қилиш ҳамда зарарли одатлардан ҳалос этиш, болаларни барқарор феъл-атворли, Ватанига меҳрумұхаббат ва ўз мамлакати учун ғуур-ифтихор руҳида тарбиялаш борасидаги чора-тадбирлар комплексини амалга ошириш [2, 3] белгилаб кўйилган. Ҳозирги глобаллашув шароитида ёшларни турли салбий иллатлар таъсиридан асраш, бунда спортдан фойдаланиш йўлларини ишлаб чиқиш ва ундан самарали фойдаланиш имкониятининг юқорилиги мазкур мавзу юзасидан кузатишлар ўтказиш, унинг илмий-услубий асосларини тадқиқ этиш заруратини кўрсатди.

**Назарий таҳлил ва умумлаштириш.** Инсоният XXI асрга улкан кашфиётлар ва ютуқлар билан қадам кўйди. Глобаллашув дея аталаётган мазкур даврнинг ютуқлари билан бир пайтда салбий жиҳатлари ҳам инсонлар ҳаётига, айниқса, ёшлар тарбиясига ўз таъсирини кўрсатмоқда.

Ҳозирги даврда Ўзбекистонда, бир томондан, глобаллашув жараёнининг афзалликларидан оқилона фойдаланиш, иккинчи томондан унинг салбий иллатини бартараф этиш борасидаги пишик-пухта ўйланган изчил сиёсат олиб борилмоқда. Ҳозирги шароитда у мағкуравий таъсир ўтказишнинг ниҳоятда ўткир қуролига айланиб, ҳар хил сиёсий кучлар ва марказларнинг манбаатларига хизмат

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

қилаётганини соғлом фикрлайдиган хар қандай одам, албатта, кузатиши муқаррар. Шу боис глобаллашув шароитининг ижобий жиҳатларини эътиборга олган ҳолда унинг ғоявий-мафкуравий таъсиридан огоҳ бўлиш, айниқса, ёшларимизни бундай хуружлардан асраб-авайлаш ғояси мухим аҳамият касб этади [5., б.54-55].

Умуминсоний қадриятлар – жаҳондаги барча одамлар, ҳалқлар, давлатлар учун умумий қадрлаш мезони хисобланган умумбашарий аҳамиятга эга бўлган қадриятлар тизими. Умуминсоний қадрият ниҳоятда кенг қўламли ва серкирра тушунчадир. Бугунга келиб умуминсоний қадрият тушунчаси инсонлар ҳаётида, уларни тарбиялашда ва маънавий дунёсини бойитиб борища ўзининг юксак даражадаги аҳамиятини тобора ошириб бормоқда. Умуминсоний қадриятларнинг намоён бўлиши нисбий бўлиб, жамият ривожланиши, тараққиётнинг хусиятларига кўра умуминсоний қадриятларнинг у ёки бу шакли ҳаётнинг олдинги погонасига кўтарилади. Масалан, уруш даврида тинчлик, озодлик, юртда душманлар бўлгандан ватанпарварлик, мустақиллик даврида миллий ўзликни англаш, миллий маданиятни ўрганишга эҳтиёж ортиб боради. Тарихан маълум бўладики, замонлар ва даврлар ўзгариши спорт тушунчасининг аҳамиятини ҳеч қачон пасайтирган эмас. Спорт ҳар доим инсонлар маънавий ва моддий эҳтиёжининг ажралмас қисми сифатида умуминсоний қадриятлар тизимида марказий ўринни эгаллайди.

Спорт бир сўз билан айтганда баҳслашиб, беллашиб маъноларини англатади. Maxsus жисмоний машқлардан ташкил топган ҳаракатлар мажмуи спорт тушунчасининг асосини ташкил қиласди. Шу билан бирга спортнинг ижтимоий характеристи, инсонни шахс сифатида тарбиялашдаги ўрни бекиёсdir. Жамият ривожланиши бевосита жисмоний маданият тушунчасининг ҳам ривожланишига олиб келди. Жисмоний маданиятнинг таркибий қисми бўлган спорт бугунги кунга келиб ўзининг юксак ижтимоий аҳамиятини намоён қилмоқда. Сўнгги йилларда дунё миқёсида спортнинг аҳамиятини ўрганишга қаратилган тадқиқотлар, унинг инсонлар турмуш-тарзидағи роли юксак даражада эканлигини исботлади. Мазкур масала юзасидан жисмоний маданият ва спорт мутахассислари, психологлар, социологлар тадқиқот ишларини амалга оширилар ва турли даражадаги илмий-услубий манбалар яратилди (В.Д.Паначаев, Н.И.Пономарёв, Л.П.Матвеев, Ж.Э.Эшназаров, Й.М.Машарипов, Р.С.Саламов, Л.И.Лубышева).

Халқ орасида мусобақаларда танилган ва ғолиб бўлган спортчиларга нисбатан “спортчи”, “ғолиб”, “чемпион” каби тушунчалар кенг ишлатилади. Инсонлар бу каби спортчиларга ҳавас билан қарайди, натижада, улардек бўлиш истаги шаклланиб боради. Спортчилар ҳар ерда эъзозланади ва қадрланади. Аслини олганда, инсонлар ғолиблар, чемпионлар тимсолида спортни қадрлайдилар. Спорт воситасида инсонларни қадрлаш ва улуғлаш том маънодаги мазмун касб этади. Мамлакат байроғини халқаро майдонларда юкори кўтартган спортчилар жамиятда қадр топади.

Спортни умуминсоний қадрият сифатида ўрганиш учун унинг вазифаларини санаб ўтиш лозим. Спорт назариясидан маълум бўлишича, спортнинг мусобақа вазифаси, соғломлаштириш вазифаси, гоявийлик вазифаси, эстетик вазифаси, ахлоқий-тарбиявий вазифаси, ижтимоий-сиёсий вазифаси, байналмилалчилик вазифалари мавжуд. Шунингдек, айрим манбаларда кўрсатилишича, спорт воситасида ватанпарварлик, инсонпарварлик тарбиясини ёш авлодга сингдириш масалалари баён қилинган. Бу ўринда мутахассислар спорт мусобақалари жараёнида ёшларни ватанпарварлик ғоялари руҳида тарбиялашнинг имкониятлари юкори даражада эканлигини эътироф этишади. Спорт фақатгина натижаларни аниқлаш, жисмоний имкониятларни намойиш қилиш мезони бўлибигина қолмай инсон омили, унинг ҳар томонлама тарбиялаши масаласига ҳам алоқадорлиги мазкур мавзуу доирасида ўтказилаётган тадқиқотларда ўз аксини топмоқда.

Спортнинг ёшларни ҳар томонлама тарбиялаш хусусияти тўғрисида гап кетар экан, у ижтимоий ходиса сифатида ҳам, фан сифатида ҳам жамиятда, инсонлар ҳаётида катта аҳамиятга эгалигини айтиб ўтиш лозим. Спорт назариясидан маълум бўлишича, спортнинг мусобақа вазифаси, соғломлаштириш вазифаси, гоявийлик вазифаси, эстетик вазифаси, ахлоқий-тарбиявий вазифаси, ижтимоий-сиёсий вазифаси, байналмилалчилик вазифалари борки, [5., б.16] улар бир-бири билан уйғуллашиб кетади ва натижада спорт тушунчасининг нақадар кенг маъноли эканлигини кўрсатиб беради. Шунингдек, айрим мутахассисларнинг таъкидлашича [6., б.127-128, 7., б.43-44, 8., б.231-233], спорт воситасида ватанпарварлик, инсонпарварлик тарбиясини ёш авлодга сингдириш йўллари ва имкониятлари мавжуд.

Бу хусусида фикр юритар эканмиз, дунё ва Ўзбекистон миқёсида мавзуга доир изланишлар олиб борилганлигига алоҳида аҳамият қаратдик. Мазкур масала юзасидан жисмоний маданият ва спорт мутахассислари, психологлар, социологлар ва файласуфлар тадқиқотлар олиб борганлар. В.Д.Паначаев, Н.И.Пономарёв, Л.П.Матвеев, Л.И.Лубышева каби чет эл олимлари ишларида спортнинг ижтимоий-тарбиявий аҳамияти ёритилган.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

Ўзбекистонда ҳам спортнинг ижтимоий-тарбиявий аҳамиятини ўрганишга қаратилган илмий изланишлар олиб борилмоқда. Мамлакатимиз олимларидан Ш.Х.Хонкелдиев, А.Абдуллаев, Й.М.Машарипов, Р.С.Саламов, Ж.Э.Эшназаров, Х.Т.Рафиев, Р.А.Абдурасулов, Ф.Қ.Ахмедов кабилар спортнинг серкирра ижтимоий ҳодиса сифатида инсон тарбиясидаги аҳамияти юқори эканлигини эътироф этишади. Айниқса, сўнгги йилларда Республикада соҳага доир турли даражадаги анжуманларда “спорт ва ёшлар тарбияси”, “спорт ва шахс”, “спорт ва соғлом авлод”, “спорт ва маънавият” каби спортнинг ижтимоий-тарбиявий аҳамиятини ўрганишга қаратилган долзарб масалалар ёритилмоқда (А.Н.Шопулатов, Б.З.Исканов, Б.Б.Инагамов, А.А.Толаметов, А.М.Жўраев, Р.Н.Назаров, Т.Д.Байтураев, Ш.Ш.Исройлов ва бошқалар). Адабиётлар таҳлили ва қузатишлар спорт воситасида ёшларни ҳар томонлама тарбиялаш имкониятлари юқори эканлигини кўрсатади.

**Натижалар ва уларнинг муҳокамаси.** Изланишлар олиб бориш жараённада мавзуга доир сўровномалар ташкил қилинди. Сўровномаларда турли ёш тоифасидаги 100 нафар иштирокчи қатнашдилар. Ўтказилган сўровнома натижалари мамлакатимизда спорт тобора ривожланаётганлиги, унинг ижтимоий аҳамияти, ёшлар тарбиясидаги ўрни юқорида бораётганлигини кўрсатди.

“Жамиятда спортнинг ўрни ва аҳамияти қай даражада деб ўйлайсиз?” саволига иштирокчиларнинг 85%и “юқори даражада”, 15%и “ўртача” деб жавоб берганлар. “Сиз, салбий иллатлар (ичиши, чекиши, наркомания, диний экстремизм ва терроризм кабилар) таъсиридан ёшларни асрарда спортнинг ўрни юқори деб ҳисоблайсизми?” саволига иштирокчиларнинг 100%и “ха, юқори даражада” деб жавоб беришган. Саволга қўшимча сифатида иштирокчиларнинг 80%и “спорт билан шуғулланган болаларда бўш вақт бўлмайди, шу сабабли улар турли салбий иллатларга берилмайди” мазмунидаги фикрларни билдирганлар.

Спорт назарияси ва амалиёти фани ютуклари спорт билан шуғулланган ва шуғулланмаганлар ўртасида нафақат жисмонан, балки ақлан, руҳан ва маънан тафовутлар бўлишини кўрсатади. Ўтказилган сўровнома натижаларининг таҳлили ҳам айнан юқоридаги фикрларни тўлақонли тасдиқлади. “Сизнингча, спорт билан шуғулланган болалар бошқалардан нимаси билан фарқ қиласиди?” саволига иштирокчиларнинг 10%и “мустақил фикри шаклланади”, 12%и “мақсадга интилиш, қатъийлик шаклланади”, 63%и “ҳар томонлама тарбияланади” ва 15%и “соғлом, бақувват бўлади” дея жавоб беришган. Дарҳақиқат, спорт билан шуғулланган ёшлар ўзига хослиги билан ажralиб туради. Чунки спорт ёшларни ҳар томонлама тарбиялаш, улар онгида соғлом турмуш тарзига амал қилиш ғояларини шакллантириш, уларнинг руҳий ва жисмоний бардамлигини мақсадга мувофиқ тарбиялашга катта ҳисса қўшади<sup>5</sup>. Зоро, замонавий спорт машғулотларининг асосий мақсади ва вазифаларидан бири сифатида шуғулланувчининг ҳар томонлама тарбияланиши эътироф этилиб, спорт асосида ўзлигини англаш ва миллий уйғониш, мағкуравий ҳиссиётни ривожлантириш ва шу асосда инсонпарварлик, ватанпарварлик руҳини кучайтириш вазифаларини амалга ошириш назарда тутилади [7., 6.41].

Сўровнома иштирокчилари ёшларни спортга кенг жалб қилиш юзасидан ўзларининг турли таклиф ва тавсияларини билдиришган. Иштирокчиларнинг аксарияти ёшларни спортга кенг жалб қилиш ва уларни спорт воситасида ҳар томонлама тарбиялашда оила (асосан, ота-она), мураббий ва таълим муассасаси ҳамкорлигини самарали йўлга қўйиш лозимлигини айтиб ўтишган. Ота-оналарнинг шахсий намуна кўрсатиши, таниқли ва маҳоратли спортчиларга нисбатан фарзандларида ҳавас уйғотиши катта аҳамиятга эга эканлиги таъкидланган. Шунингдек, айrim иштирокчилар (68%) спорт воситасида ёшларни ҳар томонлама тарбиялашда мураббийларга алоҳида вазифалар юқлатилиши лозимлигини таъкидлашган. Бу ўз навбатида спорт воситасида ёшларни турли салбий иллатлар таъсиридан асрар ва уларни ҳам жисмонан, ҳам маънан тарбиялашнинг тақрорланмас ва ўзига хос усули эканлигини эътироф этишган.

Спорт билан шуғулланган, мунтазам машғулотлар билан банд бўлган ёшларнинг турли салбий иллатлар таъсирига тушиб қолиши ҳоллари кам қузатилади. Чунки спорт машғулотлари маълум тартиб-қоидалар ва мезонлар асосида ташкил қилинади, натижада шуғулланувчилар табиий равишда рационал кун тартиби доирасида бўладилар. Юқоридаги фикрлар юқори малакали 20 нафар спортчи-талабалар кун тартибини ўрганиш натижасида уларнинг бўш вақтлари кам бўлиши, бўш вақтларида асосан маъданий хордиқ чиқаришларини (дам олиш, китоб ўқиш ва ҳ.к) аникладик. Ваҳоланки, сўровнома натижалари таҳлили ва қузатишлар салбий иллатларнинг бош сабаби ёшларнинг бўш вақтдан унумли фойдаланмаслиги натижасида юзага келишини кўрсатган.

<sup>5</sup> Бу ўринда айтиш лозимки, бугунгача яратилган аксарият адабиётларда ушбу фикр ёритилган.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

Мураббийлар фаолияти ёшлар тарбиясида мухим аҳамият касб этиши айтиб ўтилди. Мураббийларнинг ўз шогирдлари кун тартиби, яшаш шароити, ўқиш ва оиласдаги фаолияти билан қизиқиши ёшлар тарбиясида, уларнинг спортда ҳам, ҳаётда ҳам юксак натижаларни қўлга киритишида мухим ўрин тутади. Муаллиф иш фаолияти натижасидан биладики, Республикализнинг турли худудларида ёшларнинг ҳар томонлама тарбия топиши, уларнинг ҳам маънавий, ҳам жисмоний тарбияланишида ўзини масъул деб биладиган мураббийлар етарлича. Бундай мураббийлар қаторига А.Толипов, О.Рахимов, А.Абдулахатов, Ж.Ашурев, Я.Абдурамоновларни киритиш мумкин. Улар томонидан эришилган ютуклар фақатгина спорт натижаси билан чегараланиб қолмай, шогирдларининг етук инсонлар бўлиб жамиятимиз равнақига ҳисса қўшаётгандиги билан ҳам белгиланади. Ушбу мураббийлар иш тажрибасини ўрганиш, ўзлаштириш ва оммалаштириш фойдадан холи бўлмайди, албаттга.

Оиласда ота-онанинг шахсий намунаси фарзанд тарбиясида мухим аҳамият касб этади. Оиласдаги мухит, ундаги ҳар бир ўзига хос жиҳатлар болалар тарбиясига катта таъсир кўрсатади. Оиласда турли спорт жиҳозларининг мавжудлиги, ота-оналарнинг ундан мунтазам фойдаланиши ўз навбатида фарзандларнинг ҳам жисмоний маданиятга меҳр кўйишига замин бўлади [9., б.183]. Шу сабабли оила ёшларни спортга жалб қилиш, фарзандларни маҳоратли ва ватанпарвар спортчиларга ҳавас руҳида тарбиялашда мухим омил ҳисобланади.

**Хулоса.** Спорт воситасида ёшларни ҳар томонлама тарбиялашда ота-оналар ва мураббийлар ниҳоятда масъулиятли бўлишлари лозим. Спортнинг ижтимоий аҳамияти, умуминсоний қадрият эканлиги унинг инсонпарвар характерда эканлигига ҳам ўз аксини топади. Бир қарашда спорт тушунчасининг мазмунини маълум даражадаги тайёргарликдан ўтган спортчилар беллашуви, уларнинг бир-бирини жисмонан, куч ишлатиб мағлуб бўлишга мажбур этишида кўриш мумкин. Аммо спорт турининг мусобақа қоидалари, спортнинг умумэтироф этган нормалари спортчиларга, мураббийларга ва ҳакамларга шундай талаблар қўйганки, натижада, спорт фаолияти иштирокчилари машғулотлар, мусобақалар ва спорт тадбирлари жараёнида умуминсоний қадриятлар мезони доирасида тарбияланиб, шаклланиб борадилар. Зоро, жисмоний тарбия ва спорт машғулотлари ҳамда спорт мусобақалари улар иштирокчиларининг ва томошабинларнинг соглиғига, шаъни ва қадр-қимматига зиён етказилмайдиган тарзда ўтказилиши керак. Спортчиларнинг шаъни ва қадр-қиммати камситилишига олиб келадиган, шунингдек, уларнинг спорт жароҳатлари олишига сабаб бўладиган тайёргарлик услубларидан фойдаланишга йўл кўйилмайди. Спорт мусобақалари қоидалари маълум талаблар асосида ишлаб чиқилган бўлиб, иштирокчилардан уларга қатъий амал қилишни талаб этади. Айни шу холатда спорт ўзининг юқори даражадаги инсонпарварлик хусусиятини намойиш қиласди.

Инсон, унинг саломатлигини сақлаш ва мустаҳкамлаш бутун дунё тиббиёт соҳаси олдида турган асосий вазифлардан ҳисобланади. Тиббиёт оламида “касалликни даволагандан кўра унинг олдини олган яхши” тушунчаси мавжуд. Техника ва технологиялар ривожланган замонда кам ҳаракатлилик инсонлар учун маълум даражадаги муаммоларни, хусусан, ҳаракатсизлик билан боғлик бўлган касалликларни юзага келтирмоқда. Юқорида спорт фаол жисмоний ҳаракатлар мажмуи эканлигини айтиб ўтдик. Инсонларнинг режа асосида спорт билан мунтазам шуғулланиши организмнинг ҳаракатга бўлган эҳтиёжини таъминлайди. Натижада, организм соглом ва бақувват бўлишига эришилади. Спортнинг умуминсоний қадрият сифатида эътироф этилишининг асосий сабабларидан бири ҳам шундадир.

Бугунги глобаллашув шароитида ер юзи аҳолисини алкогольизм, наркомания, диний экстремизм ва халқаро терроризм каби турли салбий иллатлар ташвишга қўяётгани барчамизга маълум. Халқ ва давлатнинг эзгу мақсадларига ёт ва бегона бўлган гоялар жамият ҳаётига ўз таъсирини ўтказишига ҳаракат қилиши муқаррар. Бундай салбий иллатлар ва гояларга қарши курашмок, ёшларда вайронкор гояларга қарши курашиш иммунитетини шакллантириш, уларни салбий иллатлар таъсиридан асрар чора-тадбирларини йўлга кўйиш лозим. Бу вазифа ўз навбатида жамиятда яшаётган ҳар бир фуқаро, ҳар бир касб эгасига алоҳида талаблар кўяди. Замонавий спорт машғулотлари ўз олдига фактагина спорт натижаларини юксалтиришни эмас, балки, шуғулланувчини ҳар томонлама тарбиялашни ҳам мақсад қилиб қўйган. Замонавий Олимпия ўйинлари тарғиботчиси, француз давлат арбоби Пьер де Кубертен инсоният учун катта аҳамиятга эга бўлган, ҳар томонлама тарбия воситаси саналган Олимпия ўйинларини ташкиллаштиргани бежиз эмас. Кейинчалик, иккинчи Жаҳон урушидан сўнг Ҳиндистон мамлакатининг ташаббуси билан Осиё ўйинлари ташкил қилиниши ҳам айнан шу мақсадга – дунёда тинчлик ва осойишталикни таъминлашга, халқлар ўртасидаги бирдамликни сақлашга қаратилган эди. Бугунги кунда спорт ўзининг юксак даражасига кўтарилди. Спортдан ёшлар тарбиясида, мамлакатлар нуфузини оширишда, салбий иллатларга қарши курашишда ҳамда соглом-турмуш тарзини тарғиб қилишда самарали фойдаланиш имконияти мавжуд. Тарихан инсон,

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

унинг ҳаёти муқаддас қадрият сифатида эъзозланиб келинади. Шу билан бирга, тинчлик, ватанпарварлик, инсонпарварлик каби тушунчалар умуминсоний қадриятлар тизимининг ажралмас қисми ҳисобланади.

### Амалий тавсиялар:

1. Ота-оналар фарзандлариға шахсий намуна қўрсатиши, аввало, уларнинг ўзлари жисмоний машқлар билан шуғулланиши, спортга бўлган муносабатларини ўзгартиришлари лозим.
2. Оиласда спортни тарғиб қилиш, спортнинг фойдали жиҳатларини фарзандлар онгига сингдириш ва фарзандлар қалбида маҳоратли спортчиларга ҳавас хиссини ўйғотиш лозим.
3. Ота-она, мураббий ва таълим муассасаси ҳамкорлигини самараали йўлга қўйиш лозим.
4. Ёшлар билан ишловчи мураббийлар спортнинг тарбиявий жиҳатларига алоҳида аҳамият қаратишлари, шуғулланувчиларнинг ҳар томонлама тарбияланишига эътибор беришлари шарт. Машғулот ва мусобақалар мобайнида шуғулланувчиларнинг ахлоқий ва маънавий тарбиясига алоҳида эътибор бериш керак.
5. Мураббийлар тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тизимиға спортнинг фалсафий, маънавий-ахлоқий, эстетик ва тарбиявий асосларини ўрганиш мазмунидаги маҳсус курсларни жорий қилиш керак.

Мустақил Ўзбекистон тобора ривож топиб, тараққий этиб бормоқда. Бундай ривожланишни дунё ҳамжамияти тан олаётганлиги барчамизни қувонтириши табиий, албатта. Эришилаётган ютуқлар замирида халқимизнинг азал-азалдан шаклланган қадриятлари, маънавий ва ахлоқий юксалиш борасидаги тажрибаси, меҳнатсеварлиги, Ватанни севиши каби хислатлар мавжуд. Биз азалий қадриятларимиз, асрлар мобайнида фарзанд тарбияси борасида тўпланган тажрибаларимизни асраб-авайлашимиз, авлоддан авлодга етказишимиз лозим. Шу билан бирга, ёшлар тарбиясида бугунги замон талабларига мос ёндашувларни амалга оширишимиз, унинг янгича усувларини амалиётга жорий қилишимиз ўринли бўлар эди. Ёшлар тарбияси ҳар доим дозарб ва муҳим вазифалардан бири бўлиб қолаверади.

### Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикасининг “Жисмоний тарбия ва спорт тўғрисида”ги Қонуни. 2015 йил 4 сентябрь. ЎРҚ-394-сон
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 4 ноябрдаги “Кураш миллий спорт турини ривожлантириш ва унинг халқаро нуфузини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4881-сонли Қарори.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 13 февралдаги “2019-2023 йиллар даврида Ўзбекистон Республикасида жисмоний тарбия ва оммавий спортни ривожлантириш Концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ти 118-сон Қарори.
4. Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. Фофур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи. Тошкент-2013. 54-55 бетлар.
5. Р.С.Саламов. Спорт машғулотининг назарий асослари. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2005. 16-бет.
6. Машарипов.Й.М. Спорт психологияси. Самарқанд – 2010. 41-бет.
7. Барқамол авлод тарбиясида жисмоний маданият ва спортнинг ўрни. Республика илми-амалий конференция материаллари тўплами. Самарқанд – 2014 йил. 127-128 бетлар
8. Жисмоний тарбия ва спортнинг янги давр муаммолари. Республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. Бухоро – 2013. 43-44 бетлар
9. Вояга етмаганлар назоратсизлиги ва қаровсизларининг олдини олишда оила, узлуксиз таълим муассасалари, маҳалла ва хукуқ-тартибот органларининг ўзаро ҳамкорлиги. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари тўплами. Гулистон – 2014. 231-233 бетлар

**“PEDAGOGIK MAHORAT” JURNALI UCHUN MAQOLALARНИ  
RASMIYLASHTIRISH TALABLARI****“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!**

1. “**PEDAGOGIK MAHORAT**” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.

2. E’lon qilinadigan maqolalarga bo‘lgan asosiy talablar:

- ✓ ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;
- ✓ maqolaning hajmi: adabiyotlar ro‘yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 4-8 betgacha;
- ✓ maqola nomi, annotatsiya (100-200 ta so‘z) va tayanch so‘zlar (8-10 ta) ingliz, o‘zbek va rus tillarida keltiriladi.

3. Maqola boshida UDK (udc.online internet saytidan olishingiz mumkin), mavzu, muallifning F.I.O. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo‘lsa, ularning har biri haqida to‘liq ma'lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko‘rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e’lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.

4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 11 shrift, maqola nomi bosh harflarda, interval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o‘ng tomon 2 sm.

5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.

6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiyoq ro‘yxatda ko‘rsatiladi. Matn ichidagi ko‘chirmadan so‘ng iqtibos olingan asarning ro‘yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu orinda kitob, to‘plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to‘liq nomi, nashr ko‘rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko‘rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomeri ko‘rsatiladi.

7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.

8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e’tirozlar bo‘yicha muallifga qayta ishslash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.

9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobjiy bo‘lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma‘ruzalari chop etilmaydi. **E’lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko‘chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.**

10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

11. Ijobjiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnnini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.

12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.

**Manzil:** O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro viloyati, 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy, bosh bino, 2-qavat, 219-xona.

**Web site:** [www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)

**E-mail:** [nashriyot\\_buxdu@buxdu.uz](mailto:nashriyot_buxdu@buxdu.uz)

**Telegram raqami:** +998 (97) 798-33-75

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4

2022-yil 4-may kuni Turkmanistonda Yaxshigeldi Kakayev nomidagi Neft va gaz Xalqaro universitetida Kimyo fanidan Online-olimpiada bo‘lib o‘tdi. Olimpiadada Rossiya, Buyuk Britaniya, Avstriya, Vengriya, Belarus, Xitoy, Koreya, Malayziya, Qozog‘iston, O‘zbekiston, Tojikiston, Turkiya, Ruminiya davlatlaridan 300dan ortiq talabalar qatnashdi.


O‘zbekistondan Toshkent davlat texnika universitetining Umumiy kimyo kafedrasи mudiri G.A.Ixtiyarova rahbarligida Geologiya va qidiruv kon metallurgiya fakulteti metallurgiya yo‘nalishi 2-kurs 10-20 guruhi talabasi X.X.Ibroximov Online qatnashdi. Olimpiada 2 xil A va V kategoriyada o‘tkazildi. A kategoriya Kimyo mutaxassisligi talabalari uchun V kategoriya nomutaxassis kimyogar talabalar uchun olib borildi.

V kategoriyadan 10 nafar talabalar 2 nafar Rossiya 2 nafar Belarus, 2 nafar Malayziya 2 nafar Ruminiya 1 nafar O‘zbekiston 1 nafar Qиргизистон talabalari diplomlar bilan taqdirlanishgan. O‘zbekistondan TDTU metallurgiya yo‘nalishi talabasi Ibroximov Xayrullo faxrli 3 o‘rin egallab diplom bilan taqdirlandi. Bu yutuq bilan k.f.d., prof. G.A.Ixtiyarovani va 2 kurs talabasi X.Ibroximovni muborakbod etamiz. Kelgusi ilmiy ishlarida muvaffaqiyatlar tilab Respublika olimpiadasida ham faxrli o‘rirlarni olishiga umid va ishonch bildiramiz.



Olimpiada G.A.Ixtiyarovaning yana bir nafar shogirdi Muxandislik texnologiyalari fakulteti Ekologiya va atrof muhit yo‘nalishi 1 kurs 138-21 talabasi S.Soliyev ham qatnashib va sertifikat bilan taqdirlangan.

## “PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 3-4



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi  
“PEDAGOGIK MAHORAT”  
ilmiy-nazariy va metodik jurnalni  
barcha ta’lim muassasalarini  
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnalni maktab,  
kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo’llanma sifatida xizmat qilishi  
shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o’tamiz, maqola qo’lyozmalari universitet  
tahririyanashriyot bo’limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy  
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 219-xona

### Tahririyat rekvizitlari:

Moliya vazirligi g’aznachiligi  
23402000300100001010  
MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275  
**BuxDU** 400110860064017094100079001

*Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!*

### PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik  
jurnal**

**2022-yil 3-4-soni (85-86)**

**2001-yil iyul oyidan  
chiqa boshlagan.**

**OBUNA INDEKSI: 3070**

### Buxoro davlat universiteti nashri

Jurnal oliv o’quv yurtlarining professor-o’qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o’qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo’ljallangan.

Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.

**Nashr uchun mas’ul:**  
**Nigora SAYFULLAYEVA**  
**Musahhih: Sarvinoz RAXIMOVA**  
**Muharrir: Mexrigiyoy SHIRINOVA**

Jurnal tahririyat kompyuterida  
sahifalandi. Chop etish sifati uchun  
bosmaxona javobgar.

Bosishga ruxsat etildi **28.08.2022**

Bosmaxonaga topshirish vaqtini  
**30.08.2022**

Qog’oz bichimi: 60x84. 1/8  
Tezkor bosma usulda bosildi.  
Shartli bosma tabog’i – 20,6  
Adadi – 100 nusxa  
Buyurtma № 466  
Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadreddin Salim Buxoriy” MCHJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: Buxoro shahri  
M.Iqbol ko‘chasi 11-uy.